ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

1-son
(Yanvar-Fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	2024-yil – yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili Yoshlarning ta’lim-tarbiya olishida malakali pedagog kadrlarning o‘rni va roli
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
S. Sheravatova	7	Ta’lim sotsiologiyasi fanini o‘rganish dolzarb ishtimoiy-pedagogik ehtiyoj sifatida
S. Israilov	11	Bo‘lajak iqtisodchilarni tayyorlashda fanlararo bog‘liqlik muammolari
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
M. Mahmudova	15	Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda matematik tasavvurlarini shakllantirish
R. Davletov	20	Dars mashg‘ulotlarida dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish
M. Ermamatova	23	Matematika darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish
Z. Avezmuratova, G‘. Ibadullayev	26	Astronomiya fanini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish
M. Abdullayeva, G. Bahriyeva	30	Bolalarning sanogen fikrlashida biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri (Kompyuter, telefon o‘yinlari misolida)
N. Isakulova	35	Bojxona sohasiga oid terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari
O. Avezmuratov	38	Ekliptikaning ekvatorga og‘maligini o‘rganish (kuzatish) uslubi
Z. Norqobilova	42	Zamonaviy she’riyatda Alisher Navoiy g‘azallariga taxmis bog‘lash an’anasi
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
R. Eshimov	46	Ta’lim tizimida kompyuter imitatsion modellar va ularning ahamiyati
A. Abdinobiyev, N. Axrorova	51	Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini oshirish
D. Xoshimova	54	Talabaning kreativ qobiliyatini shakllantirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish (Aniq fanlarni o‘qitish misolida)
N. Mannapova	63	Immunologiya fanini o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish
A. Karimov, N. Karimova	67	Multimediali kontent asosida o‘qitishning samarali texnologiyalari
R. Eshimov, J. Allayorov	72	Masofaviy o‘qitish tizimida zamonaviy axborot texnologiyalar vositalarini qo‘llashning didaktik muammolari
E. Xayriyev	75	Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish vositalari
V. Shukurov	79	Inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalarining ahamiyati
J. Hakimov	83	Kompyuter imitatsion model yaratish texnologiyasi
A. Homidov	89	O‘quvchining mediasavodxonlikni oshirishda kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning afzallik jihatlari

N. Xudoyberdiyeva	92	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida motivatsion texnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish (Texnologik ta’lim misolida)
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Alikulova	95	Oilada shaxs tarbiyasiga oid aksiologik yondashuvlarning tarixiy-tadrijiy tahlili
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
S. Ruzmetova	102	Oliy ta’lim tizimida muhandislik faoliyatini rivojlantirish va talabalarning muhandislik kasbiga qiziqishini oshirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
Sh. Sharipova	105	Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan boshlang‘ich gimnastika mashqlari texnikasi
D. Abdulhafizov	109	Yosh avlodni tarbiyalashda sharq yakkakurashlarining tutgan o‘rni
S. Bahodirov	112	15-16 yoshli futbolchilar o‘rtasida murakkab yuklamalarning maxsus tayyorgarligini takomillashtirish
Z. Rashidov	115	Yosh og‘ir atletikachilarda kuch va chidamliligini oshirishning pedagogik ahamiyati
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA
S. Jalilova, R. Abdullayeva	117	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralarining qo‘llash tartibi yuzasidan milliy va xorijiy tajriba (Qiyosiy tahlil)
		MAKTABGACHA TA’LIM
N. Tashbayev	123	Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim sifatining monitoringi xususiyatlari
Z. Yakubova	126	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy tarbiyaning ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta’siri
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
M. Pardayeva	130	Yangi ta’lim falsafasiga asoslangan maktab amaliyoti bo‘yicha tahlillar (Xitoy ta’limi tizimi misolida)
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
С. Ашуров	134	Государственно-частное партнерство – основа качества и эффективности образовательных услуг
		ПСИХОЛОГИЯ
Н. Цай	141	Основные факторы формирования личности (Психологический аспект)

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI YOSHLARNING TA’LIM-TARBIYA OLISHIDA MALAKALI PEDAGOG KADRLARNING O‘RNI VA ROLI

Ma’lumki, har qanday mamlakatning kelajagi yosh avlodning komil tarbiyasi va izchil taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Aynan shuning uchun ham, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta’minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda namoyon bo‘ladi. Bu esa, mamlakat yoshlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Keyingi yillarda O‘zbekistonda ham bu borada samarali siyosat olib borilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda keng qamrovli islohotlar olib borilayotganligiga barchamiz guvohmiz. Bu borada, yoshlar ta’lim-tarbiyasida, ilm-fanni zamon talablariga mos rivojlantirishda dadil qadamlar qo‘yildi. Uzoqni ko‘zlab, yaxshi niyatlar bilan tayyorlangan maqsadlarni amalga oshirish ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim va tarbiyasidan boshlanadi.

Ma’lumki, yoshlarning zamonaviy ta‘lim-tarbiya olishida malakali pedagog kadrlarning o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Prezidentimiz ushbu masalaning nechog‘lik dolzarb hamda jamiyat hayotidagi barcha soha va tarmoqlarni rivojlantiruvchi kuch yoshlar ekanligini inobatga olib, bu boradagi ishlarni maktab ta’limini chuqur isloh etishdan boshladi. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilarini zamonaviy bilim, tarbiya va kasb-hunar egasi qilib tayyorlaydigan malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash masalasini ilgari surdi.

Shuning uchun ham O‘zbekistonda jamiyatning eng faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yosh avlodga ertangi taraqqiyotni ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi, deb qaralmoqda. Buning natijasi ularoq, kreativ va zamonaviy fikrlaydigan, yuksak bilimli, g‘ayrat-shijoatli, mustaqil, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganligi hamda ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi.

Demakki, mukammal ta’lim tizimi Respublikamizning kelajakdagi intellektual imkoniyatlarini va rivojlanishini belgilab beruvchi o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta va mukammal o‘rgatish, har bir soha yo‘nalishlarini samarali

ta’lim-tarbiya asosida tashkil etish bilan bog‘liqdir. Bilimli va malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko‘tarish, jahon ta’limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim. Ushbu jarayonda o‘quv-uslubiy majmualar hamda ta’lim jarayonining didaktik hamda axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o‘quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash maqsadimizga erishining garovidir.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. O‘rganish va tahlillar zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligi tezkor rivojlanayotgan ta’lim jarayonlarining talablaridan orqada qolayotganini ko‘rsatmoqda. Bu holat pedagogik ta’limni rivojlantirish va uzluksiz ta’lim jarayonida pedagoglarni tayyorlashni yaxshilash bilan bog‘liq muammolarning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Muammolarni, ziddiyatlarni tan olish va ilmiy tahlil qilish, ularni bartaraf qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, izlanishlarning mazmuni va yo‘nalishlarini hamda pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishning tashkiliy-didaktik tizimini ilmiy tamoyillar asosida qayta ishlab chiqishning aniq choralarini belgilab berishga asos bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi shart-sharoitlarni ta’minlanishiga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

– o‘quvchilar o‘zini ko‘proq mustaqil va o‘zini o‘zi boshqaruvchi subyekt sifatida his etishi, erkin so‘zlashi va faol ishtirok etishi;

– o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilish va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonlarida ular yetakchi rolni egallashi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilishi;

– kelgusida o‘zi qiziqqan kasb-hunarni egallashi uchun ta’lim-tarbiya manbasi sifatida xizmat qiladigan hayotiy tajribalarni egallashi;

– ta’lim va mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishidagi mavjud sun’iy to‘siqlarni bartaraf etishi uchun muhim hayotiy muammolarni hal etish yo‘nalishida amaliyotni o‘rganishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishi uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishning kelajakdagi amaliy ahamiyati va zaruriyatini anglab yetishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishga yuqori darajada intilish hissiyotlarining vujudga kelishi;

– o‘qish, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va o‘zi tanlagan kasbni egallashning ahamiyati va nufuzini tushunib yetishi;

– refleksiv ko‘nikmalar shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirishi va rivojlantirishi;

– o‘z faoliyati natijalari va imkoniyatlari darajasini obyektiv baholashi, refleksiv tafakkurining rivojlantirishi;

– dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarga doimo ijobiy munosabatda bo‘lishning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetishi.

Bu vazifalar o‘tgan davr mobaynida muvaffaqiyatli ravishda bajarildi. Lekin hayot va kundalik turmush oldimizga qadamma-qadam yechilishi zarur bo‘lgan yangidan-yangi va xilma-xil vazifalarni ham qo‘ymoqdaki, biz bu ishga doimo hushyor va ongli munosabat bildirib borishimiz shart. Uzluksiz ta’lim tizimi pedagog o‘qituvchilarining

zamonaviy, kasbiy ta’lim texnologiyalarining tub mohiyatidan xabardor ekanliklari va ularni ta’lim jarayonida samarali hamda o‘rinli qo‘llay olishlari muvaffaqiyat kafolatidir.

Sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirishda uzluksiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasi, tayyorgarligi va fidoyiligi, uning yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig‘ini bajaradi, va yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Shunday ekan, o‘qituvchi o‘z oldiga quyidagi talablarni qo‘yishi maqsadga muvofiq:

– bilimli va e’tiqodli;

– har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega;

– kasbi bo‘yicha tegishli ma’lumoti bor (o‘z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi);

– pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo‘lishi;

– turli pedagogik vazifalarni tezda yechisha olishi;

– vaziyatlarni oldindan seza olishi (o‘rganishi va baholay olishi) kerak;

Ushbu talablarning qondirilishi esa pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, ‘‘... O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, aql qatlamlariga kirolmog‘i lozim.’’

Binobarin, o‘qituvchi faoliyati sinf yoki maktab doirasi bilangina cheklanmaydi. U jamiyatda ham odamlarga ziyo tarqatishi, yurtimizda kechayotgan o‘zgarishlarni sodda va ravon tarzda tushuntirib bera olishi, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat targ‘ibotchisi, hamda yetakchisi bo‘lishi lozim.

Ana shu ishlarimiz samarasida bugungi kun yoshlarining ta’lim-tarbiyasi yangi davr talablariga javob beradigan, mustaqil yurtimizni sevadigan, uning ravnaqi uchun xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarimizni e’zozlaydigan, qolaversa, insonlarni, ota-onasini, qadrlay oladigan, eng asosiysi, xalqini qadrlaydigan, ulug‘ ajdodlarimizga hurmat ila ularning izidan borib, munosib bilimli, salohiyatli yosh avlod bo‘lib kamol topishiga ishonamiz.

Zero, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol tarzda tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimizdir. Ularni ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yetuk, milliy qadriyatlarimizni oqilona idrok etadigan, tafakkuri keng insonlar etib kamolga yetkazish, g‘ururli va or-nomusli, fikr va g‘oyalarini mustaqil ravishda aniq ifoda eta oladigan shaxslar sifatida rivojlantirish oldimizda turgan dolzarb ijtimoiy vazifadir.

Sabohat SHERAVATOVA,
“Toshkent texnologiyalar universiteti” nodavlat oliy ta’lim muassasasi
o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

TA’LIM SOTSIOLOGIYASI FANINI O‘RGANISH DOLZARB ISHTIMOIY-PEDAGOGIK EHTIYOJ SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada ta'lim sotsiologiyasi ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida, xususan ishlab chiqarish, ijtimoiy tuzilma, siyosat, axloq va h.k.lar bilan o‘zaro ta'siri va harakatini, ta'lim muassasalari faoliyati, ulardagi pedagogik mutaxassislarning sifati, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash vazifalari kabi masalalarni o‘rganuvchi fan ekanligi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimi jamiyatda ijtimoiy-siyosiy tarzda rivojlanayotganligi, o‘zgarishlarning o‘ziga xos jihatlari, kutilayotgan natijalarni o‘rganish muhim ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Sotsiologiya, ta'lim sotsiologiyasi, ijtimoiy institut, ijtimoiy tuzilma, siyosat, axloq, uzluksiz ta'lim.

В статье подробно анализируются социология образования как наука, изучающая систему образования как социальный институт, в частности, ее взаимодействие с производством, социальной структурой, политикой, образованием, воспитанием. Также в статье подчеркивается, что социология образования изучает непосредственно развитие системы непрерывного образования, конкретные аспекты изменений в системе образования и ожидаемые результаты.

Ключевые слова. Социология, социология образования, социальный институт, социальная структура, политика, этика, непрерывное образование.

The article analyzes in detail the sociology of education as a science that studies the education system as a social institution, in particular, its interaction with production, social structure, politics, education, and upbringing. The article also emphasizes that the sociology of education directly studies the development of the lifelong education system, specific aspects of changes in the education system and expected results.

Key words. Sociology, sociology of education, social institution, social structure, politics, ethics, lifelong education.

Ta’lim sotsiologiyasining sotsiologik bilimlar tarkibidagi o‘rnini aniqlash zarurati, birinchi navbatda, ushbu fanning konstitutsiyasi muammolari bilan belgilanadi. Sotsiologiya (lotincha societas – jamiyat va yunoncha lógos – ta’lim so‘zlaridan) – jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy munosabatlar va ular bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganuvchi fan.

Universitetdagi sotsiologiya kursining maktabdagi ijtimoiy fanlar kursidan farqi shundaki, u jamiyatning rivojlanishidagi bilimlarni namoyon etadi. Shuning uchun ham sotsiologiya kafedralari uchun eng muhim kurslardan biri hamisha sotsiologiya tarixi kursi bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, maktabda ijtimoiy fanlar talabalarga faqat o‘rnatilgan ilmiy tamoyillarni taqdim etadi va turli ijtimoiy fanlar bilan bog‘liq: iqtisod, huquq, psixologiya, madaniyatshunoslik.

Ijtimoiy rivojlanish dinamikasi g‘oyasisiz va ilmiy tushunchalarning noaniqligini tushunmasdan, sotsiologiya sohasidagi mutaxassisning shaxsiyatini shakllantirish mumkin emas.

Agar boshqa gumanitar fanlar haqida gapiradigan bo‘lsak, sotsiologiya ulardan ushbu fanga xos bo‘lgan metodologiyadan foydalangan holda tahlil qilishni talab qi–ladigan statistik ma’lumotlarni yig‘ish shaklida amaliyotga tayanishi bilan farq qiladi. Masalan, ma’naviy hayot sotsiologiyasini o‘qitishda odamlarning madaniy hordiq chiqa-rish faoliyati haqida amaliyotda to‘plangan aniq ma’lumotlar bilan ishlash maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, sotsiologiya fani talabalari ijtimoiy hayotning turli jabhalariga taalluqli faktlarni to‘plash, ularni keyinchalik tahlil qilish maqsadida mustaqil tadqiqot olib borish zarurligi haqidagi g‘oyaga ko‘nikishlari kerak.

Tarix, siyosatshunoslik, dinshunoslik, san’at tarixi, huquq yoki filologiyadan farqli o‘laroq, sotsiologiyada asosiy e’tibor jamiyatning xususiy, o‘ziga xos va yagona emas, balki umumiy, tipik va xarakterli xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Sotsiologiya o‘z e’tiborini ijtimoiy hayotning biron bir sohasiga – siyosiy, iqtisodiy yoki ma’naviy sohaga qaratmaydi, balki barcha ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi. Sotsiologiyaning maktab va universitet tarix kurslariga (ijtimoiy qonuniyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ijtimoiy kurash nazariyalari) kirib borishini hisobga olgan holda ham buni tan olish kerak.

U jamiyatni koinotning bir qismi deb hisoblashga moyil emasligi, shuning uchun jamiyatda o‘ziga xos ichki tuzilishi, o‘z-o‘zini ko‘paytirish va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘ziga xos qimmatli ijtimoiy tizimni ko‘rganligi sababli u bilan birlashtirilmaydi.

Asosan falsafa, sotsiologiyada ildiz otgan uning nazariy asosi rolini belgilaydi. Lekin sotsiologni makon, tabiat, jonli va jonsiz materiya o‘z-o‘zidan qiziqtirmaydi. Agar yuqoridagilardan biri uning e’tiborini tortsa, unda jamiyat tashqi omillarni va ularni qanday qabul qilishidir.

Ta’lim sotsiologiyasi – ta’limni ijtimoiy institut sifatida, uning jamiyatdagi vazifalari va boshqa ijtimoiy institutlar bilan aloqalarini o‘rganadigan sotsiologiya sohasi. Zamonaviy ta’lim sotsiologiyasi ta’limni to‘rtta asosiy va o‘zaro bog‘liq shaklda ishlaydigan ko‘p bosqichli tizim sifatida o‘rganadi:

– u yoki bu ta’lim darajasiga jalb qilingan shaxslar o‘rtasida bilimlarni shakllantirish jarayoni sifatida;

– jamoatchilik ongini o‘zgartirish jarayoni sifatida;

– shaxsning ijtimoiylashuvi va uning tarbiyasi omili sifatida;

– shaxsiy ongning o‘ziga xos fenomenologiyasi sifatida.

Ta’lim ijtimoiy tizimning eng muhim elementi bo‘lib, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Bu tizim tubida g‘oyalar, ideallar, mafkuraviy pozitsiyalar shakllanadi. Bu umid va umidlarni shakllantirish sohasi bo‘lib, uning asosida odamlarning ijtimoiy ahamiyatga ega va ijobiy xulq-atvori shakllanadi, buning natijasida jamiyat va uning institutlari qurilishining eng muhim jihati yuzaga keladi. Bu tizim asosan alohida odamlarning taqdirini belgilaydi. Demak, ta’lim kelajakni loyihalash tizimidir.

Sotsiologik bilimlarning ushbu sohasi juda keng va sotsiologiya fanining bir qator bo‘limlari bilan kesishadi, jumladan:

– yoshlar sotsiologiyasi;

– shaxsni ijtimoiylashtirish muammolari va jarayonlari;

– yosh avlodni tarbiyalash masalalari;

– qadriyatlarning tuzilishi;

– jamiyatning turli guruhlari;

– jamiyatning ijtimoiy tuzilishini shakllantirish jarayonlari.

Rus voqeligini empirik tahlil qilish an'analari rivojlanmaganligi sababli, zamonaviy rus ta'lim sotsiologiyasi birinchi navbatda tashqi kuzatish usuliga asoslanadi va turli guruhlarning ta'lim turlariga yo'naltirilganligi dinamikasini, olingan ta'limning hayotga ta'sirini o'rganadi. Kamroq asarlar ta'limning o'zini hayot sohasi, madaniyat va ijtimoiy institut sifatida tushuntirish tushunchalarini izlashga bag'ishlangan.

Rossiya sotsiologiyasidan farqli o'laroq, nemis sotsiologiyasi keng ko'lamli muammolar bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega davlat qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish an'analarini ishlab chiqdi. Bu ta'lim sohasiga ham taalluqlidir, shuning uchun Germaniyada ta'lim sotsiologiyasining tuzilishi ushbu sotsiologiya sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini ochib beradi. Zamonaviy Germaniyada ta'lim sotsiologiyasi quyidagi yo'nalishlarni eng faol ko'rib chiqadi:

1. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish uchun talab qilinadigan vaqtlar qisqarayotgan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar sohasidagi o'zgarishlarning jadallashuvi munosabati bilan uzluksiz ta'lim masalasi jadal rivojlana boshladi. Bu tendensiya ijtimoiy munosabatlar tizimiga faol kirib bormoqda.

2. Kichik va o'rta biznes uchun kadrlar manbai bo'lgan malaka oshirish tizimi ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim masalalari (shu jumladan masofaviy ta'lim orqali) bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zining o'rganish predmetiga ega. Ushbu tadqiqot yo'nalishining muhim jihati turli sabablarga ko'ra, ishdan bo'shatilgan pensiya yoshidagi odamlarni qayta tayyorlash zarurati bilan bog'liq muammolar to'plamidir.

Zamonaviy Germaniya ta'lim tizimidagi ijtimoiy muammolar sotsiologlar tomonidan turli tomonlardan ko'rib chiqiladi.

Birinchidan:

– immigrantlarning mamlakat ta'lim tizimidagi o'rni va roli jadal o'rganilmoqda;

– muhojirlarning ta'lim muassasalaridagi xatti-harakatlarini o'rganadi;

– bolalari nemis maktablarida o'qiyotgan muhojirlarning oilalaridagi o'zgarishlar o'rganiladi;

Ikkinchidan:

– ta'lim tizimidagi ijtimoiy tengsizlik muammosi o'rganiladi;

– sotsiologlar ushbu hodisaning o'sishi fenomenini qayd etadilar.

Uchinchidan:

– nemis ta'lim tizimida gender masalalari o'rganiladi (bu ko'p jihatdan tengsizlik muammosi bilan bog'liq).

To'rtinchidan:

– sotsiologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishi – Germaniya ta'lim tizimidagi nogironlar va ijtimoiy nochor guruhlarning boshqa vakillarining ahvolini o'rganish.

Ta'lim sotsiologiyasida muhim o'rinni yoshlarning qadriyatlar tizimi va kasbiy yo'nalishlari bilan bog'liq savollarga javob topishga bag'ishlangan tadqiqotlar egallaydi. Ushbu tadqiqotlar talabalarning universitetlarda o'qishdan umidlarini baholash bilan bog'liq va o'quv jarayonini tuzatishga imkon beradi.

Ta'lim sotsiologiyasida sotsial-madaniy yondashuvning mohiyati quyidagi tezislarda ifodalanishi mumkin:

– madaniyat inson tarbiyasining zaruriy sharti va natijasidir;

– ta'lim (shu jumladan asosiy ilmiy tamoyillarni ishlab chiqish) ham madaniy qadriyatlarni egallashdir;

– ta'limni insonning madaniyat olamiga kirish yo'li deb hisoblash mumkin.

Tadqiqot an’analarida ta’limni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘rganishga muayyan yondashuvlar shakllangan.

Birinchi yondashuv jamiyatda bilimli shaxsning me’yoriy ideali sifatida shakllantirilgan ta’lim maqsadiga asoslanadi. Bu sanoat hayotning barcha jabhalariga kirib boradi, lekin har doim tegishli tarixiy davrga kiritilgan. K. Mangeym ta’lim maqsadi nafaqat davr, balki mamlakatda ham o‘z aksini topadi, dedi.

Shunday qilib, ta’limning rivojlanish bosqichlari me’yoriy ideallarga muvofiq ko‘rib chiqilishi kerak. Masalan, Sparta va Afinada asosiy qiziqish ‘‘mahoratli’’ odamni (Spartada – jangchi, Afinada – notiq) ko‘paytirish edi.

Sotsialistik jamiyatda esa ideallik kommunizmning axloqiy jihatdan izchil quruvchisidir.

Ikkinchi yondashuv ta’limning rivojlanishi madaniyat turiga asoslanishini nazarda tutadi.

Bu yondashuv tarafdorlari M. Mead, G. Simon, S. Coombs. Ularning ta’kidlashicha, sivilizatsiya rivojlanishi dominant turlarning o‘zgarishi bilan ajralib turardi, unga ko‘ra madaniyatning uzatuvchisi sifatida ta’lim o‘zgaradi.

Madaniyatning uch turi mavjud:

a) postfigurativ (urf-odatlar, urf-odatlar madaniyati, kundalik amaliyot, tabiiy ijtimoiy muhit ta’lim subyekti sifatida harakat qilganda. Inson kundalik ish jarayonida o‘rganadi. Bilim tashuvchidan ajralgan emas);

b) urf-odatlar madaniyati o‘z o‘rnini bosganda tasviriy tip ratsional bilimlar madaniyati, me’yorlar, qadriyatlar, qonunlar;

c) ta’lim ommaviy bo‘lib, bilim manbaidan ajraladi. Bilimli shaxsni shakllantirish asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Астафьев Я.У., Шубкин В.Н. Глава 13. Социология образования в СССР и России Социология в России: Учеб. пособие для студентов вузов Отв. ред. В.А. Ядов. – М., 1998. – С. 345-368-695.

2. Иудин А.А., Шпилёв Д.А. Современная немецкая социология (обзор). Образование в современной Германии. – Н. Новгород: НИСОЦ, 2010. – С. 63. – ISBN 978-5-93116-126-6.

3. Иудин А.А., Шпилёв Д.А. Современная социология: объясняющая и аналитическая // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия “Социальные науки” : Сборник. – Нижний Новгород, 2014. – № 2 (34). – С. 54-61.

4. Нечаев В.Я. Новые подходы в социологии образования Социологические исследования. – 1999. – № 11. – С. 84-91.

5. Овсянников А.А. Система образования в России и образование России Мир России : Журнал. – М., 1999. – Т., 8, № 3. – С. 73-132.

6. Mirzamaxmudova N.T. (2023). Fanlararo integratsiya asosida bo`lajak iqtisodchilarni kasbiy kompetentligini oshirish shart-sharoitlari. International journal of education, social science & humanities. finland academic research science publishers, 11(10), – P. 411-415.// https://doi.org/10.5281/zenodo.8432735

Suxrob ISRAILOV,
Toshkent davlat itisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK IQTISODCHILARNI TAYYORLASHDA FANLARARO BOG‘LIQLIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak iqtisodchilarni tayyorlashda fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Muallif tomonidan fanlararo bog‘liqlik iqtisodchilarni tayyorlashda metodologik asos bo‘lishi, mutaxassislarni tayyorlashda fanlararo bog‘liqlikning zaruriyati ilmiy jihatdan asoslangan hamda ushbu masalada xorijiy olimlarning ishlari batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Fanlararo bog‘liqlik, bo‘lajak iqtisodchi, metodologik asos, zaruriyat, kompetentlik, shakllantirish, konstruktiv malakalar.

В статье раскрывается научная и практическая значимость обеспечения междисциплинарной связи в подготовке будущих экономистов. Обосновывается необходимость междисциплинарности что, междисциплинарность является методологической основой подготовки экономистов, а также подробно анализируются работы зарубежных ученых по данному вопросу.

Ключевые слова. Междисциплинарная связь, междисциплинарность, будущий экономист, методологическая основа, необходимость, компетентность, шаблонизация, конструктивная компетентность.

The article reveals the scientific and practical significance of ensuring interdisciplinary communication in the training of future economists. The need for interdisciplinarity is substantiated, that interdisciplinarity is the methodological basis for the training of economists, and the work of foreign scientists on this issue is analyzed in detail.


Key words. Interdisciplinary communication, interdisciplinarity, future economist, methodological basis, necessity, competence, templating, constructive competence.

Respublikamizda oliy ta’limni modernizatsiyalash, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy tayyorgarlik sifatini tajribalar asosida takomillashtirish, iqtisodiyot oliy talim muassasalarida talabalarni iqtisodiy va statistik jihatdan tayyorlashni yanada takomillashtirish, talabalarda yuqori darajali kompetentlikni shakllantirishning me’yoriy asoslari yaratildi. Bunda “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta’lim sifatini tubdan oshirish” yo‘nalishi ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, bo‘lajak iqtisodchilarning iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishga, fanlararo aloqadorlik prinsiplarini ta’lim jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlari kengayadi.

Bo‘lajak iqtisodchilarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanish muammolariga bag‘ishlangan ayrim taqdimot ishlarini ko‘rib chiqamiz. R.B. Lotshteyn va N.I. Gorbachovalarning tadqiqot ishlari bo‘lajak iqtisodchilarni tayyorlashda fanlararo bog‘lanish muammosini hal qilishga muhim hissa qo‘shgan. R.B. Lotshteyn bo‘lajak iqtisodchining konstruktiv malakalarini shakllantirishga fanlararo bog‘lanishning ta’sirini o‘rgangan. N.I. Gorbachevaning tadqiqotida bo‘lajak iqtisodchilarni mustaqil bilim olishga, olingan bilimlardan o‘qitish va tarbiyalash amaliyotida foydalanishga tayyorlash samaradorligini oshirishda, iqtisodchilarning og‘zaki va yozma nutqni kasbiy darajada egallashlarida iqtisod fakultetida o‘qitiladigan majburiy fanlarning imkoniyatlari o‘rganilgan. Har ikkala tadqiqotchi juda muhim bo‘lgan fanlararo bog‘lanishlarning kasbiy-iqtisodiy

yo‘naltirilganligini o‘rganishgan. Bunday yondashuv oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonining pedagogikaga yo‘naltirilganligiga oid tadqiqotlar sabab bo‘ldi.

O‘qitishda fanlararo bog‘lanish muammolari izchil, xususan N.N. Baranskiyning (“Iqtisodiy geografiyani o‘qitish metodikasi”) o‘quv qo‘llanmasida tahlil qilina boshladi, unda o‘sha davrda shu muammoga oid o‘tkazilgan tadqiqotlarning ba’zi natijalari aks ettirilgan edi. Biz tadqiqotimiz davomida bo‘lajak iqtisodchilarda iqtisodiy bilimni egallashi lozim bo‘lgan omillarni quyidagicha aks ettirdik.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga iqtisodiy bilim berish omillari

G.I. Shukin tahriri ostidagi “Pedagogika” darsligida mualliflar “o‘quv fanlarining mazmuni vaqt bo‘yicha mos tushganida emas, balki o‘quv fanining ichki mantiqi asosida o‘rnatilishi kerak bo‘lgan” fanlararo bog‘lanish muammosiga ancha batafsil to‘xtaladilar. Bu yerda fanlararo bog‘lanishlar ta’lim oluvchilarning bilimlarida yaxlitlikni, tizimlilikni yaratish zarurati sababli kiritiladi. “Tizimlilik tamoyilining mazmuni ta’lim oluvchilar o‘zlari egallayotgan bilimlari yaxlit, yagona tizimning elementlari sifatida anglashlaridan iborat” va keyinroq: “fanlararo izchil bog‘lanishni o‘rnatmasdan turib, haqiqiy tizimni yaratish mumkin emas”.

“Oliy ta’lim pedagogikasi” darsligida fanlararo bog‘lanishlar o‘qitishning amaliy vazifalari sifatida qaraladi. M.A. Verb fanlararo bog‘lanishlarning muhimligini tan olgan holda ularning tushuncha va ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘lanishlarini hisobga olish zarurligidan kelib chiqib, o‘quv dasturlarini tuzishdagi rolini ajratib ko‘rsatadi. U shuningdek, “fanlararo bog‘lanishlar umumlashtiruvchi kurslarning dasturlarida to‘liq aks etgan” deb ta’kidlaydi.

Iqtisodki, pedagogika darsliklarida fanlararo bog‘lanish muammosi ko‘plab pedagogik muammolarning bittasi sifatida o‘rganiladi. Biroq shu kungacha bu muammo darsliklarda nisbatan kam, eng asosiysi, anchagina mavhum, yetarlicha aniq bo‘lmagan shaklda bayon qilinadi. Albatta, pedagogika darsliklari fanlararo o‘zaro bog‘lanishlar tamoyilini aniq ko‘rinishda hal qilinishi kerak bo‘lgan oliy ta’lim darsliklarining butun majmuasini aks ettirishga qodir emas. Biroq, fanlararo bog‘lanish tamoyilining o‘zi tizimlilik tamoyili sifatida qaralishi mumkinmi? Chamasi, fanlararo bog‘lanish tamoyilini o‘ta muhimlik nuqtayi nazaridan aks ettirayotib, pedagogika darsliklarida, masalan, uning turli jihatlari va namoyon bo‘lish shakllarining ahamiyatini ko‘rsatib berish kerak.

Kontseptual-mantiqiy (o‘quv dasturlarini, darsliklarni tuzish), tarbiyaviy-psixologik (o‘qitish jarayonida ilmiy dunyoqarashni maqsadga yo‘naltirib, bosqichma-bosqich shakllantirish, uning shu maqsadlarga mos kelishi, ularga erishish usullari, erishilgan natijalarni tekshirish), pedagogik-tashkiliy (o‘quv rejalarini tuzish, iqtisodchilar uchun fanlararo bog‘lanishni ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-metodik tadbirlar). Bu jihatlarning ma’lum shartlariga, ular orasidagi qat’iy chegarani ko‘rsatish mumkin emasligiga (ular o‘zaro bog‘langan) qaramasdan, ularning ajratib ko‘rsatilishi iqtisodchilarga fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish bo‘yicha aniq vazifalarni yaxshiroq anglab yetishga yordam berdi.

Fanlararo bog‘lanish, didaktik muammo sifatida o‘qitish mazmuni va metodlariga taalluqli bo‘lganligi sababli ko‘pqirrali xususiyatga ega. Chamasi, shuning uchun ham ba’zi tadqiqotchilar fanlararo bog‘lanishni didaktik tamoyil deb hisoblaydilar. Masalan, Yu. Sharov, N.A. Lashkareva, V. Zagvyazanskiy, N.G. Ogurtsov fanlararo bog‘lanishni didaktik tamoyil deb hisoblaydilar. I.D. Zverev bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “Fanlararo bog‘lanish, avvalo, turli fanlar bo‘yicha ta’lim mazmunining o‘zaro moslashganligini, ham ta’limning umumiy maqsadlari, ham har bir fanning o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni optimal hisobga olingan holda qurish va materialni tanlab olishni ko‘zda tutadi”.

F.I. Potapovning “Qishloq o‘rta kasb-hunar bilim yurtida o‘qitish jarayonida fanlararo bog‘lanishlar” nomli kitobi darsda bir-biriga yaqin fanlar bo‘yicha bilimlarni amalga oshirishga bag‘ishlangan. Unda nafaqat fanlararo bog‘lanish muammosining dolzarbligi va o‘qitish jarayonida uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan, balki har bir darsda bir-biriga yaqin fanlarning biror mavzusi bo‘yicha bilimlardan foydalanishga oid aniq misollar va tavsiyalar berilgan. Bir-biriga yaqin fanlarning mazmunidan berilgan dars uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan materialni tanlab olish bunday rejalashtirishning ijobiy tomoni hisoblanadi.

Alohida ilmiy maqolalar va tadqiqotlarda ham fanlararo bog‘lanish muammosi odatda, fanlararo bog‘lanishning biror bir funksiyasini alohida tomonini batafsil tadqiq qiladilar. Oxirgi o‘n yil ichida iqtisodiyot nazariyasi, ilmiy tadqiqot metodologiyasining fundamental muammolarini ishlab chiqishga e’tibor kuchaydi. Bu iqtisodchilar duch keladigan obyektlarning murakkabligi tadqiqotga yondashuvlarga mos kelmayotganligi sababli yangi tadqiqot metodlarini izlab topishni talab qildi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiy fanlari bo‘yicha shunga mos tahlillar o‘tkazilgan. Ba’zi tadqiqotlar va maqolalarda iqtisodiy-ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishga yo‘naltirilgan fanlarning murakkab o‘zaro bog‘lanishlari o‘rganilgan:

– biznes matematika-iqtisodiy matematika;
– amaliy matematika-ekonometrika;
– oliy matematika-diskret matematika va boshqalar.

Bu bog‘lanishlarning ilmiy-amaliy ahamiyati, ularning ta’lim oluvchilarining bilishga qiziqishlarini rivojlantirishga ta’siri ochib beriladi va iqtisodiy bilim berish komponenti hosil bo‘ladi (1-rasm)



2-rasm. Talabalarga iqtisodiy bilim berish komponentining tuzilishi

Iqtisodiy bilimlarning ularning bir xil fan ichida birlashishini va turli fanlar o‘rtasidagi muvofiqligini belgilovchi fan asoslari va fanlararo sohalarga oid bilimlar “oltin

jamg‘armasi” ta’siriga yo‘naltirilgan tegishli sohalarini tahlil qilish ayniqsa samaralidir. Bunday tahlil iqtisodiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlar tizimi hamda iqtisodiy oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak iqtisodchilarni kasbiy-iqtisodiy va metodik tayyorlashda aks etishi kerak bo‘lgan zamonaviy o‘qitishning umumiy ilmiy asoslarini aniqlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, OTMda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish to‘g‘risida nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular quyidagilarga yo‘naltirilgan:

OTMlarida, o‘quv fanlarini o‘qitishda atrof-olamdagi real o‘zaro bog‘lanishlarni aks ettirishning obyektiv zaruratini asoslash;

– fanlararo bog‘lanishda, talabalar dunyoqarashini shakllantirish;

– funksiyasi hamda talaba va bo‘lajak iqtisodchining aqliy rivojlanishidagi rolini aniqlash;

– fanlarning o‘zaro bog‘lanishi OTM talabalarining bilim va malakalar tizimini shakllantirishga ijobiy ta’sirini aniqlash;

– OTMda turli o‘quv fanlarini o‘qitishning muvofiqlashtirilgan metodikasini ishlab chiqish;

– talabalar va iqtisodchilarni OTMlarida fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirishga kasbiy-iqtisodiy va metodik tayyorlashga urinishdan iborat.

Umuman olganda, mazkur muammoning tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisod-matematik turkumdagi fanlararo bog‘lanishini tizimli va rejaga asosan amalga oshirish, bu fanlarni o‘qitish jarayonining mazmunini qurishga hamda umumiy tashkil qilish konstruktiv yondashuvlardan biri ekanligi aniqlandi. Adabiyotlarning tahlil shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy fanning umumiy tasnifi insoniyat bilishining uchta asosiy obyektlari – iqtisod, statistika va ekonometrika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni aks ettiradi va ular mos ravishda voqelikning real obyektlari haqidagi bilimlarni hosil qiladigan va zamonaviy fanning asosiy tarmoqlarida iqtisodiyot, statistika va ekonometrika fanlarini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лотштейн Р.Б. Межпредметные связи в подготовке учителя (на материале английского языка и профилирующих предметов в педагогическом неязыковом вузе): Дис. ... канд. пед. наук. − Алма-Ата, 1976.

2. Горбачева Н.И. Взаимосвязь учебных дисциплин как условие эффективности профессиональной подготовки будущего учителя (на материале исторических факультетов педвузов).: Автореф. ... дис. канд. пед. наук. − Алма-Ата, 1981.

3. Зверев И.Д. Взаимная связь учебных предметов. − М., 1977.

4. Зверев И.Д., Максимова В.П. Межпредметные связи в современной школе. − М.: Педагогика, 1981. − С. 160.

5. Зверев И.Д. Межпредметные связи как педагогическая проблема. Межпредметные связи в процессе преподавания основ наук в средней школе. − М., 1975.

Muxlisa MAHMUDOVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversiteti talabasi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish texnologiyalari, fanlar bilan bog'liqlik, o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif boshlang'ich sinf matematika fanining mazmuni va tizimliligini takomillashtirish hamda har bir bo'lim, mavzularni o'qitishda o'ziga xos metodlarni tanlash haqida o'z qarashlarini bayon etgan.

Kalit so'zlar. Pedagogika, psixologiya, boshlang'ich sinf, matematika, samaradorlik, faoliyat, nazariy bilimlar, metod, metodlarni tanlash.

В статье анализируются технологии преподавания математики в начальных классах, межпредметная связь, пути повышения эффективности обучения. Также автор высказывает свои соображения по поводу совершенствования содержания и структуры математики в начальной школе, выбора методов обучения каждого раздела и темы.

Ключевые слова. Педагогика, психология, начальная школа, математика, эффективность, активность, теоретические знания, метод, выбор методов.

The article analyzes technologies for teaching mathematics in primary grades, interdisciplinary communication, and ways to increase the effectiveness of teaching. The author also expresses his thoughts on improving the content and structure of mathematics in primary school, and the choice of teaching methods for each section and topic.

Key words. Pedagogy, psychology, primary school, mathematics, efficiency, activity, theoretical knowledge, method, choice of methods.

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimliligini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek, o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir:

– o'qitish asosi bo'lgan matematika bilan;
– pedagogika;
– psixologiya;
– boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...).

Boshlang'ich matematika o'qitish kursi o'quv predmetiga aylangan. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari:

– ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi;
– nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi kerak;

– o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatishi kerak;

– ta’limni insonparvarlashtirish;

– matematika o‘qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o‘zining qadr-qimmati, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko‘rsatib beradi;

– o‘qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo‘lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog‘lab o‘qitishni ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo‘yilgan “o‘quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanish, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni berish, turmushga, kasb-hunarga yo‘naltirish, kasblarni ongli tanlashga o‘rgatish” kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat.

Shunday qilib, boshqa har qanday o‘quv predmeti kabi matematika boshlang‘ich kursi matematika o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi.
2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o‘qitishning umumta’limiy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilarga ma’lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish; – bu bilimlar matematika fani to‘g‘risida o‘quvchilarga yetarli darajada ma’lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o‘qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o‘rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.

b) o‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo‘ladi;

Matematikani o‘rganish o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish, o‘z fikrini aniq, ravshan va lo‘nda qilib bayon eta bilish malakalarini o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak.

Bunday bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang‘ich matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

b) o‘quvchilarda matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni tarbiyalash; boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

d) o‘quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish.

Matematika darslarida o‘rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o‘quvchilarni atroflicha fikrlashga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning amaliy maqsadi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

a) o‘quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o‘rgatish, o‘quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatish;

b) matematika o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, malakalarini shakllantirish (bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan);

d) o‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish.

O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak. O‘qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o‘quvchilardan individual yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang‘ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli maktab uchun mo‘ljallangan) o‘qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko‘proqdir. Boshlang‘ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo‘yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g‘oyasiga ko‘ra ma’lum mavzu bo‘yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o‘quvchining bu mavzuni faqat o‘zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to‘la aniqlangan darajada o‘zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi. Amaliyotda o‘qituvchilar ko‘pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik ijodkorona tuzilgan bo‘lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g‘oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o‘rgatuvchi mashina o‘qituvchining intuitsiyasini, ya’ni hissiyotini almashtira olmaydi. Shunday qilib, didaktik materiallarni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, mazkur o‘qituvchi uchun eng yaxshi usul bo‘lmasligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umum metodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

O‘qituvchilarni matematika kursini o‘rganishga tayyorlash. I-IV sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lgan ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo‘yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog‘liq. Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya’ni past bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o‘quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O‘qituvchi quyidagi tartibda o‘quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo‘shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?
4. >, <, = belgilarini ishlata oladimi?
5. Noma’lumlar bilan berilgan qo‘shish va ayirishda bu noma’lumlarni topa oladimi?
6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?
7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?
8. O‘ngga, chapga, kam, ko‘p, og‘ir, engil, teng kabilarni farqlay oladimi?

9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og‘irlik o‘lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

Bolalarni o‘qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunday ishlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so‘z yuritamiz.

“Fikriy hujum” metodida o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“Yalpiy fikriy hujum” metodi J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchilardan iborat sinflarda qo‘llash mumkin. Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruhlar a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi Ye.A. Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya. Bo‘sh tomonidan qayta ishlangan. Metodning mohiyati quyidagidan iborat:

– jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

– o‘quvchilarda ma’lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodidan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich: Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilarni o‘zida biriktirilgan hamda son jihatdan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish;

2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash;

3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi);

4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish;

5-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularning to‘g‘riligi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayoni etilishi kabi mezonlar asosida baholash;

6-bosqich: Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona

xulosaga kelish.

Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

– o‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;

– vaqtni iqtisod qilish;

– har bir o‘quvchini faollikka undash;

– ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

“6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“6x6x6” metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

– guruhlarning har bir a’zosining faol bo‘lishiga undaydi;

– ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta’minlaydi;

– guruhning boshqa a’zolarining fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;

– ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi.

Eng muhimi, mashg‘ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruhlarda qo‘llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o‘rtasida “6x6x6” metodi qo‘llanilganda vaqtni ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday mashg‘ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko‘p vaqt talab etiladi. So‘z yuritilayotgan metod qo‘llanilayotganda mashg‘ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mavjud. “6x6x6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo‘lishni talab etadi. Guruhlarning to‘g‘ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to‘g‘ri hal etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot matbaa kontserni. 1997.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan) Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori (1999-yil 16-avgust) Xalq ta’limi j. 1999. № 5.

Rasulbek DAVLETOV,
Urganch davlat universiteti,
“Fakultetlararo umumtexnika fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

DARS MASHG‘ULOTLARIDA DASTURIY TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash dars mashg‘ulotlarida dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish, zamonaviy dasturiy ta’lim vositalari turlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha muallif o‘z takliflarini bildirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy dasturiy ta’lim vositalari, AKT, Sweet Home 3D dasturi, Windows, MacOS, Linux va Solaris operatsion tizimlar.

В статье подробно анализируются использование программных средств обучения при преподовании предметов подготовки к профессиональной деятельности, виды современных программных средств обучения. Также автор высказал свои предложения по качественому, плодотворному использованию программных средств обучения.

Ключевые слова. Современные программные средства обучения, ИКТ, программное обеспечение Sweet Home 3D, операционные системы Windows, MacOS, Linux и Solaris.

The article analyzes in detail the use of software training tools in teaching subjects of preparation for professional activity, types of modern software training tools. The author also made suggestions on the high-quality, fruitful use of software training tools.

Key words. Modern learning software, ICT, Sweet Home 3D software, Windows, macOS, Linux and Solaris operating systems.


Darhaqiqat, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ish jarayonlarini kompyuterlashtirish, kompyuter texnikasi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etish juda katta iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishishga asos bo‘la oladi. Bu masala bugungi kunda yurtimizda Davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Oxirgi bir necha yillar davomida qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar jamiyatni axborotlashtirish sohasida ham ilg‘or mamlakatlardan ortda qolmaslik yo‘lida olib borilayotgan katta hajmdagi tashkiliy va amaliy ishlardan dalolat beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyaning integratsiyasi fanga ko‘rgazmali yondashuvni kuchaytirish, o‘quv jarayonini muammoli, ijodkor va tadqiqotli xarakterda o‘tishiga, fanni mazmunan yangilanishiga, talaba bilan individual shug‘ullanishga uning o‘z ustida mustaqil ishlashiga, o‘qish jarayonini rivojlantirishga undaydi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonida talabalarni faqat nazariy bilimlari bilan cheklab qolmasdan balki, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, ularning har tomonlama yetuk kadrlar qilib tayyorlashida muhim rol o‘ynaydi. Talabalarning mutaxassislik fanlari bo‘yicha bilimlarini yuqori bo‘lishi hamda amaliyot bilan bog‘liq ravishda tashkil etish axborot texnologiyalarni turli metodlarini qo‘llash masalasi ustida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, dasturlash mashaqqatli aqliy mehnat bo‘lib, jadal rivojlanayotgan dunyomiz sharoitida insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dasturlash tillari yordamida foydalanuvchi o‘zini dasturiy mahsulotlarini yaratish, standart foydalanuvchi dasturlarida bajarib

bo‘lmaydigan nostandart vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sweet Home 3D dasturi yordamida darslarda o‘quvchi-talabalar mavzularni o‘rgatishda axborot texnologiyalar vositasida o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish metodikasi o‘rganish ko‘zda tutilgan.


Sweet Home 3D dasturi yangi xonadon sotib olish, ko‘chirish, yaqinlashib kelayotgan ta’mirlash, qayta qurish. Bu voqealarning barchasi yoqimli ishlar bilan bog‘liq. Lekin ko‘pincha faqat tajribali dizayner mebelni ta’mirlash va o‘rnatishdan keyin turar joy yoki xona qanday ko‘rinishini tasavvur qilishi mumkin. Tayyor bo‘lmagan odam uchun mebel va rang sxemalarini aqliy ravishda tanlash qiyin va hamma ham mebelni hamma narsaga mos keladigan va ayni paytda keng bo‘lishi uchun tartibga sola olmaydi. Biroq hozirgi vaqtda har qanday, hatto eng murakkab interyerni kompyuterda har bir kishi o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan oddiy dasturlardan foydalangan holda bir necha daqiqada modellashtirish mumkin. Endi qog‘ozga cheksiz diagrammalarni chizishingiz va u yoki bu tartib variantini tanlab, ichki makonni chizishingiz shart emas.

Bunday barcha dasturlarda ishlash shunga o‘xshash sxemalar bo‘yicha qurilgan: siz xonaning rejasini tuzasiz, unga dasturda mavjud bo‘lgan mebel modellarini qo‘shasiz va oxirida xona yoki xonadon qanday ko‘rinishini ko‘rasiz. Sweet Home 3D dasturi birinchi navbatda soddaligi bilan qiziq. U har qanday foydalanuvchi va past tizimli kompyuter talablari uchun do‘stona, tushunarli interfeysga ega. Bundan tashqari, ushbu dastur bepul, uning to‘liq versiyasini http://www.sweethome3d.com saytidan yuklab olish mumkin. Dastur 11 tilda, shu jumladan, rus tili ham mavjud. Bundan tashqari, dasturning xususiyatlari uning platformasini, ya’ni Windows, MacOS, Linux va Solaris operatsion tizimlari uchun versiyalari ham mavjud.



Bir xonali xonadonning rejasi (1-rasm)

Oddiyligiga qaramay, Sweet Home 3D dasturi har qanday xonaning ichki qismini modellashtirish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalarni o‘z ichiga oladi: xonadan turar joygacha, shuningdek, barcha kerakli ichki buyumlarning modellari (deraza, eshiklar, mebel va chilangarlik). Bundan tashqari, dasturga qo‘shimcha model kutubxonalari, 3D grafik fayllari ko‘rinishidagi individual modellar (masalan, 3DS modellari) ham yuklanishi mumkin. Ya’ni, dastur kutubxonasida kerakli ichki elementni, masalan, kreslo yoki divanning ma’lum bir turini topmasangiz, Internetda mos keladigan uch o‘lchamli modelni topishingiz, uni yuklab olishingiz va dasturga import qilishingiz, yuklab olingan modelni siz modellashtirgan virtual xonaga joylashtirishingiz



Bir xonali xonadonning ichki tuzilishi (2-rasm)



Bir xonali xonadonning umumiy ko‘rinishi (3-rasm)

mumkin. Ichki dizayn uchun mo‘ljallangan deyarli barcha dasturlarda ish ketma-ketligi bir xil: birinchi navbatda, siz xonani (xona yoki turar joy) modellashtirasiz, devorlarni, eshiklarni, derazalarni belgilaysiz, so‘ngra mebel qismlarini, yorug‘lik manbalarini (qandillar, pol lampalari, shamchiroq va boshqalar) joylashtirasiz. Tayyor reja bo‘yicha pol va devorlarni bo‘yash orqali kerakli interyerni yaratasiz.

3D ko‘rish oynasi simulyatsiya qilingan xonaning 3D ko‘rinishini o‘z ichiga oladi. Unda siz ishingiz natijasi interyerni imkon qadar haqiqatga yaqinroq ko‘rasiz .Uch o‘lchamli ko‘rinish oynasi ikkita displey rejimiga ega: Yuqoridan ko‘rinish va Virtual tashrif. Yuqoridan ko‘rish rejimida: siz xonaning uch o‘lchamli tasvirini yon tomondan ko‘rasiz, tashqi va ichki devorlar alohida ichki obyektlarni to‘sib qo‘yishi mumkin, ammo derazadagi uch o‘lchamli tasvirni istalgan o‘q atrofida aylantirish mumkin. Uch o‘lchamli bo‘shliq. Virtual tashrif rejimida foydalanuvchi, go‘yo simulyatsiya qilingan xonaga kiradi va uni ichkaridan ko‘radi. O‘z ishining natijasini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rish uchun virtual tasnifchining balandligi va ko‘rish burchagini o‘zgartirish mumkin. 3D ko‘rinishi oynasida kattalashtirish imkoniyati mavjud emas. Siz faqat xonaning uch o‘lchamli ko‘rinishini kattalashtirishingiz yoki kichraytirishingiz mumkin, mos ravishda uning tafsilotlari vizual ravishda kamayadi yoki ortadi. 3D “Вид” Ko‘rinish oynasidagi barcha manipulyatsiyalar (kattalashtirish, kichraytirish yoki istalgan yo‘nalishda aylantirish) oynaning yuqori chap burchagida joylashgan o‘qlar to‘plami ko‘rinishidagi boshqaruv yordamida amalga oshirilishi mumkin. Biroq buni sichqoncha bilan qilish qulayroq: g‘ildirakni kattalashtirish yoki kichiklashtirish, chap tugmani bosib ushlab turganda sichqonchani harakatlantirish ko‘rinishni siz belgilagan yo‘nalishda aylantiradi.

Har qanday dastur bilan muvaffaqiyatli va samarali ishlash uchun siz uning interfeysini yaxshi tushunish kerak. Shunday qilib, Sweet Home 3D dasturi yangi boshlanuvchilar uchun ham juda oddiy bo‘lib, bir necha daqiqa yoki soat ichida har qanday tartibdagi xonadonlar uchun turli xil interyerlarni taqlid qilish imkonini berishi mavjud. Shuningdek, o‘quvchi-talabalarda quyidagilarni amalga oshiradi:

– mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi;

– aniqlik va diqqatlilikni oshiradi;

– topqirlik va zukkolik fazilatlarini shakllantiradi;

– tasavvur qilishni, ijodkorlikni va algoritmik fikrlashini rivojlantiradi.

Shu bois, bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quvchi-talabalarning dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik, kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar – T., 2008.

2. Sweet Home 3D Руководства пользователя F1.

3. Sweet Home 3D видео урок.

5. Presentation-3d.com видео урок.

Maftuna ERMAMATOVA,
Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti assistent o‘qituvchisi

MATEMATIKA DARSLARIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada matematika darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga doir turli ta'lim texnologiyalari tahlil qilingan. O‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda turli darajadagi masalalarni yechish, o‘quvchilarga masalalar yechimlarini izlab topishga o‘rgatish bo‘yicha fikrlar bayon etilgan. Muallif matematika darslarida nostandart masalalarni tanlab olish, ularni yechish usullari bo‘yicha o‘z takliflarini bildirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Mantiq, fikrlash,maqsad, qobiliyat, ijodiy, mustaqil fikrlash, jarayon, idrok, axborot, pedagogik tayyorgarlik, o‘qitish, tayyorlik.

В статье анализируются различные образовательные технологии формирования умений логического мышления старшеклассников на уроках математики. Автором представлены идеи решения математических задач разного уровня, научить учащихся находить нестандартные решения математических задач, формированию навыков логического мышления учащихся.

Ключевые слова. Логика, мышление, цель, способность, творческий, самостоятельное мышление, процесс, восприятие, информация, педагогическая подготовка, обучение, готовность.

The article analyzes various educational technologies for developing logical thinking skills of high school students in mathematics lessons. The author presents ideas for solving mathematical problems of different levels, teaching students to find non-standard solutions to mathematical problems, and developing students' logical thinking skills.

Key words. Logic, thinking, goal, ability, creative, independent thinking, process, perception, information, pedagogical training, teaching, readiness.

Buyuk yunon faylasufi Suqrot “O‘zingni bilsang – olamni bilasan” degan edilar. Biz hamma vaqtda, kundalik hayotimizda, ilmiy faoliyatimizda ham fikr yuritamiz. Lekin, mantiq ilmini bilmasdan turib fikr yuritishimiz mushkul. Mantiq olamdagi qonuniy, zaruriy bog‘lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurning ichki aloqadorligi, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bizni hech bir narsaga befarq bo‘lmay, sinchkov qarashga, har bir voqea-hodisaga xolis baho berishimizga, shu yo‘l bilan muntazam va izchil fikr yuritishimizga va har qanday oqilona fikrlarimizni isbotlay bilishimizga o‘rgatadi. Mantiq ilmi qonun-qoidalarini atroflicha o‘rganish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish orqali amaliy hayot uchun kerakli xulosalar chiqarish, davr ruhini anglash, voqea-hodisalarni haqqoniy tahlil qilish oson kechadi.

Bugun mamlakatimizda innovatsion rivojlanish sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fan yutuqlarini raqamlashtirish va yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilishga qaratilgan islohotlar samara beryapti. Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish

O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Shu boisdan mamlakatimizda innovatsion rivojlanish sohasidagi qator dasturlar, chora-tadbirlar tizimli va izchil amalga oshirilyapti. Yoshlarimiz mashg‘ulotlar davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yuqori ilmiy natijalarga ega bo‘lgan laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish yuqoridagi ishlarni amalga oshirishning bosh poydevori bo‘lib hisoblanadi.

Fanlararo bog‘lanish hodisasi ko‘p o‘lchamli. U mazmunining ko‘p qirraliligi, o‘qitish metodlari va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu esa yuqori sinf o‘quvchilarida matematika darslaridagi faoliyati bilan o‘zaro bog‘lanish asosini tashkil qiladi. O‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish muammosining yuzaga kelishi matematika fanini ta’lim jarayonning o‘quvchi ongida real dunyoning turli hodisalari to‘g‘risidagi bilimlarni alohida tizimli shakllantirishga yordam beradigan tuzilmaviy predmeti sababli paydo bo‘lgan.

Ma’lumki, fanlararo bog‘lanish hodisasi ko‘p o‘lchamli. U mazmunining ko‘pqirraliligi, o‘qitish metodlari va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu esa yuqori sinf matematika darslarida o‘quvchilarni o‘quv-bilish faoliyati bilan o‘qituvchilarning o‘qitish faoliyatining o‘zaro bog‘lanishi asosini tashkil qiladi. O‘quvchilarga matematika darslarini o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish muammosining yuzaga kelishi ta’lim jarayonining o‘quvchilar ongida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradigan tuzilmaviy predmet paydo bo‘ladi.

Matematika fani har qanday fanni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Maktabda matematika ta’limining maqsadlaridan biri o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam berishdir.

Keng ko‘lamli psixologik-pedagogik adabiyotlarda (J.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, N.F. Talizina, P.Ya. Galperin, N.I. Chuprikova, JI.M. Fridman, A.M. Matyushkin va boshqalar) mantiqiy tafakkurni rivojlantirish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va bu ko‘nikmaga o‘rgatish bilimlarni uzatish kabi maktabning zaruriy vazifasidir. Matematika maktab o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi, bu yerda bilimlarni o‘zlashtirish va bu bilimlarni o‘zlashtirish uchun mantiqiy fikrlashini amalga oshirilishi mumkin, ammo ular yetarli darajada qo‘llanilmaydi. O‘qitish mazmunida va o‘quvchilarning matematik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarda maktab o‘quvchilarini asosiy mantiqiy tushunchalar bilan tanishtirish yoki ularda mantiqiy savodxonlik va mantiqiy madaniyatni rivojlantirish ko‘rsatilmagan. Matematikani o‘rganish natijasidagina o‘quvchilardan geometrik miqdorlarni hisoblash masalalarini yecha olish, masalalar yechish jarayonida argumentlar olib borish, hisoblashga oid, kattaliklar orasidagi funksional bog‘lanishlarni aniqlashga oid, bog‘lanishlarni grafik talqin qilishga oid, shuningdek, isbotlash masalalarini yecha bilish talab etiladi.

Masalalarni yechishda fikrlash jarayonlari quyidagicha usullarda amalga oshiriladi:

– avvalo hal etilishimiz mumkin bo‘lgan muammoni aniqlab olamiz. Chunki muammo bo‘lmasa o‘quvchi hech narsa haqida o‘ylamaydi. Hal etish kerak bo‘lgan masalani yechish uchun uning mohiyatini to‘la tushunish, masala shartini tahlil qilish, nima berilgan va nimani topish kerakligi haqida mulohaza yuritilishi kerak;

– masalani yechish uchun kerak bo‘lgan bilimlarni (qoida, dalil, qonun, teorema, ta’rif) esga olamiz;

– gipoteza, ya’ni taxminlarni o‘rtaga tashlaymiz, taxminlardan eng to‘g‘risi tanlab olamiz;

– masalani yechamiz, natijani tekshiramiz.

1-masala: “O‘nta sham yonib turibdi, ularni ikkitasi o‘chirildi. Nechta sham qoldi?” Mulohaza yuritishni quyidagicha olib boramiz:

1) Ikkita sham o‘chirilsa, nechta sham yoniq qoladi? – “8” ta.

2) Yonib turgan sham nima qiladi? – “eriydi”.

3) Biroz vaqtdan keyin nima bo‘ladi? – “erib tugaydi”.

4) Unda nechta sham qoladi? – “ikkita”.

2-masala: Alisherning uyida qo‘ylar va tovuqlar boqiladi. Alisher sanab ko‘rganda ularning boshlari 44 (ta), oyoqlari esa 152 (ta) chiqda. Ularning uyida nechta qo‘y va nechta tovuq bor?

Yechish: 1-usul: 1) 44x4=176(ta), 2) 176-152=24 (ta) tovuqlarning oyoqlari, 3) 24:2=12 (ta) tovuqlar soni, 4) 44-12=32 (ta) qo‘ylar soni.

2-usul: Alisherni uyidagi qo‘ylar sonini X deb olamiz. Jami qo‘y va tovuqlar sonidan qo‘ylar sonini ayirsak, tovuqlar soni kelib chiqadi, ya’ni tovuqlar sonini 44-x deb olamiz. Qo‘ylarda 4 (ta), tovuqlarda 2 (ta) oyoqlar borligini inobatga olib, tenglama tuzamiz.

$$4x+(44-x)*2=152$$
$$4x+88-2x=152$$
$$4x-2x=152-88$$
$$2x=64$$
$$X=64:2$$
$$X=32 \text{ (ta qo‘ylar)}$$
$$44-32=12 \text{ (ta tovuqlar)}$$

Javob: Alisherni uyida 30 (ta) qo‘y va 12 (ta) tovuq bor.

Mantiqiy fikrlash yuqori sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash madaniyatini o‘stirishga, masala yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni (qoida, dalil, qonun, teorema, ta’rif) ishga solishga, to‘g‘ri fikr yuritishga, bahs munozara paytida o‘zining va boshqalarning fikr-mulohazalariga tanqidiy munosabatda bo‘lishga, hozirjavoblikka, suhbatdoshning fikr-mulohazalaridagi xatolarni anglashga yordam beradi. Shuningdek, haqiqatni aniqlsh, uni yoqlab chiqish, asoslash uchun mantiqiy qoidalardan foydalana bilish, o‘z fikrini lo‘nda va ishonarli qilib bayon etish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev. M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum (OO‘Yu uchun). – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2004 y.

2. Habib R.A. O‘quvchilarni matematik tafakkurini shakillantirish. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1980 y.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnolo–giyalar. – T.: ‘‘Fan va texnologiya”, 2008 y. – 27-28 b.

4. Azimovna M.S., Shokhrukhovich U.F., Sodirovich U.B. Problems in the implementation of quality management systems in small business enterprises //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T., – P. – 54-57 b.

5. Ermamatova M. “10-11-sinf o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari “Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman, – 451 b.

6. Ermamatova M.E. “Matematika darslarida yuqori sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish omillari”, “Amaliy va tabiiy fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari: muammo, yechim va yutuqlar” Respublika ilmiy-amaliy anjuman –154 b.

Zebo AVEZMURATOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti,
“Fizika-matematika va texnologik ta’lim fanlari” kafedrasi dotsenti v/b.
G‘ayrat IBADULLAYEV,
Urganch davlat pedagogika instituti,
“Fizika-matematika va texnologik ta’lim fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada Internet tarmoqlari va ‘‘Stellarium’’ dasturi asosida astronomiya fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish, kuzatishlar olib borish, xususan, Oy yordamida sayyoralarni osmon yoritkichlari orasidan topish va ularni harakatini o‘rganishni vizual kuzatish uslubi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Internet, Oy, astronomiya, obyekt, sfera, Yupiter, sayyora, yulduz, mobil ilovalar, Stellarium.

В данной статье описывается методика организации самостоятельного обучения астрономии на основе интернет-сетей и программы ‘‘Stellarium’’, проведения наблюдений, визуальные наблюдения, нахождением планет среди небесных светил с помощью Луны и изучения их движения.

Ключевые слова. Интернет, Луна, астрономия, объект, сфера, Юпитер, планета, звезда, мобильные приложения, Stellarium.

This article describes the methodology of organizing self-study of astronomy based on Internet networks and the ‘‘Stellarium’’ program, conducting observations, visual observations, finding planets among the heavenly bodies with the help of the Moon and studying their movement.

Key words. Internet, Moon, astronomy, object, sphere, Jupiter, planet, star, mobile applications, Stellarium.

Astronomiya fani tajribalar orqali o‘rganishga asoslanganligi sababli, amaliy kuzatish fani hisoblanib, osmon jismlarining tabiatiga tegishli barcha xulosalari va kuzatishga oid materiallarini o‘rganish yordamida olinadi. Astronomiya fanini o‘qitishda dasturiy ta’lim vositalardan foydalangan holda, o‘qituvchiga o‘rganilayotgan materialni yanada aniqroq taqdim etishi va umumiy o‘rta ta’lim maktabida hech qanday kuzatishga oid jihozlar bo‘lmagan taqdirda ham, vizual tarzda astronomik kuzatishlarni amalga oshirish mumkin.

Astronomik jarayonlarni kuzatishda dasturiy ta’lim vositalar va mobil ilovalar orqali yuqoridagi noqulayliklarni bartaraf etish mumkin. Bundan tashqari, Astronomiya ta’limida dasturiy ta’lim vositalari asosida o‘quv jarayonini mazmunan takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyalarini oshiradi. Ta’lim jarayonida dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish ta’limda samaradorlikka erishish vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtdan 5 ming yil avval ham kishilar 5 ta sayyorani (Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturn) yulduzlardan farqli ravishda harakat qilishini kuzatganlar. Planetalar ichida yaqqol ko‘zga ko‘rinadigan Venera va Yupiterdir. Venerani topish oson va kuzatish qiziqarli bo‘lib, teleskopdan kuzatganda uning Oyga o‘xshash fazalarini, doira shaklidagi o‘lchamlarini tasavvur qilish mumkin bo‘lgan. Oy Yerning tabiiy yo‘ldoshi bo‘lib, Yerga eng yaqin katta yoritkich hisoblanadi. Osmon sferasida Quyoshdan keyin


turib, uni barcha qiynalmasdan topadi va hamma biladigan osmon obyekti hisoblanadi. Oy yordamida osmon sferasidagi sayyoralarni kuzatish jarayoni orqali topish eng oson usul hisoblanadi. Oy Yer atrofida harakatlanib osmon sferasida 29, 53 sutkada bir marta aylanib chiqib, har bir aylanish sinodik davr (yangi oydan keyingi oyga o‘tishi) davomida, har bir sayyoraning yonidan oyning bir sanasida yaqinlashib o‘tish hodisasini “astronomik kalendarlar”, Stellarium dasturi asosida o‘quv yili boshida, Oyning sayyoralar yonidan o‘tish sanasini har bir kuzatish uchun oldindan rejalashtirilgan jadvalini tuzib olish orqali har oyda va yil davomida o‘quvchilar bilan amaliy kuzatishlar olib borish mumkinligi, ko‘pgina kuzatishlarni mustaqil olib borish o‘quvchi, talabalarga yuklatilsa yaxshi samara beradi.

Mustaqil ta’limda astronomiya fanidan past o‘zlashtiradigan o‘quvchilarning ham qiziqishi va faolligining oshishi yoshlarning bo‘sh vaqtlari qiziqarli va mazmunli o‘tishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi ko‘rsatilgan sanalar uchun kuzatilishi mumkin bo‘lgan Stellarium dasturidan olingan manzaralar tasvirlari keltirilgan. Bunda asosan o‘quv yilini boshi, oktyabr, noyabr oylari (osmon ochiq, iliq va osoyishta bo‘ladi) tanlandi. 1-rasmda 2024-yilning 6-oktyabr sanasida, kechqurun, Quyosh botgandan keyin, soat 18:40 minutlardan boshlab G‘arb tomonda Venera sayyorasi yangi Oy yonida ko‘rinishi Stellarium dasturidan olingan tasviri keltirilgan. Bu holatni o‘sha sanada bir necha soat kuzatish mumkin.

Keyingi sanalarda Oy Venera yonidan Sharq tomonga siljib ketadi, Venera esa G‘arb tomonda bir necha oylar chiroyli ravshan bo‘lib ko‘rinib turadi hamda Venera bilan Oyni birgalikda ko‘rinishi 5-noyabr, 5-dekabr sanalaridi ham kuzatish mumkin va kuzatuvchi talabalarga Venera juda tanish bo‘lib qoladi.




1 rasm. Oy Venera yoniga yaqinlashish jarayonidan foto lavha.



2-rasm. Oy yonida Saturn sayyorasining yaqinlashish jarayonidan foto lavha.


Yuqoridagi 2-rasmdan ko‘rinadiki, 2024-yil 14-oktyabr, soat 22:12 vaqtdan

boshlab Oy va Saturn sayyorasi janub tomonda ko‘rinadi. Oy Saturn sayyorasi juda yaqin joylashishgan. Pastroqda Famalgaut ravshan yulduzi ham (janubiy baliqning alfa yulduzi) ko‘rinib turadi. Bunday manzara qiziqarli va kamdan-kam hollarda ro‘y beradi. Keyingi sanalarda Oy sharq tomonga siljib ketadi. Saturn va Famalgaut bir necha oylar davomida ko‘rinish beradi. Har 29,5 sutkada Oy ularni yonidan o‘tib turadi. Natijada kuzatuvchilar uchun bu yoritgichlar tanish bo‘lib qoladi.



3-rasm. Oy yonida Yupiter sayyorasining yaqinlashish jarayonidan foto lavha.


Yuqoridagi 3-rasmdan ko‘rinadiki, 2024-yil 20-oktyabr, soat 22:12 vaqtdan boshlab, sharq tomonda Oy Yupiter yoniga keladi va ularni yonida Aldaberan ravshan yulduzi ham ko‘rinadi. Ko‘rsatilgan sanada Oy va Yupiter birgalikda harakatlanib ertalab janubiy g‘arb tomonga o‘tadi. Yarim kechada kulminatsiyada o‘tadi. Har qanday yoritgichni janub tomon (kulminatsiya)da kuzatish qulay bo‘lgani kabi Yupiterni ham kulminatsiyada kuzatish ancha qiziqarli bo‘ladi. Masalan, teleskop yoki durbin yordamida Yupiter Sayyorasini kuzatish jarayonida buyuk Italyan fizigi, astronomi va mexanigi Galileo Galiley asos solgan 4 ta tabiiy yo‘ldoshlarini ko‘rish mumkin (Io, Yevropa, Ganimed, Kallisto). Ular Yupiter markazidan o‘tgan chiziqda joylashib chiroyli manzara ko‘rinishida bo‘lib, ba’zi kunlari 3 ta yoki 2 ta yo‘ldoshi ko‘rinadi. Ko‘rinmay qolgan yo‘ldoshlar Yupiter fonidan yashirinadi. Bu jarayonni aniq qilib aytadigan bo‘lsak, Yupiterning yo‘ldoshi oldiga, yo orqa tomoniga o‘tib ketadi.



4-rasm. Oy Mars sayyorasiga yaqinlashish jarayonidan foto lavha.

4-rasmda Oy Mars sayyorasi yoniga yaqinlashgan holat ko‘rsatilgan bo‘lib 2024-yil 23-oktyabr soat 23:30 dan boshlab Sharq tomonda ko‘rinadi va tun bo‘yi kulminatsiyadan o‘tib, ertalabkicha kuzatish mumkin. Ularni yonida Pollux ravshan yulduzi ko‘rinib turadi.

Keyingi sanalarda Oy sharq tomonga siljib ketadi. Mars va Pollux ravshan yulduzi bir necha kun birgalikda harakat qilib, Mars sayyorasi asta-sekin Polluxdan sharq tomonga siljiy boshlaydi. Bundan xulosa shuki, sayyoralar yulduzlarga nisbatan sharq tomonga siljishinini ko‘rish mumkin.



5-rasm. Oy Merkuriy sayyorasiga yaqinlashish jarayonidan lavha.

5-rasmdan 2024-yil 4-noyabr, soat 18:05 boshlab Oy, Merkuriy yonida Garb tomonda ko‘rinadi. Rasmdagi sanada g‘arb tomonda Quyosh botish arafasida Merkuriy, Venera va Oy chiroyli ko‘rinish manzarasi keltirilgan. Keyingi sanalarda Oy sharq tomonga siljib ketadi, Merkuriy esa g‘arb tomonda kundan kunga avval ko‘tarilib keyin ko‘rinmay qoladi. Bu kuzatishlarni olib borishda hamisha talabalar bilan birga bolish imkoniyati bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun kuzatish uslubini o‘quvchi va talabalarga darslarda tushirtirib, ularga mustaqil kuzatish ishi vazifa qilib beriladi.Kuzatish natijalari darslarda, to‘garaklarda yoki o‘sha guruhlarda ochilgan telegram kanallari orqali muhokama qilib borilsa fanni o‘zlashtirishda bu usullar ancha yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadazimov M. Uzluksiz ta’lim tizimida astronomiyani o‘qitishning muammolari/ Yangi asr avlodi. –T., 2016. – 355 b.

2. Kamolov I.R va boshqalar. Astronomiya o’qitish metodikasi, darslik, Buxora – 2023 y.

3. Avezmuratova Z.A., Qahhorov S.Q, Avezmuratov O. Astronomiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari EHM dasturi // EHM uchun dastur. № DGU16765. − T., 11.06.2022 y.

4. Avezmuratova Z.A, Qahhorov S.Q, Avezmuratov O. “Innovatsion texnologiyalar asosida Astronomiya fanini o‘qitishda amaliy kuzatishlarni tashkil qilish” nomli o‘quv qo‘llanma.

Muyassar ABDULLAYEVA,
“TMC INSTITUTI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi, ‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulhayo BAHRIYEVA,
“TMC INSTITUTI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi, ‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BOLALARNING SANOGEN FIKRLASHIDA BIOLOGIK VA IJTIMOIY OMILLARNING TA’SIRI (Kompyuter, telefon o‘yinlari misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada anatomiya va fiziologiya fani pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy bazasi ekanligi, bola shaxsi va hulqining rivojlanishidagi o‘rni hamda o‘quvchilarning sanogen fikrlashini rivojlantirish, o‘quvchilar sog‘ligi bilan bog‘liq bo‘lgan havfni oldini olishga e’tibor qaratish haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bolalarda stressli vaziyatlarga sabab bo‘layotgan ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar va kasalliklarni oldini olish masalalari haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Anatomiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, irsiyat, biologik tafakkur, sanogen, patogen, kiber o‘yinchi, internet.

В статье подробно анализируется анатомия и физиология человека как естественно-научная основа педагогики и психологии, ее роль в развитии личности и характера ребенка, развития саногенного мышления учащихся, уделению внимания профилактике опасности, связанная со здоровьем обучающихся. Автором представлены мнения и соображения по поводу проблем, связанных с социальными факторами, вызывающими стрессовые ситуации у детей, профилактики заболеваний.

Ключевые слова. Анатомия, физиология, педагогика, психология, наследственность, биологическое мышление, саноген, патоген, кибер-игрок, интернет.

The article analyzes in detail human anatomy and physiology as the natural scientific basis of pedagogy and psychology, its role in the development of the personality and character of the child, the development of sanogenic thinking in students, and paying attention to the prevention of dangers associated with the health of students. The author presents opinions and considerations regarding problems associated with social factors that cause stressful situations in children, and disease prevention.

Key words. Anatomy, physiology, pedagogy, psychology, heredity, biological thinking, sanogen, pathogen, cyber gamer, internet.

Yangi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash nihoyatda nozik va katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchining shakllanish jarayonini sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. Bola shaxsining rivojlanishida tarbiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagogika fanining obyekti sifatida komil insonni tarbiyalash jarayoni yotadi. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida Taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi va beshinchi yo‘nalishlarida sifatli ta’lim-tarbiya masalasi doimo e’tibor markazida bo‘lishi, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat’’ konsepsiyasini amalga oshirishda yosh-larni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalashga ustivor ahamiyat qaratilishini ta’kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida sog‘lom avlod tarbiyasi haqidagi muhim g‘oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, uning axloq odob doirasidagi yetukligi, ijtimoiy voqeiylikka, insonlarga munosabati turlicha bo‘ladi. Insonning kamolga yetishida avvalo irsiyat, ta’lim-tarbiya, mehnat qilishga bo‘lgan ishtiyoqi, faollik darajasi muhim ahamiyatga ega. Odam shaxsi va xulqining rivojlanishida biologik omillarning roli kattadir. Inson organizmi anatomik tuzilishi, fiziologiyasi va shartsiz reflekslarni ota-onasidan meros qilib oladi. Pedagogika bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika bolalarda oliy nerv faoliyatining rivojlanishi, birinchi va ikkinchi signal sistemalari, tayanch harakat a’zolari, yurak-qon tomir va nafas a’zolari faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarga tayanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda, bolalardagi muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish muhim ahamiyatga ega. Bolaning kamolga yetishi va shaxs sifatida shakllanishida irsiyatning o‘rnini inkor etib bo‘lmaydi. Bu esa shaxsning o‘ziga xos belgilari: aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkuri, axloq-odobi, bilim olishi, hunar o‘rganishi, jamiyatdagi tutgan o‘rnini anatomik, fiziologik va psixologik jihatlarda ifodalaydi. Organizmning anatomiyasi va uning fiziologiyasi borliqni tashkil etsa, pedagogika va psixologiya esa shu borliqni boshqaradi. Bolalardagi anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlari, masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, darsdagi faolligi, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni tez anglab yetishi, intiluvchanligi, muloqotga oson kirishishi nerv faoliyati tizimiga bog‘liq. Bolaning psixik xususiyati nihoyatda ko‘p nerv hujayralaridan tashkil topgan kulrang modda qatlamidan iborat bosh miya katta yarim sharlarining faoliyati tufayli vujudga keladi. Bolaning anatomik va fiziologik tuzilishidagi buzilishlar uning psixik taraqqiyotiga ta’sir etib, uning rivojlanishdan orqada qolishiga olib kelishi mumkin. I.P. Pavlovning birinchi va ikkinchi signal sistemasi to‘g‘risidagi ta’limoti ilmiy psixologiya uchun katta ahamiyatga ega. Bunda xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, xarakteri, qiziqishlari) o‘qituvchining diqqat e’tiborida bo‘lishi lozim.

Psixologiya, tibbiyot va pedagogika sohasidagi mutaxassislar tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina savollarga javob topishga harakat qilishmoqda. Zamonaviy psixologiyada mazkur holatlar sanogen fikrlashning mohiyati, tabiati va uni rivojlantirish mexanizmlari mamlakatimizda E.G‘. G‘oziyev, V. Karimova, M.G. Davletshin, B. Qodirov, Z. Nishonova kabi psixolog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Hamdo‘stlik va rivojlangan mamlakatlarda Yu.M. Orliv, R. Stenberg, K. Stenberg, S.N. Morozyuk, E.B. Miroshnik kabi olimlar tadqiqot ishlarida sanogen fikrlashning ijtimoiy mazmuni, shaxsning mustaqil ravishda fikrlash qobiliyatining pedagogik va psixologik asoslariga alohida e’tibor qaratishgan.

Sanogen fikrlash – farovonlik va sog‘likka erishishda donolikni ifodalaydi.

Sanogen fikrlash sog‘lomlashtiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va ruhlantiruvchi fikrlash tarzi demakdir. O‘z-o‘zini tushunish darajalarining ruhiy salomatlik bilan o‘zaro bog‘liqligini quyidagi holatlarda ifodalash mumkin:

a) organizm kasalligi (psixofizik salomatlik) insonni ijtimoiy shaxs sifatida cheklaydi, ruhiy salomatlikning alohida ijro etuvchi darajasiga ta’sir qiladi, ya’ni, shaxsiy rivojlanishi shaxs rivojlanishi bilan belgilanadi;

b) insonning o‘zini o‘zi tushunish darajalari, har biri ma’lum, o‘zaro bog‘liq (organizm – muhit, ijtimoiy o‘ziga xos ijtimoiy faoliyat, shaxsiy ichki faoliyat) munosabatlar tizimiga ega;

v) organizm darajasida tashqi ta’sir yoqimli yoki yoqimsiz hislar nuqtayi nazaridan

baholanadi, alohida darajada, o‘z-o‘ziga munosabati boshqalar munosabatiga hamda ularning o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlari tabiatiga bog‘liq bo‘ladi.

Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining ong va tana salomatligining eng ishonchli yo‘llaridan biridir. Yu. Orlov mulohazasiga ko‘ra, sanogen tafakkurning asosiy ahamiyati o‘z-o‘zini kamolga yetkazish, maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish, ya’ni fel atvor hamohangligi, o‘z-o‘zi va atrofdagilar bilan kelishish, shuningdek, yomon odatlarni bartaraf qilish, o‘z his tuyg‘ularini boshqarish, o‘z ehtiyojlarini nazorat qilish deb hisoblaydi.

Ushbu usul patogen fikrlash tajribasidan voz kechib, yangi aqliy odatlarning o‘zlashtirilishini ta’minlash bilan birga qalbni azob-uqubatlar va halokatli his-tuyg‘ulardan tozalaydi. Sanogen fikrlash insonning turli xil hayotiy sharoitlardan kelib chiqadigan inqirozli holatlar, salbiy his-tuyg‘ular va kuchli hissiy stress holatidan kelib chiqadigan turli xil psixosomatik va tana kasalliklari: saraton, qalqonsimon bez, gastrit, oshqozon yarasi, revmatoid artrit, teri va boshqa kasalliklar psixologik ko‘mak yordamida, kimyoviy dori-darmonlarsiz hal qilishga imkon beradi. Sanogen fikrlash patogen fikrlashdan farq qilib, sog‘lom tafakkurga ega bo‘lgan inson ham xafa bo‘ladi, lekin bir-ikki daqiqa davomida haqorat yoki xafagarchilikni boshdan kechiradi, vaziyatni tushungandan keyin hissiy stressga tushmasdan muvozanat holatiga qaytadi, shuning uchun sanogen fikrlashni davolovchi deyish o‘rinlidir. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarning sanogen fikrlashini rivojlantirish o‘quvchilarning sog‘ligi bilan bog‘liq bo‘lgan xavfni oldini oladi. Buning uchun ularga o‘quvchilar bilimini xolis baholash, o‘quv yuklamalari va dars jadvallarining yoshga bog‘liq holda tashkil etilishi, jismoniy harakatsizlikni oldini olish, bolalarning sog‘lig‘iga e’tiborli bo‘lishdek va inson salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar, ya’ni patogen fikrlardan xalos etish kabi mas’uliyat yuklanadi. Hozirgi texnika taraqqiy etib borayotgan bir paytda stressli vaziyatlarga sabab bo‘layotgan, bolalarda uchraydigan telefon bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar va kasalliklarni oldini olish katta ahamiyatga ega.

Global axborot makoniga teran ko‘z bilan qarasak, unda mavjud barcha axborotlarni ham foydali va beziyon deb bo‘lmaydi. Xususan, ayni paytda internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi, pornografik mazmunga ega saytlar, shuningdek, zo‘ravonlik va yovuzlik ruhidagi kompyuter o‘yinlari borki, ular milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lib, yosh avlod tarbiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli juda yuqori.

Ayni davrda yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g‘oyalarning kirib kelishi ayniqsa, internet tarmog‘i orqali ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Bu jarayon farzandlarimizning kompyuter texnologiyalari, turli kompyuter o‘yinlariga qiziqishining ortishi bilan ham bog‘liq. Ularning bu qiziqishlaridan buzg‘unchi g‘oya targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Boshqacha aytganda, ‘‘o‘yinbozlik’’ jamiyatning ma’lum bir qismiga tahdid ekanligini yaxshi biladigan ekstremistlar o‘smirlar, yoshlar ongini shu yo‘l bilan egallashga harakat qilmoqda.

Kibero‘yinchining uzoq vaqt hatto sutkalab o‘yinda ishtirok etishi ruhiy holatida kuchli psixologik stressni olib kelishi, vaqtida ovqatlanmasligi va uxlamasligi natijasida uyqusining buzilishi, tez-tez cho‘chib uyg‘onishi, o‘yin syujetlari uyqusida davom etishi natijasida miyaning yetarli dam olmasligi, qo‘l mushaklari va barmoqlarning doimiy bir xil harakatlarni bajarishi natijasida kuchli toliqishi, monitorga doimiy tikilib o‘tirishi natijasida ko‘z qorachiqlarining zararlanishi, ko‘z qurishi, ko‘zda ortiqcha narsa bordek his qilish, qizarish, qichishish, xira ko‘rishni boshlash (digital eye strain yoki computer

vision syndrome), bo‘yinning qotib qolishi, bel og‘rig‘i, bolalarda ko‘z olmasining normadan tez o‘sishi, tananing qolgan a’zolari uzoq vaqt harakatsiz qolishi natijasida tayanch a’zolarining muammolari paydo bo‘lishi, ovqat hazm qilish tizimining buzilishi, ortiqcha vaznning ortib borishi va bularning natijasida juda ko‘p yondosh kasalliklarning paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Kiber o‘yinchi o‘yin vaqtida bir minutda 400 ga yaqin funksiyalarni barmoq yordamida bajaradi, yurak chastotasining maksimal qisqarishi 160-180 martani tashkil etsa, bu o‘z navbatida yurakni kuchli zo‘riqish bilan ishlashga majbur qiladi.

Kiber o‘yinchilar orasida eng keng tarqalgan jarohatlardan biri bu karpal tunnel sindromidir. Bunday kasallikka chalingan bemorlarda ko‘pincha bosh barmog‘i, ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarda, bilak va qo‘llarda og‘riq, epchillik va tutqich kuchini yo‘qolishi kuzatiladi. Tayanch organlarining uzoq vaqt harakatsiz qolishi hamda ko‘z qorachiqlari muskulining uzoq vaqt monitorga tikilib qolishi esa yurganda muvozanatni saqlay olmaslikka hamda predmetlarning joylashgan o‘rnini to‘g‘ri oriyentatsiya qila olmaslikka, yurganda tez-tez qoqilib tushish, yiqilib tushish holatlariga olib keladi.

Darhaqiqat, bolaning fiziologik va aqliy rivojlanishi, bevosita tarbiya jarayoniga bog‘liq. Bu jarayonni ota-onalar mas’uliyat bilan sidqidildan amalga oshirishga majburdirlar. Azaldan farzand tarbiyasi muhim o‘rin egallab kelgan, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladigan, faoliyat mezonini ezgulikka yo‘naltiradigan milliy o‘yinchoqlar o‘rnini qandaydir odam o‘ldirib huzurlanishga yo‘naltirilgan internet o‘yinlari egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Xuddi shu tariqa bola uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinlarning salbiy oqibatlarga olib kelishi uning xayoliga ham kelmaydi. Ularni hushyorlikka o‘rgatish, tushuntirish ishlarini olib borish, eng asosiysi, ko‘ziga chiroyli ko‘ringan narsalarga mahliyo bo‘lib ketadigan darajada nodonlik botqog‘iga botmasligining oldini olish ota-ona va pedagoglarning jamiyat oldidagi ajralmas burchidir.

Amerika tibbiyot uyushmasi videoo‘yinlarga berilib ketishni rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish niyatida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko‘p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga asirlik xastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar bor.

Bolaning yoshiga bog‘liq psixologik xususiyatlarni bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta’lim-tarbiya berib bo‘lmaydi, chunki har bir yoshning o‘z qiyinchiliklari bo‘lib, bu esa o‘ziga nisbatan maxsus munosabatda bo‘lishni talab etadi. Buning uchun yosh avlodni tarbiyalayotgan ota-ona, o‘qituvchilarga juda katta mas’uliyat yuklanadi. Ular sog‘lom fikr yuritgan holda bolalarga to‘g‘ri yondashuv orqali tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak. Ayniqsa, o‘qituvchilar ma’naviyat soatlarida o‘quvchilarga, televizor, kompyuter va telefonlardan me’yoridan ortiq foydalanish nafaqat ko‘zga, balki, butun tana hujayralariga salbiy ta’sir etib, organizmda immunitetni pasayishi, boshda, quloqda o‘smalarning kelib chiqishi, hatto befarzandlik oqibatlariga olib kelishi mumkinligini alohida ta’kidlashlari zarur. Bolalarning ko‘p vaqt kompyuter yoki telefon o‘yinlari bilan mashg‘ul bo‘lishi ularning asab tizimiga ta’sir etib, salbiy his tuyg‘ular va og‘ir hissiy stress holatlarini kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shaxsning salbiy hissiy holatlarini nazorat qilish va hayotiy qiyin vaziyatlarga qarshi kurashish maqsadida sanogen refleksiyani rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. N.Z. Abdiraxmonovaning ta’kidlashicha,

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish, shaxs xususiyatlari va xulq-atvoriga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar, ta’lim jarayoni, shaxslararo munosabatlar, kasbiy kamolot kabi ijtimoiy omillar bilan bog‘liq.

A.V. Brushlinskiy tomonidan amalga oshirilgan psixologik tajribalar natijalariga ko‘ra, bolaning kognitiv faolligining rivojlanishi bilan hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar va muammoli vaziyatlar murakkablashadi, buning natijasida bir nechta obyektlarning o‘ziga xos va umumiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishda bolalar ularni qismlarga ajratishga moyil bo‘ladi, degan xulosaga keladi. Bunda, olimning fikriga ko‘ra, subyektlar tasniflash kabi aqliy operatsiyadan foydalanadilar.

Yu.M. Orlovning fikricha, sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo‘llaridan biridir. Sanogen tafakkur tushunchasi pedagogik jihatdan tahlil qilinganda, ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan pedagogik muammolar va hissiy kechinmalarni hal etishda inson ongi salomatligining samarali usuli hisoblanadi.

Pedagogika va psixologiya fanlarining o‘qitilishi hamda sanogen fikrlash bilan bog‘liq bo‘lgan to‘garak mashg‘ulotlarining tashkil etilishiga qo‘yiladigan talab va qoidalar bo‘lajak o‘qituvchilar sanogen tafakkurini rivojlantirishning mazmunli omili sifatida ifodalanadi. Sanogen tafakkurni shakllantirish dasturini yaratishda asosiy talablardan biri, uning yoshi, ma’lumot darajasi va ijtimoiy faoliyat tajribasini inobatga olishdan iborat.

Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra bolalarda sanogen fiklashni shakllantirish uchun ular aynan yoshligida aqliy operatsiyalarni faol o‘zlashtira boshlashi va axborotni qayta ishlashning butun arsenalidan uyg‘un foydalanishi zarur va shart ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 -son. https://lex.uz/docs/5841063.

2. Abdullayeva Sh.A., Asqarov A.D. Umumiy pedagogika // O‘quv qo‘llanma. – T.: “Zuhra baraka biznes” MChJ 2019. – 28 b.

3. Павлюченкова Н.В. Саногенная рефлексия как фактор развития эмоциональной компетентности. Автореф. канд. дисс. – М., – 2008. – С. 27.

4. Abdiraxmonova Z.A. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. avtoref. 2020. – 48 b.

5. Орлов Ю.М. Оздоравливающее (саногенное) мышление// составитель А.В. Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1. – Издание 2-е изд., исправленное. – М.: Слайдинг, 2006. – С. 96.

6. Bell M.W. (2008). Toward a Definition of “Virtual Worlds”. Journal of Virtual Worlds Research, 1(1), 1-5.

7. Nishonova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya// Darslik. ‘‘O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashryoti. – T., 2018. – 269 b.

8. https://mitc.uz/uz/stat/4 – Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi rasmiy saytidagi statistika.

Nilufar ISAKULOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

BOJXONA SOHASIGA OID TERMINLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada bojxona sohasiga oid terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Bojxona sohasiga oid terminlar, bojxona ishi, bojxona nazorati, bojxona menejmenti, tovarshunoslik, xalqaro bojxona huquqi, bojxona yurisprudensiyasi batafsil tahlil qilingan. Muallif tomonidan bojxona statistikasining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.
Kalit so‘zlar. Bojxona, termin, On-line rejimi, bojxona ishi, bojxona nazorati, bojxona menejmenti, tovarshunoslik, xalqaro bojxona huquqi, bojxona yurisprudensiyasi, bojxona statistikasi.

В статье подробно анализируются особенности терминов, относящихся к таможенной сфере. А также, таможенная работа, таможенный контроль, таможенное управление, товароведение, международное таможенное право, таможенная юриспруденция. Автор выявлено особенности таможенной статистики.
Ключевые слова. Таможня, термин, On-line режим, таможенная работа, таможенный контроль, таможенное управление, товароведение, международное таможенное право,таможенное правоведение, таможенная статистика.

The article analyzes in detail the features of terms related to the customs sphere. And also, customs work, customs control, customs management, commodity science, international customs law, customs jurisprudence. The author identified the features of customs statistics.
Key words. Customs, term, On-line mode, customs work, customs control, customs management, commodity science, international customs law, customs jurisprudence, customs statistics.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bojxona organlariga kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, tizim uchun rahbar-kadrlarni tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta’lim va ilmiy-metodik muassasa hisoblanadi. Institut bojxona organlari uchun kadrlarni bazaviy va amaliy professional tayyorlash, shuningdek, ta’lim muddati to‘rt yil bo‘lgan bakalavrlarni va ta’lim muddati bir yil bo‘lgan magistrlarni tayyorlaydi.

Bojxona sohasida Sh.A. Akramova bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish bo‘yicha, F.A. Xakimova xromatografiya usullarini qo‘llagan holda Online rejimida bojxona ekspertizasini avtomatlashtirishning tashkiliy mexanizmi bo‘yicha, O. Axmedov ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari bo‘yicha, S.A. Aripov, I.N. Aslanov, R.A. Turopov, Sh.N. Boymuradov, S.A. Alimbayev, O.Z. Zayniddinov O‘zbekistonda bojxona tizimi va uning o‘zbek davlatchiligida tutgan o‘rni (1991–2001-yillar) bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Sohaviy terminlarning lingvistik va o‘qitish metodikasi tadqiqi bilan D.X. Kadirbekova, N.A. Martenova, A.B. Adigeneyeva, D. Kamchebekova, O. Axmedov, P. Nishonov, X. Paluanova, F. Abdullayeva, F. Alimovlar shug‘ullanishgan.

Umuman terminologiya ilmiy tushunchalar tizimiga mos keladi. Terminologiyaning shunday ta’rifini berish mumkin: bu fan, texnika sohasi, ishlab chiqarish tushunchalari

tizimida ilmiy tushunchalarni aniq va aniq belgilash uchun ishlatiladigan nomlar, so‘z va iboralar majmui.

Terminologiya quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak: aniq va bir ma’noli bo‘lishi kerak. Odatdagi tildagi so‘zlarning ko‘pchiligi polisemiya bilan xarakterlansa, terminologik sistemalarda faqat bitta belgi (so‘z yoki ibora) bir belgi (obyekt, tushuncha)ga mos kelishini ta’minlashga intiladilar. Agar umumiy adabiy tilda sinonimlar (turli tovushli, ammo bir xil yoki juda o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar) va omonimlar (bir xil, ammo turli ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlar) juda keng tarqalgan, normal hodisa bo‘lsa, terminologiyada ular sinonimlar va omonimlardan qutulishga harakat qilishadi.

Terminologiya, lug‘atning boshqa qatlamlaridan farqli o‘laroq, ko‘p jihatdan doimiy tizimli tartibga solish predmeti hisoblanadi. Turli darajalarda: sohaviy (vazirliklar va idoralarning maxsus komissiyalari), davlat va xalqaro – alohida sohaviy tizimlarni tartibga solish, birlashtirish va hatto standartlashtirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Terminologiya doimiy harakatda bo‘ladi: unda nimadir yo‘qoladi, terminlar, tushunchalar, ta’riflarning hayot sikli tugaydi. Ular foydalanishdan tushib, eskirgan yoki nomaqbul tushunchalar bilan birga bo‘lmaydi. Masalan, fan tarixida “xrematistika”, “siyosiy iqtisod” va boshqa yuzlab terminlar ana shunday bo‘lgan. “Iqtisod” kabi ko‘plab “eski”, uzoq-ma’lum terminlar butunlay yangi ilmiy mazmun bilan to‘ldirilgan. Tushuncha mazmunidagi bu o‘zgarish ba’zan so‘zning etimologiyasini, ya’ni “ma’no” so‘zini qiyoslasangiz, juda aniq bo‘ladi.

Terminologiya (lot. dan terminus – chegara, chegara va ...mantiq), maxsus bilim sohasi yoki faoliyat terminlari majmui (tushunchalarini bildiruvchi so‘z va iboralar; masalan, matematik, lingvistik va boshqalar.), shuningdek, tabiiy tilni bilishning turli sohalari (masalan, rus, ingliz va boshqalar).

Haqiqiy terminologiya va terminologik tizimlar (muddatli tizimlar) o‘rtasida farqlar mavjud. Aslida terminologiya ma’lum bir sohada bilimlarni to‘plash va tushunish jarayonini aks ettiradigan o‘z-o‘zidan shakllangan terminlar to‘plamini hosil qiladi.

Termin – (lot.dan. terminus – chegara,) maxsus bilim sohasi yoki faoliyat tushunchasini anglatuvchi so‘z yoki ibora. Bu termin tilning umumiy leksik tizimiga kiritilgan, lekin faqat ma’lum bir terminologik tizim (terminologiya) orqali kiritilgan. Terminning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– izchillik;

– ta’rifning mavjudligi (ko‘pchilik terminlar uchun);

– uning terminologik sohasi ichida monosemlikka moyillik, ya’ni ma’lum bir fan, intizom yoki ilmiy maktabning terminologiyasi (shuning uchun matematika, fiziologiya va tilshunoslikda ‘‘funksiya’’ kabi terminlar odatda intersional deb ataladi);

– ifoda yetishmasligi;

– uslubiy betaraflik.

Bojxona sohasiga oid terminlarning bu xususiyatlari faqat terminologik maydon ichida amalga oshadi, uning tashqarisida termin o‘zining aniq va tizim xususiyatlarini yo‘qotadi. Bojxona sohasiga oid terminlarni quyidagicha o‘ziga xos xususiyatlari ishlab chiqildi:

– bojxona ishi;

– bojxona nazorati;

– bojxona menejmenti;

– tovarshunoslik;

– xalqaro bojxona huquqi;
– bojxona yurisprudensiya;
– bojxona statistikasi.

Xulosa qilib aytganda, til birligi sifatida termin o‘sha tilning fonetik va grammatik qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Terminlarning struktur va semantik xususiyatlari so‘z shakllanishi sohasida namoyon bo‘lib, unda haqiqiy terminologik modellarga xos bo‘lgan alohida formantlarning ixtisoslashuvi yuz beradi. Terminlarning tuzilishini tavsiflash uchun terminning eng kam ahamiyatli komponenti – termin elementi tushunchasidan foydalanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova Sh.A. Bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2017. – 248 b.

2. Alimbaev S.A. O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida tovar ayirboshlashning tashkiliy-huquqiy muammolari: Dis. ... yuridik. fan. nom. – T., 2003. – 181 b.

3. Aripov S.A. Tashqi savdoni bojxona to‘lovlari orqali tartibga solishni takomillashtirish: Dis. ...iqtisod. fan. nom. – T., 2009. – 135 b.

4. Aslanov I.N. Bojxona tizimi faoliyati samaradorligini oshirishda kadrlarning shaxsiy psixologik tayyorgarligi omili (muomala jarayoni misolida): Dis. ...psixol. fan. nom. – T., 2009. – 164 b.

5. Axmedov O. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Dis. ... filol. fan. dok. – T., 2016.

6. Boymuradov Sh.N. Bojxona sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy-huquqiy shakllari: Dis. ... yuridik. fan. nom. – T., 2006. – 161 b.

7. Zayniddinov O.Z. O‘zbekistonda bojxona tizimi va uning o‘zbek davlatchiligida tutgan o‘rni (1991-2001 yillar): Dis. ... tarix. fan. nom. – T., 2002. – 175 b.

8. Терминология науки – система ее научных понятий. Электронный ресурс: http://econtool.com/terminologiya-nauki-sistema-ee-nauchnyih-ponyatiy.html. Дата обращения: 10.06.20.

9. Терминология. Электронный ресурс: https://bigenc.ru/linguistics/text/4188926. Дата обращения: 10.06.20.

10. Turopov R.A. O‘zbekiston Respublikasi bojxona faoliyati samaradorligini oshi–rishning asosiy yo‘nalishlari: Dis. ... iqtisod. fan. dok. – T., 2006. – 283 b.

11. Xakimova F.A. Xromatografiya usullarini qo‘llagan holda Online rejimida bojxona ekspertizasini avtomatlashtirishning tashkiliy mexanizmi: Dis. ... tex. fan. bo‘yicha fal. dok. – T., 2018. – 120-9 b.

Ollayor AVEZMURATOV,
Urganch davlat universiteti, “Fizika” kafedrasi dotsenti v.b.

EKLIPTIKANING EKVATORGA OG‘MALIGINI O‘RGANISH (KUZATISH) USLUBI

Annotatsiya

Maqolada ekliptikani ekvatorga og‘maligini o‘lchash eng qadimiu davrlardan boshlab o‘rganilib kelinganligi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, astranomiya fanini o‘qitishda ta'lim oluvchilar bilan ekliptikani ekvatorga og‘maligini o‘lchash mazusini qiziqarli tarzda olib borish uslublari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ekliptika, ekvator, ekliptikani ekvator og‘maligi, osmon ekvator tekisligi, gorizont tekislik, osmon sferasi, quyosh.


В статье подробно анализируется, что измерение наклона эклиптики к экватору изучается с древнейших времен. Также, в статье приводятся интерактивные методы преподавания измерения наклона эклиптики к экватору в астрономии.

Ключевые слова. Эклиптика, экватор, экваториальное отклонение эклиптики, плоскость небесного экватора, плоскость горизонта, небесная сфера, солнце.


The article analyzes in detail that the measurement of the inclination of the ecliptic to the equator has been studied since ancient times. Also, the article provides interactive methods for teaching the measurement of the inclination of the ecliptic to the equator in astronomy.

Key words. Ecliptic, equator, equatorial deviation of the ecliptic, plane of the celestial equator, plane of the horizon, celestial sphere, sun.

Ma’lumki, osmondagi barcha yoritkichlar osmon sferasi deb ataluvchi sferada xuddi mahkamlanganday bir butunligicha PP o‘q atrofida doimo Sharqdan G‘arbga tomon aylanib turadi (1-rasm).



1-rasm.



1(A)-rasm. Osmon sferasi asosiy nuqtalari, o‘qlari va tekisliklari

1-rasm. Bunda PP o‘q (olam o‘qi) deyiladi. Unga perpendikulyar QQ katta tekislik osmon ekvatori deyiladi. Osmon ekvator tekisligi Osmon sferasini ikki yarim sharga

(Shimoliy va Janubiy) ajratib turadi.

Kuzatuvchi turgan tekislik gorizont tekisligi (NS) deyiladi. Bu tekislik Yer sharini kuzatuvchi turgan nuqtasiga urinma bo‘lib, hamisha Osmon sferasining markazida bo‘ladi. Gorizont tekisligining 4 ta asosiy nuqtasi bor. E-Sharq, S-Janub, W-G‘arb, N-Shimol.


Yoritkichlarning meridianni kesib o‘tishi kulminatsiya deyiladi. Quyoshning kulminatsiyadan o‘tishi shu joy uchun tush payti deyiladi. Demak, hamma yoritkichlar bir sutka davomida meridianni kesib o‘tadi. Bu kulminatsiya holati katta ahamiyatga ega. Kulminatsiya vaqtida yoritkichlarning gorizontdan balandligi o‘lchanadi va ko‘p astronomik hisoblarga yechim beradi. Shuning uchun ham Mirzo Ulug‘bek rasadxonasining radiusi 40,2 m bo‘lgan qurilmasining yoyi meridian tekisligida joylashgan. Bu qurilma asosida ekliptikani osmon ekvatoriga og‘maligi Ulug‘bek tomonidan o‘z zamoni uchun aniq o‘lchangan.

Quyoshning osmon sferasidagi bir yillik harakatini ko‘rsatuvchi aylana yo‘li ekliptika deyiladi. Ekliptika tekisligi ekvator tekisligiga og‘maligi hozirgi davrda $23^{o}\ 27^{I}$ni tashkil etadi. Uzoq yillarda bu og‘malik o‘zgarib turadi. Bu og‘malikka qadimdan olimlar qiziqib, uni o‘lchab kelganlar. Masalan, miloddan oldingi 1100-yillar Xitoy astronomi Chu Kong o‘lchagan. Ko‘pincha bu og‘malik burchagini Ɛ (epsilon) yunoncha harfi bilan belgilanadi. Biz qadimgi har xil davrlarda yashagan astronomlar tomonidan aniqlangan og‘malikning Ɛ qiymatini keltiramiz.


Eratosfen, miloddan 230 yil ilgari – $23^{o}\ 51^{/}\ 20^{//}$ xato + $7^{/}\ 55$
Gipparx miloddan 130 yil ilgari – $23^{o}\ 51^{/}\ 20^{//}$ xato $+8^{/}\ 23^{//}$
Ptolemey milodning 140-yili – $23^{o}\ 51^{/}\ 20^{//}$ xato $+10^{/}\ 10^{//}$
Al Battoniy milodning 880-yili – $23^{o}\ 35^{/}\ 00^{//}$ xato - $0^{/}\ 17^{//}$
As Sufiy milodning 965-yili – $23^{o}\ 33^{/}\ 45$// xato $-0^{/}\ 50^{//}$
Abul Vafo milodning 987-yili – $23^{o}\ 35^{/}00^{//}$xato $+0^{/}35^{//}$
Al Kuxiy milodning 988-yili – $23^{o}\ 51^{/}\ 01^{//}$xato +16/ $36^{//}$
Ibn Yunus milodning 1001-yili – $23^{o}\ 34^{/}\ 52^{//}$ xato $+0^{/}33^{//}$
Nasriddin Tusiy milodning 1270-yili – $23^{o}\ 30^{/}\ 00^{//}$xato $-2^{/}09^{//}$
Ulug‘bek milodning 1437-yili – $23^{o}\ 30^{/}\ 17^{//}$ xato $-0^{/}32^{//}$

Bu ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, Mirzo Ulug‘bekning o‘lchashida eng kam xato, yoki aniqlik yuqori bo‘lgan.

Og‘malikni har kim har xil usullar bilan o‘lchashi mumkin. 2-rasmdan nazariyaga asosan, Yerning shimoliy kenglikdagi kuzatuvchi uchun gorizontga nisbatan shimoliy qutbning balandligi hp=ϕ shu joyning geografik kengligiga tenglik shartidan foydalanish mumkin.




2-rasm.



2(A)-rasm.

2-va 2A-rasmda osmon meridian (yashil to‘liq aylana) $PZSP^{I}Z^{I}N$, osmon ekvatori (yashil oval aylana) va ekliptika tekisligi ko‘rsatilgan (sariq tekislik).

Stellarium dasturi yordamida og‘malik (Ɛ) ni sodda usulda ham o‘lchash mumkin. Maktab yoki akademik litsey sharoitlariga qarab o‘quvchilar va talabalar bilan o‘lchash ishlarini olib borsa bo‘ladi. Bunday sodda usul bilan Al-Xorazmiylar ham shug‘ullangan. Ular Quyoshni kulminatsiyasini yozgi va qishki Quyosh turish balandligini o‘lchash yo‘li bilan aniqlaganlar.



3-rasm.

Ma’lumki, 3-rasmdan Quyosh 22-iyunda ekvatordan eng maksimal og‘adigan $Ɛ_1$ va kuzatuvchi turgan gorizontga nisbatan kulminatsiyada maksimal balandlikka erishadi. Al-Xorazmiy mana shunday kunda Quyoshning gorizontdan balandligini o‘lchab, joyning geografik kengligini aniqlagan.


21-22-dekabr, qishki Quyosh turish sanasida Quyosh ekvatordan minimal og‘adi va gorizontga nisbatan kulminatsiyada minimal balandlikka erishadi. 22-iyunda Quyosh Ɛ₁-sutkalik parallel bo‘ylab harakatlanadi (3-rasmda). 21-dekabr sanasida esa Quyosh Ɛ₂ –sutkalik parallel bo‘ylab harakatlanadi. Bu ikkala Ɛ₁ va Ɛ₂ 3-rasm parallel osmon ekvatoriga simmetrik bo‘lib, bir xil yoy masofada yotadi. Ya’ni $Ɛ_1\breve{Q}=\breve{Q}Ɛ_2=Ɛ$ ekanligi ko‘rinib turadi. $Ɛ_1\breve{Q}+\breve{Q}Ɛ_2=2Ɛ$.bunda $Ɛ_1\breve{Q}=\breve{Q}Ɛ_2$ aylana yoylari bo‘lib, burchak o‘lchamda o‘lchanadi.

Bundan ko‘rinadiki, agar Quyoshning yozgi turish balandligi h_{yoz}ni 2-o‘lchab, 22-dekabrda Quyosh qishki turish balandligi h_{qish}ni o‘lchab,


$$h_{yoz} - h_{qish} = Ɛ_1\breve{Q}+\breve{Q}Ɛ_2=2Ɛ$$

ekanligini ko‘rish mumkin. Bu ish qadimiy masalalar ekanligini hisobga olsak, o‘quvchi va talabalarda qiziqish uyg‘otadi. Hozir axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yashamoqdamiz. Bu ishni STELLARIUM dasturi asosida amalga oshirish mumkin. 22-iyun yoki 21-dekabr sanasini kutib o‘tirmasdan yilning xohlagan vaqtida STELLARIUM dasturiga kirib, vaqtni 22-iyun sanasiga qo‘yib, Quyosh markazining meridian chizig‘ini kesib o‘tishini kuzatsak, Quyosh kulminatsiya paytida ekranning chap yuqori burchagida Quyoshning gorizontga nisbatan azimuti va h balandligini ko‘rsatib turadi. Quyida shunday ikkita rasmni keltiramiz.

4-rasmda 2024.06.22 sanasida Urganch shahri uchun Quyoshning kulminatsiyasi Toshkent vaqti bilan 12 soat, 57 minut, 33 sekundda Quyoshning kulminatsiyasi meridianni kesib o‘tayotgan vaqti ko‘rsatilgan. Rasmning yuqori chap tomonida parametrlari ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, Quyoshning balandligi h_{yoz} =71º52′43″ tashkil etadi.



4-rasm. 2024.06.22 sanada Quyoshning yozgi turishi



5-rasm. 2024.12.22 sanada Quyoshning qishki turishi

Ushbu STELLARIUM dasturidan olingan rasmda 2024-yil 22-dekabr sanasida Urganch shahri uchun Toshkent vaqti 12 soat, 56 minut, 33 sekundda Quyosh kulminatsiyasi meridianni kesib o‘tayotgan payti ko‘rsatilgan. Rasmning chap tomon yuqori qismida Quyoshning parametrlari berilgan. Unga ko‘ra, Quyoshning qishki turishdagi gorizontga nisbatan balandligi h_{qish} =25º00′34″ ko‘rsatilgan yuqoridagi formulaga ko‘ra $h_{yoz} - h_{qish} = 2\,Ɛ$ o‘rniga qo‘yamiz.

$$2Ɛ=71º52′-25º00 \quad 2Ɛ=46º52′ \quad Ɛ=23º26′$$

Demak, biz STELLARIUM dasturi orqali hisoblagan qiymat ekliptika tekisligini ekvator tekisligiga og‘maligi Ɛ=23º26′ bo‘lib chiqdi. Adabiyotlarda Ɛ=23º27′ ko‘rsatilgan, xatolik 1 minut. Bunday kuzatishni xohlagan shahar uchun yoki hudud uchun bajarish mumkin. Albatta, o‘lchashda xatoliklar bo‘ladi. Keyinchalik STELLARIUM dasturi yordamida o‘lchangan natijalarni 22-iyun sanasida va 21–22-dekabr sanasida burchak o‘lchagich yoki Teodalit yordamida ochiq osmonda, kunduz kuni olib borish mumkin. Bunda albatta talabalar, o‘quvchilar va yosh astronomlarning amaliy o‘lchashlar natijalari ularda chuqur xotira qoldiradi. O‘quvchilarning astronomiya faniga qiziqishi oshadi. Hozirda O‘zbekiston astronomiyasini dunyo olimlari e’tirof etmoqda. Bu esa kelajakda O‘zbekistonda kuchli astronomlar yetishib chiqishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadazimov M. ”Umumiy astronomiya”. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2008 y.

2. Zokirov M.N., Doniyorov Sh., Bekmirzayov X.U. “Umumiy astronomiya nomli o‘quv qo‘llanma”. – Jizzax. 2009 y.

3. Avezmuratova Z.A, Qahhorov S.Q., Avezmurotov O. “Innovatsion texnologiyalar asosida Astronomiya fanini o‘qitishda amaliy kuzatishlarni tashkil qilish” nomli o‘quv qo‘llanma. – Buxoro. Durdona nashriyoti. 2023 y.

Zarifa NORQOBILOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIGA TAXMIS BOG‘LASH AN’ANASI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek she’riyatida taxmislarning o‘rni va ahamiyati, Alisher Navoiyning g‘azallariga taxmis yozish, muxammaslar bitishning shakliy va mazmuniy jihatlariga alohida e’tibor qaratish batafsil bayon etilgan. Shuningdek, taxmisnavislik an'anasi, g‘azal baytlariga har jihatdan mos misralar qo‘shish qoidalari, o‘zbek adabiyotida yaratilgan muxammaslar, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy va Nodira g‘azallariga bog‘langan taxmislar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Alisher Navoiy, g‘azal, taxmis, muxammas, g‘azal, aruz, zamonaviy she’riyat, xislat, an'ana, takomillashish.

В статье подробно описываются роль и значение тахмисов в узбекской поэзии, написание тахмисов к газелям Алишера Навои, особое внимание уделяется формальным и содержательным аспектам мухаммасов. Также анализируются традиция тахмиснависов, правила добавления подходящих стихов к стихам газелям, мухаммасам, созданные в узбекской литературе, приводятся примеры тахмисов к газелям Лутфий, Алишера Навои, Физулий и Надиры.

Ключевые слова. Алишер Навои, газель, тахмис, мухамас, газель, аруз, современная поэзия, характер, традиция, совершенствование.

The article describes in detail the role and significance of takhmis in Uzbek poetry, the writing of takhmis for Alisher Navoi's ghazals, special attention is paid to the formal and substantive aspects of mukhammas. The tradition of tahmisnavis, the rules for adding suitable verses to ghazals, mukhammas created in Uzbek literature are also analyzed, examples of tahmises to the ghazals of Lutfiy, Alisher Navoi, Fuzuliy and Nadira are given.

Key words. Alisher Navoi, gazelle, takhmis, muhamas, gazelle, aruz, modern poetry, character, tradition, improvement.

Zamonaviy she’riyatda Navoiy g‘azallariga taxmis bog‘lash an’anasi haqida so‘z boshlashdan oldin, buyuk bobomiz Alisher Navoiyning kimligini uning shaxsiyatini tanish, ya’ni uning aslida kim ekanligini bilish, qanday inson bo‘lganligini o‘rganish juda muhim deb o‘ylayman. Avvalo, Mir Alisher Navoiy bobomiz haqiqiy inson, oliyhimmat kishi bo‘lganligini aytib o‘tish joiz. Negaki, bu xislat hamma insonlarda ham bo‘lavermaydi. Faqatgina Alloh sevgan va Uning nazari tushgan insonlarda hamda uning o‘zi ham Allohni tanigan bo‘lishligi, mehnatkash, qalbi pok bo‘lishi shu bilan birgalikda o‘zini emas xalqni dardi, g‘ami bilan yashay oladigan mard insonlardagina oliyhimmatlik xislati bor desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Navoiyning ijodi haqida so‘z ketganda esa, uning ijodiga mehr qo‘ymagan, qiziqmagan inson bo‘lmasa kerak. Chunki, uning g‘azalini oddiy insonlardan so‘rasangiz ham hech bo‘lmaganda bir qator bo‘lsa ham aytib bera oladi. Sababi esa, hozirgi kunda Navoiy ijodining serqirraligi, nihoyatda keng qamrovligi, bitmas-tuganmas xazina ekanligi bois barchada qiziqish uyg‘otganligi bejizga emas. Shuning uchun ham ko‘pchilik olimlar tomonidan tinimsiz e’tirof etilyoganligi gapimiz isbotidir. Bugungi kunda uning ijodiga boshqa millat vakillarining ham qiziqayotganligi, asarlarini o‘rganib, boshqa tillarda tarjima

qilayotganligi juda quvonarli holatdir. Biroq ba'zida g'azallarning ma'nosini tushunib, yoki tushunmay yodlaganlar ham uchrab turadi. Ana shunday vaziyatlarda kitobxonning savollariga javob topishi uchun tushunchasini to'g'ri tahlil qilib berish Navoiyshunos olimlarning zarurligi va bu ular zimmasiga birozgina ma'sumiyat yuklasa-da, Navoiyni ijodini o'rganish, g'azallarini tahlil qilish sharafli ekanligi quvonarli holatdir. Bu ulug' ma'sumiyati har kimga ham nasib etavermaydi. Buning uchun Navoiyga muhabbati bor, ma'lum bir hayot chig'iriqlarini boshidan o'tkazgan bo'lishi kerak. Unday inson adabiyotshunos bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin, shunchaki insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, qalbida ezguliklarni mujassamlashtirgan Haqni sevadigan inson bo'lsa va har qanday g'azal tahlilida ma'nosining izohlarining berilishi va undan ta'sirlanib g'azallariga muxammas bog'lash, taxmis yozish hozirgi paytda urfga aylandi. Navoiyshunos olima Suyuma G'aniyeva Lutfiy ijodidan ta'sirlanib Navoiyning o'zini ham muxammas bog'laganligi haqida maqolalarida aytib o'tgan edilar. Lutfiy g'azallaridan birida shunday mahbubaga ko'z qorachig'imni vatan ayla, degan ma'noli matla' bor. Navoiyning mashhur, o'z davridayoq maqom yo'llarida ijro etilgan ''*Qaro ko'zum kelu mardumlig' emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kebi Vatan qilg'il.''* g'azaliga Lutfiydagi nozik nuqta ilhom baxsh etgandir. Bu an'anani davom etgan holda, garchi oz bo'lsa-da men ham *"Qaro ko'zum kelu mardumlig' emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kebi Vatan qilg'il"* g'azaliga bag'ishlangan muxammasimni keltirishni joiz deb bildim.

Qaro ko'zum kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kebi Vatan qilg'il.
Darding unutibon ul yerni, sen chaman qilg'il,
Ko'rolmasang gar, qalbing hajr o'tida kuysin,
Bu ishq birla yonmoqlikni san orzumand qilg'il.

Bundan tashqari, Navoiyning ''*Orazin yopqach ko'zimdin sochilur har lahza yosh, O'ylakim paydo bo'lur, yulduz nihon bo'lg'ach quyosh.''* g'azaliga ham muxammas yozdim. Quyida shu taxmislarni keltirmoqchiman:

Orazin yopqach ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur, yulduz nihon bo'lg'ach quyosh.
Sen ko'zingni yumganingda ko'rinmasada quyosh,
G'amuguzor o'lsangda, ko'zingda ko'rinmasin yosh,
Ishq o'tidin qalbingni o'zi bo'lsin, otash quyosh.

Navoiyning *''Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi, Ko'zlarimg'a kecha tong otquncha uyqu kelmadi."* g'azaliga ham muxammaslar bog'ladim:

Necha tong otdi kutib, bedorla o'tdi kechalar,
Qanchalar beshavqat ermish, shuncha kutdim kelmadi.
Ul nigoro, qahri qattiq ermas, balkim bilmadim,
Yo nazarga ilmadimi, yo ataylab kelmadi.
Yoki ko'nglim parchalaydur, yoki rashkim qo'zg'atur,
Bilmayin ovvora bo'ldim, sayyod kabi kelmadi.

Shu o'rinda aytish joizki, muxammas va taxmisning farqi nimada va u qanday yoziladi. Taniqli shoir Jamol Kamolning "Saylanma"si 1-jildi – "Asr bilan vidolashuv" to'plamiga (2007 y.) kiritilgan quyidagi band bilan boshlanuvchi taxmisni ushbu janr–ning ancha mukammal namunalaridan deya e'tirof etish mumkin:

Yo'q, chaqindin ermas ul osmon qizil, sorig' yashil,
Yo shafaqdin har taraf raxshon qizil, sorig' yashil,
Yo chamanda lola-yu rayhon qizil, sorig' yashil,

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘ yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘ yashil...

Taxmisda muallif qo‘shgan misralar shaklan ham, mazmunan ham Navoiy g‘azalining baytlariga hamohangligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchidan, g‘azal aruzning “ramali musammani mahzuf” (foilotun, foilun) vaznida yozilgan, taxmis misralari ham shu vaznda. Ikkinchidan, Navoiy g‘azalining matla’sidagi misralar sabab va oqibat mazmunini anglatgan: “Jonon xil’ati (ust kiyimi) “qizil, sorig‘, yashil” ranglar bilan jilolandi, buni ko‘rgach, o‘zimni tutib tura olmadim va har tarafga ohimning qizil, sorig‘, yashil ranglardagi shu’lalari taraldi”. Jamol Kamol taxmis yozish an’anasiga muvofiq baytdagi sabab mazmunini teranlashtiradi, oqibatdagi ranglar taralayotgan makon tushunchasini osmon, chaman kabilar bilan oydinlashtiradi. Shoirning ta’kidlashicha, osmonning qizil, sorig‘ yashil ranglarda ko‘rinishi chaqindan yoki shafaqdan har tarafga taralayotgan yoki chamandagi lola-yu rayhonlar rangidan emas, balki jonon xil’ati ranglari bilan bog‘liq. Yana shu an’anani davom ettirganlardan biri, zamonaviy o‘zbek adabiyotida xorazmlik Shoira Shamsning “Samandar” (2019 y.) she’riy to‘plamidan o‘rin olgan taxmislar mukammalligi bilan ajralib turadi. Ularning aksariyati Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan. Shoira ulug‘ salafining g‘azallari mavzusi, badiiy-estetik g‘oyasi, poetik tili va badiiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Navoiy misralarida ifodalangan mavzuni chuqurroq ochib berish, shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni yanada teranlashtirish, g‘azalda yoritilgan lirik manzarani yangidan yangi tafsilotlar bilan boyitish, g‘azal mazmuniga to‘liq mos keladigan badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanishga intiladi.

Turnalardek nola qildim, titradi aflok “dol”,
Keldi sensiz qolmish olam boshiga fasli zavol,
Furqating – diydor emdi, dard-u hijroning – visol,
Bog‘ mendek sorg‘orib, bulbul meningdek bo‘ldi lol,
Go‘yiyo mundoq bo‘lur bir guldin ayrilg‘ong‘a hol.

Mazkur taxmisga asos bo‘lgan g‘azal to‘qqiz baytli, taxmis ham to‘qqiz banddan iborat. Demak, shoira tazmini kull – to‘liq tazmin usulini qo‘llagan. Navoiy g‘azal matla’sida “bog‘ menga o‘xshab sarg‘aydi, bulbul meningdek lol (tilsiz) bo‘lib qoldi, go‘yo bir guldan ayrilgan (kishi) shunday holatda bo‘larmish” degan. Ko‘rinib turibdiki, asos bayt va qo‘shilgan misralarning shaklan va mazmunan to‘la uyg‘unligiga erishilgan.

Shoira Shams Alisher Navoiy misralaridagi bog‘, men, bulbul, gul poetik timsollarini turnalar, aflok, sen, olam kabi yangi timsollar bilan boyitib, asos bayt misralaridagi tashbehlar mazmunini yanada mukammallashtiradi. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur taxmisning har bir bandida ana shunday badiiy-estetik mukammallikni kuzatish mumkin.

Taxmisnavislik an’anasini davom ettirayotgan zamondoshimiz Otamurod Poyonning “Tongdek tiniq tilaklar” she’riy to‘plamidan (2020 y.) joy olgan muxammaslar (taxmislar) ning uchtasi Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan. Otamurod Poyon taxmis bog‘lashga mas’uliyat bilan kirishadi. Asos g‘azal baytlariga yangi misralar qo‘shar ekan, mazmun va shakl, hatto uslubning uyg‘unlashishiga harakat qiladi. Har bir bandda asos baytda ishlatilgan badiiy san’atlar, til xususiyatlarining yanada yorqinroq aks etishiga erishadi. Quyidagicha boshlanuvchi taxmis bunga misol bo‘la oladi:

Yor uchun marg‘ub tamanno bo‘lsa, harchand aylangiz,
Menga zulm-u kin etishni kori sudmand aylangiz,
Dargahin qatlim uchun qal’ai darband aylangiz,
Ul pari ko‘yida men devonani band aylangiz,
Band-bandim zulfi zanjirig‘a payvand aylangiz.

Alisher Navoiy qalamiga mansub misralarda mumtoz qofiyaning band, payvand kabi ridfi zoyidli murdaf qofiya turi qo‘llanilgan. Bunda qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi *“a”* unlisi cho‘ziq talaffuz qilingan holda ridfi asliy, *“d”* undoshi raviy, ular orasidagi *“n”* undoshi esa ridfi zoyid (orttirilgan ridf) hisoblanadi. Mazkur baytga Otamurod Poyon tomonidan qo‘shilgan misralarda ham qofiyaning aynan shu turini yuzaga keltiruvchi harchand, sudmand, darband kabi so‘zlar qatnashgan. Baytga qo‘shilgan misralarning lug‘aviy tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ham Alisher Navoiy asarlari tiliga xos *marg‘ub tamanno, zulm-u kin, kori sudmand, dargah, qal’ai darband* kabi ifodalardan mahorat bilan o‘rinli foydalanilganining guvohi bo‘lamiz. Taxmisning qolgan bandlarida ham shunday holatni kuzatish mumkinki.

Asos bayt ham, taxmis uchligi ham aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun, foilun) vaznida yozilgan. Ham shakliy, ham mazmuniy mutanosiblikka alohida e’tibor qaratilgan. Shoir qo‘shgan uchlik misralari asos bayt mazmunini yanada kengaytirib, lirik qahramon kechinmalarini to‘laqonli ochib berishga xizmat qilmoqda. *Jilgudek, tilgudek, bilgudek* so‘zlari Alisher Navoiy baytidagi *qilgudek, ochilgudek* qofiyadosh so‘zlariga to‘liq hamohang bo‘lib, bayt mazmunini oydinlashtirishda katta ahamiyat kasb etgan.

Albatta, bugungi taxmisnavislikda kamchiliklar ham yo‘q emas. Aruz vaznidagi g‘azalga barmoq vaznida taxmis bog‘lash, aruzda yozilganlarida esa cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarni farqlamaslik kabi holatlar uchrab turadi. Bir maqola doirasida zamonaviy taxmisnavislikning barcha jihatlarini qamrab olishning imkoni yo‘q. Mazkur an’ana yanada kengayib, adabiyotimizga yangi-yangi nomlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa masalani adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy-tadqiqot darajasida o‘rganishni taqozo etadi. Jumladan, hozirgi kunda yozilayotgan taxmislarning tahlil jarayonlari bu boshqa bir jarayonni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, taxmislarning hozirgi kundagi o‘rni, ahamiyati va dolzarbligi shundaki, zamonaviy she’riyatda barmoq vaznining ishlatilishi, so‘zlarning oddiyligi, ya’ni hammaga tushunarliligidir. Dolzarbligi esa, Navoiy g‘azallarining ba’zi bir murakkab yozilganlarini anglash qiyinligi va bu o‘rinda Navoiyshunoslarning o‘z muxammaslari bilan Navoiy g‘azallariga yozayotgan, bog‘layotgan taxmislarning ma’nosini ochilishida ko‘maklashadi va shu jihati bilan farqlanib turadi. Hozirgi kundagi taxmislarning ahamiyatli jihati ham Navoiyga bog‘liqligi, ya’ni g‘azallarining soni jihatidan ham, sifati jihatidan ham ustunligi bilan ajralib turishi, Navoiy g‘azalining qiymatini ko‘rsatib beradi. Navoiydek yoza olish murakkabdir, ammo g‘azaliga o‘xshatib yozish, so‘zlarni mohirona qo‘llash, har bir tadqiqotchini salohiyatini ko‘rsatish bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslar. 2021-yil, 12-avgust, ‘‘Yangi asr avlodi”.

2. G‘aniyeva S. Davr adabiy hayoti ko‘zgusi. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Ilmiy-tanqidiy matn. – T.: O‘z FA nashriyoti, 1961 y.

3. G‘aniyeva S. Alisher Navoiy (hayoti va ijodi). – T.: ‘‘O‘zbekiston’’, 2015 y.

4. Boybo‘ta Do‘stqorayev “Hurriyat”gazetasi. 2009-yil 22-iyul.

5. Kamolov Jamol. “Saylanma”si 1-jildi. – “Asr bilan vidolashuv” to‘plami. – T., 2007 y.

6. https:|//yuz.uz/uz/news/alisher-navoiy-gazallariga-boglangan-muxammaslar.

7. https://uzbaza.uz/alisher-navoiy-g-azallari.

Raxmon ESHIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
"Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti

TA'LIM TIZIMIDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada kompyuter imitatsion modellar asosida o'quvchilarning fanlarga oid dunyoqarashini kengaytirish, ta'lim oluvchilarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda kompyuterli imitatsion modellar va ulardan samarali foydalanish usullari, olgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish uslublari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar. Axborot texnologiyalari, kompyuterli imitatsion modellar, mediakompetentlik, elektron resurslar, elektron ta'lim.

В статье подробно описаны методы использования на уроках компьютерных имитационных моделей, методы компьютерного моделирования и их эффективное использование, развитие медиакомпетентностей у обучающихся.

Ключевые слова. Информационные технологии, компьютерные имитационные модели, медиакомпетентность, электронные ресурсы, электронное обучение.

The article describes in detail the methods of using computer simulation models in lessons, methods of computer modeling and their effective use, and the development of media competencies among students.

Key words. Information technologies, computer simulation models, media competence, electronic resources, electronic education.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 6-oktyabrda qabul qilgan "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmoni Respublikamizda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. Fan, texnika va texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi OTMlari ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, fan va texnika sohasida sodir bo'layotgan muhim yangiliklarga oid materiallarni o'quv dasturlari, shuningdek, darsliklar mazmuniga jadal kiritish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o'z navbatida, talabalarda ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan oson, qulay va mustahkam egallashga keng imkoniyatlarni yaratdi.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son Farmonida "talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta'lim tizimida asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish; ta'limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko'rish; umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish; oliy ta'lim

muassalarida “Bir million dasturchi” loyihasini keng hududda joriy qilish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “EMINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “Bulutli texnologiyalar”dan foydalanish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan”.

OTMlarda talabalarni mediakompetentlikni shakllantirishda, ta’lim jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirishga qaratish o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash lozimligini ko‘rsatdiki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli imitatsion modellar yordamida mustaqil egallashlari, o‘zlarida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo‘lishlarini taqoza etdi.

Talabalarda mediakompetentlikni shakllantirishda kompyuter texnologiyalari, kompyuter imitatsion modellardan samarali foydalanish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Talabalarda mediakompetentlikni shakllantirishda kompyuter imitatsion modellar o‘rganish obyekti sifatida ham, o‘qitish mazmunini o‘zlashtirish rivoji, tarbiya va o‘qitish vositasi sifatida ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni o‘qitish jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning ikki yo‘nalishi mavjud:

– bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish kompyuter imitatsion modellar imkoniyatlarini bilishga, turli voqea hodisalarni anglashda, grafik, tasvir, ovoz, imitatsion harakatlar asosida mediakompetentlik malakalarini shakllantirishga ko‘maklashadi;

– kompyuter imitatsion modellar o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning kuchli vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Gorbachyov N.N. “Модели и методы управления электронными образовательными информационными ресурсами для дистанционного обучения инвалидов” nomli ilmiy-tadqiqot ishida masofaviy ta’limda avtomatlashtirilgan axborot tizimini dasturiy kompleksining elementlarini ishlab chiqish to‘g‘risida fikr mulohazalarini bildirib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining uchta asosiy: kompensator, didaktik, kommunikativ vazifalarini keltirib o‘tilgan. AKT vositalari asosiy turlari talabalar o‘quv jarayonida bir nechta funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar:

– standart texnologiyalar;

– mavjud ma’lumotlar formatlari;

– yordamchi texnologiyalar.

Ushbu fikrlarni inobatga olsak, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mavjud taqdimot va ma’ruzalarni masofadan o‘qitish, mediakompetensiyalar shakllanishi va darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirmagan talabalar uchun qayta takrorlash imkonini beradi.

Kompyuter imitatsion modellashtirish texnologiyasi o‘quv jarayoni sifatini yuqori darajaga ko‘tarishga olib keladi. Texnik vositalar yordamida talabalarga berilayotgan o‘quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o‘qitish vositalari sifatida kino va televideniya ta’lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtayi nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o‘xshash vazifalarni bajaradi. Ya’ni obyektni

(ta’lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo‘li bilan ko‘rsatiladi.

Modellashtirish uslubidan hozirgi kunda virtual borliq, virtual laboratoriyalar yaratishda keng foydalanilib kelinmoqda. Model (lat. modulus – o‘lchov, me’yor) – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, Erning modeli – globus, osmon va undagi yulduzlar modeli – planetariy ekrani.

Modelning taqribiylik xarakteri turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, tajriba o‘tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta’sir etadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni, murakkab jarayonlarni hamda turli ko‘rinishdagi modellar yordamida tadqiq qilish, turli jarayon, hodisalar va voqelikning modellarini yasash va o‘rganishdir.

Atrofimizdagi dunyoni o‘rganish natijasida noaniq va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit etmaydi. Ular asosida o‘rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to‘laroq akslantirishi zarur.

Modellar tanlash vositalariga qarab abstrakt, fizik va boshqa guruhlarga ajratiladi.

Abstrakt modellar qatoriga matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi. Modellarning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Fizik model – tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o‘lchami, tezligi, ko‘lami) jihatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poyezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo‘ladi.

Matematik modellar – tirik organizmlarning tuzilishi, o‘zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo‘lib, tajriba ma’lumotlariga ko‘ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so‘ngra tajriba yo‘li bilan tekshirib ko‘riladi.

Umuman olganda, kompyuterli modellashtirishning metodologiyasida quyidagi yo‘nalishlarni ajratish mumkin:

Birinchi yo‘nalish – geometrik yo‘nalishdagi tajribalarni tashkillashtirish koordinatalar tekisligida amalga oshiriladi. Kompyuter geometrik obyektlarning xossalarini o‘rganish va matematik farazlarni tekshirishda modellarni qurish va ularni tadqiq etish vositasi sifatida ishlatiladi.

Ikkinchi yo‘nalish – turli xil harakatlarni modellashtirish bilan bog‘liq. Kompyuter modellari orqali turli xil harakatli masalalarni yechish mumkin. Bu ro‘y beradigan jarayonlarning mohiyatini chuqurroq va kengroq his qilishga, olingan natijalarni ha–qiqiy baholash va kompyuterda modellashtirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarning kengayishiga olib keladi.

Uchinchi yo‘nalish – kompyuter ekranida funksiya grafiklarini modellashtirish – kasbiy kompyuter tizimlarida keng qo‘llaniladi. Eng muhimi shundaki, kompyuterda modellashtirish texnologiyasidan foydalanish haqiqiy voqelikni anglashda, bilish jarayonini amalga oshirishda yangi bosqich rolini o‘ynaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, talabalarda mediakompetentlikni

takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellar yaratish metodologiyasi uch yo‘nalishidan bosqichma-bosqich foydalanib yaratish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishda kompyuter imitatsion modelning alohida o‘rni borligini isbotlaydi. Ta’lim muassasalarini fanlarini kompyuter imitatsion modellar yordamida tashkil etish o‘quv jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etishga yordam beradi hamda bu esa o‘qitish usullarini, yangi bilim va mediakompetentlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Demak, shu narsani bilish mumkinki, talabalarda mediakompetentlikni takomillashtirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo‘llash amaliyoti kengayib borayotganligi sababli bu boradagi izlanishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida bu yo‘nalishga bosh yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ta’lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta’lim muassasasida quyidagi jarayonlarni amalga oshirishni talab qiladi:

– o‘qitish va o‘qish jarayonini axborotlashtirish;

– ta’lim muassasasini boshqarishni axborotlashtirish;

– ta’lim muassasasi faoliyati muhitini axborotlashtirish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim tizimida keng joriy etilishi talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga; o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga; o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; axborot jamiyati a’zosi sifatida unda mediasavodxonlik shakllanishiga; o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter imitatsion modellar asosida taqdim etish, talabalarda mediakompetensiyalarini shakllanishi, fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

OTMlari o‘quv jarayonlarini axborotlashtirish ta’limning mazmun va mohiyatini takomillashtirishga olib keladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bunda didaktika fikrlashni, shaxsning qobiliyat va imkoniyatlari darajasini, estetik didni, axborot madaniyatini, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni, o‘quv-axborot faoliyatiga oid ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini OTMlari o‘quv jarayonlariga joriy etish talabaning fikrlashini, optimal qaror qabul qilish malakasini, kommunikativ qobiliyatini, estetik tarbiyasini, kasbiy malaka va ko‘nikmalarini, axborot madaniyatini rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshishi, talabalarning bilish faoliyatlarini intensivlashuvi, fanlararo aloqadorlikning chuqurlashuvi kuzatiladi.

Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishish imkoniyatini beradigan hamda didaktik nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadigan metodik maqsadlarga o‘qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash, teskari aloqa orqali o‘quv faoliyati nazoratini olib borish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish, o‘quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni

imitatsion modellashtirish, kompyuter imitatsion modellar orqali laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish, axborot ma’lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish, talabalarni o‘quv materialini o‘zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish, fikrlashni rivojlantirish, optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, talabalarda mediasavodxonlik madaniyatini shakllantirish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son.

4. Макарова Н.В., Култышев Е.И., Степанов А.Г., Широков В.Л. Информатика. Практикум по технологии работы на компьютере. – М.: Финансы и статистика. 2007.

5. Дьяконов В.П. “Новые информационные технологии”. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика. 2015.

6. Избачков Ю.С., Петров В.Н. “Информационные системы” 2-е издание. Учебник. – М.: Питер. 2012.

7. Калабухова Г.В., Титов В.М. Компьютерный практикум по информатике. Офисные технологии. Форум, Инфра-М. Высшее образование.

8. Горбачёв Н.Н., Мальченко С.Н. “Информационно-коммуникационное сопровождение инклюзивного образования: из опыта”.

9. Информатика: Базовый курс: учебное пособие/ С.В. Симонович [и др.] ; ред. С.В. Симонович. - 2-е изд.. - СПб.: ПИТЕР, 2007. – С. 640. рис., табл.

10. Степанов А.Г., Мичурин С.В. Информатика и программирование. Учебное пособие/СПбГУАП. СПб., 2004. – С. 120. рис.

11. Fayziyev M.A. “O‘quvchilarning bilim va ko’nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi” (‘‘Informatika va axborot texnologiyalari’’ fani misolida) Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand davlat universiteti. 2008.

Alisher ABDINOBIYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti
Nilufar AXRAROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi yetakchi o‘qituvchisi

TA’LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda axborotdan foydalanish samaradorligini oshirishni rivojlantirish masalalari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quv jarayonida kompyuter modellashtirish texnologiyasidan foydalanish samaradorligiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari, mazkur masalani amalga oshirishda tavsiya, takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, inklyuziv ta’lim, kompyuter texnologiyalari, modellashtirish texnologiyalari.

В статье рассмотрены вопросы эффективного использования компьютерной техники в образовательных учреждениях. Авторами изложены работы, проводимые в сфере образования по использованию информационно-коммуникационных технологий, эффективность использования технологии компьютерного моделирования в учебном процессе. Изложены работы, проводимые в данном направлении. Даны рекомендации и предложения.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, средства массовой информации, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технологии моделирования.

The article discusses issues of effective use of computer technology in educational institutions. The authors outline the work carried out in the field of education on the use of information and communication technologies, the effectiveness of using computer modeling technology in the educational process. The work carried out in this direction is outlined. Recommendations and suggestions are given.

Key words. Information and communication technologies, media, inclusive education, computer technologies, modeling technologies.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-4947 son, 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5349-son, 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 5712-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5099-son Qarori ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asrida mamlakatimizda yangi ko‘rinishdagi axborot-ta’lim

muhitiga integratsiyalashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi paydo bo‘lmoqda. Bunday ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi. O‘quv fanlari bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta’minotga ega bo‘lgan kompyuterlar va ma’lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limiga joriy etish, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishini yanada samarali bo‘lishiga olib keladi.

Imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida (IChYoT)da AKT vositalari tahlili va dasturiy ta’minoti, axborot modellashtirish vositalari va ular asosida yaratilgan virtual resurslar (multimediya elektron darsliklari va virtual laboratoriyalari) imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitishda hamda umumiy intellektual rivojlanishi uchun ulkan vosita hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda oliy va maxsus maktablarida aniq fanlarni o‘qitish uchun maxsus ishlab chiqilgan ko‘plab modellashtirish dasturlari mavjud. Imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitishda AKTdan foydalanish birinchi tomondan ta’limning samaradorligini oshiradi va boshqa tomondan uyda ham, ta’lim muassasalarida ham ta’lim olish imkonini beradi. Imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitishda AKTdan samarali foydalanish uchun ma’lum bir sinf darsliklarida berilgan o‘quv materiallarining mohiyati aks ettirilgan turli xil kompyuter imitatsion model (KIM)dan yaratilgan animatsiyalar, laboratoriya ishlari va taqdimotlar ishlab chiqish zarur. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan yoshlarga bilim berishda AKTning o‘rni beqiyosdir.

Axborot texnologiyalarining yutuqlarini shaxsiy kompyuterlarning ixtiro etilishi bilan bejiz bog‘lamaydilar. Buning sababi axborot texnologiyalarining dasturiy vositalariga bo‘lgan zaruriyat shaxsiy kompyuterlarning paydo bo‘lishi natijasida ortib, kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda. Shaxsiy kompyuterni tatbiq etishdagi muhim yutuqlardan biri multimedia vositalarining yaratilishidir. Shaxsiy kompyuterlar multimedia, ya’ni ovoz, grafika, animatsiya, video vositalarini keng masshtabda tatbiq etish imkoniyatlarini yaratdi. Mazkur imkoniyatlar ta’lim tizimida vujudga kelganligini alohida ta’kidlash joizdir. Bular sirasiga virtual kutubxona, virtual o‘qitish texnologiyalarini keltirish mumkin. Yangi axborot texnologiyalari asosida boshqarishni avtomatlashtirish, ish yuritish, moliya ishlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarishni ta’minlash kabi ishlarni bajarish imkoniyatlari tug‘ila boshladi. Bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari (YaAT) tizimida juda katta imkoniyatga ega bo‘lgan redaktorlar, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qiluvchi dasturiy vositalarning mavjudligini ko‘rsatish mumkin. Ta’lim tizimiga joriy qilingan axborot texnologiyalarini yanada takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, shubhasiz o‘qish-o‘qitishning samarasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda YaATning olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan telekommunikatsion aloqa vositalari (kabelli, ipak tolali, sputnikli) asosida tashkil etilgan internet tizimining insoniyatga juda keng imkoniyatlar yaratib berganligini alohida ta’kidlash lozim. Internet hozirgi vaqtda butun dunyo kishilarining bilimlarini birlashtirish, ularning intellektual qobiliyatlaridan unumli foydalanish kabi masalalarni yechish bilan bir qatorda biznes, hordiq chiqarish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni ham hal qilishga imkoniyat yaratmoqda. Uchinchi

ming yillikning boshlarida 120 mln. kompyuterlar yagona dunyo tarmog‘iga ulangan bo‘lib, ulardan 1 mlrd. dan ziyod odamlar foydalanmoqda. Keyingi vaqtda internetdan o‘spirin yoshlar va xotin-qizlarning foydalanish suratini o‘sib borishini qayd etish mumkin. Uchinchi ming yillikning boshida axborot texnologiyalarni tatbiq etishdan koordinal o‘zgarishlar ro‘y berishi kutilmoqda. Shu jumladan, yo‘ldosh kanali orqali internet elektron kitoblar, dunyo internet kutubxonasining yaratilishi, internet video-telefonlar, muloqotli tarjimonlarning yaratilishi va nutqni hamda harakatni tushunadigan kompyuterlarning yaratilishi kutilmoqda. Bulardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim tizimiga YaATlarni joriy etish masalalariga tamomila boshqacha ko‘z bilan qaramoq lozim. Yuqorida qayd etilgan masalalar ta’lim tizimida ham YaATlarni tatbiq etishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash bilan bir qatorda ularni yechish bo‘yicha chora-tadbirlarni kechiktirmasdan ko‘rish kerakligini bildiradi. Shu o‘rinda ta’lim tizimida YaATlarni tatbiq etishning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri elektron kitoblar bazasida virtual o‘qitish tizimi va virtual laboratoriyalarni yaratishdir.

KIM va kompyuter texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy qilishning bugungi darajasini tahlil qilganimizda quyidagi holatni ko‘ramiz. Bugungi kunda KIM sohasida ta’lim tizimiga doir yaratilgan ishlarni qaraganimizda, ya’ni mavjud dasturiy vositalardan foydalangan holda ularning ma’lum bir yo‘nalishlariga taalluqli tomonlari o‘rganilayotganligi va ana shu nuqtayi nazardan ta’lim tizimiga tatbiq etish masalalari ko‘rilganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalarini xalq ta’lim tizimiga joriy etish ta’lim sifati samaradorligini oshirishga ulkan xizmat ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sapayev B.N., Todjiyev J., Razzoqova S., Hamdamov Sh., Bardiyev R.S. “Ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o‘tish va uning afzalliklari” innovatsion fan-ta’lim tizimini rivojlantirishning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi roli va ahamiyati ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami 30-may 2014-yil.

2. Boltayev B., Musayeva M.E. “Ta’lim-tarbiya jarayonida elektron resurslardan amaliyotda foydalanish”, “Elektron axborot resurslarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish omillari”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining 2016-yil ish rejasi

3. “Malaka oshirish tizimini takomillashtirishning axborot xizmatini yaratish va amaliyotga tatbiq etish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. PZ-2014-0925162601-r.

4. Hamidov V.S., Imamov E.Z., Mahmudov B. “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ta’lim jarayonini tashkillashtirish”. Ta’lim texnologiyalari ilmiy-uslubiy jurnal №1 2014.

5. Лутфиллаев М., Эшимов Р. “Разработка и внедрение виртуальных ресурсов для инклюзивного образования” Ж. “Xalq ta'limi” научно-методический журнал 2018 №2. – С. 138-142.

6. Лутфиллаев М.Х, Эшимов Р. “Методы организации учебного процесса инклюзивного образования на основе компьютерных имитационных моделей” Инклюзивное образование: теория, практика, опыт. Материалы международной научно-практической конференции. Национальная академия образования им. И. Алтынсарина. – Астана: НАО им. И. Алтынсарина, 2018. – С. 351-359.

Dilobar XOSHIMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

TALABANING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH (Aniq fanlarni o‘qitish misolida)

Annotatsiya

Maqolada muhandislik madaniyatini rivojlantirishda ilg‘or, innovatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati, muhandislik madaniyatini texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida shakllantirishning metodologik asoslari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, texnologiya, muhandislik madaniyati, innovatsion g‘oyalar, innovatsion siyosat.

В статье подробно рассмотрено роль и значение прогрессивных, инновационных технологий в развитии инженерной культуры, методологических основ формирования инженерной культуры у студентов технических высших учебных заведений.

Ключевые слова. Инновация, технология, инженерная культура, инновационные идеи, инновационная политика.

The article examines in detail the role and importance of progressive, innovative technologies in the development of engineering culture, the methodological foundations of the formation of engineering culture among students of technical higher educational institutions.

Key words. Innovation, technology, engineering culture, innovative ideas, innovation policy.

Har xil tabiat hodisalarini o‘rganishda ko‘ramizki, unda bir-biriga bog‘liq bir nechta o‘zgaruvchi miqdorlar ishtirok etadi. Masalan, doiraning radiusi o‘zgarganda uning yuzi ham ma’lum qonun asosida unga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Agar doiraning yuzini S va radiusini R orqali belgilasak, uning yuzi $S = \pi R^2$ kabi topilar edi. Bu yerdagi π o‘zgarmas son, R esa doiraning radiusi bo‘lganligi uchun u faqat musbat qiymatlarni qabul qiladi va biz istagan doirani qaraganimiz uchun u ixtiyoriy musbat qiymatni qabul qilishi mumkin, ya’ni $R \in (0; +\infty)$.

Doiraning radiusi R ning o‘zgarishi uning yuzi **S** ni ham ma’lum qonuniyat asosida o‘zgarishga majbur etadi. R ning har bir aniq qiymatiga **S** ning bitta aniq qiymati mos keladi. Bunday holda doiraning yuzi uning radiusining funksiyasi deb ataladi. Bunga o‘xshagan ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Ularda bir o‘zgaruvchining o‘zgarishi ikkinchi o‘zgaruvchining ma’lum qonuniyat asosida o‘zgarishga majbur etadi. Ikkita x va y o‘zgaruvchi miqdorni qaraymiz.

1-ta’rif. Agar miqdorning D sohadagi har bir qiymatiga biror qonun yoki qoida bo‘yicha y ning biror E sohadagi aniq bir qiymati mos qo‘yilsa, y o‘zgaruvchi miqdor

x o‘zgaruvchi miqdorning funksiyasi deb ataladi.

Bu holda y miqdor x ning bir qiymatli funksiyasi deb yuritiladi.

O‘zgaruvchi x miqdor erkli o‘zgaruvchi yoki argument, y miqdor esa erksiz o‘zgaruvchi yoki funksiya deb ataladi.

y ning x o‘zgaruvchining funksiyasi ekanligi ramziy tarzda $y = f(x)$

ko‘rinishda yoziladi (o‘qilishi: y teng ef x). $y = f(x)$ funksiyaning argument x ni aniq x_0 qiymatidagi xususiy qiymati $f(x_0)$ yoki $y\big|_{x=x_0}$ kabi belgilanadi. Masalan, agar $f(x) = 2x + 3$ bo‘lsa $f(1) = 2 \cdot 1 + 3 = 5$, $f(0) = 2 \cdot 0 + 3 = 3$, $f(2) = 2 \cdot 2 + 3 = 7$.

Bu yerdagi f, funksiyaning qiymatiga ega bo‘lish uchun uning argument ustida qanaqa matematik amallarni bajarish lozimligini ko‘rsatadi.

Funksiyani $y = \varphi(x)$, $y = y(x)$, $y = \phi(x)$ ko‘rinishda ham belgilash mumkin.

Ba’zan argumentning har bir qiymatiga funksiyaning bir emas bir nechta qiymatlari mos keladi. Bunday holda funksiya ko‘p qiymatli funksiya deb ataladi. Masalan, $x^2 + y^2 = R^2$ aylananing har bir nuqtasining x abssissasiga aylananing ordinatalari $y = \pm\sqrt{R^2 - x^2}$ bo‘lgan ikkita nuqtasi mos keladi, ya’ni bu yerda biz ikki qiymatli funksiyaga duch keldik.

Bundan buyon biz faqatgina bir qiymatli funksiyalar bilan ish ko‘ramiz.

2-ta’rif. Argument x ning $f(x)$ funksiya ma’noga ega bo‘ladigan qiymatlari to‘plami funksiyaning aniqlanish sohasi deb ataladi va d(f) orqali belgilanadi.

Masalan, $f(x) = \dfrac{1}{x-2}$ funksiya x=2 nuqtadan boshqa x ning barcha qiymatlarida aniqlangan. x=2 da kasrning maxraji nolga aylanib, funksiya ma’nosini yo‘qotadi, chunki hech bir sonni nolga bo‘lib bo‘lmaydi. Demak $D\left(\dfrac{1}{x-2}\right) = (-\infty;\ 2) \cup (2;\ +\infty)$.

Funksiya biror nuqtada aniqlangan bo‘lishi uchun u shu nuqtada $\dfrac{0}{0}, \dfrac{\infty}{\infty}, 0 \cdot \infty, \infty - \infty, 0^0, 1^\infty, \infty^0$ ko‘rinishga ega bo‘lmasligi lozim. Shuningdek, $y = \sqrt[2n]{\varphi(x)}$ ko‘rinishdagi funksiya faqat x ning $\varphi\ x) \geq 0$ tengsizlikni qanoatlantiradigan qiymatlaridagina aniqlangan.

3-ta’rif. $f(x)$ funksiyaning qabul qiladigan qiymatlari to‘plami uning o‘zgarish sohasi yoki qiymatlar sohasi deb ataladi va $E(f)$ orqali belgilanadi. Masalan. E(sinx)=[-1;1], E(tgx)=(-∞; ∞).

4-ta’rif. 0xy tekislikning koordinatalari y= $f(x)$ munosabat bilan bog‘langan R(x,y) nuqtalarning geometrik o‘rni y = $f(x)$ funksiyaning grafigi deb ataladi.

Funksiyaning grafigi uning asosiy xossalarini shu grafikka qarab aytish imkonini beradi. Har qanday funksiya ham grafikka ega deb o‘ylash noto‘g‘ri. Masalan Dirixle funksiyasi deb ataladigan.

$$D(x)=\begin{cases}1,\ x\ ratsional\ son\ b\ 'l\dot{e}\ \grave{a},\\ 0,\ \tilde{o}\ irratsional\ son\ b\ 'l\dot{e}\ \grave{a}.\end{cases}$$

funksiya grafikka ega emas . Butun sonlar o‘qi bu funksiyaning aniqlanish sohasini tashkil etadi, funksiyaning qiymatlar to‘plami faqat ikkita son, ya’ni 0 va 1 dan iborat. Demak, $D(D(x)=(-\infty;\infty)$, $E(D(x)=0;1\}$.

Endi funksiyaning berilish usullarini qaraymiz.

Funksiya turli usullar bilan berilishi mumkin. Ulardan ko‘p uchraydigani analitik, jadval va grafik usullaridir.

x va y o‘zgaruvchi orasidagi moslik formula orqali ifodalanganda funksiya analitik usulda berilgan deb ataladi. Masalan, $y=x^2$, $y=\frac{1}{x^2-1}$, $y=\frac{2^x}{x+1}$.

Funksiya aniqlanish sohasining turli qismlarida turlicha formulalar orqali berilishi ham mumkin. Masalan,

$$signx=\begin{cases}1,\ \grave{a}g\grave{a}r\ x>0\ b\ 'l\dot{e}\ \grave{a},\\ 0,\ \grave{a}g\grave{a}r\ x=0\ b\ 'l\dot{e}\ \grave{a},\\ -1,\ \grave{a}g\grave{a}r\ x<0\ b\ 'l\dot{e}\ \grave{a}.\end{cases}$$

x va y o‘zgaruvchi orasidagi bog‘lanish jadval ko‘rinishida ifodalanganda funksiya jadval usulda berilgan deb ataladi. Masalan, logarifmik, trigonometrik funksiyalarning qiymatlari jadvallari funksiyaning jadval usulda berilishiga misol bo‘la oladi.

Funksiyaning nuqtadagi limiti. $f(x)$ funksiya x=a nuqtaning biror atrofida aniqlangan bo‘lsin (x=a nuqtaning o‘zida aniqlanmagan bo‘lishi ham mumkin). $D(f)$ – funksiyaning aniqlanish sohasidan limitga ega bo‘lgan ixtiyoriy $\{x_n\}=\{x_1,x_2,....,x_n,...\}$ ketma-ketlikni olamiz. $f(x)$ funksiyaning $\{x_n\}$ ketma-ketlikning nuqtalaridagi qiymatlari $f(x_n)\}$ ketma-ketlikni tashkil etadi.

5-ta’rif. Argument x ning a dan farqli va unga yaqinlashuvchi barcha $\{x_n\}$ ketma-ketliklar uchun $y=f(x)$ funksiyaning shu ketma-ketlik nuqtalaridagi qiymatlaridan

tuzilgan $\{f(x_n)\}$ ketma-ketlik b songa yaqinlashsa, b son $y=f(x)$ funksiyaning x=a nuqtadagi (yoki $x \to a$ dagi) limiti deb ataladi va $\lim\limits_{x\to a} f(x)=b$ yoki $x \to a$ da $f(x) \to b$ ko‘rinishda yoziladi.

$f(x)$ funksiya x=a nuqtada faqat birgina limitga ega bo‘ladi. Bu yaqinlashuvchi $\{f(x_n)$ ketma-ketlikning yagona limitga ega ekanligidan kelib chiqadi.

6-ta’rif. Istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son mavjud bo‘lsaki, $|x-a| < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiradigan barcha a dan farqli x nuqtalar uchun $|f(x)-b| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, b chekli son $f(x)$ funksiyaning x=a nuqtadagi (yoki $x \to a$ dagi) limiti deb ataladi.

Birinchi ajoyib limit. $\frac{\sin x}{x}$ funksiya faqat x=0 nuqtada aniqlanmagan, chunki bu nuqtada kasrning surati ham, mahraji ham 0 ga aylanib uni o‘zi $\frac{0}{0}$ ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shu funksiyaning $\tilde{o} \to 0$ dagi limitini topamiz. Bu limit birinchi ajoyib limit deb ataladi.

Teorema. $\frac{\sin x}{x}$ funksiya $\tilde{o} \to 0$ da 1 ga teng limitga ega.

Isbot. Radiusi 1 ga teng aylana olib AOB markaziy burchakni x bilan belgilaymiz va u $\left(0, \frac{\pi}{2}\right)$ intervalda yotadi deb faraz qilamiz.

Δ AOB yuzi<AOB sektor yuzi< Δ DOB yuzi (17.2).

Biroq, Δ AOB yuzi = $\frac{1}{2}\hat{A}\grave{A} \cdot \hat{A}\vec{A} \cdot \sin x = \frac{1}{2}\cdot 1\cdot 1\sin x = \frac{1}{2}\sin x$ (uchburchakning yuzi ikki tomoni va ular orasidagi burchak sinusi ko‘paytmasining yarmiga teng).

AOB sektor yuzi = $\frac{1}{2}\hat{A}\vec{A}^{\,2} \cdot A\grave{A}\vec{A} = \frac{1}{2}\cdot 1^2 \cdot \tilde{o} = \frac{1}{2}x$,

Δ DOB yuzi = $\frac{1}{2}\hat{A}\vec{A} \cdot \hat{A}\hat{D} = \frac{1}{2}\hat{A}\vec{A} \cdot \frac{B\hat{D}}{1} = \frac{1}{2}\cdot 1\cdot tgx = \frac{1}{2}tg\ x$.

Shu sababli tengsizliklar $\frac{1}{2}\sin x < \frac{1}{2}x < \frac{1}{2}tgx$ ko‘rinishni yoki $\frac{1}{2}$ ga qisqartirilgandan so‘ng $\sin x < x < tgx$ ko‘rinishni oladi. Buning barcha


hadlarini sinx>0 ga bo‘lamiz $\left(0<x<\frac{\pi}{2}\right)$. U holda $1<\frac{\tilde{o}}{\sin x}<\frac{1}{\tilde{n}os\,x}$ yoki $1>\frac{\sin x}{x}>\tilde{n}os\,x$

tengsizliklarga ega bo‘lamiz. Bu tengsizliklar x>0 deb faraz qilinib chiqarildi. $\frac{\sin(-x)}{(-x)}=\frac{\sin x}{x},\ \ \tilde{n}os(-x)=\tilde{n}osx$ ekanligini e’tiborga olib, bu tengsizliklar x<0 bo‘lganda ham to‘g‘ri degan xulosaga kelamiz. Ammo $\lim\limits_{x\to0}1=1$ va $\lim\limits_{x\to0}\ \tilde{n}\hat{i}sx=1$.

Demak, $\frac{\sin x}{x}$ funksiya shunday ikki funksiya orasidaki, ularning ikkalasi ham bir xil 1 ga teng limitga intiladi. Shuning uchun oraliq funksiyaning limiti haqidagi teoremaga binoan oraliqdagi $\frac{\sin x}{x}$ funksiya ham ana shu 1 limitga intiladi, ya’ni

$\lim\limits_{x\to0}\ \frac{\sin x}{x}$ =1.

$\acute{o}=\frac{\sin x}{x}$ funksiyaning grafigi chizmada tasvirlangan.



chizma

1-misol. $\lim\limits_{x\to0}\ \frac{g\ x}{x}=\lim\limits_{x\to0}\ \frac{\frac{\sin x}{\cos x}}{x}=\lim\limits_{x\to0}\ \frac{\sin x}{x}\ \frac{1}{\cos x}=\lim\limits_{x\to0}\ \frac{\sin x}{x}\ \lim\limits_{x\to0}\ \frac{1}{\cos x}$ $=1\cdot\frac{1}{1}=1$.

2-misol. $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin mx}{x}=\lim\limits_{x\to 0}m\cdot\dfrac{\sin mx}{mx}=m\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin mx}{mx}=m1=m.$ (m-o‘zgarmas son).

3-misol. $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin\alpha x}{\sin\beta x}=\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\dfrac{\sin\alpha x}{x}}{\dfrac{\sin\beta x}{x}}=\dfrac{\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin\alpha x}{x}}{\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin\beta x}{x}}=\dfrac{\alpha}{\beta}.$

Ikkinchi ajoyib limit. Ushbu $\{x_n\}=\left\{\left(1+\dfrac{1}{n}\right)^n\right\}$ sonli ketma-ketlikni qaraymiz, bunda n-natural son.

Teorema 1. Umumiy hadi $x_n=\left(1+\dfrac{1}{n}\right)^n$ bo‘lgan ketma-ketlik $n\to\infty$ da 2 bilan 3 orasida yotadigan limitga ega.

Isboti. Nyuton binomi formulasi

$$(a+b)^n=a^n+\frac{n}{1}a^{n-1}b+\frac{n(n-1)}{1\cdot 2}a^{n-2}b^2+\frac{n(n-1)(n-2)}{1\cdot 2\cdot 3}a^{n-3}b^3+\ldots+$$
$$+\frac{n(n-1)(n-2)\ldots[n-(n-1)]}{1\cdot 2\cdot 3\cdot\ldots\cdot n}b^n$$

dan foydalanib ketma-ketlikni x_n va x_{n+1} hadlarini qo‘yidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\left(1+\frac{1}{n}\right)^n=1+\frac{n}{1}\cdot\frac{1}{n}+\frac{n(n-1)}{1\cdot 2}\cdot\left(\frac{1}{n}\right)^2+\frac{n(n-1)(n-2)}{1\cdot 2\cdot 3}\left(\frac{1}{n}\right)^3+\ldots+$$
$$+\frac{n(n-1)(n-2)\ldots[n-(n-1)]}{1\cdot 2\cdot 3\cdot\ldots\cdot n}\left(\frac{1}{n}\right)^n=1+1+\frac{1}{1\cdot 2}\left(1-\frac{1}{n}\right)+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}\left(1-\frac{1}{n}\right)\left(1-\frac{2}{n}\right)+\ldots+$$
$$+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\ldots n}\left(1-\frac{1}{n}\right)\left(1-\frac{2}{n}\right)\ldots\left(1-\frac{n-1}{n}\right),\qquad(4)$$
$$x_{n+1}=\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^{n+1}=1+1+\frac{1}{1\cdot 2}\left(1-\frac{1}{n+1}\right)+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}\left(1-\frac{1}{n+1}\right)\left(1-\frac{2}{n+1}\right)+\ldots+$$
$$+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\ldots n}\left(1-\frac{1}{n+1}\right)\left(1-\frac{2}{n+1}\right)\ldots\left(1-\frac{n-1}{n+1}\right)+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\ldots(n+1)}\left(1-\frac{1}{n+1}\right)\left(1-\frac{2}{n+1}\right)\ldots\left(1-\frac{n}{n+1}\right).$$

x_n bilan x_{n+1} ni taqqoslasak, x_{n+1} had x_n haddan bitta musbat qo‘shiluvchiga ortiqligini ko‘ramiz.

$1-\frac{k}{n+1}>1-\frac{k}{n}\quad (k=1,2,3...,n-1)$ bo‘lgani uchun uchinchi haddan boshlab x_{n+1} dagi har bir qo‘shiluvchi x_n dagi unga mos qo‘shiluvchidan katta. Demak, istalgan n uchun $x_{n+1}>x_n$ va umumiy hadi $x_n=\left(1+\frac{1}{n}\right)^n$ bo‘lgan ketma-ketlik monoton o‘suvchi.

Endi berilgan ketma-ketlikni chegaralanganligini ko‘rsatamiz. Istalgan k=1,2,3,… uchun $1-\frac{k}{n}<1$ ekanini hisobga olib formuladan $x_n=\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<1+1+\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}+...+\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\cdot ...\cdot n}$ tengsizlikni hosil qilamiz.

So‘ngra $\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}<\frac{1}{2^2}, \frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4}<\frac{1}{2^3}, ..., \frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\cdot ...\cdot n}<\frac{1}{2^{n-1}}$ ekanligini ta’kidlab, tengsizlikni $x_n=\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<1+\left(1+\frac{1}{2}+\frac{1}{2^2}+\frac{1}{2^3}+...+\frac{1}{2^{n-1}}+...\right)$ ko‘rinishda yozamiz. Qavsga olingan yig‘indi birinchi hadi a=1 va maxraji q=$\frac{1}{2}$ bo‘lgan geometrik progressiyaning hadlari yig‘indisini ifodalanganligi uchun cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning hadlari yig‘indisini topish formulasi $S=\frac{a}{1-q}$ ga asosan $x_n=\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<1+\frac{1}{1-\frac{1}{2}}=1+2=3$ tengsizlikka ega bo‘lamiz. Ketma-ketlik monoton o‘suvchi bo‘lganligi sababli uning birinchi hadi $x_1=\left(1+\frac{1}{1}\right)^1=2$ uning qolgan barcha hadlaridan kichik bo‘ladi.

Demak, barcha n uchun $2\le\left(1+\frac{1}{n}\right)^n<3$ o‘rinli, ya’ni umumiy hadi $x_n=\left(1+\frac{1}{n}\right)^n$ bo‘lgan ketma-ketlik monoton o‘suvchi va chegaralangan. Shu sababli

u monoton chegaralangan ketma-ketlikning limiti mavjudligi haqidagi teoremaga ko‘ra chekli limitga ega. Bu limitni ye harfi bilan belgilaymiz, ya’ni $\lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^n = e$, e – irratsional son. Keyinroq uni istalgan darajada aniqlik bilan hisoblash usuli ko‘rsatiladi: $å = 2{,}7182818284...$

Teorema 2. $\left(1+\frac{1}{\tilde{o}}\right)^{\tilde{o}}$ funksiya $\tilde{o}\to\infty$ da ye songa teng limitga ega:

$$\lim\limits_{\tilde{o}\to\infty}\left(1+\frac{1}{\tilde{o}}\right)^{\tilde{o}} = e \qquad (17.5).$$

Isboti. 1) $\tilde{o}\to\infty$ deylik U holda $n \le x < n+1$; $\frac{1}{n} \ge \frac{1}{x} > \frac{1}{n+1}$,

$1+\frac{1}{n} \ge 1+\frac{1}{x} > 1+\frac{1}{n+1}$, $\left(1+\frac{1}{n}\right)^{n+1} \ge \left(1+\frac{1}{x}\right)^{x} > \left(1+\frac{1}{n+1}\right)^{n}$ bo‘ladi. Agar $\tilde{o}\to\infty$, u holda $n\to\infty$ va $\lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^{n+1} \ge \lim\limits_{\tilde{o}\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x} \ge \lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^{n}$ yoki

$$\lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^{n}\left(1+\frac{1}{n}\right) \ge \lim\limits_{\tilde{o}\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x} \ge \lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n+1}\right)^{n+1}\left(1+\frac{1}{n}\right)^{-1}$$


$e\cdot 1 \ge \lim\limits_{\tilde{o}\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x} \ge e\cdot 1$ bundan $\lim\limits_{\tilde{o}\to\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x} = å$ kelib chiqadi.


2) $\tilde{o}\to-\infty$ deylik. Yangi t=-(x+1) yoki x=-(t+1) o‘zgaruvchini kiritamiz. $t\to+\infty$ da $\tilde{o}\to-\infty$ va


$$\lim\limits_{\tilde{o}\to-\infty}\left(1+\frac{1}{x}\right)^{x} = \lim\limits_{t\to+\infty}\left(1-\frac{1}{t+1}\right)^{-(t+1)} = \lim\limits_{t\to+\infty}\left(\frac{t}{t+1}\right)^{-(t+1)} =$$


$$= \lim\limits_{t\to+\infty}\left(\frac{t+1}{t}\right)^{t+1} = \lim\limits_{t\to+\infty}\left(1+\frac{1}{t}\right)^{t+1} = \lim\limits_{t\to+\infty}\left(1+\frac{1}{t}\right)^{t}\left(1+\frac{1}{t}\right) = å\cdot 1 = e$$


Matematik masalalarni Maple, Mathcad kabi kompyuter dasturlari yordamida yechish ham mumkin. Bu dasturlarning qulayligi funsiya grafiklarini ham aniq chizish mumkin. Quyida MATHCAD dasturi yordamida topilgan funksiya limitlari keltirilgan.











Zamonaviy, ijtimoiy, yo‘naltirilgan bozor iqtisodiga o‘tish rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy negizi ta’lim islohotlari hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va uning tarkibiy qismi bo‘lgan modulli o‘qitish texnologiyasini joriy etilishi oliy ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya va shaxs kamolotini shakllantirishda hamda pedagogik texnologiyani tatbiq qilinishida modulli texnologiyalardan xabardor bo‘lish, foydalanishni bilish bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azlarov T.A., Mansurov H. Matematik analiz. – T., 2006.

2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari . Qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2004.

3. Soatov Yo.U. Oliy matematika. – T., 1993.

4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy texnologiyalar. // Pedagogik ta’lim. – T., 2005. – №6. – 15-17 b.

5. Yunusova D. Bo‘lajak matematika o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. Diss. dok. ped. nauk. – T., 2012. – 292 b.

6. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – T.: Lider Press, 2009.

Nargiza MANNAPOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD

IMMUNOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada immunologiya darslarida axborot texnologiyalarini qo‘llash o‘qitishga differensial va individual yondashish prinsiplarini amalga oshirish, ta’lim oluvchilarga dars jarayonida o‘quv materiallari bilan mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib berishi masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, ta’lim sifati, texnologiya, takomillashtirish, interaktiv dasturiy vositalar.

В статье подробно анализируются проблемы использование информационных технологий на занятиях по иммунологии, реализации принципов дифференцированного и индивидуального подхода к обучению, создание каждому обучаемому возможностей самостоятельно работать с учебными материалами в ходе урока.

Ключевые слова. Информационные технологии, компьютерные технологии, качество образования, технология, совершенствование, интерактивные программные средства.

The article analyzes in detail the problems of using information technology in immunology classes, implementing the principles of a differentiated and individual approach to learning, creating opportunities for each student to independently work with educational materials during the lesson.

Key words. Information technology, computer technology, quality of education, technology, improvement, interactive software.

Jahonda biologiya ta’limi sohasini takomillashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish, tabiiy fanlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ularni o‘qitishning metodik asoslarini ishlab chiqish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlardan biri bo‘lgan SSR Asia ishlab chiqqan dasturda 2030-yilgacha ta’lim sifatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida oshirish e’tirof etilib, unda o‘quvchilarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash va samarali tashkil etish ko‘zda tutilgan. AKT sohasidagi jadal rivojlanish mahalliy va xalqaro miqyosda kadrlarning o‘zaro muloqot qilish va istiqbolda o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishlarini tubdan o‘zgartiradi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini ta’limning interaktiv dasturiy vositalaridan foydalanishga tayyorlashni tadqiq etish dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ta’lim muassasalarida: Harvard University, San Diego university (AQSh), University of Tokio (Yaponiya), Stiftung Digitale Chancen (Germaniya), Europen Information Technologies Certification Institute (Yevropa), Biologik tadqiqotlar Ilmiy markazi (Rossiya), Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi (O‘zbekiston)da olib borilmoqda. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: interaktiv topshiriqlardan foydalanib, o‘qitishni tashkil etishning samarali strategiyasi; web-quest texnologiyasi mazmuni, strukturasi va ta’lim

amaliyotida foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan (Cambridge, MA: Harvard University Press, San-Diego university); DNKlarni o‘rganish kompetensiyasiga ega bo‘lgan oqsil muhandisligi va bioinformatika bo‘yicha biotexnologiya asoslarini egallagan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimi yaratilgan (University of Tokio); intellektual kompyuter savodxonligini tadqiq etishda konstruksiyalardan foydalanish metodi ishlab chiqilgan (Assocation of Information Technology Professionals, www.aitp.org.), zamonaviy o‘quv materiallarini loyihalash, atrof muhit bilan bog‘lash va sertifikatlashtirish amalga oshirilgan (Stiftung Digitale Chancen, Germany); ta’limda kompyuter texnologiyalaridan turli vaziyatlarda foydalanish imkonini beradigan treninglar tizimi ishlab chiqilgan. Ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishga doir xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari takomillashtirilgan (Europen Information Technologies Certification Institute); biologik yo‘nalishdagi tadqiqotlarga yer va suvosti ekotizimlarda o‘simliklar va hayvonlarning biologik xilma-xilligini samarali o‘rganishni ta’minlovchi nanotexnologiyalar joriy etilgan. Axborot texnologiyalari rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlari tahlili ta’lim tizimining barcha bosqichlari o‘quv-tarbiya jarayonida elektron o‘qitish vositalari rolining ortganligini ko‘rsatmoqda. Ta’limni axborotlashtirish zamonaviy o‘qitish vositalarining yangi yo‘nalishi, ya’ni interaktiv texnologiyalar va interaktiv o‘qitish vositalarini vujudga keltirdi.

Kompyuter texnologiyasi o‘quvchilar uchun obyektning o‘zining xarakterini yax-shiroq anglash, uni o‘rganish jarayoniga faol ishtirok etib, mustaqil ravishda ham uning ko‘rsatkichlarini, ham vazifa shartlarini o‘zgartira olish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, axborot texnologiya obyektning tuzilishi va mohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki muhimrog‘i ularning aqliy rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonida juda zarur bo‘lgan materialni o‘zlashtirish darajasini tez va haqqoniy aniqlash imkoniyatini ham yaratadi.

Hozirgi kunda kompyuterlar ta’lim tizimida asosan to‘rt yo‘nalishda foydalanilmoqda:

– o‘rganish obyekti sifatida;

– o‘qitishning texnik vositalari sifatida;

– ta’limni boshqarishda;

– ilmiy-pedagogik izlanishda.

O‘qituvchi tomonidan kompyuterlardan dars mobaynida foydalanish quyidagicha ta’minlanadi:

1. Uning tasviriy vositalari o‘quv axborotini akslantirishini takomillashtirishga va sifat jihatdan o‘zgartirishga yordam beradi.

2. O‘quvchilarning o‘qish ehtiyojini kuchaytiradi va qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bu faqatgina kompyuterning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ta’minlanadi, ayrim paytda o‘quv axborotini uzatishni boshqarish yo‘llari bilan o‘quvchini tayyorgarlik darajasi hamda taklif etilayotgan o‘quv materialini murakkabligiga bog‘liq holda u o‘qituvchi tomonidan qayta ishlanadi.

3. Har bir o‘quvchi voqelikni o‘rganish jarayoniga faol va to‘liq ishtirok ettiriladi. An’anaviy o‘qitish tizimi esa bunday imkoniyatni ta’minlay olmaydi va o‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga ta’limning keyingi bosqichlari hamda faoliyatida salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Qaytar aloqa asosida taklif qilinayotgan amaliy ishlar turlari va shakllarining xilma xilligini ta’minlaydi hamda ularning bajarish bosqichlarini ifodalab beradi. Bunda

har xil hodisa, xatolarni rivojlantirish, modellashtirishga qaratilgan masalalar nazarda tutiladi. Masalalarning yechimlari optimalligini nazorat qilish kompyuterlar yordamida qaytar aloqani o‘rnatish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

5. Bilish jarayonini boshqarish asosida o‘quvchilarning faoliyatini sifat jihatdan yuqori saviyada nazorat qilishni ta’minlaydi. An’anaviy o‘qitish tizimining asosiy kamchiliklaridan biri shuki, o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni nazorat qilish imkoniyatining yo‘qligi va zaruriyat bo‘lganda o‘qitish faoliyatida o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi dinamik o‘zgarishlarni to‘la ravishda kuzatishdan mahrumdir.

6. O‘quv jarayonida o‘quvchi o‘z faoliyatini tizimli ravishda nazorat qilib borishini ta’minlaydi.

Kompyuterli ta’lim tamoyillari: ilmiylik, tizimlilik va ketma-ketlik, ko‘rgazmalilik, o‘quvchilar faoliyatini individuallashtirish, nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligi, tushunarlilik, fanlararo ham fan ichidagi bog‘liqlikni ta’minlash, fanning turmush bilan bog‘liq bo‘lishi, bilish faoliyatini faollashtirish, izlanishga o‘rgatish Interaktivlik (inglizcha interaction – o‘zaro ta’sir), obyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xarakteri va darajasini yoritadigan tushuncha.

Interaktivlik tizimlarni tashkil etish prinsipi bo‘lib, tizim elementlari orasida faol axborot almashishga erishish maqsadini ko‘zlaydi. Interaktivlik elementlari tizimlarning boshqa tizim (inson foydalanuvchi) bilan hamkorlik qiladigan barcha elementlari hisoblanadi. Interaktiv o‘qitish vositalari mikroprotsessorli va raqamli texnikalar bazasida funksiyalashtiriladigan, foydalanuvchining kompyuter bilan hamkorlikdagi dialogli faoliyatini ta’minlovchi dasturli, apparat-dasturiy hamda texnik vosita va jihozlar hisoblanadi. Interaktiv o‘qitish vositalarining o‘ziga xos xususiyati immunologiya darslarida talabalarning o‘quv materiali bilan muloqotga kirishishidan iborat bo‘lib, o‘qituvchining maxsus vazifalarini bajaradi. Teskari aloqa talabaning o‘zi tomonidan maslahatli ma’lumotlardan foydalanib, ish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni avtomatik tarzda tashxislash asosida bilimlarni to‘g‘rilashi va to‘ldirishiga yo‘naltirilgan. Bizningcha, interaktivlik talabalarning interaktiv dasturiy vositalar yordamida immunologiya fanidan faol axborot almashishi, o‘quv materiali bilan muloqotga kirishishini ta’minlaydi. Avtomatik tashxislash asosida teskari aloqaning amalga oshirilishi o‘quv materialini o‘zlashtirish va ta’lim jarayoni samaradorligini orttirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari interaktiv dasturiy vositalarni yaratish, saqlash, yetkazish, izlash kabi jarayonlarni optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratgan.

‘‘Immunologiya” fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

1. Axborot texnologiyalari ‘‘Immunologiya” fanini o‘qitishda ko‘zda tutiladigan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga imkon beradigan o‘quv materialini yig‘ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta’lim jarayonida foydalanish imkonini beradi.

2. Har bir o‘quvchida mavjud iqtidor, o‘qitishga bo‘lgan ehtiyoj, qiziqish va o‘quv motivlariga mos holda tahsil olish trayektoriyasi, tempini belgilash zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

3. O‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

4. O‘quv yurtida amalga oshirish imkoni bo‘lmagan hollarda tajribalarni virtual

namoyish qilish imkonini beradi.

5. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish, o‘quv-bilish jarayonini faollashtirish va o‘quv motivlarini orttirishga zamin tayyorlaydi.

6. Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya’ni qisqa muddat ichida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi.

Axborot texnologiyalari ta’lim vositasi sifatida qaralganda, intellektual mehnat quroliga aylanadi hamda modellashtirish, axborotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish orqali o‘quv mehnatini yengillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter insonning axborotni qabul qilish, xotiraga olish, tasavvur qilish, fikrlash jarayonlari orqali amalga oshiriladigan qobiliyatlarini, ya’ni intellektini rivojlantirish vositasi sifatida katta imkoniyatlarni ochib beradi. Shuning uchun ‘‘Immunologiya” fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni bir qancha dasturlardan (‘‘Macromedia Flash Professional” 8.0, ChemDraw Ultra 10.0, Chem 3D Ultra 10.0 va ‘‘Camtasia Studio 5”) foydalanib tayyorlangan animatsion hamda audiovizuval ko‘rinishlar orqali tushuntirishga harakat qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – T., 2019, 8-oktabr. / https://lex.uz

2. Ergasheva G. Biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: ‘‘Fan va texnologiya’’, – 2017. − 203-218 b.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2017.

4. Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G‘. Pedagogik texnologiya. – T.: “Fan” nashriyoti. 2018 y. – 123 b.

5. Pozilova Sh. Pedagogik dasturiy vositalar fanidan ma‘ruza mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T., 2019. –172 b.

6. Suropov B. Elektron ta’lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). … diss. – T., – 2019. –170 b.

Abduboqi KARIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, PhD
Nurxon KARIMOVA,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, ‘‘Arxitektura yodgorliklari rekonstruktsiyasi va restavratsiyasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MULTIMEDIALI KONTENT ASOSIDA O‘QITISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada multimedia resurslar, multimediali kontentlar o‘qitishning samarali vositalaridan biri ekanligi, mul’timedia ilovalari va xizmatlarining rivojlanishi, multimediali texnologiyalarning qo‘llanilish sohalari batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim tizimi, texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, kontent, vosita, virtual va kengaytirilgan borliq, sun’iy intellekt, bulut texnologiyalari.

В статье подробно анализируется мультимедийные ресурсы, мультимедийный контент как эффективное средство обучения, развитие мультимедийных приложений и сервисов, расширение сфер применения мультимедийных технологий.

Ключевые слова. Образовательная система, технология, информационные и коммуникационные технологии, мультимедиа, контент, средство, виртуальное и расширенное присутствие, искусственный интеллект, облачные технологии.

The article analyzes in detail multimedia resources, multimedia content as an effective teaching tool, the development of multimedia applications and services, and the expansion of the scope of application of multimedia technologies.

Key words. Educational system, technology, information and communication technologies, multimedia, content, instrument, virtual and extended existence, artificial intelligence, cloud technologies.

Jahonda multimediya texnologiyalari uzluksiz rivojlanib va takomillashib bormoqda, bunday rivojlanishlar zamirida virtual va kengaytirilgan borliq, sun’iy intellekt, bulut texnologiyalari multimediya sohasiga yangi imkoniyatlar, qulayliklar va istiqbollar olib kirmoqda hamda multimedia ilovalari va xizmatlarining rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Multimediali texnologiyalarning qo‘llanilish sohalari ham kundan-kunga kengayib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib kelayotgan bir vaqtda multimedia texnologiyalari axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotgan tarmog‘i sifatida barcha sohalarda o‘zini namoyon qilib bormoqda.

Multimedia – bu raqamli iqtisodiyot asrida keng tarqalgan va turli sohalardagi aloqani jiddiy o‘zgartirgan hodisa bo‘lib, bugungi kunda multimedia texnologiya sifatida ko‘ngilochar jabhalarda, turizm, muzeylar namoyishida, reklamada, tibbiyot, ta’lim va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilmoqda. Multimediani amaliy qo‘llash sohasi keng bo‘lishiga qaramay, bu hodisaning mohiyatini tushuntiradigan jiddiy nazariy ishlar hali ham kam. Multimedia texnologiyalarini ta’lim tizimiga keng qamrovli jalb etishga va ushbu texnologiyaning asosiy resursi bo‘lgan turli kontentlarni samarali qo‘llash orqali multimedianing strukturasini shakllantirishga alohida e’tiborni qaratishimiz zarur. Asta-

sekin multimedia kontenti o‘rganishning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Bu virtual haqiqat mexanizmining paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi bilan yuksaladi va multimedia ta’limi deb atash mumkin bo‘lgan yo‘nalishning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bugungi ta’lim muhiti o‘qituvchilarga raqamli avlod farzandlari bo‘lmish zamonaviy o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb etishda samarali imkoniyatlar yaratmoqda. Ta’limning dinamik usullari va yangi texnologiyalar sinfda ham, darsdan tashqari mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga ham imkon beradi. Raqamli kontentdan foydalanish butun kurslar, individual modullar, mashqlar, o‘quv qo‘llanmalari, elektron kitoblar, video ko‘rsatmalar va boshqalar bilan ishlashda ham namoyon bo‘ladi.

Multimedia bu ma’lumotlar bir vaqtning o‘zida bir nechta formatda taqdim etiladigan tarkibni anglatadi. Ushbu turdagi kontentlar muhimligi jihatidan katta imkoniyatlarga ega. Ta’lim tizimida o‘qituvchilar tomonidan eng ko‘p ishlatiladigan vositalar matnli ma’ruza yoki video ma’ruzalardir.

Bu asosan ikki sababga bog‘liq:

– birinchidan, multimedia kontentini ishlab chiqish maxsus xizmatlar va dasturlarni bitishtirishini talab qiladi;

– ikkinchidan, o‘qituvchilar orasida multimedia kontenti mavzuni chuqur o‘rganishga imkon bermaydi degan doimiy noto‘g‘ri bir g‘oya mavjud.

Bu ta’limdan ko‘ra ko‘proq ko‘ngilochar komponentga ega deb hisoblanadi. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish faqat har tomonlama bo‘lishi mumkin. Zero, multimedia kontentini ishlab chiqishning uslubiy asoslarini aniq tushunmasdan turib, texnologiyani o‘zlashtirish istalgan natijani bermaydi. Aksincha, o‘qituvchining xizmatlarni o‘rganishga doimiy qiziqishi, ulardan foydalanishning afzalliklari va samaradorligini yaxshi bilgan taqdirdagina zaruriy element shakllanadi.

Ta’lim tizimini takomillashtirish va o‘quv jarayonini yanada samarador va sifatli texnologiyalar bilan ta’minlash hamda ularni rivojlantirish davr taqozasiga aylanib bormoqda. Ayniqsa ko‘rgazmali namoyishlar va veb ilovalardan multimediali namoyishlarda kontent sifatida foydalanish va ommalashtirish bugunning muhim talablaridan biridir.

Multimedia kontent multimedia texnologiyalari uchun asosiy resurs hisoblanadi va uning strukturasini shakllantirishda va ularning konponentalarini belgilovchi rol o‘ynaydi. Multimedia texnologiyalari bir nechta muhim komponentalardan tashkil topadi va ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

– texnik komponentalari;


– dasturiy komponentalari;

– strukturali komponentalari.

Multimedia texnologiyalarining muhim texnik komponentalari odatda ovoz kartasi, mikrofon, dinamiklar va videoga olish moslamasini o‘z ichiga oladi.

Multimedia texnologiyalarining dasturiy komponentalari multimedia kontentlarni yaratishda va ularni sifatli tarzda namoyish etishda muhim rol o‘ynaydi. Tuzish dasturlari, birlashtirish dasturlari, loyihalash (dizayin) dasturlari tahrirlash va namoyish dasturlariga ajratishimiz mumkin.

Multimedia texnologiyalarining strukturali komponentalariga uning strukturasini tashkil etishda ishlatiladigan resurslarga aytiladi. Ularni quyidagi sxema orqali birlashtirishimiz va namoyish etishimiz mumkin.



Aslida internetdagi va veb olamda veb-saytlarda joylashtirilgan deyarli barcha ma'lumotlar kontentdir. Ushbu ta'rif manbalar, videolar, fotosuratlar va chizmalar, audio yozuvlarning matn mazmunini o'z ichiga oladi. Kontent – bu foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan ma'lum turdagi ma'lumotlar va axborotlardir. Bu har qanday mavzu bo'lishi va turli shakllarda ifodalanishi mumkin. "Kontent" tushunchasi ma'lumotni olib yuradigan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Bu matn, video, audio, infografika, fotosuratlar (yoki boshqa rasmlar) bo'lishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, kontent bu – veb-saytlar, electron adabiyotlar, musiqa va videolar orqali tarqatiladigan tarkibdir. Siz qabul qiladigan barcha manbalarni konteynerlar deb atashingiz mumkin. Har qanday turdagi kontentning umumiy ta'rifidan – mazmun, tarkib, ma'lumot degan ma'noni beradi. Bundan tashqari boshqa bir manbalarda Kontent so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, bu atama kontekstga qarab "content", "mohiyat", "hajm" deb tarjima qilinadi. Kontentni taqsimlash texnologiyaga va uni nashr qilish vaqtiga bog'liq. Ilgari, bu asosan adabiyot, kino yoki kontsertlar orqali sodir bo'lardi. Ayni paytda esa veb-saytlar, mobil telefon ilovalari va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni anglatadi va ular ta'limni shakllantirishda juda katta rol o'ynaydi. Kontentlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

– promo kontentlar (Sotish va tijorat uchun mo'ljallangan saytlar);
– ko'ngil ochar kontentlar;
– kognitiv yoki o'rgatuvchi, foydali kontentlar;
– interaktiv (foydalanuvchini o'zaro muloqotga jalb qiladi) kontentlar;
– maxsus kontentlar.

Taqdim etish formati bo'yicha:

– matn formati: maqolalar va blog postlari, veb-sayt uchun matnlar, longread;
– chatbotlar;
– intervyu;
– keyslar;
– audio content;
– infografika va grafik content;
– taqdimotlar;
– animatsiyalangan, GIF;
– axborotnomalar: elektron pochta, sms, ijtimoiy tarmoqlar;
– video: reklama videolari, hikoyalar, reklama, intervyular va boshqalar;
– reklama kampaniyalari (bir nechta funksiyalarni birlashtiradi);
– ko'p formatli.

Joylashuvi bo'yicha:

– shaxsiy veb-sayt;
– ijtimoiy tarmoqlar;
– videoxosting (YouTube);
– elektron pochta;
– xabarchilar;
– tematik platformalar.

His etish usuli bo‘yicha:
– raqamli;
– jismoniy.

Funksiyasi bo‘yicha:
– axborotli;
– reklamali;
– xizmatchi;
– virusli;
– obro‘ yoki imijni ifodalovchi.

Ta’lim tizimida qo‘llaniladigan har qanday kontentlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– o‘ziga xoslik, noyob bo‘lmagan material (nusxa ko‘chirish yoki past sifatli qayta tayyorlash) qidiruv natijalarida ma’lum bir sahifa yoki butun domenning tushkunligiga olib kelishi mumkin;

– savodxonlik (tayyorlangan va foydalanilayotgan kontentlar imlo xatolardan xoli bo‘lishi kerak), tushunish qiyin bo‘lgan til va ko‘plab stilistik va imlo xatolari resursning ishonchliligini sezilarli darajada pasaytiradi.

– qidiruv so‘rovlaridan optimallashtirish, to‘g‘ri formatlashtirish va rasmiylashtirish (qidiruv mexanizmi maqbullashtirilgan va soddalashtirilgan bo‘lishi zarur);

– axborotlar ta’minlanganligi – informativlik, axborotning foydaliligi va dolzarbligi, kontentning asosiy maqsadlaridan biri foydalanuvchilar o‘rtasida ishonchni mustahkamlashdir. Yuqori sifatli, qiziqarli matnlar maqsadli auditoriyani jalb qilish va uni bosh–qarishga yordam beradi;

– tarqatilayotgan materialning qulayligi, tushunarliligi va o‘qilishining soddaligi hamda aniqligi;

– ijodiy elementlar va tajriba natijalarining o‘quvchilar va foydalanuvchilar uchun mosligi;

– qonun doirasidan kelib chiqqan holda hujjatlariga muvofiqligi;

– materiallarning to‘g‘riligi va shaffofligi;

– so‘rovlar va mavzuning dolzarbligi;

– zarurat tug‘ilganda yangilashi.

Internet kontent har qanday holatlarda ham insonlar hayotiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Siz tuzgan kontent resurs foydalanuvchilar uchun qiziqarli va muvaffaqiyatli bo‘lishini istasangiz, unu eng saralangan, ulkan va mualliflik huquqidagi kontentlar bilan boyitib boring. To‘g‘ri taqdim etilgan yuqori sifatli va axborotli ma’lumotlar har qanday kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlarini reklama qilishning muhim usullaridan biridir.

Multimedia kontenti bu – multimedia aloqa turi bo‘lib, bitta taqdimotda audio, matn, rasmlar, video va animatsiyalar kabi turli xil tarkiblarning kombinatsiyasi shaklida namayon bo‘ladi. Bu audio yozuvlar va bosma materiallar kabi an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan farq qiladi. Vaqt o‘tishi bilan gipermedia kengaytmalari multimediani keyingi bosqichga olib chiqdi. Ya’ni WWW - World Wide Web, demak xulosa qilib aytish mumkin-ku, bugungi kunda buning qadri beqiyosdir.

Multimedia kontentning bir muncha afzalliklari mavjud: multimedia kontenti an'anaviy matnga asoslangan kontentga qaraganda tomoshabinlarni yanada samaraliroq o'ziga jalb qiladi va vizual, audio va interaktiv elementlardan foydalanishda bir nechta his-tuyg'ularni rag'batlantiradi, bu esa tarkibni esda qolarli va ta'sirli qiladi.

Yaxshilangan ma'lumotni saqlash: Ma'lumotni bir nechta media formatlarida taqdim etish orqali multimedia kontenti ma'lumotni yaxshiroq saqlashni osonlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar faqat matnga nisbatan vizual, audio va matn kombinatsiyasi orqali ma'lumot yetkazilganda ko'proq eslab qolishadi.

Murakkab tushunchalarni yaxshiroq muloqot qilish: Ba'zi tushunchalar yoki g'oyalarni faqat matn orqali tushuntirish qiyin. Multimedia kontenti vizualizatsiya, animatsiya va interfaol elementlar orqali murakkab tushunchalarni soddalashtirish uchun kuchli vositani taqdim etadi, bu ularni tomoshabinlar uchun tushunarli va hazm bo'ladigan qiladi.

Multimediali kontent ortidagi g'oya noyob foydalanuvchi tajribasini yaratish bo'lib, auditoriyada ohang va tinglovchilar jo'rligini ta'minlash, shuningdek, keng axborotlar inspektorini hamohanglikka biriktirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, kontentni birlashtirish Veb-ga asoslangan multimedia kontenti manbalari va serverlarining ko'payishi turli xil foydalanuvchilar tomonidan iste'mol qilinadigan multimedia kontenti hajmi va xilma-xilligining ulkan o'sishiga olib keldi. "Multimedia kontentini uzluksiz tarmoq ulanishi orqali hamma joyda yetkazib berish" maqsadi haqiqatga aylanmoqda. Albatta, ko'plab texnik muammolar mavjud, ammo har kuni yangi yechimlar ishlab chiqilmoqda va natijada paydo bo'ladigan xizmatlarga tijorat talabi katta va barqaror o'sib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A.A., Shukurov V.S., Khaydarov J.K. Factors for the formation of multimedia competencies in improving the methodology of teaching specialist subject. SSCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 10 OCTOBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ.

3. Бейт Б. Андресен, Катя Ван Ден Бринк. Мультимедиа в образовании. Специализированный учебный курс. /Авторизованный перевод с англ. – М.: ''Обучение-сервис'', 2005. – С. 216.

4. Цветков В.Я., Тюрин А.Е. Управление потоками мультимедиа в образовательном пространстве // Информатизация образования и науки. – 2014,- №1. – С. 170-178.

5. Воронов М.В., Пименов В.И. Мультимедийные технологии и дистанционное обучение // Университетское управление. 2000. № 1(12). – С. 67-69.

Raxmon ESHIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
Jasur ALLAYOROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti

MASOFAVIY O‘QITISH TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARINI QO‘LLASHNING DIDAKTIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada masofaviy o‘qitish tizimida axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llashda didaktik muammolarning o‘ziga xos xususiyatlari, axborot texnologiyalarning rivojlanishi tendensiyalari va ularning tatbig‘i, axborot texnologiyalarini tatbiq qilishdagi muammolar, ularni bartaraf etishning yo‘llari to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Masofaviy ta’lim, axborot texnologiyalari, vositalar, didaktik muammolar, o‘ziga xos xususiyatlar.

В статье рассмотрены особенности дидактических задач при применении средств информационных технологий в системе дистанционного обучения, развитие и внедрение новых информационных технологий, пути преодоления возникающих проблем при применении средств информационных технологий в образовании.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, информационные технологии, средства, специфика дидактических задач.

The article discusses the features of didactic tasks when using information technology tools in the distance learning system, the development and implementation of new information technologies, and ways to overcome emerging problems when using information technology tools in education.

Key words. Distance learning, information technologies, tools, specifics of didactic tasks.

Masofaviy o‘qitishni tashkillashtirishda tinglovchilar bilan doimiy ravishda aloqada bo‘lish, tinglovchilarga zaruriy metodik yordam berish, yakka tartibdagi mashg‘ulotlarni bajarish yuzasidan nazoratni amalga oshirish va tinglovchilar bilimini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng qamrovli foydalanishni taqozo etadi. Masofaviy o‘qitish tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llashning didaktik muammolari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Ta’limni axborotlashtirish – bu jarayonning tarkibiy qismi sifatida jarayonlar, usullar, dasturiy-texnik vositalar tizimini o‘z ichiga oladi. Ta’limni axborotlashtirishning maqsadi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish hisobiga intellektual faoliyatning global tezlashuvini ta’minlashdan iborat.

Yangi axborot texnologiyalarning rivojlanishi va tatbiqi ta’limda salbiy holatlarni bartaraf etishning yo‘llaridan biridir.

Asosiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqamiz: barcha darajalarda ta’limning fundamentallashuvi; ta’lim tizimini inson umri davomida uzluksiz ta’lim sifatida shakllantirish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’limning rivojlanayotgan va innovatsion

usullarini tatbiq etish; ta’limning sifatini masofaviy ta’lim, zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari vositalarini rivojlantirish yo‘li bilan oshirish.

Shunday qilib, ta’lim tizimini isloh qilishning barcha asosiy yo‘nalishlariga ta’sir qiluvchi muhim omillaridan biri – uni axborotlashtirish demakdir. Ta’limni axborotlashtirish esa o‘z navbatida mamlakatni axborotlashtirishning zaruriy sharti va muhim bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyotining industrial (sanoat) bosqichidan axborot bosqichiga o‘tishning asosi bo‘lib, yangi axborot texnologiyalari xizmat qiladi.

Ta’limni axborotlashtirish quyidagi yangi axborot texnologiyalarning muhim omillaridan foydalanish tufayli yuzaga keladi: har bir shaxsga shaxsiy o‘qish yo‘lini tanlash imkoniyati; biluv jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirish; ta’limni axborot-uslubiy ta’minotini samarali boshqarish tizimini yaratish; o‘quv jarayonida talabalarning o‘rganish faoliyatini samarali tashkil etish; kompyuterning maxsus xususiyatlaridan unumli foydalanish; turli darajali masofaviy o‘qitish tizimlarini tatbiq etish, rivojlantirish va mukammallashtirish.

Bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari bir qancha didaktik masalalarni yechish imkonini beradi: murakkab texnik va biologik tizimlar ichida kompyuter grafikasi vositalari va kompyuterli modellashtirish asosida makro va mikro olam jarayonlari va hodisalarini o‘rganish; haqiqatda juda katta va juda kichik tezlik bilan o‘tuvchi turli fizik, ximik, biologik va ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish uchun qulay bo‘lgan vaqt masshtabida namoyon etish.

Yangi axborot texnologiyalari vositalari (YaATV) deganda, axborotni yig‘ish, to‘plash, qayta ishlash, saqlash, uzatish amallarini ta’minlovchi, mikroprotsessor texnikasi, axborot almashinuvining telekommunikatsion tizimi va zamonaviy vositalari, audio-videotexnika asosida ishlovchi dasturiy, apparatli vosita va qurilmalar tushuniladi.

Hozirgi vaqtda yetarlicha ko‘p sondagi yangi axborot texnologiyalari vositalari ishlab chiqilgan va foydalanilmoqda. Ularning soni yil sayin o‘zgarmoqda. Ular ro‘yxatiga quyidagilarni kiritish mumkin: barcha sinf kompyuterlari, displey, printer, xotira, kompyuterga ovozni kiritish qurilmasi, skaner, klaviatura, ma’lumotlar ombori, bilimlar ombori, multimedia tizimlari, videomatn, telematn, TV-axborot, modem, kompyuter tarmoqlari, elektron pochta, elektron konferensiyalar, axborot qidiruv tizimlari, raqamli fotokameralar, ekspert o‘qitish tizimlari, grafik axborotni chiqarish qurilmasi, gipermatnli tizimlar, televideniye, radio, telefon, faks, ovozli elektron pochta, telekonferensiyalar, elektron doska, Internetdagi dasturiy vositalar, avtomatlashtirilgan kutubxonalar, o‘qitishga mo‘ljallangan dasturiy vositalar, tahririy-nashriyot tizimlari, CD ROM, dasturiy majmualar (dasturlash tillari, translatorlar), berilganlarni uzatish vositalari, radiostansiya va boshqalar.

Bu ro‘yxatni to‘liq deyish fikridan yiroq bo‘lish kerak. Lekin bu ro‘yxat yangi axborot texnologiyalari vositalarining va tizimlarining turli ko‘rinishlari haqida tasavvur beradi.

Yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat: o‘quv-tarbiya jarayonining barcha darajalarini intensivlash (tezlashtirish); talabaning har taraflama rivojlanishi; oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini axborotli jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash; ijtimoiy talabni qondirish.

Oliy ta’limdagi muhim axborot va telekommunikasion texnologiyalar quyidagilar: elektron darslik; multimedia tizimlari; ekspert tizimlar; avtomatik loyihalash tizimi; elektron kutubxonalar; ma’lumotlar ombori; lokal va global hisoblash tizimlari; elektron pochta; ovozli elektron pochta; elektron doska; telekonferensiyalar tizimi; elektron tipografiya.

Yangi axborot texnologiyalar turlari va vositalari belgilariga qarab tasniflashga harakat qildik, ya’ni ularni 3 guruhga ajratdik:

A – audio, V – video, P – matn deb shartli nomlandi.

Yangi axborot texnologiyalari vositalari (YaATV) – bu o‘qitishning texnik vositalarining analogidir.

Masofaviy o‘qitish tizimida yangi axborot texnologiyalari tizimlari va vositalari

YaATV turlari		Yangi axborot texnologiyalari vositalari	Qo‘llash sohalari	Tarqalganlik darajasi	O‘qitish shakli
A – audio guruh	1.	Radio	O‘R	Kam	Ma’ruza
	2.	Radiotranslyatsiya tarmog‘i	O‘R	Kam	Ma’ruza tash. mashq.
	3.	Telefon	O‘MT	Ko‘p	Maslahat
	4.	Audioyozish	O‘M	Ko‘p	Mustaqil ish
	5.	Audiokonferensiya	O‘M	Epizodik	Seminar
	6.	Ovozli pochta(aloqa)	O‘M	Epizodik	Maslahat
V – video guruh	7.	Ovozli, teskari aloqali televideniye	O‘R	Epizodik (har-har)	Ma’ruza, seminar
	8.	Elektron pochta orqali televideniye	O‘MT, O‘M	Kam	Ma’ruza, semin. mas.
	9.	Sekin skanerlanuvchi televideniye	O‘M	Kam	Ma’ruza, seminar
	10.	Televizion videokonferensiyalar	O‘M	Epizodik	Ma’ruza, seminar
	11.	Videokonferensiyalar	O‘M	Kam	Ma’r.sem
	12.	Videotelefon	O‘M	Kam	Ma’r.imti.
	13.	Magnitli tashuvchilarda videoyozuv	O‘R	Ko‘p	Mustaqil ish
P – matnli grafik guruh	14.	Elektron pochta(aloqa)	O‘R	Ko‘p	Masl.test
	15.	Kompyuterli konferensiyalar	O‘R	Kam	Sem. masl.
	16.	Faks	O‘MT	Ko‘p	Maslahat
	17.	An’anaviy pochta	O‘MT	Ko‘p	Masl.test
	18.	E’lonlarning elektron doskasi	O‘MT	Kam	Sem.masl.
	19.	TV-axborot	O‘MT	Kam	Ma’r.masl.

(Qisqartma so‘zlar ma’nosi: O‘R-o‘quv reklama, O‘MT – o‘quv ma’muriyati, O‘M – o‘quv maqsadlari)

Yangi axborot texnologiyalarining telekonferensaloqa va videotelefon vositalari o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ikki tomonlama aloqani o‘rnatish imkonini ta’minlaydi. Bunda bir vaqtning o‘zida videotasvirlarning, ovoz va grafiklarning 2 tomonlama uzatilishi amalga oshiriladi. Bularning barchasini mijozning (o‘qituvchi va talabalar) har bir monitori ekranida 3 ta oynada bir vaqtda kuzatish mumkin. Katta auditoriyada guruhli mashg‘ulotlar davomida monitordagi tasvirni katta ekranda suyuq kristalli yoki boshqa proyeksiya qurilmalari yordamida namoyish qilish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ta’limni axborotlashtirish – keng ma’noda ta’lim sohasini metodologiya, o‘qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tatbig‘iga yo‘naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va yaratish (qayta ishlash) amaliyoti bilan ta’minlash sifatida qaraladi. Bundan tashqari, axborotlashtirish masofali o‘qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev R.H., Taylaqov N.I. Masofali ta’limda o‘qituvchining o‘rni // Xalq ta'limi. – T., 2004 y. – 4-7-2 b.

2. Karimov A.A. “Qurilishda axborot texnologiyalari” O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU nashriyoti. 2020 y. – 415 b.

Elyor XAYRIYEV,
Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, amaliy matematika va informatika fakulteti, “Matematika va informatika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VOSITALARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda kompyuterli imitatsion modellar va ulardan samarali foydalanish hamda ilmiy tadqiqotlar tahlili batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kompyuter texnologiyalari, axborotlashtirish, kompyuterli imitatsion modellar, multimediali ilovalar, mediakompetentlik, elektron resurslar, virtual ta’lim texnologiyalari.

В статье подробно описываются компьютерные имитационные модели и их эффективном использования в развитии медиакомпетенций у студентов, а также представлен анализ научных исследований по данной проблеме.

Ключевые слова. Компьютерные технологии, информатизация, компьютерные имитационные модели, мультимедийные приложения, медиакомпетентность, электронные ресурсы, технологии виртуального обучения.

The article describes in detail computer simulation models and their effective use in the development of media competencies among students, and also presents an analysis of scientific research on this issue.

Key words. Computer technology, informatization, computerized imitation models, multimedia applications, mediacompetence, electronic resources, virtual education technologies.

Hozirgi kunda barcha sohalar kabi o‘quv jarayonini ham kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Bu esa kompyuter va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanib barcha masalalarning yechimini hal qilishga yordam beradi. Axborotlarni uzatish va qayta ishlash – bu bilim, malaka va ko‘nikmalarni to‘liq shakllantirishni kafolatlaydi degani emas, chunki bularning barchasi faqatgina o‘qitishning samarali qo‘shimcha vositalaridan biridir bo‘lib hisoblanadi xolos.

Ana shuning uchun ham zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ta’lim tizimida foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

– axborot-kommunikatsion texnologiyalar o‘rganish obyekti sifatida;

– axborot-kommunikatsion texnologiyalar o‘qitish vositasi sifatida;

– ta’lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida;

– talabalar va professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik izlanishlarini amalga oshirish vositasi sifatida.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonini yangi sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlariga erishishish, boshqarish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida ta’lim tamoyillari, mohiyati, konsepsiyalari va g‘oyalari o‘zgaradi.

Axborot va kompyuter texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanish ma’lum bir

pedagogik va psixologik maqsadlarga ega bo‘lib, quyidagilardan iboratdir:

– talabalarning aqliy fikrlash va tasavvurlash malakalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy axborotlashgan jamiyatdagi mustaqil ish faoliyatiga tayyorlash, ya’ni biror murakkab jarayonni amalga oshirishda mustaqil qarorlar qabul qilish, o‘zining fikrini va mulohazasini bayon qilishga o‘rgatish, hamda izlanuvchanlik faoliyatini shakllantirish;

– zamonaviy axborotlashgan jamiyatda barcha ijtimoiy talablarni bajarish;

– barcha ta’lim tizimlarida o‘qitish jarayonlarini tezlashtirish;

– axborot-kommunikatsion texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etishda ta’lim sohasining mukammalligini, unumdorligini, sifatini va samaradorligini oshirish;

– axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning mustaqil tasavvur qilish faoliyatini faollashtirish;

– axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish;

– tarmoq texnologiyalardan foydalanish asosida masofadan o‘qitish tizimini yaratish va tatbiq etish.

Bugungi kunda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uning ta’lim mazmuniga, mohiyatiga, uslubiga va sifatiga yetarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda axborot texnologiyasidan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

– birinchidan, har bir bo‘lajak mutaxassis jamiyatni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish sharoitida kerakli bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim. Bunda axborot jamiyatni va iqtisodiyotni taraqqiy etishida, uning rivojlanishida eng muhim asoslardan biri hisoblanadi. Har bir bo‘lajak mutaxassis ta’lim olish jarayonida tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida, ro‘y berayotgan o‘zgarishlar , iqtisodiy taraqqiyot va fan-texnika yangiliklari to‘g‘risida to‘liq axborotga ega bo‘lishi va ish faoliyati davomida uni amaliy tatbiq etishi lozim bo‘ladi;

– ikkinchidan, bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishda asosan o‘qish samaradorligini keskin oshirish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonini zamon talabi darajasida tashkillashtirish vazifasini amalga oshirishi lozim. Bu vazifani bajarish bo‘lajak mutaxassislarni qancha bilim va malakalarga ega bo‘lganligi bilan emas, balki o‘quv jarayoni qanday tashkil etilganligi, o‘quv uslubiy va zamonaviy texnik vositalar bilan qanday ta’minlanganligi bilan o‘lchanishi kerak bo‘ladi.

O‘quv dasturi biron bir fan, ya’ni aniq sohaga yoki ta’lim yo‘nalishiga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘qitish jarayonida ulardan qanday bilim olish va o‘rganishda foydalanadilar. Talabalarni mustaqil bilim olishida, o‘tilgan mavzuni takrorlashda hamda olgan bilimlarini tekshirishda trenajyor, ma’lumotli , o‘yin, nazorat qilish dasturlarini qo‘llash, ularni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha amaliy bilim va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va bo‘lajak mutaxassislarini amaliy qobiliyatlari va malakalarini shakllantirishda muhim rol tutadi.

Axborot va kompyuter texnologiyalari vositalari asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:



O‘quv jarayonining samaradorligi va mukammalligi axborotlarni talabalarga qanday tarzda berilishiga va ularni talabalar tomonidan qanday qabul qilishiga, shuningdek, ularni amaliyotda qanday qo‘llanishiga bog‘liq bo‘ladi. Multimediya texnologiyalari o‘rganilayotgan pedagogik va iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risidagi har bir axborotni bo‘lajak mutaxassislariga harakatli, ovozli va videoli ko‘rinishlarda bayon qilib beradi.Bu esa katta hajmdagi axborotni berish uchun ketadigan vaqtni tejash bilan birga, talabalarni yangi axborotlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanish darajasini oshiradi.

Axborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish tizimining samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan yaratilayotgan va qo‘llanilayotgan pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv dastur, elektron o‘quv qo‘llanma, avtomatlashtirilgan o‘qitish kurslari va hokazolarning maqsadi, tarkibiy qismi, mazmuni va o‘qitish sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Buning uchun masofadan o‘qitish tizimida interaktiv Internet texnologiyalar: chat, muammoli munozara, telekonferensiya, o‘qituvchi va talabalarni muloqot qilish uchun e’lonlar oynasi, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash uchun turli xil trenajyorlar qo‘llaniladi. Talabalar mustaqil bilim olishida, o‘tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o‘rganuvchi, axborot-ma’lumotli, nazorat qilish dasturlari axborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu axborotlar xotira qurilmalariga yozilgan bo‘lib, kompyuter tarmoqlariga joylashtirilgan bo‘ladi, ulardan turli ta’lim yo‘nalishlarida bilim olayotgan talabalarning mustaqil bilim olishida, o‘tilgan mavzularni takrorlashda hamda olgan bilimlari asosida oraliq va yakuniy nazoratlar topshirishda o‘rgatuvchi, axborot-ma’lumotli, nazorat qilish dasturlarining qo‘llanilishi,shu bilan birga axborot va kompyuter texnologiyalari asosida masofadan o‘qitish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun ana shu funksiyalarni hammasini o‘zida mujassamlashtiruvchi elektron darsliklarni yaratish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonida Internet tizimidan o‘rganilayotgan mavzuga tegishli ma’lumotlarni izlab topish, masofadan o‘qitish, o‘rgangan bilimlarini nazorat qilish, ilmiy-tadqiqod ishlarini bajarish uchun lozim bo‘lgan axborotlar

va manbalarga ega bo‘lish, boshqa oliygohlar tajribasi asosida o‘quv jarayonini tashkillashtirish va hokazolar uchun keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Bu esa talabalarni mustaqil bilim, malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash samaradorligini oshiradi.

Boshqacha aytganda, ta’lim jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e’tibor eng avvalo o‘qituvchiga va talabaga zarur bo‘lgan sharoitni yaratishga va u kompyuterlarni o‘quv jarayonlarida samarali qo‘llashiga qaratilishi lozim. Shu bilan birgalikda, o‘quv jarayonini zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari asosida ta’minlash uchun multimediyali elektron o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni yaratish lozim. Buni esa albatta malakali mutaxassislar, fan o‘qituvchilari hamda pedagog psixologlar ishtirokida birgalikda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zakirova F. va boshq. Elektron o‘quv-metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: OUMTV, 2010. – 57 b.

2. Tillayev A.I. Axborot texnologiyalari kurslari bo‘yicha elektron darsliklar yaratish va ularni ta’limda qo‘llash// Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari - Al-Xorazmiy 2012, xalqaro ilmiy anjuman, 2012-yil, 19-22-dekabr. – T., 2012. – 119-120 b.

3. Агеев В.Н. Электронная книга: Новое средство соц. коммуникации. – М.: 1997.

4. Eshimov R.R. Создание учебной литературы для инклюзивного образования на основе компьютерных имитационных моделей // Eastern European Scientific Journal (ISSN 2199-7977) DOI 10.12851/EESJ201805. Vol.10.2018. – № 3. – P. 287-292.

5. Лутфиллаев М.Х Создание учебной литературы для инклюзивного образования на основе компьютерных имитационных моделей. — 2019.

6. Eshimov R.R. Improvement of technology creation of multimedia electronic textbook on “Informatics and information technology” for schools // A Multidisciplinary peer reviewed Journal (ISSN 2581-4230) Journal impact factor: 7.223. Vol.10.2021. – № 3. – P. 718-721.

7. Tangirov X.E. Informatikani o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish // “Informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limini modernizatsiyalash istiqbollari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Navoiy: NDPI, 2018-yil 25-may. – 24-26 b.

Vasliddin SHUKUROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti

INKLYUZIV TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi, kamchiliklari va muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda inklyuziv ta’limni tashkil etish bo‘yicha muallif o‘z fikr va mulohazalarini bayon etgan.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, integratsiya.

В статье анализируется преимущества, недостатки и проблемы использования информационных технологий в инклюзивном образовании. А также, автор предлагает решения организации инклюзивного образования с использованием современных средств информационных технологий.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, цифровые технологии, цифровая трансформация, интеграция.

This article examines the advantages, disadvantages and problems of using information technology in inclusive education. In addition, the organization of inclusive education using modern means of information technology, its advantages and disadvantages are discussed.

Key words. Inclusive education, digital technologies, digital transformation, integration.

Mamlakatimizda yoshlarni tarbiyalash va ularga sifatli ta’lim berish borasida so‘ngi yillarda olib borilayotgan tub islohotlar ta’lim sohasidagi o‘sish va rivojlanishga ulkan hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va maktab ta’limiga qaratilayotgan e’tibor natijasida turli yoshdagi sog‘lom va imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni ta’limga birdek qamrab olish turli tashkilotlarning paydo bo‘lishi va buning zamirida turli ta’lim tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirilib kelinmoqda.

Sog‘lom bolalar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalar ham birdek ta’lim olish huquqiga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida (“Har kim ta’lim olish huquqiga ega” va “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”) alohida belgilab qo‘yilgan. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni ta’limga jalb etishda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish va ta’lim jarayonida undan foydalanish borasida bugungi kunda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday ishlardan biri inklyuziv ta’limga axborot texnologiyalarini joriy etish va inklyuziv ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini rolini oshirish hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim – davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

“Inklyuziv ta’lim” atamasi fransuzcha “inclusive” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan, shartli ravishda sog‘lom,

ya’ni sog‘ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi.

Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg‘armasi (UNICEF) ham Inklyuziv ta‘lim tizimiga alohida e’tibor qaratgan. UNICEF inklyuziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

UNICEF O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni tashkil qilish va rivojlantirishda quyidagi erishilgan yutuqlarni alohida ta’kidlab o‘tish joiz:

UNICEF Xalq ta’limi vazirligining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta’limdagi roli to‘g‘risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashdi;

UNICEFning ko‘magi inklyuziv ta’lim bo‘yicha 5 yillik ish rejasi ta’lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta’minladi.

Qolaversa, quyidagi istiqboldagi rejalar belgilangan:

– tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta’lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun xalq ta’limi vazirligiga texnik yordam ko‘rsatish;

– maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e’tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o‘quv dasturlarini joriy etish;

– o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo‘lishiga qaratilgan alohida dasturlarni “Speshial Olimpiks”[1] ko‘magida O‘zbekistonda tajriba sifatida joriy etish.

Hozirgi vaqtda inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Agar alohida ta’limga muhtoj o‘quvchilarning o‘quv va kognitiv faoliyati an’anaviy usullardan foydalangan holda har doim ham samarali bo‘lmasa, bu axborot texnologiyalariga bo‘lgan zaruratni tug‘diradi. Bu vaziyatda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini ta’minlash, va imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi.

Ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish natijasida ta’limning raqamli transformatsiyasi amalga oshiriladi, bu ta’lim jarayoniga uning barcha bosqichlarida avtomatlashtirish mexanizmlarini joriy etish sifatida tushuniladi. Shu o‘rinda raqamli transformatsiya tushunchasiga to‘xtalib o‘tish joiz. Raqamli transformatsiya atamasi raqamli texnologiyalar sabab bo‘lgan, doimiy o‘zgarib turuvchi jarayonining nomi. Ko‘pincha raqamli transformatsiya ta’sirida bo‘lgan turli tashkilotlarga e’tibor qaratilsa-da, bu tomondan ilm-fan, ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Raqamli transformatsiya – bu raqamli inqilob mahsuli bo‘lib, u mexanik sanoatning raqamli texnologiyalar bilan almashtirilishi yoki takomillashtirilishi jarayonini tasvirlab berdi, 1950-yillarning oxiridan 1970-yillarning oxiriga qadar, axborot asri boshlandi.

[1] har yili yuz minglab ko‘ngillilar va murabbiylar bilan ishlaydigan nogiron sportchilarga xizmat ko‘rsatadigan global tashkilot.

Shu o‘rinda “integratsiya” tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

Integratsiya: “maxsus” bolalar muammolariga qaratilgan; bu jarayondan faqat alohida ehtiyojli bolalar foyda oladi; maxsus o‘qitish usullari va terapiyadan foydalanish mumkin.

Integratsiyalashgan ta’limning afzalliklari barcha toifadagi bolalar ota-ona va bola munosabatlarini saqlab qolish va bolaning o‘z oilasining kundalik hayotida to‘liq ishtirok etishi, tengdoshlari va kattalar bilan ijtimoiy o‘zaro munosabat tajribasiga ega bo‘lishi, to‘liq nutq muhiti (natijasi) bilan bog‘liq.

Integratsiyalashgan ta’limning kamchiliklari sinf yoki guruhdagi og‘ir akustik sharoitlar, katta sinf o‘lchamlari, o‘quv jadvallarini tartibga solish, o‘quv materialining ma’ruza shakli yoki ko‘rgazmali rejimida darsda doimiy ishlash bilan bog‘liq.

Ta’limni raqamlashtirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal egallagan, uzluksiz ta’limga yo‘naltirilgan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun zamin yaratadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ta’limning raqamli transformatsiyasining afzalliklaridan biri – bu turli toifadagi o‘quvchilar, shu jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari va imkoniyatlariga ega bo‘lganlar uchun ta’lim olish imkoniyatidir. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini barcha toifadagi talabalar uchun bir xil samarali bo‘ladigan tarzda tashkil etish imkonini beradi, balki rivojlanishni tuzatish va kompensatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Inklyuziv ta’limga axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

– inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonga faol yondashuvga muvofiq bolalarning bilim faolligini shakllantirish;

– inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunini tanlash va shakllantirish uslub va texnologiyalarini ham takomillashtirish;

– yangi ixtisoslashtirilgan fan yo‘nalishlari, o‘quv fanlari, tuzatish sinflari yo‘nalishlarini joriy etish va rivojlantirish;

– o‘quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish tufayli uning samaradorligini oshirish;

– o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning sifat jihatidan yangi shakllarini tashkil etish.

Bundan tashqari inklyuziv ta’limni tashkil qilishda texnologik jarayonlarga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim. Masalan, inklyuziv maktab misolida ko‘rib o‘tsak, ularda ma’lum jihozlar bo‘lishi talab etiladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: lift, devor bo‘ylab tutqichlar, tegishli hojatxonalar, maxsus liftlar bilan jihozlangan maktab avtobuslari, zamonaviy sport zali, o‘qituvchi yordamchisi, nogiron bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar (o‘qituvchi, psixolog, logoped) va boshqa shu kabi imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga bilim beradigan hamda qulaylik yaratadigan shaxs va texnologiyalardir.

Axborot texnologiyalarini inklyuziv ta’limga joriy etishning o‘ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Axborot texnologiyalardan foydalanishda normal o‘quvchilar qatorida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ham birdek imkoniyat yaratib beradigan qulayliklar bo‘lishi lozim. Ta’limning yangi shakllari sifatida Axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) vositalaridan puxta, malakali foydalanish bilan bir qator muhim didaktik vazifalarni hal qilish mumkin:

– o‘qitish jarayonining o‘zini takomillashtirishga intilish;

– o‘quvchilarning mustaqil ish darajasini va o‘z-o‘zini tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshirish;

– o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatish;

– uzluksiz va moslashuvchan ta’lim jarayonini ta’minlash;

– o‘tilgan materialni takrorlash va mustahkamlash;

– o‘quvchi o‘quv materialini o‘yin usulida o‘rganadigan turli xil o‘quv vaziyatlarini yaratish;

– o‘quv materialini talab darajasida o‘zlashtirishni ta’minlash;

– haqiqiy uskunalarda masofaviy tajribalar o‘tkazish;

– har xil turdagi ma’lumotlarni uzatish va ma’lumotlarni tanlash va tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim amaliyoti har bir o‘quvchining individualligini qabul qilish g‘oyasiga asoslanadi va shuning uchun ta’lim har bir bolaning alohida ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etilishi kerak.

Inklyuziv ta’limda AKTdan foydalanish asosli, chunki u o‘quvchilarga o‘z faoliyatini faollashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ta’lim sifatini oshirishga va qolaversa o‘qituvchining kasbiy darajasini oshirishga imkon beradi. AKTning ta’lim jarayonlariga ta’siri tufayli nafaqat sog‘lom, balki imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ham turli sohalardagi bilimlarini yanada oshirib borishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga AKT fanlarini, yoki AKTdan foydalanib, o‘tiladigan turli fanlarni o‘qitishda ularning imkoniyatlaridan kelib chiqish hamda imkon qadar ortiqchalik va murakkablikdan qochish talab etiladi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, inklyuziv ta’limni tashkil qilish va uni rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi va bu soha rivojlanishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inklyuziv ta’lim - https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim

2. Raqamli transformatsiya - https://techacute.com/what-is-digital-transformation-about/

3. Kenjabayev A.T., Ikramov M., Allanazarov A.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – T., 2017.

4. Shukurov V. Ta’lim jarayoniga interfaol elektron manbalarni joriy qilishning ahamiyati. Talqin va tadqiqotlar, 2023 - http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/605.

5. Karimov A.A. Multimediali ilovalardan masofaviy ta’limda foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. – T., 2021. №12. – 98-102 b. (13.00.00 №32).

6. Karimov A.A. Improving methodology of teaching information technologies in construction on the basis of multimedia. // International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences// Helsinki, Finland. January 10th 2022. – P. 143-146.

Javlon HAKIMOV,
Samarqand ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish Markazi,
‘‘Axborot texnologiyalari’’ bo‘limi katta o‘qituvchisi

KOMPYUTER IMITATSION MODEL YARATISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada ta’limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashga doir xorijiy tajribalar, lmiy-tadqiqot ishlari tahlillari, kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasini o‘quv jarayoniga qo‘llash samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot, kompyuter texnologiyalari, modellashtirish texnologiyasi.

В статье представлен анализ научно-исследовательских работ по применению информационно-коммуникационных технологий в современном образовании, эффективность применения технологий компьютерного моделирования в учебном процессе.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационные технологии, информация, инклюзивное образование, компьютерные технологии, технология моделирования.

The article presents an analysis of research work on the use of information and communication technologies in modern education, the effectiveness of the use of computer modeling technologies in the educational process.

Key words. Information and communication technologies, information, inclusive education, computer technologies, modeling technology.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o‘quv jarayonini tashkil qilish an’anaviy o‘qitish uslubiga nisbatan samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunda o‘quvchilarga bilim berishda o‘quv materiallarini turli xil ko‘rinishlarda yetkazib berish imkoniyatini alohida e’tirof etish kerak. Kompyuterda ovoz, harakat, ko‘rgazmali materiallar integratsiyasi o‘quv jarayonining yangi o‘ziga xos imkoniyatini hosil qiladi hamda uning takomillashuvi va rivojlanishi o‘quvchilarni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishni yanada kengaytiradi.

O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini qo‘llash hamda o‘qitishning elektron vositalari yaratish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar 30 yildan ko‘proq tarixga egadir. Bu davr mobaynida AQSh, Kanada, Angliya, Fransiya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda axborot-kommunikatsiya vositalarining turli imkoniyatlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘quv kompyuter tizimlari ishlab chiqilgan. Dastlabki elektron o‘quv vositalari mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni mustaqil olib boruvchi yirik sanoat korxonalarida, harbiy va fuqarolik tashkilotlarida qo‘llanilib kelingan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, o‘qitishni axborotlashtirish, intellektual o‘qitish tizimlarini yaratish va amaliyotga joriy qilish bilan bog‘liq bo‘lgan yangi yo‘nalish jadal rivojlanib kelmoqda. Kompyuterlarning rivojlanishi va keng tarqalishi ta’lim sohasida yangi didaktik imkoniyatlar yaratdi. Kompyuterlarning asosiy afzalliklari ta’lim berishda axborotlarni taqdim etishning grafik imkoniyatlaridan foydalanish jarayonida kuzatiladi. O‘quv jarayonida kompyuterning imkoniyatlaridan foydalanish faqat ta’lim oluvchiga axborotni uzatish tezligini oshirish va uni tushunish jadalligini oshirishdan iborat emas,

balki ularda qiziquvchanlik, kasbga yo‘naltirish, ijodiy fikrlash kabi sifatlarni ham rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’limni axborotlashtirishning muhim vazifalaridan biri elektron axborot resurslari, elektron ma’lumotlar, elektron ensiklopediyalar, elektron ta’lim beruvchi tizimlar, o‘quvchilar bilimini avtomatik nazorat qilish vositalari, elektron o‘quv nashrlari sifatida ko‘rib chiqiladigan yagona dasturli o‘quv-uslubiy majmualar, ta’lim portallaridagi elektron darsliklar, trenajyorlar va virtual stendlar kabi elektron vositalarni yaratish hisoblanadi. O‘quv jarayoniga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida ta’lim muassasalarini axborotlashtirish elektron darsliklar yaratishga asos bo‘lmoqda.

AKT orqali uyda yakka tartibda ta’lim olishda kompyuter imitatsion modellar, elektron uslubiy qo‘llanmalar, elektron darsliklar va virtual stendlarning yaratilishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kompyuter imitatsion modellar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, an’anaviy o‘qitishga nisbatan, o‘zining bir qancha afzallik tomonlari borligini ko‘rsatadi. Ulardan quydagilarni keltirish mumkin:

• o‘quv materiallarining o‘quvchilarga yetkazib berish soddaligi;

• dars jarayonida berilayotgan ma’lumotlarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatini mavjudligi;

• o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini yuqori bo‘lishiga erishish;

• mashg‘ulotlarni video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil etish imkoniyati;

• tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya’ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta sinfda va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

• masofali o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

• ta’lim oluvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

O‘quv materiallarini kompyuter imitatsion modellar ko‘rinishda taqdim etganda, uning o‘quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e’tibor berish lozim. Kompyuter imitatsion modellar ko‘rinishida taqdim etilayotgan materiallar talim oluvchilar uchun qulay o‘zlashtira oladigan bo‘lishi kerak. Tavsiya etilayotgan o‘quv materiallarida ta’riflar, tayanch iboralar, kalit so‘zlarga murojaat qilish va laboratoriya ishlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali uyda oliy ta’lim jarayonini tashkil qilishda elektron uslubiy qo‘llanmalar, elektron darsliklar va virtual stendlarning yaratilishiga alohida e’tibor berish kerak. kompyuter imitatsion model asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish, an’anaviy o‘qitishga nisbatan o‘zining bir qancha afzallik tomonlari borligini ko‘rsatadi.

Ularga quyidagilarni keltirish mumkin:

– o‘qituvchiga o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishda birmuncha yengillashtirilishi;

– dars jarayonida berilayotgan o‘quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;

– o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishiga erishish;

– amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;

– tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya’ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

– masofali o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

– ta’lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Kompyuter imitatsion model ko‘rinishida taqdim etilayotgan materiallar o‘quvchilar uchun tez va samarali o‘zlashtira oladigan bo‘lishi kerak. O‘quvchi o‘quv materiallaridan foydalanayotganida, mavzuning mazmuni, kalit so‘zlar, tayanch iboralarga murojaat qilishi hamda undan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lishi kerak.

Fanlardan amaliy va laboratoriya ishlarini kompyuter imitatsion model orqali tashkil qilish o‘qitish tizimida quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

• maxsus barcha laboratoriya jihozlari, ko‘rgazma materiallari, o‘quv qurollari bilan jihozlangan xonalar talab qilinmasligi;

• laboratoriya ishlarini animatsiyalar bilan ta’minlanish va obyektlar ustida olib borilayotgan jarayonlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyish qilish;

• yaratilgan kompyuter imitatsion modellardan ko‘p marotaba foydalanish.

Fizika fani darsini kompyuter imitatsion model asosida tashkil qilish ta’lim tizimida juda katta ahamiyatga ega. Kompyuter imitatsion model asosida o‘quv jarayoni tashkil qilinsa, tayanch a’zolari shikastlangan o‘quvchilarning uyda o‘quv jarayoni uchun kerakli o‘quv jihozlari yetarli bo‘lmagan holda ham o‘tiladigan mavzularni o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan imkoniyatlarning hisobga olgan holda, ushbu bobda kompyuter imitatsion modelni yaratish bosqichlari ishlab chiqildi.

Kompyuter imitatsion modellashtirish real hodisalar faoliyatini ilmiy asosda tekshirish uchun foydalanishini hisobga olib, ularni yaratish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Algoritmni aniqlash – o‘rganilayotgan hodisa samaradorligining chegarasi, cheklanishlari va o‘lchamlarini aniqlash.

2. Kompyuter imitatsion model formulirovkasi – real hodisadan biror mantiqiy sxemaga o‘tish (absrtaktlash).

3. Ma’lumotlarni tayyorlash – kompyuter imitatsion model yaratish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tanlash va ularni maxsus ko‘rinishlarda ifodalash.

4. Kompyuter imitatsion modelning translyasiya qilish – kompyuter imitatsion modelni elektron hisoblash mashinalari tushunadigan biror tilda ifodalash.

5. Adekvatligini baholash – ishonchlilik darajasini ‘‘ishonish mumkin bo‘lgan’’ darajagacha ko‘tarib, real tizim haqida olingan xulosalarning korrektligi haqida mulohaza qilish.

Yuqorida sanab o‘tilgan kompyuter imitatsion modelning yaratish va foydalanish bosqichlari qo‘yilgan masala faqat kompyuter imitatsion modellashtirish yordamida eng yaxshi yechimini topish mumkin degan nuqtayi nazardan aniqlandi. Kompyuter imitatsion modellardan faqat qo‘yilgan masala yechimini topishning boshqa usuli mavjud bo‘lmagan holdagina foydalanish mumkin. Kompyuter imitatsion model qurish va uning imkoniyatlarini baholashga kirishishdan avval, bu masala yechimini topishning boshqa optimal usullari qolmaganligiga ishonch hosil qilish kerak. Masalaning yechimini topish uchun mos keluvchi zarur vositalarni tanlashga to‘g‘ri kelgani uchun, yechishning u yoki bu vositasi va usulini tanlashda masalaning qo‘yilishiga albatta e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Kompyuter imitatsion model yaratish, ulardan qulay va samarali foydalanish uchun elektron o‘quv materiallari *swf* formatiga o‘tkaziladi. Bu formatda tayyorlangan materiallardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

• ma’lumotlar xotiradan kam joy egallaydi;

• ma’lumotlar himoyalangan bo‘ladi (o‘zgartirishlar, viruslar ta’siridan holi qilish va boshqalar);

• ma’lumotlarni ifodalovchi yuqori sifatli shriftlarning mavjudligi;

• ixcham tasvirli ma’lumotlarni yaratish;

• ma’lumotlarning zarur sahifalariga tez o‘tishni ta’minlash va boshqalar.

Tadqiqotimiz davomida kompyuter imitatsion model asosida yaratilgan elektron o‘quv uslubiy qo‘llanma quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Dastlab, maxsus maktab-internatlarda 6–7-sinf “fizika” fani predmetini o‘qitishning o‘quv-metodik materiallari o‘rganib chiqildi va ular bo‘yicha kerakli ma’lumotlar to‘plandi.

2. Tashkil qilinayotgan kompyuter imitatsion model maxsus maktab-internatlarda 6–7-sinf “fizika” fani predmeti o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishga, mustaqil ta’lim olishga, o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilishga mo‘ljallanishi nazarda tutildi.

3. Fizika o‘qituvchilariga esa har bir mavzu bo‘yicha dars o‘tishlarida metodik qo‘llanma sifatidan foydalanishlari belgilab olindi.

4. Maxsus maktab-internatlarda 6–7-sinf “fizika” fani uchun namunaviy va ishchi o‘quv dasturlari mazmuni va maqsadiga mos kelishi hamda 68 soatlik hajmidagi o‘quv yuklamasiga amal qilindi.

5. Kompyuter imitatsion model yaratish va undan foydalanish bo‘yicha asosiy maqsad va vazifalar belgilab olindi.

Asosiy vazifalar mazmuni quyidagilardan iborat:

– maxsus maktab-internatlarda 6–7-sinf “fizika” fani o‘quv materiallari to‘liq elektron variantlarda, ko‘rgazmali va animatsion vositalar yordamida ta’lim oluvchilarga yetkazib berish;

– ta’lim oluvchilarga individual ta’lim materiallarini tavsiya qilish va ularning bililmarini baholash;

– har bir mavzuga mos nazariy materiallarni, tayanch ibora va tushunchalarni atamalarning izohli lug‘atlaridan foydalanib, o‘rganishni tashkil qilish;

– o‘qituvchilar uchun fizika fani predmetining har bir mavzusi yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalar tavsiya qilish;

– har bir darslarni interfaol usullarda tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

– o‘quvchilar uchun individual topshiriqlar berishni tashkil qilish va ularning o‘zlashtirish darajalarini aniqlash.

Kompyuter imitatsion modellar – o‘quvchilarga axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va undan foydalanish masalalari haqida bilimlar berishda asosiy darslikka ko‘makchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchi bosqichda kompyuter imitatsion model mazmunini aniqlash uchun mundarija tuzib, tavsiya qilinayotgan ma’lumotlar to‘plami mazmuni rejalashtiriladi. Natijada 6-sinf “fizika’’ darsligidan 52 ta kompyuter imitatsion model, 7-sinf “fizika’’ darsligidan 54 ta kompyuter imitatsion model yaratildi.

6-sinf “fizika’’ darsligidan 52 ta kompyuter imitatsion model, 7-sinf “fizika’’ darsligidan 54 ta kompyuter imitatsion model asosida elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanma yaratildi hamda dasturiy vositalardan foydalanish mazmuni yoritildi. Dasturiy vositalardan foydalanish mazmuni quyidagilardan iborat:

• matnli materiallar Microsoft Word dasturi variantiga o‘tkazilib, ma’ruza materiallarini taqdim etishda har bir asosiy savollar nihoyasida EasyQuizzy dasturi imkoniyatlaridan foydalanib, test sinovi asosida nazorat ishlari o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi;

• har bir mavzuga oid o‘ziga xos ko‘rgazmali materiallar va harakatli (animatsion) obyektlar PowerPoint, 3DMAX dasturlari imkoniyatidan foydalanib hosil qilindi;

• elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmaning mazmuni o‘zbek tilida va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bayon qilindi. O‘quv materiallari mazmunini bayon qilishda matnli axborotlardan tashqari, grafiklar, rasmlar, slaydlar, animatsiyali materiallar, tovushli va videomateriallardan foydalanildi.

Elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmada rasmli materiallar Adobe Photoshop va CorelDraw dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib tayyorlangan. Materiallaridan foydalanish, boshqarish uchun maxsus tugmachalari va o‘quv materiallaridagi animatsiyali vositalar 3DMAX dasturi yordamida tayyorlandi. Taqdimot materiallarini yaratishda Microsoft Office dasturlari tarkibiga kiruvchi Power Point dasturidan foydalanildi.

Elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmada ta’lim oluvchilarning olgan bilimlarini baholash tizimi, test topshiriqlari EasyQuizzy dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib tashkil qilindi.

Ushbu elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmadan foydalanish uchun quyidagi texnik va dasturiy vositalar bo‘lishi kerak: Pentium-IV protsessorli kompyuter, WINDOWS Xp operatsion tizimi, Microsoft Office dasturlari, Internet texnologiyalari, brauzer dasturlari, elektron pochta xizmati va boshqalar.

Ushbu elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmada tavsiya qilinadigan barcha o‘quv materiallari, ya’ni didaktik materiallar elektron darslikka qo‘yilgan talablar asosida tayyorlanadi. Tavsiya etilayotgan didaktik materiallar fanlar bo‘yicha eng muhim bo‘lgan tushunchalarni, fikrlarni, keltirilgan misollarni, jarayonlarni tushunish va eslab qolishni osonlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak

Elektron o‘quv uslubiy qo‘llanma uchun didaktik materiallar yaratishda quyidagi xususiyatlarni e’tiborga olishi kerak:

– didaktik materiallar mazmuni Davlat ta’lim standartlari (DTS) va fanning o‘quv dasturiga to‘liq mos kelishi;

– har bir mavzu to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni qamrab olishi;

– o‘zini o‘z tekshirib ko‘rish uchun test va nazorat topshiriqlarining mavjudligi;

– uzviylik va uzluksizlik tamoyilining saqlanishi;

– ma’lumotlarni keltirishda tizimli yondashish;

– o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, qobiliyati, zehni, fikrlashi, dunyoqarashi kabilarni e’tiborga olish.

Umuman kompyuter uchun o‘quv va nazorat qiluvchi dasturlar ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalariga mos bilim olishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi talablar asosida yaratilishi kerak:

• o‘qitiladigan fan bo‘yicha mavzularni ta’lim oluvchilarning xohishiga qarab tanlash;

• tanlangan mavzu bo‘yicha asosiy savollarni ta’lim oluvchining xohishiga qarab o‘qitishni tashkil qilishi va o‘zlashtirish darajasiga mos topshiriqlar bilan ta’minlay olish;

• kafolatlangan natijadan so‘ng keyingi asosiy savol (yoki mavzuni) o‘zlashtirishga imkoniyat yaratish;

• ta’lim oluvchining o‘zlashtirish darajasi natijasiga ko‘ra, mavzu yoki asosiy savolga qaytishni ta’minlash;

• ta’lim oluvchining xohishiga ko‘ra, dasturdan chiqishni tashkil etish;

• ta’lim oluvchining xohishiga ko‘ra, nazorat topshiriqlariga bevosita o‘tishni ta’minlash;

• ta’lim oluvchining mavzuni qanday darajada o‘zlashtirilganligi haqidagi qaydnomani tashkil etish va boshqalar.

O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion model o‘quv jarayonida samarali foydalansa ijobiy natijalar berishi nazarda tutiladi. Fizika fanini Kompyuter imitatsion model yordamida ta’lim jarayonini olib borish tayanch a’zolari shikastlangan o‘quvchilarning uyda ta’lim olishlari keng imkoniyat yaratadi. Natijada quyidagi ijobiy ko‘rsatkichlar kuzatiladi:

• fizik jarayonlarni animatsiya, ovoz, matn ko‘rinishida tasvirlaydi;

• imkoniyati cheklangan yoshlarni darsga bo‘lgan qiziqishlari ortadi;

• berilgan vazifalarni o‘zlashtirish jarayonlari tezlashadi;

• ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati yaratiladi va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joiz, tadqiqot mobaynida tajribalar, yangi avlod o‘quv-uslubiy materiallari asosida elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanma yaratish tuzilmalari ishlab chiqildi. Shu tuzilmalar asosida ma’ruza matnlari, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun ishlanmalar, mustaqil ish topshiriqlari, o‘quv-uslubiy majmualar yaratildi. Tadqiqot davomida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallardan o‘quv jarayonida foydalanishning amaliy masalalari tavsiya qilindi. Shu bilan birga ichki tarmoq orqali o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish va ularga elektron-uslubiy qo‘llanmadan foydalanib, ta’lim olish asoslari yaratilib, amaliyotga joriy qilindi.

Elektron-uslubiy qo‘llanmaning asosini tashkil qiluvchi o‘quv-uslubiy materiallarni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Ma’ruza materiallarining har biri taqdimot materiallari bilan to‘ldirildi. Taqdimot materiallari dars jarayonining ko‘rgazmali bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari ta’lim portalida mavzuga mos video materiallar joylashtirilgan. Ta’lim oluvchilar bilimlarini nazorat qilish uchun esa avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanildi.

Elektron-uslubiy qo‘llanma “Fizika” fanini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan multimediali axborot resurslari mavjud. Elektron-uslubiy qo‘llanma mazmuni va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Shuningdek, dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda “Fizika” fanidan mustaqil ishlarni bajarishda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T., Fan, 2009. – 146 b.

2. Tayloqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida): Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2006. – 278 b.

3. Гулямов С.С., Абдуллаев А.Х. Виртуальные стенды для имитации функций учебных мастерских и лабораторных установок. – Т., 2002.

4. Зайниддинова Л.Х. Создание и применение электронных учебников на примере общетехнических дисциплин. – Астрахан: 1999. – С. 126.

5. Toshtemirov D.E. Ta’lim portalining tuzilishi va mazmuni // Qazaqtanu. – Qozog‘iston, Shымkent, 2010. – № 2. – 138-141 b.

Abdulqodir HOMIDOV,
Samarqand ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish Markazi,
‘‘Axborot texnologiyalari’’ bo‘limi katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHINING MEDIASAVODXONLIGINI OSHIRISHDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masofaviy o‘quv kurslarini tashkil etish muammolari va yutuqlari, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan, muallif tomonidan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masofaviy o‘quv kurslarini sifatli tashkil etish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalari, masofaviy ta’lim, o‘quv kurslari, elektron ta’lim resurslari.

В статье представлена аналитическая информация использования современных технологий в системе общего среднего образования, проблемы и достижения организации дистанционных учебных курсов, анализ научных исследований, автором разработаны предложения по качественной организации использования современных технологий и дистанционных учебных курсов.

Ключевые слова. Информационные технологии, дистанционное образование, учебные курсы, электронные учебные ресурсы.

The article presents analytical information on the use of modern technologies in the system of general secondary education, problems and achievements of organizing distance learning courses, analysis of scientific research, the author has developed proposals for the high-quality organization of the use of modern technologies and distance learning courses.

Key words. Information technologies, distance education, training courses, electronic learning resources.

Ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish o‘quvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, texnik vositalardan foydalanish, kompyuter imitatsion modellar yaratish va o‘quv jarayoniga samarali qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada ta’lim muassasalari uchun yangi avlod o‘quv-metodik materiallari, elektron darsliklar, innovatsion texnologiyalarga asoslangan didaktik materiallar yaratish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, hamda e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bu nafaqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatish, balki zamonaviy texnologiyalar asosida egallayotgan bilimlarni mustaqil izlab topishlariga, tahlil qilishlariga, xulosalar chiqarishlariga yo‘naltirilgan, ya’ni axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining dasturlarini ishlab chiqish rivojlanadi, shuningdek, o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda maxsus dasturlar asosida elektron resurslari soni ortadi.

Endilikda xalq ta’limida o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish ularni kompyuter savodxonligini oshirish hamda ular uchun maxsus o‘tilayotgan fanlar kesimida kompyuter imitatsion model asosida kurslarni yaratish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘rganilgan tadqiqot ishlaridan shuni bilish mumkinki, ta’lim tizimida o‘quvchilarga dars o‘tish jarayonini kompyuter imitatsion model asosida tashkil etish samarali hisoblanadi.

Bu vositalar o‘quvchilarga standartlarga mos ta’lim fanlarini erkin tanlash, har bir mavzu yuzasidan ketadigan jarayonlarni harakatlar orqali tasavvurni kengaytirish imkonini beradi. Bu muhitda o‘quvchining ta’lim olish joyi va vaqtiga bog‘liq bo‘lmaydi. Chunki, o‘quvchi ixtiyoriy vaqtda mavzu bilan tanishadi, o‘quv materiallarini o‘qituvchi nazoratida hamda mustaqil tarzda ham o‘zlashtiradi.

O‘quvchi berilgan fan dasturini qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez fanni yakunlaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda xalq ta’limi muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy o‘quv vositalari, xususan kompyuter imitatsion modellari joriy etilmasa, ularning bilim zaxirasiga ega bo‘lishini tasavvur qilish qiyin.

O‘quvchilar odatdagi texnologiyalarga qaraganda axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida bilimlarni yuqori darajada tez va qisqa muddatda o‘zlashtiradi. Shuning uchun ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o‘qitish butun dunyo miqyosida tez rivojlanmoqda.

Shunday ekan, bugungi kun o‘quvchisi axborot texnologiyalarini yaxshi egallashi zarur. Uning faoliyati ko‘proq axborotga ega bo‘lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasi o‘quv jarayoni sifatini yuqori darajaga ko‘tarishga olib keladi. Texnik vositalar yordamida o‘quvchilarga berilayotgan o‘quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o‘qitish vositalari sifatida kino va televideniya ta’lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtai nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o‘xshash vazifalarni bajaradi. Ya’ni obyektni (ta’lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo‘li bilan ko‘rsatiladi.

O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib, dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ongi, nutqi va shaxsiyatini rivojlantirishda, ushbu vositalar alohida o‘rni borligini isbotlaydi. Ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etish tizimini takomillashtirishga va o‘qitish usullarini yangicha yondashuvlarini joriy etishga hamda yangi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

O‘rganilgan tadqiqot ishlaridan xulosa qilish mumkinki, imkoniyati cheklangan yoshlarga dars o‘tish jarayonini kompyuter imitatsion model asosida tashkil etish samarali hisoblanadi.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar (o‘rganuvchilar) birinchi marta eshitgan ma’lumotlarini to‘rtdan bir qismini, ko‘rganda uchdan bir qismini, eshitish va ko‘rishni birga tashkil etganda ma’lumotning yarmini esda qoldirishi aniqlangan. Bu jarayonga multimedia dasturlarini tatbiq etganda, ya’ni eshitish, ko‘rish va mulohaza yuritish birgalikda olib borilganda o‘zlashtirish darajasi anchaga ko‘tarilganligi aniqlangan.

Xulosa shuki, imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida yaratilgan elektron axborot-ta’lim resurslar fan dasturlariga mos kelishi, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni

shakllantiruvchi topshiriq va vazifalardan tashkil topishi, uzluksiz tizimda taqdim etilishi, uzviylik tamoyillariga mos kelishi o‘rinli.

Modellashtirish uslubidan hozirgi kunda virtual borliq, virtual laboratoriyalar yaratishda keng foydalanilib kelinmoqda. Model (lot. modulus – o‘lchov, me’yor) – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, yerning modeli – globus, osmon va undagi yulduzlar modeli – planetariy ekrani.

Modelning taqribiylik xarakteri turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, tajriba o‘tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta’sir etadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni, murakkab jarayonlarni hamda turli ko‘rinishdagi modellar yordamida tadqiq qilish, turli jarayon, hodisalar va voqeiylikning modellarini yasash va o‘rganishdir.

Atrofimizdagi dunyoni o‘rganish natijasida noaniq va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit etmaydi. Ular asosida o‘rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to‘laroq akslantirishi zarur.

Modellar tanlash vositalariga qarab abstrakt, fizik va boshqa guruhlarga ajratiladi.

Abstrakt modellar qatoriga matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi. Masalan, fizik modelda tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o‘lchami, tezligi, ko‘lami) jihatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poyezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo‘ladi. Matematik modellarda esa tirik organizmlarning tuzilishi, o‘zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo‘lib, tajriba ma’lumotlariga ko‘ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so‘ngra tajriba yo‘li bilan tekshirib ko‘riladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, imkoniyati ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar uchun fizika fanidan kompyuter imitatsion modellar yaratishda kompyuterli modellashtirishning metodologiyasi uch yo‘nalishidan bosqichma-bosqich foydalanib yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son.

2. Fayziyev M.A. “O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi” (“informatika va axborot texnologiyalari” fani misolida) Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand davlat universiteti. 2008.

3. Миркаримова Ч.М. Информационные технологии в инклюзивном образовании // Академия. № 6(21), 2017.

4. Eshimov R. “O‘qitishda zamonaviy texnologiyaning shakllanishi va qo‘llanilishi” Xorijiy tillarni o‘rganishning innovatsion texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: SamDChTI, 2018. – 142 b.

5. Eshimov R.R. Multimedial Electronic Textbook and Problems of Organizing Education on the Basis// International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 6 Issue 3, March-April 2022 Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470. Page.1831-1833.

Nilufar XUDOYBERDIYEVA,
Sahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MOTIVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (Texnologik ta’lim misolida)

Annotatsiya

Maqolada motivatsiyani shakllantirish, motivlar va maqsadlarni qo‘yish, motivlar va maqsadlarni hisobga olgan holda kontekstda shakllantiradigan va rivojlanadigan faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va ichki intilishlarini o‘rganish bo‘yicha takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Motivatsiya, bilim, ta'lim oluvchi, ta’lim beruvchi, texnologik ta’lim, ta’lim motivatsiyasini shakllantirish.

В статье подробно рассматриваются вопросы формирования мотивации и целей, условия и ситуации для осуществления учебной деятельности, развитие в контексте желаемых мотивов и целей. А также, предлагается учитывать при формировании мотивации и целей научно исследовательские результаты, идентичность и внутренние устремления обучающихся.

Ключевые слова. Мотивация, знания, обучаемые, обучающие, технологическое образование, формирование учебной мотивации.

The article discusses in detail the issues of forming motivation and goals, conditions and situations for carrying out educational activities, development in the context of desired motives and goals. And also, it is proposed to take into account scientific research results, identity and internal aspirations of students when forming motivation and goals.

Key words. Motivation, knowledge, trainees, teaching, technological education, formation of educational motivation.

Ma’lumki, motivatsion jarayonda loyihalash bosqichida faoliyatga nazariy tayyorgarlik ko‘riladi va nazariya asosida sinfda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda motivatsiyani shakllantirish va oshirishning eng samarali usullari va usullari tanlanadi. Nazariy jihatdan, shakllanish bir nechta bloklarni o‘z ichiga oladi: motivlar, maqsadlar, hissiyotlar, maktab o‘quvchilarining o‘quv va kognitiv faoliyati bilan ishlash. Har bir blok doirasida oldingi motivlarni yangilash va tuzatish, yangi motivlarni rag‘batlantirish va ulardagi yangi fazilatlarning paydo bo‘lishini rag‘batlantirish bo‘yicha ishlar olib boriladi.

Aslida motiv (lotin tilidan) – harakatga keltirmoq, turtmoq. Bu inson ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatni rag‘batlantiradi. Motivatsiya – faoliyatni keltirib chiqaruvchi va uning yo‘nalishini belgilovchi impulsdir.

Ta’lim motivati – o‘quv maqsadlariga erishishda talabalar tomonidan ko‘rsatiladigan motivatsion faoliyatdir.

Insonni ishlashga, har qanday harakatni qilishga va umuman hayot davomida harakat qilishga undaydigan turli xil motivlarni beshtaga qisqartirish mumkin:

- mukofotlash motivi;
- ijtimoiy motiv;

• jarayon motivi;
• muvaffaqiyat motivi;
• mafkuraviy motiv.

O‘quvchi uchun eng muhim motivlar quyidagilar:
• ta’lim;
• kommunikativ;
• hissiy;
• o‘z-o‘zini rivojlantirish;
• talabaning pozitsiyasi;
• yutuqlar;
• tashqi (mukofot, jazo).

Tashqi motivatsiya – keng ijtimoiy motivatsiya (rivojlanish uchun har bir madaniyatli odam kamida bitta chet tilini bilishi kerak, Men ham o‘rtoqlarim kabi chet tilini bilishni xohlayman).

Ichki motivatsiya:

– shaxsning kelajakdagi rivojlanishi bilan bog‘liq motivatsiya (men o‘qiyapman, chunki chet tili keyingi hayotda foydali bo‘lishi mumkin (institutda; kelajakdagi ishda; o‘zim kimgadir yordam bera olaman));

– kommunikativ motivatsiya (sinfdagi yigitlar bilan muloqot qilish qiziq; chet tili darslarida qatnashish qiziq; men xat yozishni o‘rganmoqchiman (xat yozish uchun));

– o‘quv faoliyatining o‘zi tomonidan yaratilgan motivatsiya (men chet tiliga qiziqaman (she’r o‘rganaman, mashqlar qilaman, qiziqarli matnlarni tarjima qilaman, o‘rganishda muvaffaqiyat his qilaman)).

O‘quvchilarning o‘rganishga munosabati darajalari. O‘quvchilarning o‘quv jarayoniga jalb etilishining bir necha bosqichlari mavjud: ijobiy, salbiy, befarq (yoki neytral).

Ijobiy munosabatning belgilari:
• o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligi;
• uzoq muddatli maqsadlarni belgilash qobiliyati;
• o‘z fikrini himoya qilish qobiliyati;
• o‘z ta’lim faoliyati oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati;
• maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengish qobiliyati;
• ta’lim muammolarini hal qilishning nostandart usullarini izlash;
• harakat usullarining moslashuvchanligi va harakatchanligi;
• ijodiy faoliyatga o‘tish;
• o‘z-o‘zini tarbiyalash ulushini oshirish.

O‘quvchining bilim olishga munosabati darajalari. Maktab o‘quvchilarining o‘qishga salbiy munosabati quyidagilar bilan tavsiflanadi:
• qashshoqlik va motivlarning torligi;
• muvaffaqiyatga qiziqishning sustligi;
• baholashga e’tiborning sustligi;
• o‘z oldiga maqsad qo‘ya olmaslik va qiyinchiliklarni yenga olmaslik;
• o‘rganishni istamaslik;
• maktab va o‘qituvchilarga nisbatan salbiy munosabat.

O‘qituvchiga qarab motivatsiyaning pasayishi sabablari:
• o‘quv materialining mazmunini noto‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning ortiqcha yuklanishiga olib keladi;

• o‘qituvchining o‘qitishning zamonaviy usullari va ularning optimal kombinatsiyasini yaxshi bilmasligi;

• o‘quvchilar bilan munosabatlarni o‘rnata olmaslik va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tashkil etish;

• o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari – o‘quvchilarning motivatsiyasiga har doim ham tegishli e’tibor berilmaydi.

Talabaga qarab motivatsiyaning pasayishi sabablari:

• past darajadagi bilim;

• o‘quv faoliyatining, birinchi navbatda, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish usullarining shakllanmaganligi;

• kamroq – sinf bilan bajarilmagan munosabatlar;

• alohida hollarda – rivojlanish kechikishi, anormal rivojlanish;

• talabaning sog‘lig‘ining yomonligi.

Talabalarning “noto‘g‘ri motivatsiyasi”:

• maktab o‘quvchilarida ta’lim faoliyatiga ijobiy, barqaror motivatsiyaning yo‘qligi ularning o‘quv faoliyatining yomonlashishiga sabab bo‘lishi mumkin;

• talaba diqqatini o‘quv jarayoniga qaratishi mumkin, lekin ayni paytda u faoliyat natijasiga emas, balki faqat baholashga e’tibor qaratishi mumkin;

• maktab o‘quvchilarida sof kognitiv ehtiyojlar va ta’lim qiziqishlaridan tashqari, ‘‘muammolardan qochish’’, ‘‘muvaffaqiyatsizlikdan qochish’’ va tushkunlikka tushishdan qo‘rqish motivlari bo‘lishi mumkin.

Belgilar. O‘rganish uchun rag‘batlantirish quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan qattiq tashqi nazorat.

– motivatsiya darajasini oshirish bo‘yicha ish bosqichlari.

Maqsad: ta’lim motivatsiyasini shakllantirish va oshirishning samarali usullari va vositalarini topish.

Vazifalar:

Motivlar tushunchasining nazariy tahlilini o‘tkazing: motiv nima, qanday motivlar bor va men o‘qituvchi sifatida o‘quvchilarimda qanday motivlarni shakllantirishim va rivojlantirishim kerak, degan savolni tushunish uchun.

Talabalarning motivatsion sohasini o‘rganish va o‘quvchilarning motivatsiya darajasini diagnostika qilish: bu diagnostik bosqich bo‘lib, unda motivatsiya darajasi o‘rganiladi, chunki motivatsiyani o‘rganish va uning shakllanishi bir xil jarayonning ikki tomonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология: учебное пособие. – СПб: Питер, 2003. – С. 256.

2. Кузьмина Н.В., Реан А.А. Профессионализм педагогической деятельности. – СПб., 1993. – С. 54.

3. Кузьмина (Головко-Гаршина) Н.В. Акмеологическая теория повышение качества подготовки специалистов образования. – М.: Исследовательский центр повышения качества подготовки специалистов, 2002. – С. 144.

4. Кузьмина (Головко-Гаршина) Н.В. Предмет акмеологии. 2 изд., испр. и доп. – СПб.: Политехника, 2002. – С. 189.

Muxayyo ALIKULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

OILADA SHAXS TARBIYASIGA OID AKSIOLOGIK YONDASHUVLARNING TARIXIY-TADRIJIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada O'rta Osiyoda oila tarbiyasiga oid qarashlar eng qadimgi davrlardan boshlab paydo bo'la boshlangani xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu masala dastlab o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari: afsonalar, ertaklar, topishmoqlar, maqollar, masallar, dostonlar mazmunida yaqqol ko'zga tashlanishi tadqiq qilinadi. Pedagogik qadriyatlarda bola tarbiyasiga oid fikrlar o'ziga xos tarzda bayon etiladi.

Kalit so'zlar. O'zbek xalqi, oila, tarbiya, farzand, maqol, afsona, ertak, masal, doston, aksiologik yondashuv.

В статье рассказывается о том, как семейное воспитание начало появляться с древнейших времен в Средней Азии. Анализируется, содержании образцов узбекского устного народного творчества: легенд, сказок, загадок, пословиц, притч, былин. Описывается педагогические ценности воспитания.

Ключевые слова. Узбекский народ, семья, воспитание, пословица, легенда, сказка, притча, эпос, аксиологический подход.

The article talks about how family education began to appear from ancient times in Central Asia. The content of samples of Uzbek oral folk art is analyzed: legends, fairy tales, riddles, proverbs, parables, epics. The pedagogical values of education are described.

Key words. Uzbek people, family, education, proverb, legend, fairy tale, parable, epic, axiological approach.

O'zbek xalq maqollarida farzandning azizligi, bolaning oila uchun quvonch keltirishi, bola bor uyda janjal va g'urbat bo'lmasligi haqida gapiriladi: "Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor", "Bolali uy jannat, bolasiz uy minnat", "Bolali uy xandon, Bolasiz uy zindon", "Bolali uyda janjal bo'lsa ham, g'urbat bo'lmas", "Bolali uyda sir yotmas", "Bolali uyda o'g'rilik yo'q", "Bolali uyda g'iybat yo'q" kabilar.

Shu bilan birga, qadimdan xalqimiz oilada farzandlarining odobli va axloqli bo'lib voyaga yetishlari uchun ko'plab maqollardan foydalanganlar. Bunday maqollarda bolaning axloqi oilaning ziynati, ota-onaning yuzi sifatida qaralgan. Ular bolalarga pand-nasihat tarzida yetkazib borilgan: "Avval salom, ba'daz kalom", "Bir kattani bil, bir kichikni bil", "Bola – aziz, odobi undan aziz", "Bosh bo'lmagan uyda, Otasi turib o'g'li so'zlar", "Yolg'iz bolaga indamasang, ko'payar", "Kattaga salom ber, kichikka – kalom", "Katta izzatda – Kichik xizmatda", "Kattani katta desang, o'zidan ketar, kichikni katta desang, kattaga yetar", "Kattaning uyalgisi kelsa, kichikka tegar", "Ko'p o'ynagan bola, El ko'zida ola", "Odob bozorda sotilmas", "Odob – oltindan qimmat", "Odobli bola elga manzur", "Odobli o'g'il – ko'kdagi yulduz, Odobli qiz – yoqadagi qunduz", "Odobsiz betga chopar", "Oltin olmay, odob ol, Odob oltin emasmi", "Onangga boshingni xam qil, Otangga gapingni kam qil", "Onasi maqtagan qizni olma, Yangasi maqtagan qizdan qolma.

Xuddi shunday oilada bolalarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ertaklardan samarali foydalanilgan va bolalarga kichik yoshligidanoq ertaklar so‘zlab berilgan. Shunday ertaklar sirasiga “Zumrad va Qimmat”, “Ur to‘qmoq”, “Ochko‘z boy”, “Sehrli shamchiroq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Podachining qizi”, “Podsho bilan chumoli”, “Chol bilan bo‘ri”, “Tulki bilan turna”, “Oltin tarvuz”, “Sher bilan durroj”, “Maqtanchoq quyon”, “Och bo‘ri”, “Kenja botir”, “Egri va to‘g‘ri” kabi ko‘plab ertaklarni kiritish mumkin. Ushbu ertaklarni tinglash orqali bolalar insonlarga yaxshilik qilish lozimligini; mehnatsevar, mehmondo‘st, saxiy, ochiq ko‘ngil bo‘lish kerakligini hamda mard, oliyjanob, vatanparvar kishilar doimo el ardog‘ida bo‘lishini anglab yetadilar.

Oila tarbiyasiga oid yondashuvlar qadimgi yozma manbalarda ham tilga olinadi. Xususan, dastlabki, yozma manba “Avesto”da insonni kamolotga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag‘rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Vatanni sevish, o‘zlari yashab turgan zaminni asrab-avaylash, ona zaminga e’tiborli bo‘lish, oilaga e’tiqod haqidagi g‘oyalar ham mavjudki, shubhasiz, bu g‘oyalar yosh avlodda oilaga e’tiqodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Muqaddas islom dinining xalqimiz ma’naviyati, ruhiyatiga o‘tkazayotgan ijobiy ta’siri nihoyatda kattadir, chunki islom dini doimo barcha millat xalqlarini chin e’tiqod, ezgulik, axloqiy poklik va ma’naviy yetuklikka da’vat etadi. Islom dinida oilaga qadriyat sifatida qaralgan. Chunonchi, oila qurishga erkak va ayol kishi birdek targ‘ib qilinadi va nikohning muqaddasligi aytib o‘tiladi.

Islom dinida xotinning er zimmasidagi haqlaridan birinchisi er tomonidan unga yaxshi va adolatli muomala qilinishidir: “Ayollar bilan yaxshilik ila turmush kechiring. Agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki, Alloh siz yoqtirmagan narsada ko‘plab yaxshiliklarni paydo qilsa!”, deya amr etgan (Niso surasi, 19-oyat).

Shaxsni oilada barkamol insonlar etib tarbiyalash, oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati, oilada bolalarga ta’lim-tarbiya berish shakl va usullari, shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuv kabi masalalar uzoq davrdan buyon jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Bobur, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat kabi ko‘plab allomalar o‘zlarining asarlarida oilada bola tarbiyasiga oid fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi davr yoshlari uchun ham katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egadir.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning va oilaviy tarbiyaning rolini yuqori baholaydilar, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida ota-ona va kattalarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi ekanligini aytib o‘tadilar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlarga: odoblilik, mehnatsevarlik, halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, vatanparvarlik, haqgo‘ylik, insonparvarlik kabi qator fazilatlarni kiritadilar.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida shaxsning barkamolligi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ta’lim-tarbiyasini tashkil etish usullari, axloqi haqidagi pedagogik qarashlarini falsafiy qarashlariga mushtarak tarzda ifodalab bergan. Uning fikricha, Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida insonlar ijtimoiy hayotda ehtiyojlarini qondirish uchun jamoaga va jamiyatga birlashadilar, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, jamiyatlarni to‘liq va to‘liqsiz jamiyatga ajratish mumkin. O‘z navbatida to‘liq jamiyat ham uch turga: buyuk jamoa, o‘rtacha jamoa va kichik jamoa bo‘linadi. Buyuk jamiyatga – yer

yuzidagi barcha joylar va yashovchi odamlar jamoasi kiritilsa, o‘rtacha jamiyat – biror xalq vakillarini tashkil etadi. Kichik jamiyat – u yoki bu shahar aholisi birlashmasi hisoblanadi.

To‘liqsiz jamiyatlar – qishloq, mahalla va oila jamoalari. Oila – eng kichik jamiyat. Mahalla va qishloq, shaharga qarashli bo‘lib, qishloqlar jamoasi shahar aholisiga (mahsulot yetkazish uchun) xizmat qiladilar. Mahalla esa shaharning bir qismi, ko‘cha – mahallaning bir qismi. Uy (hovli) ko‘chaning bir qismi. Shahar – mamlakatning bir qismi. Xalqlar turli mamlakatlardan iborat butun dunyo jamiyatidir.

Shuningdek, Forobiy ushbu asarida “Haqiqiy baxt-saodatga yetishuv yo‘lida bir-birlariga yordam berib yaxshi, go‘zal ish amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar fozila shahar, ya’ni fozil odamlar shahridir. Barcha shaharlarda baxt-saodatga yetishuv yo‘lida go‘zal, xayrli ishlarga bir-biriga yordam beruvchi xalqlar fazila, ya’ni fazilatli xalqlardir”, - deydi.

Darhaqiqat, eng kichik jamiyat bo‘lmish oilani fozil odamlar shahrini barpo etishdagi roli yuksakdir. Faqat oilagina har qanday jamiyatni baxt-saodatga yetaklaydi, undagina xayrli va go‘zal ishlar amalga oshiriladi.

Abu Rayhon Beruniy – ulug‘ o‘zbek mutafakkir olimi, o‘rta asrning buyuk allomalaridan biri. Beruniyga katta shuhrat olib kelgan asari “Mineralogiya” asaridir. Bu risola o‘z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Uning bu kabi asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idroki, sabr-toqat va kamtarlik, go‘zallik, poklik kabi insoniy sifatlari tilga olinadi. U ushbu asarida oila qurayotgan qizlarga otaning quyidagi nasihatini keltirib o‘tadi: “Ey qizim! Sen o‘rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo‘lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo‘l, u esa osmon bo‘ladi. Demak, sen u bilan shunday yo‘l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo‘lsang, u osmon kabi oliyjanob bo‘ladi. Osmon shifobaxsh yomg‘iri bilan yerni ko‘kartirgani kabi u ham o‘z mehr-u shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo‘lsang, u senga xizmatchi bo‘ladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so‘zlargina eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o‘tirma”.

Abdulloh ibn Ja’far ismli ota o‘z qizini turmushga chiqarayotib shunday deydi: ‘‘Sen rashk qilishdan saqlangin, chunki bu ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaversang nafratni uyg‘otadi. Yaxshisi, sen ering bilan xushmuomala bo‘lgin, bu har qanday sehr-jodudan yaxshidir va suvdan foydalangin, bu xushbo‘y narsalarning ichida eng birinchisidir”.

Beruniy o‘z qarashlarida oila tinchligi aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Mustahkam ma’naviy qo‘rg‘on bilan o‘ralgan oilada kamol topgan har bir qiz jamiyatda turli illatlar qurboni bo‘lmaydi. Shuningdek, u kelgusida yetuk salohiyatli farzandlar tarbiya qilmoqqa qodir bo‘ladi.

Oilaviy munosabatlar masalalariga oid o‘zining diqqatga sazovor qarashlari bilan ajralib turuvchi mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sinodir. Allomaning, ayniqsa, ayollar hayotda qanday bo‘lishlari kerakligi haqidagi qimmatli fikrlari hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Uning “Tadbiri manzil” asaridagi “Afsofiy behtarin zanho” bo‘limida ayollarning yaxshi xulqli bo‘lishi haqida so‘z boradi va mazkur asarda ayollar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishlari lozimligi ta’kidlanadi:

1. Bilimli bo‘lsin.
2. U dinga ishonishi kerak.

3. Uyatchan, sharm-hayoli bo‘lsin.
4. Tabiatan jasur bo‘lsin.
5. O‘z erini qattiq sevsin.
6. Tug‘ish va bola tarbiyasi haqida o‘ylasin.
7. Ezma bo‘lmasin.
8. O‘z eriga bo‘ysunsin.
9. To‘g‘ri, kamtar va farosatli bo‘lsin.
10. U hech qachon o‘z sha’niga dog‘ tushirmasin.
11. Eri bilan ehtiyotkor bo‘lib, uning hurmatini joyiga qo‘yib, xushmuomala bo‘lishi shart.
12. U o‘z vazifasini va burchini yaxshi bilsin.
13. Xotin oila xo‘jaligidagi narsalardan to‘g‘ri, tejab foydalanishni bilsin.
14. U o‘z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo‘qotsin.

Ibn Sino fikricha, ayol oqila bo‘lishi lozim, shundagina u erining ishonchli do‘sti va hamdardiga aylanadi, bevafolik esa oilani barbod qiladi, deydi. Ibn Sino oilada bola tarbiyasiga to‘xtalar ekan, bola tarbiyasi dastlab bolaga yaxshi ism qo‘yishdan boshlanishi kerak deydi.

Allomaning fikricha, bolani go‘dak davridayoq turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish, u haqida qayg‘urishi otaning burchidir va bola olti yoshga qadam qo‘yganidan boshlab uni murakkab bo‘lmagan vazifalarni bajarishga o‘rgatish kerak. Ammo bu harakatni ehtiyotkorlik bilan, bolani haddan ziyod zo‘riqtirib yubormasdan amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, bolaning topshiriqni bajarishga qiziqishini oshirish ham muhim hisoblanadi. Ibn Sino o‘qituvchi va tarbiyachilar bolalarni yaxshi ko‘rishi, hurmat qilishi, ular bilan yumshoq muomala bo‘lishi.

Yusuf Xos Hojib Balasog‘uniy “Qutadg‘u bilig” asarida oila masalasiga alohida e’tibor beriladi. Masalan, u turmush o‘rtoq tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e’tibor berish kerakligini, inson xulq-atvorining oilani boshqarishdagi roli, er-xotin o‘zaro munosabatlarining me’yorlari, farovon hayot kechirishning muhim jihatlari haqidagi fikrlari jamlangan[1].

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” nomli asarida ilmni yoshlarga bolalikdan o‘rgatish lozimligini uqtirib o‘tadi, chunonchi:

Bolam tutsin desang donolik yo‘lin,
Kichiklikdan tegiz bilimga qo‘lin.

Mutafakkir “Agar bola kichiklikdan bilim o‘rgansa, uning idroki ham yaxshi bo‘ladi, zakovati ortadi”, deydi[2].

U uquv-idrokning bilimdan farqini tushuntirar ekan, har ikkalasi birgalikda insonni yuksaklikka ko‘taradi, deydi:

Ikkovi tufayli ulug‘dir inson,
Adolatga boshlar ular har qachon.
Bilim bilan kishi judo hayvondin,
Buyukroq nima bor, qani ayt ondin?![3]

Mutafakkir ushbu asarida ota-onalarga bola tarbiyasiga jiddiy yondashmoqlikni va bunda yaxshi ustoz tanlash kerakligini tushuntiradi:

O‘g‘il -qiz tug‘ilsa, yaxshi bilki, bas,

[1] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: “Yulduzcha”, 1990. – 192 b.
[2] Shu adabiyot: – 63 b;
[3] Shu adabiyot: – 64 b;

Uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas.
Ustozning yaxshisin tanla albatta,
O‘g‘il-qiz pok o‘sar, yomondan chetda ?![4]

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o‘zining “Navodir ulvaqoye’” (“Nodir voqealar”) nomli asarida “Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati” haqida batafsil bayon qilgan6. Mutafakkirning fikricha, inson muayyan yoshga yetgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo bo‘ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmoq, hurmat qilmoq har bir erkak (er)ning vazifasi ekanligini aytib o‘tadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istaklari, maqsadlariga yetishib yashashdir. Ahmad Donish oilaviy baxt ko‘proq xotinlarga bog‘liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne’mat yo‘qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo‘lidadir, degan fikrlarni hamda oila qurish motivlarini kengroq yoritib beradi.

Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o‘gliga atab “Qobusnoma” asarini yozadi va ushbu asarida o‘z farzandiga ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi. U o‘z farzandiga boylik qoldirishdan ko‘ra pand-nasihat qoldirishni afzal biladi. Ushbu asarni keng ma’noda oilada farzand tarbiyasiga bag‘ishlangan desak adashmaymiz. Asardagi asosiy g‘oya – yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalash g‘oyasi bo‘lishi bilan birgalikda, farzandning ota-onaga cheksiz hurmat va muhabbatini tarbiyalash, kasb-hunarga o‘rgatish, kishilar bilan samimiy munosabatga kirishish, sog‘lom turmush tarzini tarbiyalash kabi ko‘plab masalalar talqinidan iborat. Uning bu boradagi fikrlari pandnomaning “Ota-ona haqqini bilmoq zikrida” bobida bayon etilgan: “Har bir farzandki, oqil va dono bo‘lsa, ota-ona, mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay”. U bu borada “Nima eksang, shuni o‘rasan” degan maqolni ishlatib, u oilada bola tarbiyasining qo‘yilishi ana shu muhim maqol asosida qurilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaydi. Kaykovus “Qobusnoma” asarida o‘z farzandiga pand-nasihat qilar ekan, bu borada kasb-hunarni egallash muhim ekanligini qayta-qayta takrorlaydi: “Ey farzand ogoh bo‘lginki, hunarsiz kishi hamisha foyda so‘z bo‘lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mug‘ilonning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug‘lon yanglig‘ na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berur”[5].

Kaykovus hunar kishini yuksaklikka ko‘tarishini va har chog‘ hunarli kishi qadrli bo‘lishini uqtirib o‘tadi: “Barcha katta-kichikka hunar o‘rgatmoq vojibdur, nedinkim kishi hunar o‘rganmoq bila o‘z hamrohlaridan baland martabada bo‘lur. Chunki o‘zingda hunar ko‘rib o‘z tenglaringda ul fazilatni ko‘rmasang, ulardan o‘zingni va yana seni o‘zlaridan baland martaba bo‘lurlar. Hunarmand kishi uldurkim, fazli va hunar sababi bila qadr va martabasi o‘zgalardan baland bo‘lg‘on ekanini bilib avvalgidan ko‘proq harakat qilg‘ay, va burung‘idan ziyodroq fozil va hunarmand bo‘lg‘ay”[6].

O‘rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotini yuksaltirishda buyuk sohibqiron Amir Temurning xizmatlari nihoyatda kattadir.

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e’tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-

[4] Shu adabiyot: 134 b;
[5] Kaykovus Unsurulmaoli. Kaykovus.. – T.: ‘‘Istiqlol”. 1994 y.– 26 b.
[6] O‘sha adabiyot – 31 b.

nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim”[7].

U avvalo bola tarbiyasida ota-onalarning ma’naviy va jisman sog‘lomligiga katta talab qo‘yadi va davlat rahbari sifatida yoshlarning ichkilik, chekish kabi zararli illatlar va aysh-ishratlarga berilishiga qarshi turadi.

Amir Temur farzandlari va nabiralari tarbiyasiga alohida e’tibor berib, ularning tarbiyasini faqat Bibixonim kabi obro‘li malikalarga ishonib topshiradi. Bu malakalar yosh bolalarni odob-axloq qoidalari: so‘zlashish madaniyati, boshqalar oldida o‘zini qanday tutish kerakligi, ovqatlanish madaniyati, kattalarga e’tiborli bo‘lish, savollarga javob berish kabi axloqshunoslik ilmiga tayyorlab boradi.

Jumladan, Sohibqiron o‘z o‘g‘li Shohrux Mirzo, suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzo va boshqa nabiralarini Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi.

Temuriylar davrida asilzodalarning farzandlari 4-5 yoshdan ilohiyot va axloqshunoslik bilimlarini egallashga da’vat etilar edi. O‘sha davrda madrasalarning ikki turi mavjud bo‘lgan. Dastlabki ma’lumot beruvchi madrasalar, ikkinchisi esa oliy ma’lumot beruvchi madrasalar edi. Bu ta’lim maskanlarida ilohiyot ilmi bilan birgalikda qonunshunoslik (fiqh), mantiq, matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), falakiyot (ilmi hay’at), tibbiyot, jug‘rofiya, arab tili va boshqa fanlar o‘rgatilgan. Shu bilan birga endiga o‘qishni boshlagan shahzodalarga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan qissaxonlar o‘qib berilgan.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida oila tarbiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, farzandlarning ota-onani hurmat qilish, ularni e’zozlashi, aytgan so‘zlaridan chetga chiqmasligi kerakligi yoshlarga pand-nasihat tarzida yetkaziladi. Shubhasiz uning bu kabi she’rlari yosh avlodda ota-onaga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalashga xizmat qiladi. Chunonchi, uning ushbu bayti fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi:

So‘zlaridan chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari.
Bo‘lsun adab birla bori xizmating,
Xam qil adab “dol”i kibi qomating,
So‘ngra rahmning silasin qarz bil,
Rahm o‘shul toifag‘a farz bil.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, mutafakkir Alisher Navoiy asarlari bugungi davrda ham oila tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, Alisher Navoiy tilga olgan barkamol insonni tarbiyalashning tamal toshi avvalo oilada qo‘yiladi.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra shuni ta’kidlash lozimki, oila va nikoh hamda oilada barkamol shaxsni tarbiyalash masalalari qadimdanoq Markaziy Osiyoda o‘z tarixiy ildizlariga egadir. Xususan, dono xalqimiz va buyuk allomalarimiz o‘z qarashlarida nafaqat oilani qadriyat sifatida ulug‘lab kelganlar, balki uning huquqiy, axloqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik asoslarini yaratib berganlar. Ayniqsa, ular ota-onalarning davlat va jamiyat uchun komil farzand yetishtirib berishda nimalarga e’tibor berishi kerakligi, burch va vazifalarini sodda, tushunarli tilda bayon qilib o‘tganlar. Shuningdek, allomalar o‘z asarlarida farzandlarning jamiyat va ota-ona oldidagi vazifalarini pandnomalar, hikmatlar, nasihatlar ko‘rinishida yoshlarga yetkazib berishgan. Shu boisdan allomalarimizning

[7] Amir Temur o‘gitlari, – T.,1992, – 58 b.

oila muammosi va yoshlar tarbiyasiga oid yondashuvlari bugungi shiddatkor zamonda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Insondagi barcha ezgu niyatlar, fazilatlar, qadriyat, vatanni sevish, ota-onani ardoqlash, mehnatsevarlik, saxiylik kabilar dastlab oilada shakllanadi. O‘zbek oilasi o‘zida ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy qadriyatlarni saqlaydi va kelgusi avlodlarga yetkazadi. Agar oilada sog‘lom muhit, kattalar o‘rtasidagi munosabatlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, shubhasiz bunday oilalarda tarbiya topayotgan yosh avlod kelgusida ota-onani e’zozlovchi, kattalarni hurmat qiluvchi, qalbi va dili pok insonlar bo‘lib yetishadi. Farzand ko‘rish baxtiga muyassar bo‘lgan har bir ota-ona farzandiga cheksiz mehr-muhabbat ko‘rsatishi bilan birga, uning ishlaridan, yutuqlaridan faxrlanishni, el-yurtiga sodiq fuqaro bo‘lishini istaydi. Ota-ona o‘z farzandini ilmli bo‘lishini, ma’rifat yo‘lidan borishi va halol mehnat qilishini orzu qilib, bu borada tinmay mehnat qiladi, farzandiga munosib tarbiya berishga intiladi.

Bugungi kunda yosh avlodni oilaviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali ota-ona va Vatanni sevishga o‘rgatish hamda ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi hislatlarni tarbiyalashda ota-ona va kattalar namunasidan foydalanish dolzarb pedagogik muammo sifatida ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, hozirgi zamon yoshlarida oilaga oid majmuaviy bilimlarni shakllantirish masalasi davlat, jamiyat, mahalla va ta’lim tizimi, ota-onalar oldidagi mas’uliyatli vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donish. ‘‘Navodir ul-vaqoe'", – Dushanbe: ‘‘Donish”, 1989. –339 b.

2. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – T.: ‘‘O‘qituvchi”, 1967. – 99 b.

3. Beruniy. Minerologiya. – M., 1963. – 256 b.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2016. – 238-320 b.

5. Burxonuddin Marg‘inoniy. Hidoya, I-jild, Nikoh kitobi: – T.: Adolat, 2002. – 402 b.

Sayyoraxon RUZMETOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

OLIY TA’LIM TIZIMIDA MUHANDISLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA TALABALARNING MUHANDISLIK KASBIGA QIZIQISHINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining muhandislik kasbiga oid qiziqishlarini, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik talablari va shartlari, bo‘lajak muhandislarda kasbga yo‘naltirilganlik tizimini takomillashtirish, talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish masalasi atroflicha bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Talaba, ta'lim, tarbiya, muhandis, ijod, qobiliyat, di- daktik, o‘quv jarayoni, qiziqish, ko‘nikma, malaka, kasb, samaradolik.

В статье рассматривается проблема формирования творческих способностей, направленных на профессию будущих инженеров, путем вы- полнения дидактических требований и условий для развития творческих спо- собностей, связанных с инженерной профессией студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова. Студент, образование, инженер, творчество, способ- ности, дидактика, учебный процесс, интерес, навыки, квалификация, профес- сия, эффективность.

The article describes the issue of formation of creative abilities directed to the profession of future engineers by fulfilling didactic requirements and conditions for the development of creative abilities related to engineering profession of students of higher educational institutions.

Key words. Student, education, upbringing, engineer, creativity, ability, didactic, educational process, interest, skills, qualification, profession, efficiency.

XVII asr oxiri – XVII asr boshlarida insoniyatning texnik faoliyati tabiiy fanlar va matematika fanlariga bog‘lanmagan holda amalga oshirildi. Yangicha texnika va texnologiyani bunyod qilish uchun ilmiy tadqiqot natijasi sifatida muhandislik faoliyati paydo bo‘ldi. Aynan muhandislik kasbining paydo bo‘lishi jamiyatning barcha soha va qatlamlarida tub burilishga sabab bo‘ldi.

Dastavval fuqarolik muhandisi atamasi keng ishlatilgan bo‘lib, asosiy mutaxassislik – fuqarolik muhandisi o‘rta asrlarda qurilish ishidagina ishlatila boshlandi. Biroq metallurgiya, yengil sanoat, kemasozlik va boshqa sohalarlarining rivojlanishi bilan yangi tipdagi, yuqori malakali ustadan farqlanmaydigan muhandis-sanoatchi sohasi yuzaga keldi. Mashina industriyasini rivojlanishi bilan bunday tipdagi muhandis to‘liq rasmiylashdi va texnik progressning asosiy figurasi bo‘lib qoldi.

Oliy ta’lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifaning nechog‘lik samarali hal etilishi mamlakatimizda amalga oshirib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining

professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur", deb aytgan fikrlarida aks etadi.

Talabalar, ya'ni bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhandislik va kompyuter grafikasi fundamental fan bo'lib, bu fan bo'yicha egallangan bilim va malakalar asosida muhandisning fazoviy tasavvuri, texnik tafakkuri va ijodiy qobiliyati kabi xislatlari rivojlanadi. "Muhandislik va kompyuter grafikasi", umuman, muhandislik fanlari o'quv fani talabalarda grafik bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning asosi hisoblanib, ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishiga yo'l ochadi. Ularning fazoviy tasavvurlarni kengaytirib, loyihalashning asosini tashkil etuvchi chizmalarni o'qish va bajarish, obyektlarning eskizi va ish chizmalarini tuzish, perspektiv tasvirlarini qurish kabi grafik savodxonlik malakalari bilan qurollantiradi shuningdek, umum muhandislik fanlarini va maxsus predmetlarni o'rganish jarayonida grafik savodxonlik darajalari rivojlanib, mutaxassislik fanlardan kurs ishi, kurs loyihalarini bajarish jarayonida egallangan bilim va malakalardan foydalanadi. Oliy ta'limda o'qitishning mazmuni, shakllari va usullari talabalarni faol kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan tizim sifatida ushbu fan sohasidagi zamonaviy kasbiy vazifalarga yo'naltirilishi kerakligini tasdiqladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida har qanday fanning tarkibi, tuzilishi kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarni shakllantirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi kerak.

Prezidentimizning 2023-yil, 7-aprelda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ham O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

– oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari eksporti va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishga doir faoliyatini rivojlantirish;

– qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan, resurs tejamkor va tez barpo etiladigan konstruksiya va materiallardan foydalanish bo'yicha ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo'llash;

– qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, ushbu jarayonda innovatsion texnologiyalarga asoslangan, resurs tejamkor va tez barpo etiladigan konstruksiya va materiallardan foydalanish bo'yicha ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo'llash;

– oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ta'minlash, o'quv va ilmiy jarayonlarni o'quv va laboratoriya uskunalari, shuningdek laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa obyektlar) bilan muntazam ravishda zarur miqdorlarda ta'minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi muhandislik sohasini ilg'orlatish, takomillashtirishni oliy ta'lim tizimidayoq yo'lga qo'yish va bunga alohida e'tibor qaratish lozimligini e'tirof etadi.

Bugungi kunda ayni muhandislik sohasi ham innovatsion yondashishni, oliy ta'lim tizimida bo'lajak muhandislarda mutaxassisligiga havas uyg'otgan holda faoliyat

yuritishni talab etishi sir emas.

Bugungi axborotlashgan zamonda talabani fanga qiziqtirish, ma’lum bir kasbga havas uyg‘otish uchun o‘zi talabadan bir necha qadam oldinda bo‘lishi kerak. Unga zamonaviy amaliyotning professional vazifalari darajasida bo‘lishga imkon beradigan fan sohasiga yo‘naltirish, muhandislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida mavjud fanlarni tizimli, bosqichma-bosqich tartibda tashkil etib borish orqali amalga oshirish zarur, nazarimizda. Lekin maxsus fanlar faqat ayrim jarayonlarda, qaysidir semestrda (muntazam emas) mutaxassislik kafedralarda o‘rgatiladi va talabani bo‘lajak kasbiga jalb qilish zaruriyati ilk kunlardanoq paydo bo‘lmoqda, chunki bu fan sohasida izlangan, ko‘p yillar mehnat qilgan olimlarning ta’kidlashicha, insonga kasbiy qiziqishni rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni “maktab-professional ta’lim – oliy o‘quv yurti” bosqichlarida muntazam, uzluksiz ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Bu borada A.B. Kaganovning fikriga tayanadigan bo‘lsak, talabalarda boshlang‘ich kasbiy shakllanish natijalari ko‘p jihatdan oliygohlarda ularning yangicha sharoitlarga psixologik moslashuvi yuzasidan yo‘naltirilgan yutuqlar bilan belgilanishi ta’kidlanganining guvohi bo‘lamiz.

Bo‘lajak muhandislarni tayyorlashda muhandislik va kompyuter grafikasining roli nihoyatda katta. Negaki, muhandislikning g‘oyalarini ko‘rinmas, qiyin, tasavvuri holda tuzishning gohida ta’siri yanada samaraliroq bo‘ladi, chunki ixtirochi bola tekislikdagi uch o‘lchovli fazo tushunchasini qanchalik egallagan bo‘lsa, muhandislar tayyorlovchi oliy ta’lim tizimi muassasalarida ta’lim olish vaqtida texnik fanlar bilan bog‘liqlik qanchalik kuchli bo‘lsa, kasbga ishtiyoq albatta shuncha faol bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, oliy ta’lim muassasalari o‘z navbatda faqat ma’lum bir sohada mutaxassis tayyorlash bilangina cheklanib qolmasdan, talabalarda ijodkorlik qobiliyatini aniqlash, uni rivojlantirish va uni yuzaga chiqarishga ham jiddiy yondashishi shart. Zero, bugungi kunda ijodkor, kreativ talabalar mamlakat umumiy rivojining drayverlaridir.

Umuman, quyidagi tavsiyalar oliy ta’lim tizimida muhandislik faoliyatini rivojlantirish va talabalarda muhandislik kasbiga qiziqishni oshirishda ahamiyat kasb etadi:

1) o‘quv jarayoni asosiga ta’lim oluvchi shaxs ehtiyoji asos sifatida olinsa;

2) jamoaviy ta’lim olish bilan bir qatorda, mustaqil, individual ta’lim olish joriy qilinsa;

3) talabaning aniq yo‘nalishini, maqsadini belgilab berib, uni amalga oshirish vositasi aniqlansa;

4) talabalarda bilim olishga barqaror motivatsiya uyg‘otish yo‘llarini ishlab chiqilsa va amalga tatbiq qilinsa;

5) ijodiy, erkin, kreativ fikrlaydigan va ilmiy asosiga ega yoki bo‘lmasa tavakkal qilishdan qo‘rqmaydigan mutaxassis tayyorlanishi lozim.

Bundan tashqari ijodga moyilligi bo‘lgan talabalarni aniqlash va tanlash, ularni tayyorlab borish, o‘z navbatida, ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, natijalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilish orqali unga motivatsiya berish ham o‘z kasbiga hurmat va qiziqish ruhiyatini berishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T., 2020-yil 6-noyabr PF-6108.

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Просвещение, 1997. – С. 330.

Shaxzoda SHARIPOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, ‘‘Jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN O‘TKAZILADIGAN BOSHLANG‘ICH GIMNASTIKA MASHQLARI TEXNIKASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan boshlang‘ich gimnastika mashqlari orqali harakat ko‘nikmasini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshi, jinsi va jismoniy rivojlanish darajasidan kelib chiqib gimnastika vositalarining qo‘llash samaradorligini va takomillashtirish yo‘llari xususida batafsil fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Gimnastika mashqlari, texnika, ko‘nikma, jismoniy rivojlanish, muvofiqlashtirish, amplituda, jismoniy kamolot.

В статье подробно анализируется формирование двигательных навыков с помощью элементарных гимнастических упражнений, проводимых с детьми дошкольного возраста, в зависимости от возраста, пола и уровня физического развития дошкольников а также, результаты исследований эффективности применения и путей совершенствования гимнастических средств.

Ключевые слова. Гимнастические упражнения, техника, мастерство, физическое развитие, координация, амплитуда, физическая зрелость.

The article analyzes in detail the formation of motor skills with the help of elementary gymnastic exercises carried out with preschool children, depending on the age, gender and level of physical development of preschoolers, as well as the results of studies of the effectiveness of the use and ways to improve gymnastic means.

Key words. Gymnastics exercises, technique, skill, physical development, coordination, amplitude, physical maturity.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, rivojlantirish va tubdan isloh qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini talabga mos ravishda kengaytirish, malakali mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash rejasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi ‘‘2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 9-sentabrdagi ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3261-sonli Qarorlari qabul qilindi. Bu ham davlatimiz rahbarining maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishdagi katta e’tiboridan dalolat beradi.

Tadqiqot ishining maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarni gimnastika mashqlari orqali harakat ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari:

– maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat ko‘nikmalarini shakllantirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarligini rivojlanganlik darajasini aniqlash.

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi davlat va jamoat muassasalarida olib boriladi. Davlat muassasalarida – yaslilar, bolalar bog‘chalari; jamoat muassasalarida – mahkamalar, korxonalar, shaxsiy pulli yasli va bog‘chalar tarzida maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari sifatida uyushtirilmoqda. Jismoniy tarbiya asosan davlat muassasalarida amalga oshiriladi. Kichkintoylarni ilk yoshdan boshlab jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, sportga muhabbatini uyg‘otish, ularning jismoniy kamolotini ta’minlash – baxtli kelajakning kafolatidir.

Gimnastika texnikasi mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan metodlar to‘plami sifatida ishlab chiqiladi. Ushbu mashqni gimnastika toifasiga kiritishga imkon beradigan bunday o‘ziga xos xususiyat, birinchi navbatda, qat’iy tartibga solingan harakatlar dasturi sharoitida muvofiqlashtirish va boshqa harakat qobiliyatlarini namoyon qilishdir. Harakatlarning boshlang‘ich va yakuniy pozitsiyasi, yo‘nalishi va amplitudasi, mushak harakatlarining tabiati aniq ko‘rsatilgan.

Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning vazni 16-18 kg atrofida, bo‘yi 90-100 sm gacha yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. Bolada mustaqillik ortadi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Uch yoshli bolaning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib, borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bolani gavdasini tik tutishga o‘rgatish, jismoniy sifatlarini yanada rivojlantirish hamda sport turlariga qiziqishini orttirish, jismoniy harakat turlari bilan tanishtirish, faol bo‘lishga undash, turli mashqlarga qiziqish uyg‘otish muhimdir. Gimnastika mashg‘uloti vaqtida bolani qo‘l va oyoq harakatlarini mashqqa muvofiqlashtirishga, oyoqni sudramay, boshni egmay yengil yurishga odatlantirish va muvozanat saqlashga o‘rgatib borish. Yirik motorikani rivojlantirish. 3-4 yoshli bola yurish, yugurish, sakrash, yumalatish, irg‘itish, ilib olish, emaklash, tirmashish, muvozanat saqlash kabi asosiy harakat mashqlarini bajara oladi. Bu yoshdagi bolada turli yo‘nalishlarda yurish va yugurish, turli balandliklardan sakrash, koptoklarni bir-biriga qaratib yumalatish, ikki qo‘llab pastdan, ko‘krak oldidan, boshidan oldinga oshirib irg‘itishni rivojlantirish.

Bola 4-5 yoshga yetgach, uning jismoniy o‘sishi bir muncha jadallashadi, bo‘yi 100-110 sm atrofida, og‘irligi 20-22 kg gacha bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, qiyoslash ko‘nikmasi shakllanadi; nutqi ravonlashadi, xotirasi ancha teran bo‘lib, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Bola bilan olib boriladigan gimnastika mashg‘ulotlarining mazmunini xuddi mana shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Bolani boshlang‘ich gimnastika va sportga qiziqishini oshirishda jismonan chiniqtirishda quyidagilarga e’tiborli bo‘lish talab etiladi: turli gimnastika mashqlar yordamida tadbirlarni tashkil etish; chiniqtirish muolajalarini muntazam o‘tkazib turish, erkin harakat qilish malakalari shakllantirish; bolaga boshlang‘ich

gimnastika mashqlarning muhimligini ta’kidlash va mustaqil bajarishga undash; yopiq va ochiq maydonlarda o‘tkaziladigan turli sport o‘yinlariga jalb etish; yugurish, muvozanat saqlash, ikki oyoqlab balandlikka sakrash, to‘siqlarni yengib o‘tish bo‘yicha musobaqalarni tashqillashtirish; koptokni biror to‘siq ustidan boshqa bolaga irg‘itish va ushlab olish elementlari bor bo‘lgan mashqlarni o‘tkazish; gimnastika mashqlarini o‘z vaqtida o‘tkazish uchun doimo vaqt ajratish; musiqa sadolariga mos tarzda gimnastika harakatlarini rag‘batlantirish.

Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar qo‘lami kengayadi va aniqlashadi. 6-7 yoshli bola o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi bolada mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi, qiziquvchanlik yanada ortadi, kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Bu davrda bolaning bo‘yi 122-128 sm ga yetadi, og‘irligi 25-28 kg bo‘ladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, borliqni bilishga intila boshlaydi, gigienik malakalari shakllana boradi.

Boshlang‘ich gimnastika mashqlari asosida harakatlarni takomillashtirish, jismoniy sifatlar (tezkorlik, chaqqonlik)ni, kundalik harakat faolligiga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish. Mashqlarni bajarish paytida chidamlilik, muvozanat saqlash, harakatlarni boshqarish va fazoda chamalashni takomillashtirish. Uyushqoqlik bilan harakat qilishga; gimnastika mashqlariga qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni faqat ko‘rsatgandagina emas, balki so‘z bilan tushuntirganda ham aniq bajarishga o‘rgata borish kerak bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida taqiqlangan va qo‘llanishi cheklangan mashqlar

Mashq	Cheklash sabablari	Tavsiya etilayotgan almashtirish mashqi
Boshni aylantirish mashqlari Boshni orqaga tashlash (egish)lar Boshda tik (stoyka) turish Bo‘yinni haddan ziyod cho‘zish	Umurtqa pog‘onasining bo‘yin bo‘limini nostabilligi, bo‘yin mushaklarining yomon shakllanganligi, umurtqa pog‘onasining bo‘yin elementlarini siljishi mumkin.	Oldinga, yon tomonlarga og‘ishlar va burilishlar Almash mashqi yo‘q Yelkani orqaga, pastga tushirib bajariladigan mashqlarni bajarish;
Qorin bo‘shlig‘ining yuqori bo‘limini trenirovkalash: osmonga qarab yotgan holatda gavdani ko‘tarish, qo‘llar boshni ostiga yig‘ilgan	Umurtqa pog‘onasining bo‘yin elementlarini haddan ziyod zo‘riqishi, qo‘llar bilan umurtqa pog‘onasining bo‘yin bo‘limiga o‘ta kuchli bosilishi mumkin.	Qo‘llarning holatini o‘zgartirish
Qorin bo‘shlig‘ining quyi bo‘limini trenirovkalash: osmonga qarab yotgan holatda oyoqlarni birga ushlab ko‘tarish	Kuchanish fazasi bo‘yin va bosh tomirlariga ta’sir o‘tkazadi.	Navbatma-navbat oyoqlarni ko‘tarish va tushirish
Oldinga umbaloq oshish	Umurtqa pog‘onasining bo‘yin bo‘limini nostabilligi, bo‘yin mushaklarining yomon shakllanganligi	Almash mashqi yo‘q
Qo‘llar bilan tizzalarni ushlagan holda orqa bilan dumalash	Umurtqa pog‘onasining bo‘yin bo‘limi qayd qilinmagan (fiksatsiya bo‘lmagan)	Mashqni faqat pedagogning straxovkasi bilan bajarish
To‘g‘rilangan qo‘llarga tayanib qorinda yotgan holatda bel kamari bo‘limida bukilish		

Tovonlarda o‘tirish	Tizza paylari va bo‘g‘imining ortiqcha cho‘zilishi	Turkcha o‘tirish
Nafas olish mashqlarini bir vaqtda qo‘llarni yuqoriga ko‘tarish bilan birga bajarish		
	Yuqori yelka kamarining mushaklarini qisqarishi hisobiga kislorod kelishini kamayishi	Qo‘llarning holatini o‘zgartirish: yon tomonga yoki belga
5 sekunddan ortiq osilib turish	Bog‘lovchi-mushak apparatining zaifligi va o‘ta cho‘zilishi	Almash mashqi yo‘q

Gimnastika mashg‘ulotlari uchun uning kirish va yakunlovchi qisimlarida qo‘llaniladigan turli estafetalar va to‘siqlarni zabt etish o‘yinlari alohida qimmatga ega. Odatda bular diqqatni talab etadigan o‘yinlar va bolalarning jo‘shqin harakati cheklangan bo‘lib, guruhning muvaffaqiyati eng avvalo ularning uyushqoqligiga bog‘liq bo‘lgan estafetalar bo‘ladi: ‘‘chambarakdan o‘t”, ‘‘to‘pni uzat” va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan gimnastika mashg‘ulotining maqsadi va vazifalari bolalardagi turli jismoniy rivojlanishning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ulardagi kuchlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik, kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Gimnastika bolaning turli faoliyatlar uchun sog‘lomlashishi va jismoniy tayyorgarligini, jismoniy kamolotni shakllantirishni tizimli ravishda o‘z ichiga oladi. Gimnastika mashg‘ulotlarning hissiyligini oshiradi, harakatlarning estetik go‘zalligini, ritmikligini va ifodasini shakllantiradi. Bolaning tanasiga va ruhiyatiga ta’siri musiqa sadosi ostida yanada kuchayadi. Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda majmuaviy usullar juda muhim rol o‘ynaydi, mashg‘ulot davomida harakat qobiliyatlarini baholash, harakat faoliyatining umumiy qonunlarini o‘rganish fazilati tarbiyalanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish o‘quv topshiriqlarini taqsimlash, harakatlarning tahlili va sinkezini qo‘llash, turli jismoniy mashqlarni o‘rganish va ulardan ijodiy foydalanishga yordam beradi. Amaldagi mashqlar hajmi butun vujudga ta’sir qilish va mushaklarning individual guruhlari va organlarini rivojlantirish, jinsi, yoshi, jismoniy tayyorgarligi darajasiga qarab yuklarni tartibga solish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi ‘‘2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi 2707-sonli Qarori;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3261-sonli Qarori;

3. Кенеман А.Б., Хухлаева Д.Б. Теория и методика физического воспитания дошкольников. Учебник. – М., 2000.

4. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. ‘‘Maktabgacha ta’lim jismoniy tarbiyasi nazariyasi va metodikasi” Darslik. – T.: O‘zDJTI nashriyoti 2005 y.

5. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T.: O‘ZDJTI. 2005 y. – 231 b.

6. Eshtayev A.K. Gimnastika darsi. O‘quv qo‘llanma. 2004. O‘zDJTI.

Davron ABDULHAFIZOV,
Toshkent shahar, Yunusobod tumani, 240-sonli umumta'lim
maktabi 1-toifali jismoniy tarbiya o'qituvchisi

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA SHARQ YAKKAKURASHLARINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Maqolada yosh avlodni tarbiyalashda sharq yakkakurashining tutgan o'rni, Djit Kun Do jang san'atini kelib chiqishi va rivojlanishi, O'zbekiston yoshlarini erishgan yutuqlari haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Yosh avlod, aralash yakkakurash, Sharq yakkakurashi, jang san'ati, Djit Kun Do, texnika.

В статье освещается роль восточных единоборств в воспитании подрастающего поколения, истоки и развитие боевого искусства Джит Кун До и достижения молодежи Узбекистана.

Ключевые слова. Молодое поколение, смешанные единоборства, восточные единоборства, боевые искусства, Джит Кун До, техника.

The article highlights the role of martial arts in the education of the younger generation, the origins and development of the martial art of Jeet Kune Do and the achievements of the youth of Uzbekistan.

Key words. The younger generation, mixed martial arts, martial arts, martial arts, Jeet Kune Do, technique.

Djit Kun Do - (so'zma-so'z - "yetakchi musht yo'li") sportiga 1967-yilda mashhur xitoylik, amerikalik kino aktyori Bryus Li (1940-1973) asos solgan. Turlari va yo'nalishlarini o'rganib chiqqandan so'ng, Bryus Li jang san'ati bo'yicha o'z uslubiyotini yaratadi va o'z bilimini fan, san'at, falsafa va hayot tarziga aylantirib, uni "Djit Kun Do" deb ataydi.

Bryus Li Djit Kun Doni "usul" deb atagan, chunki uning falsafasiga ko'ra, Djit Kun Do har qanday jang san'atida ham, kundalik hayotda ham qo'llanilishi mumkin. Jang san'atining ko'plab uslublari Djit Kun Do texnikasida yoritilgan – ushu (asosan Ving Chun va Tay Chi), Jiu-Jitsu, Taekvondo (Jun Ridan oyoq zarbasi texnikasini o'rgangan), shuningdek, ingliz va filippin bokslari haqida qisqacha ma'lumot oldi. Djit Kun Do prinsipi – raqibingizdan oldinga o'tish. Sizga hujum qilish uchun hujumchi yaqinlashishi kerak. Bu yerda mushtdan oldingi uslub o'ynaydi.

Bryus Li vafotidan keyin maktabni filippinlik amerikalik Den Inosanto (1937-yilda tug'ilgan) boshqargan. U kichik Marina del Reyda (Kaliforniya) D. Inosanto jang san'atlari akademiyasiga asos solgan va u yerda DKDni ishlab chiqqan.

Bryus Lining mashhur shogirdlaridan biri Den Inosanto Djit Kun Doni ommalashtirishda muhim rol o'ynagan. Den o'zining Djit Kun Do arsenaliga boshqa jang san'atlari (ayniqsa, Muay Tay va Braziliya Jiu-Jitsu) qo'shgan.

Bryus Li usuli har bir uslubdan eng tez va samarali zarbalarni ajratib, turli uslublar va texnikalarni umumlashtirgan. Bryus Li vafotidan keyin maktab bayrog'i dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham ko'tarildi.

O'zbekistonda Djit Kun Do, asoschisi Bryus Li bo'lgan ushbu noyob jang san'atining tashabbuskori boks bo'yicha sport ustasi, Miksfayt va Filippin jang san'atlari ustasi,

Kikboksing bo‘yicha 5-dan, Kempo Karate bo‘yicha 6-dan qora belbog‘, Taekvondo bo‘yicha 8-dan qora belbog‘, Hap Ki-do bo‘yicha 8-dan qora belbog‘, Real Aykido bo‘yicha 8-dan qora belbog‘, Turan Do bo‘yicha 8-dan qora belbog‘, jangovar Kung-fu bo‘yicha 9-dan qora belbog‘ sohibi va nihoyat, Djit Kun Do bo‘yicha 9-dan qora belbog‘ soxibi Mixail Pavlovich Kim edi. Mixail Pavlovich Kim uning asosida Djit Kun Do Kim – DKDK deb nomlangan o‘ziga xos kurash usulini yaratdi.

(Djit Kun Do Kim) 1995-yil 21-iyun kuni Toshkent shahrida “Tashselmash” sport klubi negizida Djit Kun Do sport-sog‘lomlashtirish markazi rasman ochildi. O‘zbekiston Respublikasida,Toshkent, Qo‘qon, Samarqand, Farg‘ona, Shahrisabz shaharlarida DKD bo‘limlari ochildi. 2002-yil 1-oktyabriga kelib Toshkent shahrida M.P. Kim, Djit Kun Do sport klubi ochildi. Djit Kun Do federatsiyasi 2006-yilda O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasi Djit Kun Do federatsiyasi (2006-yildan buyon) mavjud bo‘lganidan beri terma jamoamiz ajoyib natijalar bilan jahon arenasining asosiy yetakchilaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Ayni damda sportchilarimiz hisobida Jahon chempionatining 30 ta oltin, 6 ta kumush va 5 ta bronza medali. Osiyo chempionatining 15 ta oltin, 3 ta kumush medali, 2 ta Osiyo kubogi, yevropa ochiq chempionatida 1 ta oltin medal va turli xalqaro turnirlardan 100 dan ortiq oltin medallar kulga kiritilgan.

Shu qatorda 2020-yilning 25-avgust kuni Klub Xalqaro Politsiya Assotsiatsiyasi O‘zbekiston bo‘limi va O‘zbekiston Respublikasi Djit Kun Do federatsiyasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida Memorandum imzolandi.

2020-yilning 15-oktabr kuni O‘zbekiston Ashixara Karate federatsiyalari va O‘zbekiston Respublikasi Djit Kun Do federatsiyasi o‘rtasida Memorandum imzolandi.

2021-yil 9-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi va O‘zbekiston Djit Kun Do federatsiyasi o‘rtasida hamkorlik Memorandumi imzolandi.

2021-yil 20-oktabr kuni “Polvonlar milliy markazi” sport assotsiatsiyasi va O‘zbekiston Djit Kun do federatsiyasi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport, yakkakurash va jang san’ati sohasida hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida Memorandum imzolandi.

2021-yil 2-dekabr kuni Djit Kun Do federatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi diplomatik korpus – Xizmatlar byurosi bilan shartnoma imzoladi.

2013-yil 11-mart kuni O‘zbekiston Djit Kun Do federatsiyasi O‘zbekiston Koreys madaniyat markazlari uyushmasiga kollegial a’zo sifatida qo‘shildi.

Toshkent shahar Yunusobod tumanining 240-sonli umumta’lim maktabida besh tashabbus asosida o‘quvchi-yoshlar bilan sog‘lom turmush tarzini singdirishda Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha tajribali pedagoglar bilan hamkorlikda ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilgan.

Maktabda sport tadbirlarini tashkil etishda ko‘pdan Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari Xadjayeva Atira Abdurashidovna va Xadjanova Nigora Baxriddinovna yordam berib kelishmoqda. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”

2023-yil 28-fevraldagi 27-son Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 217-bandi hamda “Mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 11-apreldagi 201-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida

2019-yil 19-mart kuni “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 12-sonli bayonida ikkinchi tashabbus yuzasidan mavjud va yangi quriladigan sport inshootlariga aholi va yoshlarni kengroq jalb etish, ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazishni ko‘paytirishda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, 240-umumta’lim maktabi ma’muriyati rahbarligida, Djit Kun Do sporti to‘garagi tashkil qilindi.

Hozirgi kunda,sport to‘garagi rahbari Abdulhafizov Davron Abitovich 20 dan ortiq maktab o‘quvchilari va mahalla yoshlarini shug‘ullantirib kelmoqda.

Bugungi kunga qadar,10 dan ortiq Respublika va Xalqaro turnir chempionlari, 15 dan ortiq shahar chempionlari tayyorladi. 2023-yilda Djit Kun Do sporti bo‘yicha kattalar, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida Jar sport majmuasida O‘zbekiston Respublikasi chempionati o‘tkazildi. Musobaqada ikki nafar sportchi qizlarimiz qatnashib, 2 o‘rinni egallashdi.

2023-yil mart oyida Djit Kun Do sporti bo‘yicha kattalar,bolalar va o‘smirlar o‘rtasida Jar sport majmuasida Toshkent shahar chempionati o‘tkazildi. Musobaqada sportchilarimiz faol qatnashib, 3 ta I o‘rin, 4 ta II o‘rin, 7 ta III o‘rinlarni egallashdi. Umumjamoa hisobida 2 o‘rinni egallashdi.

2023-yil may oyida Djit Kun Do sporti bo‘yicha bolalar va o‘smirlar o‘rtasida Olimp sport klubida Xalqaro bolalar himoya qilish kuniga bag‘ishlangan musobaqa o‘tkazildi. Bunda 17 nafar sportchi faol qatnashib, jamoalar ichida umum jamoa hisobida 1 o‘rinni egallashdi. Barcha sport turlari o‘z qoida va prinsiplariga ega. Lekin, Sharq yakkakurashlarida falsafa bo‘lishi shart. Chunki, falsafasiz jang san’ati – shunchaki ko‘cha jangidir. Falsafani nafaqat sportda uni hayotda va barcha sohalarda qo‘llash mumkin. Yosh o‘g‘il va qiznlari sportga yo‘naltirishda falsafa juda katta ahamiyatga ega. Bizning klubimiz falsafasi: Bilishni o‘zi yetarli emas, harakat qilish kerak. Xohishni o‘zi yetarli emas, mehnat qilish kerak.

Ya’ni, men olgan bilimimni amalda qo‘llay olmasam, undan foyda yo‘q, shuning uchun, men doim o‘z ustimda ishlashim lozim. Xohishga keladigan bo‘lsak, men chempion bo‘lishni istayman, lekin, buning uchun, shug‘ullanishim va yetarlicha tajriba olishim zarur. Ushbu falsafa orqali o‘quvchilarga motivatsiya berish, o‘ziga ishonishga, g‘alabaga erishishga, maqsad sari oldinga intilishga va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yordam beradi.

Shuni aytishim joizki, o‘quvchi-yoshlarimiz sport bilan shug‘ullansa, maktabdagi tartib-intizom, davomat va yutuqlar ham ta’minlanadi. Bolalikdan sportga oshno bo‘lgan odam tartib-intizomga o‘rganadi, mas’uliyatni his qiladi, atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga odatlanadi. Aslida maktabda o‘tiladigan jismoniy tarbiya fani ham mana shu insoniy fazilatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Maqsadim, eng avvalo, Djit Kun Do sportiga mehr-muhabbat orqali millati va e’tiqodidan qat’i nazar, barkamol, madaniy, ma’naviyatli, sog‘lom, baynalmilal avlodni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet sayti original jeet kune do. Jkdkim.com.// Боевые искусства. ру.
2. Брюс Ли, Митоси Уехара, Джит Кун-До “Боевая Школа Брюса Ли” 1958 г.
3. Линда Ли. Брюс Ли: Человек, которого знала только я. 1975 г.
4. Дэни Иносанто. Философия и исскуство Брюса Ли. 1980 г.

Sarvar BAHODIROV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Jismoniy madaniyat”
kafedrasi v.v.b dotsenti

15-16 YOSHLI FUTBOLCHILAR O‘RTASIDA MURAKKAB YUKLAMALARNING MAXSUS TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada futbol rivojining zamonaviy tendensiyalari epchillik, tezlik, kuchlilik, chidamlilik, moslashuvchanlik kabi sifatlar majmuasini rivojlantirish xususida so‘z yuritilib, futbolchilarga ma’lum bir talabni qo‘yishni: jismoniy sifatlardan o‘yin samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalana bilish lozimligi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. Futbol, musobaqa, chidam, moslashuv, kuchlilik, mashq, jismoniy sifatlar, gimnastika, individual yondashuv.

В данной статье освещаются современные тенденции развития футбола требующая формирования комплекса физических качеств, таких как ловкость, скорость, сила, выносливость, гибкость, приводятся результаты исследований о необходимости предъявлять к игрокам определенное требование: уметь использовать физические качества как средство повышения эффективности игры.

Ключевые слова. Футбол, конкуренция, выносливость, адаптация, сила, упражнение, физические качества, гимнастика, индивидуальный подход.

This article highlights current trends in the development of football, which requires the formation of a complex of physical qualities, such as agility, speed, strength, endurance, flexibility, and provides research results on the need to impose a certain requirement on players: to be able to use physical qualities as a means of increasing the efficiency of the game.

Key words. Football, competition, endurance, adaptation, strength, exercise, physical qualities, gymnastics, individual approach.

Tabiiyki, jismoniy sifatlarni futbol bilan shug‘ullanadigan har bir kishi ham yuqori saviyada rivojlantira olmaydi. Shuning uchun murabbiyning vazifasi eng kuchli jismoniy sportchilardan birining maksimal darajada rivojlanishiga to‘g‘ri keladi. Jismoniy sifatlarning yuqori darajasi to‘p bilan muomala qilish texnikasi sifati va taktik harakatlar samaradorligi bilan uyg‘unlashishi muhimdir.

Futbolchi mashg‘ulot va o‘yin o‘rtasidagi bog‘liqlikni doimo his qilishi kerak.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik – ma’lum bir sport turi uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon.

Tuzilishi bo‘yicha asosiy o‘yin harakatlariga o‘xshash maxsus tayyorgarlik mashqlari, shuningdek, texnika va taktika, ochiq o‘yinlar va o‘yinning o‘zi bo‘yicha mashqlar qo‘llaniladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tezlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va boshqa ba’zi jismoniy ko‘rsatkichlarning eng tez o‘sishi ikki yildan keyin uchinchi, ya’ni 7–10–13–16–19 yoshda.

13-15 yoshli bolalar uchun mashg‘ulotlarga nafaqat yuqori intensivlikdagi o‘yinlar va mashqlarini, balki chang‘i, suzish va kross mashqlarini ham kiritish tavsiya etiladi.

Moslashuvchanlikni tarbiyalash. Moslashuvchanlik deganda uning qismlari harakatchanlik darajasini belgilaydigan tayanch-harakat tizimining morfofunksional

xususiyatlari tushuniladi. Futbolchining moslashuvchanligi uning maksimal amplitudali harakatlarni bajarish qobiliyatidir.

Moslashuvchanlikning muhim xususiyati shundaki, bu xususiyat, boshqalardan farqli o‘laroq, yoshga qarab rivojlanmaydi, lekin sekinlashadi, chunki 13-16 yoshda bo‘g‘inlarning shakllanishi tugaydi va ligamentli apparatlarning mustahkamligi sezilarli darajada oshadi. Ligamentlar kamroq elastik bo‘ladi. Harakatning maksimal mumkin bo‘lgan diapazoni sezilarli darajada kamayadi, ayniqsa, oyoq bilagi zo‘r bo‘g‘imlarda va orqa miya bo‘g‘imlarida. Shuning uchun, moslashuvchanlikni tarbiyalash dastlabki tayyorgarlik va mutaxassislik bosqichlarida ko‘proq ta’sir qiladi.

O‘yinchilar umumiy rivojlantiruvchi gimnastika, akrobatika, shuningdek, maxsus futbol mashqlarini (to‘qnashuvlar va o‘pkalar, aldamchi harakatlar va qiyin vaziyatlardan zarbalar) bajarayotganda, murabbiy ularga harakat ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun harakat doirasi muhimligini doimo eslatib turishi kerak.

Moslashuvchanlikni tarbiyalashda har bir talaba uchun individual yondashuv talab etiladi. Xuddi shu mashqlar ta’sirida bolalarda bo‘g‘imlarning harakatchanligi tengsiz o‘sishi eksperimental ravishda isbotlangan. Shuning uchun bo‘g‘inlar harakatchanligi cheklangan futbolchilarga ko‘proq (ham hajmi, ham takrorlash soni bo‘yicha) cho‘zish mashqlari berilishi kerak.

Mushaklar kuchi va moslashuvchanlikni rivojlantirish o‘rtasida o‘ziga xos munosabatlar mavjud. Qo‘shimchani o‘rab turgan mushaklarning kuchli rivojlanishi moslashuvchanlikni rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan dalillar mavjud. Shuning uchun mushaklarning moslashuvchanligi va kuchini rivojlantirishga differensial yondashish kerak.

Moslashuvchanlikni rivojlantirish vositalari, birinchi navbatda, mashqlar:

– obyektlarsiz: ‘‘oyoqlar bir-biridan ajratilgan (yoki birga)’’ holatidan, chapda, o‘rtada va o‘ngda (torsonni to‘g‘rilamasdan va to‘g‘rilamasdan) qo‘llar polga tegib, torsonning oldinga egilishlari; torsonning prujinali bukishlari (to‘g‘rilangan va to‘g‘rilanmasdan) kaftlar polga oyoqlardan iloji boricha oldinga, oyoqlar orasiga va oyoqlarning orqasiga tegib; tirsaklar polga tegib, tananing oldinga prujinali egilishi; qo‘llarni shin bo‘ylab siljitish bilan torsonning oldinga burishli egilishi; galma-gal oddiy va prujinali egilishlar qo‘llar bilan orqaga va yon tomonlarga; tananing o‘ngga va chapga navbat bilan oddiy va bahorgi burilishlari; xuddi shunday, lekin qo‘llar yon tomonlarga, boshning orqasida; oyoqlari bir-biridan ajratilgan stendda, qo‘llaringiz tovoningizga tegguncha orqaga egilib, burilmasdan va gavdani burish bilan (sakrash orqali oyoqlarning holatini o‘zgartiring); ip, ko‘prik; oyoqning oldinga va yon tomonga yuqori tebranishlari (qo‘llarning teskari yo‘nalishda harakati bilan); o‘pkada torsonni oldinga va orqaga egish;

– sherik bilan: bir-biriga qarama-qarshi turish va qo‘llarni ushlab (qo‘llaringizni qo‘yib yubormasdan); o‘ngga va chapga buriling; tananing chuqur prujinali oldinga egilishi; orqangizni bir-biringizga qo‘yib turish (oyoqlarni bir-biridan ajratish); qo‘llaringizni ushlab turish, qo‘llaringizni boshingizdan yuqoriga ko‘tarish va tushirish; oyoqlarini bir-biridan ajratib, bir-biriga qarama-qarshi o‘tirish; qo‘llarni ushlab, oyoqlarini oyoq tagiga qo‘yish; oldinga galma-gal egilish; o‘tirgan holatda, qo‘llaringizni boshingiz orqasida (sherik bosadi, oyoqlari yerga); yon tomonlarga egilib, tirsaklarni yerga tegizish; o‘tirgan holatda amplitudaning asta-sekin o‘sishi bilan tananing dumaloq harakatlari (qo‘llar boshning orqasida); oshqozoningizda yotib (sherik oyoqlarini yerga bosadi) qo‘llaringizni boshingiz orqasida, torsoningizni chapga va o‘ngga aylantiring;

– gimnastika skameykasida o‘tirish (sherik o‘tirgan odamning oyoqlarini yerga bosadi); torsonni orqaga burish (qo‘llar boshning orqasida); polga bosh bilan teginish; xuddi

shunday, lekin to‘pni boshingiz orqasida ushlab turish; oshqozoningizda skameykada yotish (sherik yotgan odamning oyoqlarini yerga bosadi); qo‘llaringizni yuqoriga ko‘tarib, gavdani burish va qo‘lingizda to‘pni ushlab turish bilan egilish (navbat bilan);

– gimnastika devorida: bir oyog‘ingizni barga balandroq qo‘yib, ikkinchisini qo‘llaringiz bilan yelkangiz darajasida ushlab, prujinali harakat bilan torsoningizni oyog‘ingizga torting (peshonangiz tizzangizga tegishi uchun); orqangiz bilan devorga yaqin turing, oldinga egilib, relsni ushlang va torsoningizni oyoqlaringizga torting; pastki relsni qo‘llaringiz bilan ushlang va polda o‘tirganingizda torsoningizni oyoqlaringizga torting (oyoqlar rels ostida mahkamlangan); devorga orqa tomonga o‘tirish (barni boshingiz orqasida ushlab turish), oyoqlarini egish, turish va egilish (qo‘llarni ko‘tarmasdan), so‘ngra boshlang‘ich holatiga qaytish; boshingiz bilan devorga chalqancha yotib, pastki relsni qo‘llaringiz bilan ushlab turing, oyoqlaringizni bir xil relsga teggunchа ko‘taring;

– gimnastik tayoq bilan: qo‘llarni orqaga – yuqoriga, egmasdan va gavdani oldinga egib harakatlantirish (kuch bilan); qo‘llarni oldinga va orqaga ‘‘burish’’; sakkizinchi shakldagi tananing harakatlari va tanani oldinga burish, boshni tizzaga (tayoq bilan) tortish; yerda o‘tirgan holatdan egilib, oyoq orqasidagi tekis oyoqlarga tayoq bilan tegizish, tayoqni taglikka qo‘yish va qo‘llarning kuchli silkinishi bilan oyoqlarni yuqoriga ko‘tarish; tanani tayoq bilan polga tortish;

– arqon bilan sakrash: polda o‘tirib (sakrashda arqon oyoq orqasida to‘rtta buklanadi), navbat bilan arqon ustida egilib, to‘g‘rilanadi; ikki buklangan skapkoda oyoqlarni yuqoriga ko‘tarish (tovonini ushlash); bosh bilan to‘rtta buklangan sakrashda arqon yordamida tanani polga tortish;

– to‘plar bilan (rezina, futbol): oyoqlar orasidan qo‘llarni silkitib, oldinga egilish; yon tomonga buloqli egilishlar; qo‘llarning o‘ngga va chapga keng tebranishlari bilan tananing og‘irligi belanchak tomon harakatlanadi; sakkizinchi shaklda keng joylashgan oyoqlar atrofida pol bo‘ylab to‘pni dribling qilish; yerga o‘tirish, to‘pni tekis oyoqlar atrofida dribling qilish; oyoqlar orasiga bosilgan to‘p boshning orqasidagi polga tegmaguncha orqaga buriling; orqa tomonda yotgan holda oyoqlarini yuqoriga, o‘ngga va chapga ko‘tarish va tushirish; oyoq va torsonni bir vaqtning o‘zida ko‘tarish (to‘p oyoqlar orasiga o‘ralgan).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шамардин А.И., Солопов И.Н., Шамардин А.А. Технология оптимизации функциональной подготовленности футболистов // Проблемы оптимизации функциональной подготовленности спортсменов. Вып. 1. – Волгоград, 2005. – С. 22-27.

2. Шамардин В.Н. Комплектование сборной команды школьников по футболу на основе комплексного исследования подготовленности // Вопросы отбора и комплектования сборных юношеских команд по футболу. Волгоград, 1985. – С. 49-52.

3. Шамардин В.Н. Медико-биологические основы спортивной тренировки футболистов, – Дншропетровськ: Пороги, 1998, – С. 134.

4. Шамардин В.Н. Моделирование подготовленности квалифицированных футболистов. Днепропетровск: Пороги, 2002. – С. 200.

5. Шамардин В.Н. Система подготовки юных футболистов. Днепропетровск, 2001. – С. 104.

Zuxriddin RASHIDOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

YOSH OG‘IR ATLETIKACHILARDA KUCH VA CHIDAMLILIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya jarayonida hal etilayotgan asosiy vazifalardan biri insonga xos bo‘lgan jismoniy sifatlarning optimal rivojlanishini ta’minlash ekanligi, shuningdek, o‘smirlik va balog‘at davrlari hamda yosh guruhi bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, o‘smir, og‘ir atletika, kuch, pedagogika, rivojlanish, optimal rivojlanish.

В статье освещается, что одной из основных задач, решаемых в процессе физического воспитания, является обеспечение оптимального развития присущих человеку физических качеств, а также особенности работы с подростковым и взрослым возрастом и возрастной группой.

Ключевые слова. Физкультура, подросток, тяжелая атлетика, сила, педагогика, развитие, оптимальное развитие.

This article highlights that one of the main tasks solved in the process of physical education is to ensure the optimal development of human physical qualities, as well as the specifics of working with adolescents and adults and the age group.

Key words. Physical education, teenager, weightlifting, strength, pedagogy, development, optimal development.

Jismoniy fazilatlar odatda tug‘ma (genetik meros bo‘lib o‘tgan) morfofunksional fazilatlar deb ataladi, buning natijasida insonning jismoniy (moddiy jihatdan ifodalangan) faoliyati mumkin bo‘lib, u maqsadli harakat faoliyatida to‘liq namoyon bo‘ladi.

Asosiy jismoniy sifatlarga mushak kuchi, tezlik, chidamlilik, moslashuvchanlik va chaqqonlik kiradi. Jismoniy fazilatlar insonning ‘‘motor (jismoniy) qobiliyatlari’’ning asosini tashkil qiladi.

Eng umumiy shaklda ‘‘motor (jismoniy) qobiliyatlar’’ deganda shaxsning motor xususiyatlari darajasini belgilaydigan individual xususiyatlar tushunilishi mumkin.

Og‘ir atletika seksiyasiga 7-10 yoshli bolalar keldi. Ushbu sport turi bo‘yicha mashg‘ulot usullari haqidagi zamonaviy g‘oyalar bilan unchalik tanish bo‘lmaganlar, murabbiy ularni og‘ir atletika bo‘limiga qabul qilmasligiga ishonch hosil qiladi va o‘z yoshiga ko‘proq ‘‘mos keladigan’’ sport bilan shug‘ullanishni tavsiya qiladi, masalan, sport o‘yinlari, suzish yoki figurali uchish. To‘liq tan olamanki, ko‘p hollarda bu suzish havzalari, stadionlar va muz saroylari joylashgan yirik shaharlarda sodir bo‘ladi. Xo‘sh, agar bu qishloq, kichik viloyat markazi, kichik shahar bo‘lsa-chi? Ularning soni Rossiyada juda ko‘p bo‘lib, unda bolalar sportning ko‘plab turlari bilan shug‘ullanish imkoniyati yo‘q, katta shaharlarda yashovchi bolalar bunga ega. shug‘ullanish imkoniyati bormi?

Albatta, bu yosh guruhi bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari borligini bilishingiz kerak. Olimlarning ko‘plab tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, bolalik davrida, ayniqsa, balog‘at yoshidagi ichki organlar va tizimlarning faoliyati kattalardagidan sezilarli darajada

farq qiladi. O‘smirlik davri inson rivojlanishining nisbatan tinch va bir xil o‘sishi bilan tavsiflangan bolalik davri o‘rnini bosadi. Balog‘at yoshida butun organizmning jadal rivojlanishi sodir bo‘ladi. Bo‘yning, vaznning, ko‘krak qafasi aylanasi va mushaklarning sezilarli darajada oshishi, yurak faoliyatining kuchayishi, markaziy asab tizimi faoliyatida, ayniqsa, jinsiy bezlar faoliyatida chuqur o‘zgarishlar bo‘lishi buning isbotidir. Bu davr o‘g‘il bolalar uchun o‘rtacha 12 yoshdan 16 yoshgacha, qizlar uchun 11 yoshdan 15 yoshgacha davom etadi. Bolalik va o‘smirlik – bu inson hayotidagi uning kuchlarini to‘liq gullash yo‘lidagi asosiy davrlar, jismoniy va funksional imkoniyatlar yaxshilanadi, shaxsiyat va xarakter shakllanadi.

Yosh og‘ir atletikachilar bilan mashg‘ulotlarni boshlashda, zamonaviy o‘smir bolalar jismoniy rivojlanishida 50–70-yillardagi tengdoshlaridan sezilarli darajada farq qilishini hisobga olish kerak. O‘zining sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi jihatidan bir necha o‘n yillar oldin yashagan tengdoshlaridan sezilarli darajada past bo‘lgan yangi yosh avlod voyaga yetdi. Shuning uchun yosh og‘ir atletikachilarning jismoniy va funksional holatini diqqat bilan kuzatib borish ushbu sport turi bo‘yicha murabbiy ishidagi eng muhim talabdir.

Xo‘sh, yosh sportchilarni tayyorlashda qaysi yosh gradatsiyasiga rioya qilish kerak? Bu masala bo‘yicha haligacha konsensus yo‘q. Va ular aytganidek, bu masalada tartibni tiklaydigan hech kim yo‘q. Muallif 30 yil davomida o‘smirlar sport maktablari uchun o‘quv va o‘quv guruhlarini (ETG) taqsimlashning anatomik va fiziologik konsepsiyasiga amal qiladi. Buning sababi shundaki, yosh sportchilarni bosqichma-bosqich, ko‘p yillik mashg‘ulotlarni rejalashtirishda, murabbiy yosh guruhlarini aniqlashda mutlaqo aniq bo‘lishi kerak. Bu masalada asosiy mezon inson rivojlanishining yoshga bog‘liq individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Yosh og‘ir atletikachilar bilan mashq qilishda qanday individual fiziologik va morfologik xususiyatlarni hisobga olish kerak? Birinchi navbatda, ma’lum bir yoshni hisobga olgan holda, yurak-qon tomir tizimining funksional holati. Masalan, 13-14 yoshli o‘smirlarning yurak hajmi 8-9 yoshli bolalarnikidan deyarli ikki baravar ko‘p bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, o‘smirlarda qon bosimi ko‘pincha bolalarga qaraganda yuqori. Va bu yerda sababni o‘smirlar tanasining funksional buzilishlarida emas, balki balog‘at yoshidagi jismoniy rivojlanishning yoshga bog‘liq va individual xususiyatlaridan izlash kerak. Shunday qilib, ma’lumki, 13 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan yosh sportchilarning tana uzunligi quvurli suyaklarning yanada aniq cho‘zilishi tufayli yiliga 6 dan 10 sm gacha o‘sishi mumkin. O‘smirlik davrida quvurli suyaklarning tez o‘sishi, o‘z navbatida, qon tomirlarining cho‘zilishi va ularning lo‘menlerinin torayishiga olib keladi. O‘smirlarda qon tomirlarining anatomik yetukligi ularning tana uzunligiga to‘g‘ri kelguncha, ular arterial qon bosimining oshishiga olib kelishi mumkin. Qoida tariqasida, 15-16 yoshga kelib, arterial qon bosimi barqarorlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колодницкий Г.А., Кузнецов В.С., Маслов И.В. Волейбол “Внеурочная деятельность учащихся”. – М., 2011 г.

2. Назаренко Л.Д. На занятиях с волейболистами-старшеклассниками /Л.Д. Назаренко // Физическая культура в школе. 2005. – № 2. – С. 43-46.

3. Гончарова Е.Д. Урок волейбола по методу круговой тренировки. // Физическая культура в школе. 2004. – № 6. – С. 23-26.

4. Железняк Ю.Д. Обучение техники приема подачи в волейболе. // Физическая культура в школе. 2004. – № 7. – С. 29-34.

Sardora JALILOVA,
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi
Risolat ABDULLAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINING QO'LLASH TARTIBI YUZASIDAN MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA (Qiyosiy tahlil)

Annotatsiya

Maqolada fuqarolik sudi ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralarining qo'llash tartibi yuzasidan milliy va xorijiy tajribalarining qiyosi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot ishida majburlov choralarining turlari, ulardagi kamchiliklar hamda afzalliklari tahlili ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, amaliyotda majburlov choralarining qay darajada qo'llanilayotganligi haqida sud amaliyotlaridan faktlar keltirilgan. Bundan tashqari, fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralarini qo'llashning boshqa huquqiy asoslari analogiyasi va undagi asoslar keltirib o'tilgan.

Kalit sozlar. Sud-huquq sohasi, sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat, demokratik asoslar, majburiy keltirish, fuqarolik sudi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, guvoh, ekspert, tarjimon.

В данной статье анализируется сравнение отечественного и зарубежного опыта по порядку применения мер процессуального принуждения при ведении гражданских судебных дел. В данной исследовательской работе показан анализ видов мер принуждения, их недостатков и преимуществ. Также представлены факты из судебной практики о том, в какой степени на практике применяются принудительные меры. Кроме того, приводятся аналогии иных правовых оснований применения мер процессуального принуждения при производстве гражданского судопроизводства и оснований в них.

Ключевые слова. Судебно-правовая сфера, судебная власть, законодательная и исполнительная власть, демократические основы, обязательная цитата, гражданский суд, Уголовно-процессуальный кодекс, Гражданский процессуальный кодекс, Министерство юстиции, Министерство внутренних дел, свидетель, эксперт, переводчик.

This article analyzes the comparison of domestic and foreign experience in the order of application of measures of procedural coercion in the conduct of civil court cases. This research paper shows an analysis of the types of coercive measures, their disadvantages and advantages. The facts from judicial practice on the extent to which coercive measures are applied in practice are also presented. In addition, analogies of other legal grounds for the use of procedural coercion measures in civil proceedings and the grounds for them are given.

Key words. Judicial and legal sphere, judicial power, legislative and executive power, democratic foundations, mandatory citation, civil court, Code of Criminal Procedure, Code of Civil Procedure, Ministry of Justice, Ministry of Internal Affairs, witness, expert, translator.

Fuqarolik sudi ishlarini yuritishda protsessual majburlov chorasi sifatida majburiy keltirish – sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni keltirish Jinoyat-protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq

majburlov chorasi hisoblanadi. Majburiy keltirish chorasini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik portsessual kodeksi, Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining 2007-yil 12-yanvardagi 2/1, 2-son Qarori bilan tasdiqlangan “Sudga kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo‘yicha sud topshiriqlarini ijro etish tartibi to‘g‘risidagi” yo‘riqnomasi va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-dekabrdagi 1024-son Qarori bilan tasdiqlangan “Surishtiruv, dastlabki tergov organlari yoki sudga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo‘yicha topshiriqlarni ijro etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan amalga oshiriladi.

Fuqarolik protsessual kodeksining quyidagi munosabatlarga nisbatan majburiy keltirish amalga oshiriladi.

Alimentlar undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha javobgarning sudga kelishi (FPK 186-moddasi). Sud alimentlar undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha javobgarning sudga kelishini shart deb topishi mumkin. Agar bunday holda javobgar sud tomonidan uzrsiz deb topilgan sabablarga ko‘ra sud majlisiga kelmasa, u majburiy tartibda keltiriladi.

Bundan tashqari, 222-modda. Guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimonning sud majlisiga kelmaganligi oqibatlarida ham majburiy keltirish o‘z aksini topgan bo‘lib, unga asosan, guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni kelmagan guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yo‘qligida ko‘rish mumkinligi to‘g‘risidagi fikrlarini eshitadi va sud muhokamasini davom ettirish yoki ish muhokamasini keyinga qoldirish haqida ajrim chiqaradi. Agar chaqirilgan guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sud majlisiga kelmasa, ularga nisbatan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan protsessual majburlov choralari (ogohlantirish, sud jarimasi) qo‘llanilishi mumkin. Agar chaqirilgan guvoh ikkinchi chaqiruv bo‘yicha sud majlisiga kelmasa, u sudning ajrimiga binoan majburiy tartibda keltirilishi mumkin.

Shuningdek, FPKning 313-moddasiga ko‘ra, fuqarolik sudida ishni ko‘rib chiqish bosqichida sud fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi ishni albatta mazkur fuqaroning, prokuror hamda vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirokida ko‘radi. Agar fuqaro sud majlisiga kelmasa, ushbu Kodeks 186-moddasining qoidalari qo‘llanadi.

Vazirlar Mahkamasining qarori asosida “Surishtiruv, dastlabki tergov organlari yoki sudga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo‘yicha topshiriqlarni ijro etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda fuqarolik protsessual majburlov chorasining qo‘llash yuzasidan yo‘riqnomaga asosan sud tomonidan majburiy keltirilishi lozim deb topilgan sud ishtirokchisiga nisbatan qilinishi lozim bo‘lgan harakatlar amalga oshiriladi. Ushbu nizomning 3-band 2-qismda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo‘lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma’lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to‘g‘risida ajrim chiqarilishi mumkin.

Ushbu nizomning 4-bandida belgilanganki, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasiga muvofiq majburiy keltirish voyaga yetmaganlarga, homilador ayollarga, kasalligi, yoshi yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra sud majlisiga kela olmaydigan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligimizga hamda “Surishtiruv, dastlabki tergov

organlari yoki sudga uzrsiz sabablarga ko‘ra kelishdan bosh tortgan shaxslarni majburiy keltirish bo‘yicha topshiriqlarni ijro etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga ko‘ra majburiy keltirish to‘g‘risidagi qaror (ajrim)ni ijro etish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: majburiy keltirish to‘g‘risidagi sudning ajrimi ushbu ajrimda ko‘rsatilgan muddatda ijro etilishi shart. Majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrim ish yuritiladigan joydagi yoki majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxsning yashash joyi, turgan joyi, ish, xizmat yoxud o‘qish joyidagi hududiy ichki ishlar organiga ijro uchun yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasiga muvofiq majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrimda: ajrimning chiqarilgan vaqti va joyi; sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi, sud majlisining kotibi; ishda ishtirok etuvchi shaxslar; nizo predmeti va ajrim bilan hal qilinadigan masalaning mohiyati; sudning xulosasiga olib kelgan asoslar va sud amal qilgan qonunlar hamda boshqa qonun hujjatlariga havolalar; sudning hal etilayotgan masala yuzasidan xulosasi; ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) tartibi va muddati nazarda tutilishi lozim.

Majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrimda ushbu bandning ikkinchi, sakkizinchi xatboshilarida nazarda tutilgan ma’lumotlardan tashqari shaxs majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan sana, vaqt va joy, shuningdek, majburiy keltirish qaysi hududiy ichki ishlar organiga topshirilganligi ko‘rsatiladi; majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrim unda yuqorida ko‘rsatilgan talablardan biri mavjud bo‘lmagan taqdirda, majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrim ijroga qabul qilinmasdan, kamchiliklarni bartaraf etish uchun yo‘llanma xat bilan ajrim chiqargan sudga darhol yuboriladi; majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrim kelib tushgan kunning o‘zida ichki ishlar organining kotibiyatida yuritilgan maxsus jurnalda ro‘yxatga olinishi va ichki ishlar organi boshlig‘i, u bo‘lmaganda uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxs tomonidan ijro etish uchun profilaktika (katta) inspektori yoki jinoyat qidiruv xodimiga topshirilishi va ijrosi nazorat qilinishi lozim; majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrimning ijrosini ta’minlash maqsadida boshqa tuman yoki viloyatga borib kelish zarurati tug‘ilganda biriktirilgan hududni tashlab ketish lozim bo‘lgan holatlarda profilaktika (katta) inspektorlariga ajrimni ijro etish uchun topshirilishi qat’iyan taqiqlanadi; ichki ishlar organi xodimi majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxsni majburiy keltirish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan vaqtda va joyga olib borish choralarini ko‘rishi shart.

Sudga majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxsning huquq va qonuniy manfaatlariga amal qilishi, uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilgan holda Ichki ishlar organi xodimi majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrimni ijro etishda majburiy keltirilayotgan shaxsga uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi shart. Bu holat inson huquq va qonuniy manfaatlarining davlat tomonidan himoya qilinayotganligiga asos bo‘ladi.

Shaxsni majburiy keltirish shaxs suddan yashirinib yurgan yoki aniq yashash joyi bo‘lmagan holatlardan tashqari soat 06:00 dan 22:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida amalga oshiriladi.

Majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxs o‘qisa yoki ishlasa majburiy keltirish to‘g‘risidagi qaror (ajrim) uning o‘qish yoki ish joyidagi ma’muriyatiga ma’lum qilinadi va ijrosini ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatishi yuzasidan ko‘rsatma beriladi. Mazkur majburlov chorasini amalga oshirish davomida o‘ziga xos tomoni mavjud bo‘lib, majburiy keltirishni ijro etish vaqtida qonuniy talablarga qarshilik ko‘rsatilganda ichki ishlar organi xodimi qarshilik ko‘rsatgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq jismoniy kuch, maxsus vosita va

o‘qotar qurolni qo‘llash huquqiga ega.

Majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxs, chaqirilgan joyga og‘ir kasalligi tufayli bora olmasligini ma’lum qilgan taqdirda, uning kasalligi hududiy sog‘liqni saqlash muassasasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozim.

Hududiy sog‘liqni saqlash muassasasi tomonidan berilgan tibbiy ma’lumotnoma shaxsni majburiy keltirishga imkon bo‘lmaganligi munosabati bilan tuzilgan ma’lumotnomaga ilova qilinishi lozim.

Majburiy keltirilishi lozim bo‘lgan shaxsni yashash yoki ish joyidan topishning imkoni bo‘lmay, haqiqiy turar joyini aniqlash uchun vaqt talab etiladigan hollarda, majburiy keltirish to‘g‘risidagi ajrim chiqargan sudya bu haqida 5 kun muddatda xabardor qilinadi.

Sud amaliyotida uy-joydan ko‘chirish, nikohdan ajratish, shaxsiy mulklarni o‘zganing noqonuniy egaligidan olish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha taraf (javobgar)ni majburiy keltirish haqidagi ajrimlar chiqarilmoqda.

Shu o‘rinda amaliyot misollariga e’tibor qaratsak, masalan, da’vogar N.N.ning javobgar T.T.ga nisbatan shaxsiy mulklarni o‘zganing noqonuniy egaligidan olish to‘g‘risidagi fuqarolik ishini ko‘rib chiqib, garchand ish hujjatlarida javobgar T.T. tomonidan otasi A.T.ga sudda vakil tariqasida qatnashishi uchun ishonchnoma taqdim etilgan bo‘lsa-da, sud, da’vo arizaga obyektiv baho berish maqsadida javobgarning shaxsan o‘zini sudda ishtirok etishini lozim topdi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 220-moddasiga asosan agar ishning holatlari bo‘yicha zarur bo‘lsa, sud taraflarning sud majlisida ishtirok etishini shart deb topishi mumkin.

Javobgar T.T. 2018-yil 7-mart, 2018-yil 23-mart, 2018-yil 3-aprel va 2018-yil 5-apreldagi sud majlislariga kelishi haqida tegishli tartibda ogohlantirilgan hamda javobgarni sudga kelishini ta’minlash ish joyi “T.” MCHJga chaqiruv xatlari yuborilgan bo‘lishiga qaramay javobgar sud majlisiga hech bir uzrli sabablarsiz kelmadi va kelmaganlik sababini ma’lum qilmadi. Shu bois sud majlisi boshqa kunga qoldirildi.

Sudning 2018-yil 5-aprel kunidagi ajrimiga asosan T.T. fuqarolik ishi yuzasidan 2018-yil aprel oyining 12 kuni soat 15:30 da tayinlangan sud majlisiga majburiy tartibda keltirish belgilangan va ajrimni ijro qilish tuman ichki ishlar bo‘limi zimmasiga yuklatilgan.

Ish holatidan kelib chiqib, sud javobgarni sud majlisida shaxsan o‘zining ishtirokini lozim deb topganligi, uning sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasligi mazkur fuqarolik ishini ko‘rishni qasddan cho‘zish deb baholab, uni navbatdagi sud majlisiga yashash va ish joyi bo‘yicha hududiy ichki ishlar organi xodimlari tomonidan majburiy tartibda keltirishni hamda ichki ishlar organiga kelgusida sarf-xarajatlarni undirishni so‘rab sudga ariza bilan murojaat qilish huquqi borligini lozim topadi.

Sud ajrimida “B” manzilda yashovchi, “G.” manzilda ishlovchi 1989-yil 23-martda tug‘ilgan T.T. fuqarolik ishi yuzasidan 2018-yil aprel oyining 16 kuni soat 17:00 ga tayinlangan sud majlisiga majburiy tartibda keltirilishi, ajrimni ijro qilish javobgar T.T.ning yashash va ish joyi hududi bo‘yicha tuman ichki ishlar bo‘limi zimmasiga yuklatilishi, tuman ichki ishlar bo‘limiga kelgusida majburiy keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni undirish haqidagi ariza bilan murojaat qilish huquqi borligi tushuntirilishi, ajrim darhol ijroga qaratilishi, ajrimdan norozi tomon 10 kunlik muddat ichida Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudiga shu sud orqali xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborish kabi majburlov choralari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 145-moddasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda sud majlisida belgilangan tartib qoidani buzsa sud majlisiga

raislik qiluvchi tomonidan ogohlantiriladi.

Ishni ko‘rish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi.

Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga itoat qilmasalar, ular ogohlantiriladilar. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana itoat etmasalar, agar ularni ishga zarar yetkazmay turib boshqa shaxs bilan almashtirish mumkin bo‘lmasa, ishni ko‘rishni sudning ajrim bilan keyinga qoldirish mumkin. Ayni vaqtda sud bu haqida tegishlicha yuqori turgan prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma’lum qiladi.

Darsliklarda keltirilganki, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 166-moddasida sud majlisida tartibni buzuvchilarga nisbatan ko‘riladigan choralar nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, sud majlisida tartibni buzuvchilarga nisbatan ko‘riladigan choralar u qo‘llaniladigan shaxslar toifasiga qarab quyidagicha ko‘rinish hosil qilgan edi:

Birinchidan, ishni ko‘rish vaqtida tartibni buzgan shaxslar raislik qiluvchi tomonidan sud nomidan ogohlantiriladi.

Ikkinchidan, ishda qatnashayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda sudning ajrimiga binoan, ishni ko‘rishda hozir bo‘lgan fuqarolar esa, raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi.

Uchinchidan, sud ishni ko‘rishda hozir bo‘lgan fuqarolar, agar ular tartibni buzsalar, eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

To‘rtinchidan, prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga itoat qilmasalar, ular ogohlantiriladi. Agar mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana itoat etmasalar, ularni ishga zarar yetkazmagan holda boshqa shaxs bilan almashtirishning imkoni bo‘lmasa, sudning ajrimiga binoan ishni ko‘rish keyinga qoldiriladi va ayni vaqtda sud bu haqda tegishlicha yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma’lum qiladi.

Beshinchidan, sud majlisida taraf yoki uchinchi shaxs tartibni buzsa, sud tartibbuzarni ish ko‘riladigan hamma vaqtga yoki uning bir qismiga majlis zalidan chiqarib yuboradi. Sud majlisida har ikki taraf (uchinchi shaxslar) tartibni buzsa, sud ishni ko‘rishni keyinga qoldirishi mumkin.

Yuqorida keltirganimizdek, sud majlisida tartib-qoidani mensimagan holda uni buzuvchilarga nisbatan ko‘riladigan protsessual majburlov choralari tartib qaysi protsess ishtirokchisi tomonidan buzilishiga ko‘ra turlicha asoslarga ega. Ya’ni, jarima solish faqat sud majlisidagi tartibni buzgan ishni ko‘rishda hozir bo‘lgan fuqarolarga nisbatan qo‘llanilgan. Protsess ishtirokchilariga nisbatan esa ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, ish ko‘rishni keyinga qoldirish, yuqori turuvchi prokurorga (prokurorning harakatlari yuzasidan) yoki advokatlar palatasiga (advokatning protsessual tartibga rioya etmaganligi uchun) ma’lum qilish protsessual choralarning boshqa turlari qo‘llanilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 145-moddasiga asoslangan holda sudda raislik etuvchi tomonidan sud majlisi tartibini buzayotgan shaxsga yoki shaxslarga og‘zaki yoki yozma ravishda ogohlantiriladi. Bu ogohlantirish sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi sud majlisi kotibi tomonidan ta’minlanadi.

Sud majlisi zalidan chiqarib yuborish esa ogohlantirilgan shaxslar tomonidan sud majlisida qayta tartib buzarlik sodir etilganda raislik etuvchi tomonidan ushbu shaxslar sud majlisi zalidan chiqarilib yuborilishi mumkin. Nazariy adabiyotlarda keltirilganki, ishda qatnashayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni

takroran buzgan taqdirda sudning ajrimiga binoan, ishni ko‘rishda hozir bo‘lgan fuqarolar esa, raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Fuqarolar ommaviy tarzda tartibni buzgan taqdirda sud ishni ko‘rishni keyinga qoldirishi mumkin.

Raislik etuvchi tomonidan sud majlisidan chiqarib yuborish yuzasidan ajrim (ishda qatnashayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda) qabul qilinadi yoki farmoyish (ishni ko‘rishda hozir bo‘lgan fuqarolar)ga asosan mazkur majburlov chorasi amalga oshiriladi.

Mazkur majburlov chorasining o‘ziga xos tomoni shundaki, agar sud majlisi davomida ommaviy tartibda qoida buzarlik yoki sud majlisi tartib qoidalarini mensimaslik harakatlari yoki holatlari kuzatilsa, raislik etuvchi tomonidan sud majlisi keyinga qoldiriladi.

Shuningdek, raislik etuvchi tomonidan sud tartib-qoidasini buzgan shaxsga nisbatan ish ko‘riladigan barcha vaqtga yoki uning ma’lum bir qismiga nisbatan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Ko‘rilayotgan ishning ma’lum bir qismidan vaqtinchalik chiqarilib yuborilgan shaxs sud majlisi zaliga qaytadan qo‘yilganda raislik qiluvchi uni zalda bo‘lmagan vaqt davomida qilingan protsessual harakatlar haqida ma’lumot beradi hamda ular bilan tanishtiradi.

Ishni muhokama qilish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi. Garchi u og‘zaki e’lon qilinsa-da, yozma yoziladi va sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi.

Ushbu majburlov chorasining o‘ziga xos tomoni shundaki, ogohlantirish yoki sud zalidan chiqarib yuborish majburlov chorasi ishda qatnashayotgan prokurorga yoki advokatga nisbatan qo‘llanilsa, ushbu holat yuzasidan ajrim chiqarilishi bilan birga raislik etuvchining farmoyishiga bo‘ysunmaganligi uchun shaxslarga ularning yuqori turuvchi organlariga yuborish uchun xususiy ajrim chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Esanova Z. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari: asoslari, tartibi, bu sohadagi yangiliklar //Review of law sciences. – 2018. – №.4.

2. См.: Бутнев В.В. Гражданская процессуальная ответственность. Ярославль, 1999. – С. 31-42-45.

3. Shorahmetov Shoakbar Shorustamovich, Toshkent Davlat yuridik institutining “Fuqarolik protsessual huquqi” kafedrasi mudiri, yuridik fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. (Darslik). – T.: “Adolat”, 2001. – 88 b.

4. Fuqarolik protsessi: o‘quv qo‘llanma / M.M. Mamasiddiqov. – T.: Baktria press, 2014. – 424-234 b.

5. Shorahmetov Shoakbar Shorustamovich, Toshkent Davlat yuridik institutining “Fuqarolik protsessual huquqi” kafedrasi mudiri, yuridik fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. (Darslik). – T.: “Adolat”, 2001. – 512-161-89 b.

6. Гражданский процесс: Учебник для студентов юридических вузов. Общая часть / С.А. Марипова; под. ред. Ш.Ш. Шорахметова; М-во юстиции РУз, Ташк. гос. юрид. ин-т. – Т.: Издательство ТГЮИ, 2011.– . 597-312.

7. Sud - shunday hokimiyatki...//To‘plovchilar: Sh. Akbarov, A. Jumayev/. – T.: “Sharq”, 1999. – 66 b.

Naim TASHBAYEV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM SIFATINING MONITORINGI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini monitoringi xususiyatlari, ta'lim sifatini baholashning turli xil tamoyillari va davlat o'quv dasturini maqsadi, mazmuni, tatbiq etish shartlari va o'zlashtirish natijalari sifati haqida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Monitoring, tahlil, pedagogik tashxis, pedagogik monitoring, ta'lim sifati, maktabgacha ta'lim tashkilotlari.

В статье подробно анализируется особенности контроля качества образования в дошкольных образовательных учреждениях, цели, содержания и условия внедрения, результатах освоения государственной учебной программы.

Ключевые слова. Мониторинг, анализ, педагогическая диагностика, педагогический мониторинг, качество образования, дошкольные образовательные организации.

The article analyzes in detail the features of quality control of education in preschool educational institutions, the goals, content and conditions of implementation, the results of mastering the state curriculum.

Key words. Monitoring, analysis, pedagogical diagnostics, pedagogical monitoring, quality of education, preschool educational organizations.

Davlat ta'lim siyosatining asosiy vazifasi maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashdir. Maktabgacha ta'limning sifati – bu maktabgacha ta'limning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqlik darajasi va ta'lim xizmatlari iste'molchilarining maktabgacha ta'lim sifatidan qoniqish darajasini ifodalovchi murakkab xarakteristikadir.

Ta'lim sifatini ta'minlash muammosi uni baholashning eng samarali mexanizmlarini izlash bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogikada ta'lim sifatini baholashning turli xil tamoyillari, mexanizmlari (tashxis, tahlil qilish, nazorat qilish, monitoring qilish va h.k.) ta'lim sifatiga nisbatan qo'yiladigan zamonaviy talablarga muvofiq ravishda o'rganib chiqilgan.

Ta'lim sifati boshqaruv obyekti, monitoring esa bu boshqaruv mexanizmi sifatida ishlaydi. Shu munosabat bilan ta'lim sifatini boshqarish, mohiyatan, samarali monitoring natijasida olingan yuqori sifatli ma'lumotlar asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish orqali ta'lim xizmatlari sifatini oshirish jarayonini boshqarish texnologiyasidir.

''Monitoring'' ta'rifi etimologik jihatdan lotincha *monitor* so'zidan kelib chiqqan – monitoring qilish, kuzatish va "har qanday jarayonning istalgan natija yoki dastlabki taxminlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida doimiy kuzatish; biror narsaning holatini kuzatish, baholash va bashorat qilish" degan ma'noni anglatadi. Birinchi marta "monitoring" atamasi ekologiyada qo'llanildi va aynan shu fanda u ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. Zamonaviy dunyoda monitoring o'z ko'lamini sezilarli darajada kengaytirdi, fan va amaliyotning yangi sohalariga tarqaldi va biologiya, sotsiologiya, pedagogika, iqtisod va psixologiyada eng mustahkam o'rnashib oldi.

Monitoringni amaliy qo‘llashning asosiy yo‘nalishlaridan biri turli faoliyat sohalarida menejment, aniqrog‘i axborot xizmatini boshqarish, bizning holatlarimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini boshqarish bo‘lib qoldi. Shu munosabat bilan sifat oshirish muammosi bilan bog‘liq holda monitoringning mohiyatini ko‘rib chiqish biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini monitoring qilishning har xil turlari zarurligini tan olgan holda, monitoring tizimlarini turli asoslar bo‘yicha tasniflash muhimdir:

– qo‘llash sohalari monitoring uchun foydalaniladigan vositalar (statistik, ijtimoiy, psixologik, instrumental, pedagogik, tibbiy);

– ma’lumot to‘plash usullari (obyektning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tavsifi, obyekt parametrlarini fizik o‘lchash, obyektni bilvosita o‘lchash, mezonlarga asoslangan o‘lchash);

– to‘plangan ma’lumotlarning tabiati (dinamik, raqobatbardosh, qiyosiy, murakkab); maqsadli yo‘naltirilganlik (axborot, asosiy (fon), muammoli (ishlash yoki ishlab chiqish).

Shuni ta’kidlash kerakki, maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim sifatining turli sohalarini boshqarishda monitoringni takomillashtirish muammosi bir vaqtning o‘zida nazariy tushunish darajasida va monitoring tartiblarini amaliy amalga oshirish darajasida hal qilinadi.

Ta’lim sifatini baholashning shartlaridan biri bu menejmentni axborot bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi yoki uning ayrim elementlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish omili sifatida monitoring yuzaga keladi, u istalgan paytda MTTning holatini baholashni va uning rivojlanishini bashorat qilishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim sifatini va uning aholi barcha ijtimoiy guruhlari uchun maqbulligini ta’minlash mamlakatimiz davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Monitoring ushbu muammoni hal qilish vositasi bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ‘‘maktabgacha ta’lim sifati’’ tushunchasi yetarlicha to‘liq ochib berilgan. Maktabgacha ta’lim sifatini baholashning diagnostik usullari ishlab chiqilgan, maktabgacha ta’lim sifatini baholash va takomillashtirish bo‘yicha boshqaruv organlarining funksiyalari belgilangan, maktabgacha ta’limga nisbatan ‘‘sharoitlar sifati’’, ‘‘mazmunning sifati’’, “natijalar sifati” kabi tushunchalar to‘ldirilgan va aniqlab olingan: Maktabgacha ta’lim tizimiga nisbatan ‘‘Ilk qadam’’ Davlat o‘quv dasturini maqsadi, mazmuni, tatbiq etish shartlari va o‘zlashtirish natijalari sifatida maktabgacha ta’lim sifatini aniqlashni ifodalash mumkin.

Monitoring beshta asosiy parametrni o‘z ichiga oladi:

1. MTT faoliyatining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tavsiflovchi parametr.

2. Ta’lim-tarbiya jarayonini ta’minlash shartlarining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tavsiflovchi parametr.

3. MTT faoliyati sifatidan ota-onalarning qoniqish darajasini tavsiflovchi parametr.

4. Ota-onalarning MTT faoliyati sifatidan qoniqish darajasini tavsiflovchi parametr.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish natijalarining amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tavsiflovchi parametr.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha parametrlar to‘plamini hisobga olgan holda MTTda maktabgacha ta’lim sifatini baholash zarur.

“Ilk qadam” davlat dasturini samarali amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar zarur va uning samaradorligi to‘g‘risida esa faqat xizmatlarning asosiy iste’molchilari – ota-onalar farzandlarining yutuqlari va muvaffaqiyatlaridan, shuningdek, ularning

farzandlari uchun MTTlarda yaratilgan sharoitlardan mamnun bo‘lgandan keyingina yakuniy xulosalar chiqarilishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim sifatini baholash taomilining eng maqbul tashkiliy sxemalari va shakllari quyidagilardir:

Ta’lim jarayoni darajasida – o‘z-o‘zini baholash shaklida (o‘zini tekshirish va o‘zini tahlil qilish).

Baholash taomili – tashkil etilgan monitoring tizimidir:

– faoliyatning me’yoriy talablarga muvofiqligini, uning rivojlanishini bashorat qilishni aniqlash maqsadida, o‘z faoliyatini kuzatish sifatida (maktabgacha ta’limning asosiy o‘quv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha, uni amalga oshirish shartlari va o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha);

– MTT to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tarqatishni tashkil etish sifatida, uning me’yoriy talablarga muvofiqligi.

Maktabgacha ta’lim sifatini yoki maktabgacha ta’limning me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tavsiflovchi parametrlarni o‘lchash uchun ishlatiladigan usullar:

– tahlil (ma’lumotlar, hujjatlar va boshqalarni);

– kuzatish;

– ma’lumotlarni yig‘ish, rasmiylashtirish, guruhlash, qayta ishlash va h.k.

Monitoring ishtirokchilarining MTT darajasida toifalari:

1. Rahbar xodimlar, shu jumladan:

– rahbar (direktor);

– rahbar o‘rinbosari (katta tarbiyachi-uslubchi);

2. Pedagogik xodimlar, shu jumladan:

– pedagog-psixolog;

– pedagog-mutaxassislar (JT bo‘yicha instruktor, musiqiy rahbar va boshqalar);

– tarbiyachilar;

3. Ota-onalar va yoki qonuniy vakillar.

Maktabgacha ta’lim sifatini baholash natijalari MTTni boshqarish jarayonida, shu jumladan boshqaruvning barcha bosqichlarini va funksiyalarini amalga oshirishda qo‘llaniladi: motivasion-maqsadli; axborot-tahliliy; rejali-prognostik; tashkiliy-ijroiya; nazorat – tashxis. Shu bilan birga, tashxis qilishdan farqli o‘laroq, monitoring taomili nafaqat natijalarni, balki maktabgacha ta’limning mazmuni va shartlarini ham baholashga imkon beradi. Monitoring jarayonida yetarlicha uzoq vaqt davomida maktabgacha ta’lim sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish, maktabgacha ta’limni – muntazam ravishda ma’lumot to‘plash va yakuniy natijaning aniqligi – maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlari dinamikasi, ta’lim dasturlarini amalga oshirish shartlarini baholash bilan ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/4646908

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasin to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5841063

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 yildagi ‘‘Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 391-son Qarori.

Zilola YAKUBOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY TARBIYANING AHAMIYATI VA UNING SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI

Annotatsiya

Maqolada yangicha yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy tarbiyani amalga oshirish, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tatbiq etish, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik xususiyatlarini o‘rganish va ta’lim-tarbiyaning uzviyligini ta’minlash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, bolalar, milliy qadriyat, ma’naviy poklik, tarbiya usullari, ijodiy barkamollikka erishish, etnomadaniy tarbiya, axloqiy tarbiya, shaxs.

В данной статье рассматривается новый подход к национальному воспитанию, личностно-ориентированное воспитания в дошкольной организации, изучение психологических особенностей ребенка, гарантированное формирование у ребенка базовых личностных качеств.

Ключевые слова. Дошкольное образование, воспитатель, дети, национальная ценность, духовная чистота, методы воспитания, достижение творческого совершенства, этнокультурное воспитание, нравственное воспитание, личность.

This article discusses a new approach to national education, personality-oriented education in a preschool organization, the study of the psychological characteristics of a child, and the guaranteed formation of basic personal qualities in a child.

Key words. Preschool education, educator, children, national value, spiritual purity, methods of education, achievement of creative perfection, ethno-cultural education, moral education, personality.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farzandlar tarbiyasiga alohida to‘xtalar ekanlar: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”.

Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi-o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko‘p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma‘naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga keng sharoitlar yaratilmoqda. Ularning rivojlanishiga e’tibor berilmoqda. Zotan, mustaqillik fikr-mulohazalarda ozod, o‘z haq-huquqini yaxshi taniydigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, boqimondalikning har qanday ko‘rinishlarini o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan barkamol insonni tarbiyalashni talab etadi.

Sharq pedagogik ta'limoti mutafakkirlari fikriga binoan inson shaxs sifatida aynan maktabgacha davr mobaynida shakllanadi va so'nggi bosqichlarda uning kurtaklari tobora rivojlanib boradi.

Shunday ekan, bola shaxsini shakllantirish masalasi maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari pedagogik jamoalari, keng jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lishi lozim. Kichik inson va fuqaro tarbiyasi, rivojlanish omillari, unga zarur bo'lgan shart sharoitlar yaratish muammolarining tezkorlikda samarali yechimini topish dolzarb vazifalardandir.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya – aniq maqsadlarni ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi:

– tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi;

– tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko‘rlar, gunglar ham o‘qitilib, sog‘lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi;

– tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini bartaraf etish mumkin;

– tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta’lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy – tarixi tajribasini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro‘y beradi.

Natijada bola o‘zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi. Bolaning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish tajribasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo‘lgan insoniy tajribani o‘zlashtirishi kerak, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o‘zlashtirish usullarini hali egallamagan bo‘ladi. Tarbiya va ta’lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo‘lgan mazmunni tanlaydi, uning o‘zlashtirishiga rahbarlik qiladi, bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi.

Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo‘shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o‘zi doimiy bo‘lib qolmaydi. U o‘zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o‘zgaradi, o‘sayotgan odam shaxsiga ta’sir ko‘rsatish usullari tobora xilma-xil bo‘lib boradi.

Tarbiyaning o‘zgarishi bolaning “eng yaqin rivojlanish zonalari (L.S. Vigotskiy) bilan bog‘liq bo‘lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko‘nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o‘zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o‘zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo‘lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o‘zlashtirish; buyum asosidagi o‘yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokazo). Tarbiya va ta’lim “eng yaqin rivojlanish zonasi”ga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg‘a harakatlantiradi.

Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan o‘tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog‘liq bo‘ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo‘shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko‘zi ojiz va kar bolalar uchun mo‘ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa, aniq namoyon bo‘ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta’minlaydi. Biroq, tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi, uning biror tomonining ruhiy rivojlanishini sun’iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun Maktabgacha ta’lim va tarbiyasida bola shaxsini har tomonlama va uyg‘un rivojlantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o‘rtaga qo‘yiladi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas’uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S. Makarenko pedagogning roli va mas’uliyatini ta’kidlab shunday yozgan edi: “Tarbiyaviy ta’sirning g‘oyat qudratli ta’sir ko‘rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo‘lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo‘lsa, buning uchun u tarbiyadan, o‘z bolaligidan qarzdordir’’.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o‘rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog‘langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, ahloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o‘sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsaxkamlashadi.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – T., 2018 y.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – T., 2009.

4. Sodiqova. Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. – T.: “Tafakkur sarchashmalari”, 2013.

5. Muxsiyeva A.Sh. “Oila pedagogikasi”. O‘quv qo‘llanma. – T.: “TDPU”. 2017.

Mehriniso PARDAYEVA,
Ta'limni rivojlantirish Respublika ilmiy-metodik Markazi boshqarma boshlig'i,
PhD, dotsent

YANGI TA'LIM FALSAFASIGA ASOSLANGAN MAKTAB AMALIYOTI BO'YICHA TAHLILLAR (Xitoy ta'limi tizimi misolida)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xitoy ta'limi yutuqlari, maktab ta'limini rivojlantirish tajribasi va ta'lim sifatini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar, resurslar va o'qitishga yondashuvlar, yangi ta'lim falsafasiga asoslangan maktab amaliyoti bo'yicha ma'lumotlar, tahlillar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Maktab, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, kasbiy mahorat, baholash, yangi ta'lim falsafasi, hayot saboqlari, ta'limni boshqarish, jihozlash, ta'lim sifati.

В данной статье освещаются достижения китайского образования, опыт развития школьного образования и факторы, влияющие на обеспечение качества образования, ресурсы и подходы к обучению, информация, анализ школьной практики, основанной на новой философии образования.

Ключевые слова. Школа, учитель, ученик, содержание образования, средства обучения, профессионализм, оценка, новая философия образования, уроки жизни, управление образованием, оснащение, качество образования.

This article highlights the achievements of Chinese education, the experience of school education development and factors affecting the quality of education, resources and approaches to learning, information, analysis of school practice based on a new philosophy of education.

Key words. School, teacher, student, educational content, learning tools, professionalism, assessment, new philosophy of education, life lessons, education management, equipment, quality of education.

Xitoy Xalq Respublikasi YUNESKO huzuridagi Shanxay o'qituvchilar ta'limi markazida tashkil etilgan o'quv seminar dasturiga ko'ra Xitoyning 4 ta shahrida joylashgan maktablar, universitetlarda bo'lib, ularning tajribalarini o'rgandik. Albatta, maktablar tadbir tashkilotchilari tomonidan tanlangan bo'lib, barcha maktablar ham shunday bo'lmasligi mumkin. Shu sababli borib ko'rgan maktablarmiz bo'yicha ma'lumotlar, maktab direktorlari taqdimotlari bo'yicha tahlillarga asoslanib mazkur maqolani yoritamiz.

Xitoy Respublikasida boshlang'ich ta'lim 1–6-sinflar, o'rta ta'lim 6–9-sinflar, yuqori ta'lim 10–12-sinflardan iborat bo'lib, majburiy ta'lim 9 yil, yuqori ta'limda yana 3 yil ixtiyoriy o'qitiladi. Yuqori ta'limga kirish oliy ta'limga kirishdan ko'ra nufuzliroq hisoblanar ekan va ota-onalar farzandlarini ko'proq yuqori ta'limga kirishga undashar ekan.

Shanxay shahrida joylashgan maktablar Xitoyning boshqa hududlaridan biroz farq qiladi. Mazkur shaharda uch xil maktablar (1632 ta): boshlang'ich (698 ta), o'rta va yuqori ta'lim (934 ta) maktablar mavjud. Boshlang'ich ta'lim, Xitoyning boshqa maktablaridan farqli o'laroq, 5 yildan iborat, Shanxayning ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ham va albatta, darsliklari ham boshqalarnikidan farq qiladi.

Shanxay shahrida joylashgan boshlang‘ich eksperimental maktab yangi ta’lim falsafa/tashabbuslarini amaliyotga joriy etishning navbatdagi modelini tajriba-sinov maktabi ekan. Tajriba-sinovda maktabning yangi infratuzilmasi, moddiy-texnik va didaktik ta’minoti, o‘qitish metodologiyasi yaxlit ravishda o‘tkazilar ekan.

Bu tajriba tahsinga loyiq, chunki aksariyat hollarda tashkil etiladigan tajriba-sinovlar, masalan, mazmunga oid tajriba-sinovlar (davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari yoki o‘qitish metodikalari) maktabning eski moddiy-texnik ta’minoti, eski fan kabinetlari va mavjud o‘quv vositalari tajriba sinov predmetlariga moslashtirilmasdan amalga oshiriladi. Bunday yondashuv tizimli va mantiqiy yaxlitlik, uzviylikni ta’minlaydi, tajriba sinov natijalari validligi, aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, Xitoyda ta’lim tizimiga, ayniqsa maktab ta’limi tizimidagi islohotlar chuqur ilmiy tadqiqotlar natijasida ilmiy-metodik asoslab, tajriba-sinovdan o‘tkazilib va milliy qadriyatlar orqali joriy etiladi. Har qanday islohotlar tizimning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi juda muhim, ya’ni ishlab turgan tizimni tormozlashi emas, yanada yaxshilashi lozim.

Tasavvur qiling, o‘quvchilarda texnologiya fanidan o‘quvchilarda modellashtirish/konstruksiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi mavzular o‘quv dasturlari(tajriba-sinovdan o‘tkazilayotgan)ga kiritilgan bo‘lib, maktabda buning uchun masalan, 3D printer mavjud bo‘lmasa, samarasiz jarayon yuzaga keladi. Shuningdek, o‘qituvchi ham, masalan, modellashtirishning virtual jarayonini namoyish etib, o‘z stolida joylashtirilgan planshet orqali modellashtirish algoritmini o‘quvchilarga tushuntirish, o‘quvchilar ishlarini masofaviy namoyish etish uchun qulay bo‘lgan elektron doskalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Interaktiv metodikalarni qo‘llash uchun o‘quv sinf xonasidagi mebellar ham transformativ bo‘lishi, ko‘rgazmali vositalar, maket va mulyajlar bo‘lishi lozim.

Shanxayning mazkur eksperimental maktabida tajriba sinovni sifatli tashkil etishga tizimli yondashilgan, hech narsa nazardan chetda qolmagan, hattoki, barchaning ovqatlanishi, dam olishi, kitob o‘qish va sport bilan shug‘ullanish, sanitariya-gigiyena talablari, darsdan keyingi mashg‘ulotlar, ota-onalar bilan ishlash va psixologlar faoliyati ham inobatga olingan. Bir so‘z bilan aytganda, maktab yangi ta’limni joriy etish uchun to‘liq transformatsiyada.

Maktabda e’tiborni tortmasdan iloji bo‘lmagan joylar to‘g‘risida alohida to‘xtalmoqchiman, masalan, qariyb 400 m2 dan iborat kutubxonada 10 minglab kitoblar mavjud bo‘lib, kitob mutolaa qilish joylari turli shakllarda (o‘tirib, yonboshlab, yotib o‘qish mumkin) yaratilgan. Elektron kitoblarni o‘qish uchun alohida kabinalar ham bor ekan. Kitoblar na faqat kutubxonada, sinf xonalarida, koridorlarda, tashqi dam olish joylarida ham maxsus javonlarga yuzlab joylashtirilgan. Xitoylik hamkasblarimizning aytishicha, ayrim maktablar kitob fondi 100 mingdan oshib ketgan ekan.

Kitoblarning ko‘pligi tahsinga loyiq, ammo, nazarimda butun dunyoda muammoga aylanib borayotgan bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalasi xitoyliklarda ham mavjud ekan. O‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish, yoki majburlash, bunaqasi ham mavjud, xitoylik ta’lim mutaxassislarini ham qiynayotganini ta’kidlashdi.

Maktabda e’tiborga loyiq joylardan biri o‘qituvchilar xonasi va har bir qavatda joylashgan, har bir o‘qituvchi uchun alohida hududlarga ajratilgan mazkur xona juda yaxshi sharoitlar (shaxsiy kompyuter, printer, tarqatma materiallar, dam olish uchun yumshoq mebellar, ovqatlanish uchun idish-tovoqlar, maishiy texnikalar)ga ega.

Sinf xonalarida o‘qituvchilar stoli smart, stol yuzasiga maxsus planshet, zamonaviy proyeksiya apparati, shaxsiy kompyuter o‘rnatilgan. Stolning yon tarafida turli metodik materiallarni saqlash uchun tortmalar qilingan bo‘lib, stol juda foydali qurilmaga aylantirilgan. Stol va o‘qituvchi telefonidan kerakli resurslar sinf xonasidagi elektron doskalar(1 tadan 4 gacha) uzatilishi mumkin.

Shuningdek, maktabda maxsus STEAM ta’lim xonasi, o‘quvchilarni hayotga tayyorlash maqsadida 9-14 yoshda o‘qitiladigan “Hayot saboqlari” fani xonasi, milliy raqs va cholg‘uga o‘rgatadigan xonalar mavjud. “Hayot saboqlari”da o‘quvchilarga sog‘lom ovqatlanish, ro‘zg‘or uchun to‘g‘ri bozorlik qilish, oziq ovqatlardagi vitaminlar, kaloriyalar miqdori yoki zararli jihatlarini tahlil qilish, mahsulotlarni to‘g‘ri ishlov berish va ovqatlar tayyorlashga o‘rgatishadi. Mazkur maktabda biz 4-sinf o‘quvchilarining pissa va shirinlik tayyorlashayotganiga guvoh bo‘ldik (tatib ham ko‘rdik).

Maktabda 6-sinfda matematika darsini kuzatdik. Darsda 39 nafar o‘quvchi 6 nafardan iborat guruhlarda ishlashdi. O‘qituvchi tashkiliy qismga 2 minut vaqt ajratdi, o‘quvchilar juda tartibli.

Oldingi darsda o‘rganilganlarni savol-javoblar orqali takrorlashgandan so‘ng, yangi mavzuni o‘z stolida joylashgan maxsus planshet va elektron doskalar orqali tushuntira boshladi. Dars oddiy ammo, e’tiborimizni tortgan narsa o‘quvchilarga berilgan vazifalarning juda tez va 90 foiz to‘g‘ri bajarilishi, o‘qituvchi o‘quvchilar ishini kuzatib yurdi va birinchi bo‘lib to‘g‘ri yechgan o‘quvchi ishini o‘z telefoniga rasmga olib, bir necha soniyada elektron doskaga uzatib, boshqalardan o‘z ishini tekshirishni so‘radi. Topshiriqni noto‘g‘ri bajarganlar qo‘lini ko‘tarishni so‘raganida, faqat 3 nafar o‘quvchi noto‘g‘ri yechgani ma’lum bo‘ldi. Ulardan o‘qituvchi o‘z xatosini izohlashni so‘radi va yana bir bor qisqacha tushuntirdi. Dars juda samarali tashkil etildi, o‘qituvchi o‘quvchilar daftarlarini rasmga olib, doskaga uzatib turdi va ko‘plab o‘quvchilarning natijalari qiyoslanib borildi. O‘qituvchi juda tez ishlashidan, uning bu ish bilan har kuni shug‘ullanishi ko‘rinib turardi.

Navbatdagi tashrif buyurgan maktabimiz Kuson qishloq maktabi ekan, ammo, osmono‘par, kamida 20 qavatdan iborat yangi yashash komplekslari ichida qurilgan 6 qavatli bu maktabni nega ular qishloq maktabi deb atashganiga taajjubdaman. To‘g‘ri provinsiyada joylashgan, ammo, sharoitlariga ko‘ra eng zo‘r maktab deb, atash mumkin uni.

Kuson boshlang‘ich ta’lim maktabida 40 ta 1–6-sinflarda 2 mingdan ortiq o‘quvchilar ta’lim olisharkan. Har bir sinfda 40 nafardan 60 nafargacha o‘quvchilar o‘qiydi. Maktab binosida 4 ta lift mavjud, panduslar har bir kirish joyida bor, maktabda inklyuziv ta’lim mavjud bo‘lib, ularni sog‘lomlashtirish uchun ham alohida xona va maxsus qurilmalar mavjud.

Maktabda o‘quvchilar salomatligi uchun barcha sharoitlar bor, har bir qavatning 2 ta joyida suvni 50 gradusda saqlab turgan katta qurilmalar mavjud, o‘quvchilar o‘z finjonlari bilan suv olib ichadi, hojatxonalarda sensorli jo‘mraklar, oshxona, sinflar va koridorlarda qo‘l yuvish joylari mavjud. Mebellar, masalan, partalar, stullar, javonlar va shkaflar yuqori sifatli plastik, yoki taxtalardan qilingan. Maktab sport zali, tashqi stadioni va barcha tashqi yo‘laklar maxsus rezina qoplamali.

Mazkur maktabda ham diqqatimizni tortgani kutubxona, o‘qituvchilar xonalari ham Shanxaydagi maktabdagidek ajoyib. Biz borgan barcha maktablarda eng zo‘r joy – kutubxona, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan kabinetlar ekan.

Shuningdek, Kuson maktabida o‘quvchilarga milliy opera turlarida biri (Kungchu, 348 ta dan bittasi), teatr va milliy raqs, kalligrafiya majburiy o‘rgatilar ekan va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha qiziqishlar ko‘ra ham ko‘plab mashg‘ulotlar olib borilar ekan. O‘quvchilar maktabga soat 7.45 da kelib, soat 17.00 da ketishadi, bir kunda 8 ta dars bo‘ladi. Maktabda tushlik bepul va tushlikdan so‘ng bir soatlik uyqu vaqti belgilangan bo‘lib, o‘quvchilar partalariga boshini qo‘yib 1 soat uxlashadi. Darslarning ko‘pligi bolalarda charchoq keltirib chiqarayotganligi ham mavjud, ammo, maktab o‘quvchining uy vazifalarini ham qildirib, so‘ngra uyiga jo‘natish hamda ularni ota onalar olib kelib, olib ketishlari shart.

Nantongda ko‘rgan maktablarimizdan biri 2017-yilda yangi ta’lim falsafasini tajriba-sinov qilish maqsadida yaratilgan bo‘lib, mazkur maktabning hududi yaxlit kampusdan iborat. Maktabning alohida-alohida binolarida (direktorlari alohida) boshlang‘ich ta’lim va o‘rta ta’lim o‘quvchilari o‘qitiladi. Maktabda 3 ta katta (har biri kutubxona 300 m2 cha) kutubxona mavjud bo‘lib, fondi 100 mingdan ortiq. Kutubxonada kitoblarga buyurtmani robot shakllantiradi va kitobxonga xizmat ko‘rsatadi. Kutubxonada yaratilgan sharoitlar havas qilgulik, qulay.

Maktab sportga alohida e’tibor beradi, turli nufuzli musobaqalarni o‘tkazish mumkin bo‘lgan juda katta zamonaviy stadioni, sport zallari mavjud. Stadionga minglab tomoshabinlar sig‘adi.

Shuningdek, maktabda Xitoy tabiati imitatsiya qilingan, o‘simliklar va jonivorlar mulyajlaridan foydalanib, haqiqiyga maksimal yaqin muzey qilingan. O‘quvchilar uchun turli o‘simliklarni ekish, parvarishlash va o‘stirishga mo‘ljallangan laboratoriya mavjud bo‘lib, tabiiy fan, biologiya darslari, to‘garaklar shu yerda tashkil etiladi.

Robototexnikani rivojlantirish xonasi, konstruksiyalash, modellashtirish (samolyot, kemalar, tanklar, avtoulovlar va boshqa texnikalar maketlarini yig‘ish, konstruksiyalar bilan ishlash xonasi, STEAM ta’lim xonasi, Hayot saboqlari (oziq-ovqat va yeguliklar tayyorlash xonasi, tikuv xonasi, barchasi alohida) kabinetlari, moliyaviy savodxonlik xonasi, tarix va xitoy o‘yinlarini o‘rganish (xitoy shashkasi va boshqalar) xonalari mavjud.

Maktab telestudiyasi, radiostudiyasi (jurnalistik sifatlar shakllantiriladi) va aktyorlikni rivojlantiruvchi maxsus xona, raqs va kalligrafiyani o‘rganish xonalari bor. Fan kabinetlari eng zamonaviy o‘quv vositalari bilan ta’minlangan, har birida kitoblar javonlari to‘ldirilgan.

Maktab o‘quvchilarini hayotga tayyorlash masalasi pedagoglar diqqati markazida va har qanday o‘quv jarayonini fanlararo integratsiyani ta’minlagan holda tashkil etish uchun o‘zaro hamkorlik kuchli yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mahoratli o‘qituvchi – malakali millat, malakali millat – qudratli mamlakatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida’’gi 11.09.202- yildagi PF-158-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2022-yildagi PF-60-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 12.09.2023-y. 3508 -V-son Qarori.

Сарвар АШУРОВ,
Научно-исследовательский институт изучения проблем и определения перспектив народного образования имени А. Авлони, магистрант

ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО – ОСНОВА КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

Annotatsiya

Maqolada ta'lim bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash, zamonaviy iqtisodiy tizimda biznes va davlat o'rtasidagi munosabatlar, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, Klaster modelining dolzarbligi, ta'lim klasterlarini yaratish masalalari batafsil ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida ta'lim klasterlarining omillari, o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim klasterlarining dizayni va elementlari, ta'lim klasterini yaratish va ishlash uchun resurslar, ta'lim klasterini tashkil etish orqali maktab ta'lim muhitidagi ijobiy tashkiliy va pedagogik o'zgarishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Raqobatbardoshlik, ta'lim bozori, biznes, davlatlar, zamonaviy iqtisodiy tizim, davlat-xususiy sheriklik, Klaster modeli, ta'lim klasteri, omillar, xarakterli xususiyatlar, xususiyatlar, sheriklik, dizayn, resurslar, faoliyat, tashkiliy va pedagogik o'zgarishlar, ta'lim muhiti.

В статье подробно рассматриваются вопросы обеспечения конкурентоспособности на образовательном рынке, отношения бизнеса и государства современной экономической системе, развитие государственно-частное партнерство в области образования, актуальность кластерной модели, создание образовательных кластеров. Также, приводятся факторы, характерные особенности и черты образовательных кластеров на основе государственно-частного партнерство, проектирование и элементы образовательных кластеров, ресурсы для создания и функционирования образовательного кластера, положительные организационно-педагогические изменения в образовательной среде школы посредством организации образовательного кластера.

Ключевые слова. Конкурентоспособность, образовательный рынок, бизнес, государства, современная экономическая система, государственно-частное партнерство, кластерная модель, образовательный кластер, факторы, характерные особенности, черты, партнерство, проектирование, ресурсы, функционирования, организационно-педагогические изменения, образовательная среда.

The article examines in detail the issues of ensuring competitiveness in the educational market, the relationship between business and the state in the modern economic system, the development of public-private partnership in the field of education, the relevance of the cluster model, the creation of educational clusters. The article also provides factors, characteristic features and features of educational clusters based on public-private partnership, design and elements of educational clusters, resources for the creation and functioning of an educational cluster, positive organizational and pedagogical changes in the educational environment of a school through the organization of an educational cluster.

Key words. Competitiveness, educational market, business, states, modern economic system, public-private partnership, cluster model, educational cluster, factors, characteristic features, traits, partnership, design, resources, functioning, organizational and pedagogical changes, educational environment.

Во всем мире отношения бизнеса и государства являются мощным источником развития современной экономической системы. В последнее десятилетие наблюдается устойчивый рост установления партнерских отношений бизнеса и государства, подкрепленных обоюдными мотивационными установками, обусловливающими возможности эффективного взаимодействия. Зарубежный и отечественный опыт показывает, что успешное социально-экономическое развитие государства не может осуществиться без взаимодействия всех его участников: бизнеса, государства и общества, то есть без реализации государственно-частных проектов. Неслучайно, что в последние годы активно развивается государственно-частное партнерство в области образования.

С начала XXI века проектирование различных моделей системы школьного образования становится все более востребованным современным социумом. В сегодняшнем мире практически невозможно найти готовые рецепты, использование которых позволит школе наладить собственную эффективную систему взаимодействия с учеником, учителем, семьей и обществом в целом.

Исследуя большое количество источников – как отечественных, так и зарубежных – касающихся развития государственно-частного партнерство в сфере образования, опираясь на большой статистический материал, мировая практика показывает, что наиболее активно государственно-частные партнерства развиваются в инфраструктурных отраслях, в том числе в отраслях социальной инфраструктуры, к которым относится образование.

В основе возникновения и успешного функционирования национальной инновационной системы, в том числе в образовании, лежит кластерный подход. Он представляет собой направление в науке и практике, связанное с поиском и реализацией новых возможностей развития общества, повышения его благосостояния и конкурентоспособности посредством деятельности по созданию и управлению кластерами.

В наиболее развитых странах государственно-частное партнерство гораздо чаще, чем в каких-либо других областях, используется в образовании и здравоохранении, в связи с необходимостью активного взаимодействия государства и бизнеса при разработке и реализации масштабных программ и проектов, направленных на решение актуальных социально-экономических проблем, причем ключевыми достоинствами такого партнерского сотрудничества является привлечение дополнительных финансовых средств и других ресурсов, повышение гибкости и эффективности управления, уменьшение рисков, получение дополнительных гарантий.

Анализ понятия ‘‘государственно-частное партнерство’’ необходимо начинать с общего определения ‘‘партнерство’’. В политическом словаре ‘‘партнерство’’ понимается как ‘‘форма сотрудничества, участники которой отдают себе отчет в ограниченности объединяющих их целей, интересов, задач, в наличии или возможности возникновения между ними серьезных расхождений, конфликта интересов и, как следствие, прекращения отношений партнерства; в бизнес-словаре партнерство рассматривается как форма организации компании, фирмы, которая создается на основе договора между партнерами, в котором оговариваются их права, обязанности, ответственность и т.д.; в экономическом словаре партнерство – одна из важнейших юридических форм организации предприятия. Партнерство создается на основе договора, которым регулируются права и обязанности пайщиков (партнеров), порядок возмещения общих расходов и распределения прибыли, сроки деятельности партнерства, условия его роспуска и т.д.’’. В толковом словаре партнерство понимается как ‘‘добровольное соглашение о сотрудничестве между двумя или более сторонами, в котором все участники договариваются

работать вместе для достижения общей цели или выполнения определенной задачи и разделять риски, ответственность, ресурсы, правомочность и прибыль’’.

Каждое партнерство / сотрудничество преследует как общие цели, так и индивидуальную выгоду. На современном этапе развития многие бизнесмены стараются сделать свой бизнес социально ответственным, т.е. ориентированным в том числе на общественное благо и пользу. Таким образом, частный сектор экономики принимает участие в реализации проектов социальной сферы, а ответственность за данный сектор несет государство.

Государственно-частное партнерство является неотъемлемой частью сильного, развивающегося современного государства. Существует множество определений государственно-частного партнерства. Всемирный банк даёт наиболее общее определение государственно-частного партнерства: государственно-частное партнёрство – это соглашение между публичной и частной сторонами по поводу производства и оказания инфраструктурных услуг, заключаемое с целью привлечения дополнительных инвестиций и, что ещё более важно, как средство повышения эффективности бюджетного финансирования.

Таким образом, кластер как группа организаций и видов деятельностей - экономический феномен, позволяющий создавать инновационный продукт и благодаря этому повышать свою конкурентоспособность, это мощный стимул национального развития. Соответственно кластерный подход можно определить как направление в науке и практике, связанное с поиском и реализацией новых возможностей развития общества, повышения его благосостояния и конкурентоспособности посредством деятельности по созданию и управлению кластерами.

Государственно-частного партнерства реализуется за рубежом в сфере образования по таким направлениям, как образовательные ваучеры от предприятий и стипендии; частное управление государственными школами; участие частного сектора в материально-техническом обеспечении образовательного процесса; контракты на предоставление вспомогательных профессиональных услуг. Вышеперечисленные направления государственно-частного партнерства в образовании актуальны тем, что они несут много преимуществ. Они, во-первых, отслеживают эффективное распределение инвестиций; во-вторых, при тесном сотрудничестве делятся опытом; в-третьих, предоставляют возможности государству удовлетворять новый спрос и облегчают процесс внедрения инноваций в обучение.

Государственно-частное партнерство можно рассматривать как инструмент для решения таких задач современного образования, как получение образования детьми с различными образовательными потребностями; объединение и привлечение средств для улучшения качества обучающих программ; обеспечение условий для психофизиологической безопасности учащихся.

Возможность ускорения социально-экономического развития. Чаще всего элементами государственно-частных партнерств выступают социально весомые институты и инфраструктура, уменьшение временного интервала между выявлением необходимости создания нового объекта и реальным его воплощением становится реальным и значимым. В связи с этим государственно-частное партнерство может стать самым рациональным решением, позволяющим реализовать перспективные проекты через привлечение частного капитала, как схемы финансового сотрудничества. Это дает дополнительное преимущество государственно-частному партнерству в виде сокращения воздействия на бюджеты через их более рациональное освоение.

Государственно-частное партнерство дает возможность привлечения капитала частных лиц к объектам социальной инфраструктуры, что дает возможность рационализации государственных инвестиций за счет грамотного распределения

во времени финансового потока, который рассчитан на конкретный период действия соглашения.

Внедрение государственно-частного партнерства даст возможность переориентирования на предоставление качественных услуг населению, что позволит решить многие проблемы, реализовать программы развития. Возможно вливание инновационных технологий и современных методов управления в государственные компании.

Увеличение реализованных проектов с высоким уровнем эффективности. Это возможно благодаря более качественному отбору предлагаемых проектов с учетом нужд населения и привлечения управленческого опыта частного партнера.

Минимизация рисков и получение синергического эффекта. Синергический эффект взаимодействия государственных органов и частного сектора дает возможность переноса рисков проекта на каждого партнера, исходя из их возможности управления ими. То есть происходит перераспределение ответственности в рамках проекта на частного партнера в рамках всего цикла проекта.

Повышение качества услуг. Государственно-частное партнерство через введение инновационных технологий и методов управления создает более высокие управленческие стандарты, что существенно влияет на качество оказываемых услуг населению.

Ослабление коррупционных действий и незаконной практики на всех этапах реализации проекта. Государственно-частное партнерство в рамках своей деятельности юридически закрепляет распределение прав и обязанностей сторон, что обеспечивает выполнение проектов в соответствии со сметой и графиком, исключая непрозрачность конкурсных процедур и антикоррупционных действий среди чиновников.

Государственно-частное партнерство предусматривают сотрудничество государственного и частного секторов с целью реализации долгосрочных инвестиционных проектов в сфере дошкольного и школьного образования на основе добровольного объединения ресурсов и распределения доходов или неимущественных выгод, расходов и рисков.

Для правильного применения инструмента, такого как государственно-частное партнерство, важно понять механизм, то есть совокупность всех форм и моделей реализации в практике. В процессе эволюции и развития государственно-частного партнерства сложилось много схем по взаимодействию бизнеса и государства.

Использование механизмов государственно-частного партнерства в образовании позволяет обеспечить:

– расширение рынка и усиление добросовестной конкуренции на рынке образовательных услуг;

– апробирование новых для образовательных структур организационно-правовых форм сотрудничества с бизнесом;

– выработку предложений по дальнейшему совершенствованию нормативно-правовой базы реформирования образовательных учреждений;

– тиражирование передового опыта; отработку инструментов многоканального финансирования;

– развитие взаимодействия образовательных учреждений с другими социальными институтами;

– совершенствование системы управления в сфере инновационной деятельности путем обработки содержания и методик администрирования, подготовки повышения квалификации управленческих специалистов.

Рассматривая инструменты финансового обеспечения государственно-частного партнерства в сфере образовательных услуг, выделим следующие важные

преимущества: во-первых, привлечение инвестиций частных лиц для финансовой поддержки обновления инфраструктуры учебных заведений снижает нагрузку с государственного бюджета, которому необходимо учесть расходы на выполнение запланированных проектов лишь в течение 2–3 лет. Во-вторых, образовательная сфера – это тот сегмент, в котором экономические выгоды могут напрямую исходить из социальной ответственности частного бизнеса.

В настоящее время конъюнктура рынка образовательных услуг не соответствует конъюнктуре рынка трудовых ресурсов, что приводит к необходимости разрабатывать новые механизмы взаимодействия сферы предоставления образовательных услуг со сферой производства. При этом важно актуализировать взаимодействие образовательных учреждений с организациями и предприятиями различных отраслей и направлений деятельности для продвижения новых технологий в производство и управление, а также с целью подготовки и повышения квалификации кадров для инновационной деятельности.

Бизнес сегодня призван и активно способствует развитию социальных инвестиций в области образования. В наше время основным содержанием социальной ответственности компаний является взаимодействие их с образовательными учреждениями, их структурными подразделениями, учебными и научными коллективами, расширение присутствия компаний как в самом образовательном процессе, так и в управляющих органах. Если раньше частный сектор ограничивался лишь благотворительной помощью, спонсорством или просто пожертвованиями, то сегодня он ориентирован на активное участие в жизни учебного заведения, его развитие, совершенствование материальной базы, в том числе и в рамках государственно-частного партнерства.

В настоящее время мировой и отечественный опыт говорит о том, что государственно-частное партнерство в области образования развивается все более интенсивно. Государство и бизнес заинтересованы в данном взаимодействии при решении наиболее сложных задач в социально-экономической сфере.

В настоящее время, к сожалению, государственно-частное партнерство в образовании зачастую ограничивается строительством и ремонтом зданий и сооружений образовательных учреждений, реализуемых в рамках государственных закупок. Очень медленно развивается государственно-частное партнерство в области образовательных услуг, в том числе, управления зданиями образовательных учреждений, обеспечения материальными средствами, оборудованием образовательных учреждений и т.п.

Здесь можно выделить следующие основные причины. Во-первых, не сформирован спрос на государственно-частное партнерство со стороны образовательных учреждений, во-вторых, отсутствуют предложения со стороны частного сектора. Большим препятствием в развитии государственно-частного партнерство в образовании является и слабая нормативно-правовая база в данной сфере, включая финансовые механизмы регулирования этой деятельности.

Законодательство еще несовершенно и не соответствует общепринятым развитым зарубежным инструментам, доказавшим свою эффективность. В нем часто можно встретить неопределенность формулировок и базовых понятий, противоречивость некоторых законодательных актов, отсутствуют механизмы реализации законов и иных законодательных актов. Сложившееся положение с нормативно-правовой базой государственно-частного партнерство в сфере образования во многом объясняется тем, что в настоящее время в педагогической и экономической литературе нет единого определения понятия государственно-частного партнерства в данной сфере.

Как показывает анализ, потенциал государственно-частное партнерство в сфере образования используется совершенно недостаточно. Это подтверждается незначительным количеством проектов государственно-частного партнерство, а также образовательные учреждения, которые активно взаимодействуют с субъектами частного сектора.

В этих условиях необходимо: во-первых, расширять практику использования механизмов государственно-частного партнерство, которые могут быть реализованы без изменения действующей нормативно-правовой базы; во-вторых, развивать перспективные инновационные формы и механизмы государственно-частного партнерство; в-третьих, совершенствовать нормативно-правовую и нормативно-методическую базы, регламентирующие применение государственно-частного партнерство в сфере образования.

В отличие от других отраслей, государственно-частное партнерство в образовании не имеют стандартных видов деятельности. Они варьируются в зависимости от потребности различных секторов образования:

– предоставление услуг по управлению образовательным учреждением;

– строительство учебных заведений;

– ремонт и реконструкция;

– обеспечение информационных технологий;

– рационализация помещений;

– организация питания в учебных заведениях и других социальных услуг;

– оснащение оборудованием для занятий искусством, музыкой и спортом в учреждениях образования.

На основе изучения и обобщения опыта зарубежных стран, учитывая действующее законодательство, нами предлагается одна из возможных классификаций партнерств по формам в сфере образования, каждая из которых может состоять из нескольких видов или типов. Среди самых популярных механизмов такого сотрудничества можно выделить:

– концессионные соглашения в отношении объектов образования;

– контракты (на выполнение работ, на управление, на оказание технической помощи, сервисные контракты);

– смешанные договоры (договор на выполнение сервисных услуг, образовательный франчайзинг);

– сдача объектов недвижимого имущества в аренду для аутсорсинга неосновных видов деятельности (информационное, коммунально-техническое, социальное обеспечение и другие);

– механизмы государственно-частного партнерство в области управления содержательным компонентом образования (создание образовательных центров или иных образовательных структур, направленных на осуществление программ в области подготовки или переподготовки кадров, совместные образовательные проекты);

– механизмы государственно-частное партнерство в области научно-исследовательской и научно-практической деятельности (создание совместной научной лаборатории для осуществления научной или научно-технической деятельности;

– создание институциональных структур, содействующих развитию деятельности научно-исследовательских центров, технопарков, центров трансфера технологий, ресурсных центров).

Создание образовательного кластера повлечёт за собой организационно-педагогические изменения в образовательной среде школы:

– индивидуализация образовательного процесса: выбор учащимися профиля обучения, элективных курсов и предметов, форм обучения, определение направлений творческой, исследовательской и проектной деятельности, увеличение доли самостоятельной работы;

– расширение пространства социальной реализации: участие в социально значимых проектах технопарка школы и всего кластера, предпрофессиональные стажировки и практики;

– организация пространства рефлексии и мыследеятельности: тьюторские консультации, работа с портфолио, исследование образовательных ресурсов, участие в методологических семинарах и деловых играх;

– взаимодействие со школами, учреждениями профессионального образования и науки, фирмами, предприятиями;

– привлечение к образовательному процессу обучающихся высококлассных специалистов из сферы производства, бизнеса.

Таким образом, образование на данном этапе развития без взаимной интеграции и тесного взаимодействия государства и бизнеса теряет дееспособность и становится все менее конкурентоспособным. Механизмы государственно-частного партнерство способствует диверсификации экономики в соответствии со стратегическими целями, результатом чего служат своевременность и повышение эффективности и качества предоставляемых услуг в сфере образования. Понимание сути и практическая реализация кластерного подхода создают необходимые предпосылки для поиска новых ресурсов и возможностей развития системы образования, повышения его качества и конкурентоспособности. Динамичное креативное развитие человеческого капитала предполагает формирование эффективного образовательного кластера. Он может обеспечить высокое качество человеческого капитала, в том числе для инновационной сферы, повысить при этом качество их подготовки.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 07.02 2017 г. УП №4947 ‘‘О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан’’.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 21.09.2018 г. ‘‘Стратегию инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы’’.

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 29.01.2022 г. ‘‘О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы’’.

4. Указ Президента Республики Узбекистан от 15.09.2017 г. ‘‘О мерах по дальнейшему развитию негосударственных образовательных услуг’’.

5. Закон Республики Узбекистан ‘‘О государственно-частном партнерстве’’.

6. Айрапетян, М.С. Зарубежный опыт государственно-частных партнерств / М.С. Айрапетян // Рынок ценных бумаг. – № 1 (352). – 2008. – С. 32.

7. Бабич Л.В. Частно-государственное партнерство в образовании: модель управления человеческим капиталом / Л.В. Бабич, Г.В. Леонидова // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2012. – №1(19). – С. 39-50.

8. Белицкая, А.В. Правовое регулирование государственно-частного партнерства / А.В. Белицкая. – М.: Статут, 2012. – С. 191.

9. Кузакова, О.А. Государственно-частное партнерство как механизм развития образования и науки / О.А. Кузакова, П.Д. Шимко // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2010. – №2. – С. 77.

10. Хайкин, В.Л. Руководство по масштабному внедрению ГЧП в образование / В.Л. Хайкин. – М.: МАКС-Пресс, 2010 – С. 102.

Надежда ЦАЙ,
"Oriental University" негосударственное образовательное учреждение, магистрант

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ (Психологический аспект)

Annotatsiya

Maqolada shaxsni shakllantirish masalalari turli ijtimoiy-psixologik nazariyalar va yondashuvlar nuqtayi nazaridan batafsil tahlil qilingan. Psixologiyada shaxsni shakllanish bosqichlari, omillari keltirib o'tilgan. Shuningdek, shaxs xususiyatlarining tarkibiy qismlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Shaxs, psixologiya, ijtimoiy-psixologik nazariyalar, yondashuvlar, shaxsni shakllanish bosqichlari, omillar, shaxs xususiyatlari.

В статье подробно анализируются вопросы формирования личности с позиций различных социально-психологических теорий и подходов. Перечислены этапы, факторы формирования личности в психологии. Также раскрыты компоненты личностных качеств.

Ключевые слова. Личность, психология, социально-психологические теории, подходы, этапы формирования личности, факторы, характеристики личности.

The article analyzes in detail the issues of personality formation from the standpoint of various socio-psychological theories and approaches. The stages and factors of personality formation in psychology are listed. The article also reveals the components of personal qualities.

Key words. Personality, psychology, socio-psychological theories, approaches, stages of personality formation, factors, personality characteristics.

В последние десятилетия усиливается тенденция к интегрированному, целостному рассмотрению личности с позиций разных теорий и подходов. Современные ученые утверждают, что человек не отрывается от социального опыта и социальных механизмов регуляции поведения, а вбирает их в себя, строя на этой основе свой внутренний мир. Обладая внутренним миром, человек становится носителем социально выработанных форм поведения и накопленного опыта. Личность – это способность человека выступать автономным носителем общечеловеческого опыта и исторически выработанных человечеством форм поведения и деятельности. Личность – это человеческий индивид, взятый в аспекте его социальных качеств (взгляды, способности, потребности, интересы, моральные убеждения и т. д.). Она представляет собой динамичную, относительно устойчивую целостную систему интеллектуальных, социально-культурных и морально-волевых качеств человека, выраженных в индивидуальных особенностях его сознания и деятельности, с неповторимой системой отношений конкретного человека к миру, с его способностями социального взаимодействия. Как личность человек характеризуется уровнем развития сознания, как части общественного сознания, которое, в свою очередь, определяется уровнем развития данного общества.

В психологии существует достаточно прочная теоретическая традиция различения двух относимых к человеку понятий – понятий индивида и личности, что составляет необходимую предпосылку психологического анализа личности.

Формирование личности в психологии рассматривалось и изучалось долгие годы. Свои теории выдвигали как отечественные, так и зарубежные психологи. В целом, все они подразумевают прохождение человеком определенных этапов в

процессе взросления и жизнедеятельности. Чтобы добиться настоящего роста и стать зрелой личностью, необходимо знать об особенностях каждого этапа. Эти знания помогут подкорректировать те или иные способности, что немаловажно в современном мире.

Во время становления личности индивид приобретает качества, сформировавшиеся у людей в процессе исторического развития. Но нужно понимать, что вероятность появления у человека конкретного качества зависит от целого ряда факторов.

1. Воспитание в детстве и самовоспитание в зрелости.

Ключевую роль в формировании личности в психологии принято отводить семье, поскольку именно на этот социальный институт возложена основная воспитательная функция. Как правило, из полноценных и благополучных семей выходят гармонично развитые личности. Тогда как нерешенные в детском возрасте проблемы затрудняют дальнейший процесс развития индивида. Все мы изначально входим в общество и действуем в его рамках, придерживаясь принципов, которые были заимствованы нами от матери и отца. Дети перенимают стили, модели поведения, роли, стратегии, тип мышления, выражение эмоций у тех взрослых, которые занимают важное место в их жизни. От родителей ребенок неосознанно наследует ценности и идеалы, положительные и отрицательные качества. Так, к последним могут относиться тревожность или мнительность. Со временем услышанные когда-то от родителей наставления воспринимаются как внутренний голос. Постепенно формируются моральные качества: совесть, честь, нравственность, но нужно понимать, что это происходит не всегда. Каждый человек использует полученные в детстве знания и вырабатывает собственные представления о поведении, допустимом с социальной точки зрения.

2. Генетика.

Когда речь идет о генетике, роль семьи в формировании личности столь же важна, как и в процессе воспитания. Ведь некоторые психические заболевания передаются именно между родственниками. Тогда как референтные группы родных, друзей, коллег и других людей из близкого окружения оказывают социальное влияние на личность.

3. Опыт жизни.

Любое событие отражается на внутреннем мире человека, наиболее серьезный след оставляют знаковые происшествия. Нередко индивидуальный опыт влияет на дальнейший ход жизни. Дело в том, что в процессе формирования и развития личности в психологии происходит воспитание силы воли, характера, способностей, поиск мотивации.

4. Менталитет и культура.

Менталитет или “характер народа” во многом зависит от окружающей среды, климата, в условиях которых обычно живет группа людей. Культура, нравственные ценности, принятые в обществе правила прививаются с рождения и ведут к формированию личности. Поведение представителей одних культур более развязно, такие люди не скрывают свои естественные чувства, в то время как другим приходится сдерживать себя, жестко следовать установленным правилам поведения.

Все перечисленные факторы влияют на человека при каждом соприкосновении с непривычной социокультурной средой. На самом деле, формирование личности представляет собой изменения в результате вхождений в новую социальную общность. Индивидуальность может проявляться по-разному в конкретной среде – все зависит от того, насколько успешно индивид преодолевает три фазы развития.

1. Адаптация. Необходимо принять нормы и формы деятельности, используемые в конкретной социальной группе. Иными словами, на данном этапе развития индивид делает все, чтобы стать похожим на окружающих.

2. Индивидуализация. Теперь к человеку приходит понимание того, что он такой же, как все. Поэтому он старается найти свои особенности, стремится к персонализации.

3. Интеграция. Данная фаза влияет как на формирование отдельной личности, так и на развитие общества в целом, в рамках которого действует человек. Последнему необходимо согласовать свою индивидуальность с окружением, проявлять только те отличительные качества, которые способны принести людям пользу – именно в этом заключается развитие индивида.

Если личность не прошла через эти фазы, ее принятие обществом оказывается невозможным. То есть происходит дезинтеграция человека – окружающие вытесняют его из своего круга или он изолируется по своей воле. В результате формирование личности останавливается и даже нередко поворачивается вспять. Возможна деградация человека, если он переходит к более ранним шагам собственного развития.

Принято выделять следующие этапы формирование личности в психологии:

• Желание общения либо наоборот отстранения от людей, что закладывается еще в первый год жизни. Здесь в основу ложатся контакты с взрослыми, построенные на эмоциях.

• Обретение самостоятельности и уверенности – проявляется в ребенке уже к трем годам за счет предметной деятельности, позволяющей познакомиться с окружающими малыша вещами.

• Активное изучение мира, благодаря свойственной ребенку любознательности. На данном этапе, который длится до 13 лет, развиваются коммуникативные, трудовые навыки. Они тренируются за счет сюжетно-ролевых игр, в процессе учебы.

• Выбор жизненных ценностей, профессии должно завершиться к 20 годам. Здесь ключевую роль играют учебно-профессиональная деятельность.

• Воплощение планов, реализация собственных возможностей, получение удовольствия от результатов работы, воспитание детей– длится до 60 лет.

• Заключительным этапом считается углубление в творчество, анализ и переосмысление жизни, поступков.

Личность и ее формирование не рассматривается в психологии как статичная структура. Наоборот, считается, что индивид в течение всей жизни проходит целый ряд этапов становления.

Формирование личности в психологии рассматривается как поиск человеком своего ‘‘Я’’, раскрытие внутреннего потенциала. В результате можно говорить об активном, творческом, непосредственном, честном индивиде, способном нести ответственность, свободном от шаблонов мышления, мудром, готовом принимать себя и окружающих со всеми недостатками.

На сегодняшний день личность формируется в основном за счет социального окружения. Интересно, что традиционные формы воздействия претерпели некоторые изменения – теперь не только задействуется непосредственное воспитание, но и существенную роль приобретает влияние интерактивной среды взаимодействия.

Использованная литература:

1. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq. 2000. - 111 b.

2. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T., Fan.2003.

3. Маслоу А. Мотивация и личность. – М., 1998.

4. Петровский А. В., Ярошевский М. Г. Основы теоретической психологии. – М., 1998.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G'ayrat SHOUMAROV, Ulug'bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO'MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA , Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ''Xalq ta'limi'' ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Xayitova Guljahon Sayidaliyevna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2024.